Abu Yahyo

AYOLLARGA OID 100 HADIS



بسم الله الرحمن الرحيم

Ayollarga oid 100 hadis

Zaytun nashriyoti
2025 (1447)-yil

Muqaddima

Alloh taolodan yordam so‘rab ushbu kitobni boshlaymiz.
Bu kitobimiz, avvalo, ayollar uchun yozilgan. Biroq, albatta, erkaklar ham bundan behojat qolmaydi. Chunki shariatdagi ahkomlar aslida erkak yoki ayolni tanlamaydi - hamma Allohning bandasi. Alloh taolo Qur’onda aytganidek:

بَعْضُكُم مِّنْ بَعْضٍ

Ba’zingiz ba’zingizdansizlar.

(Oli Imron 195, so’nggi qismi)

Oyatda bayon qilinganidek, aslida barchaning ildizi bir zot - yagona insonga borib taqaladi. Shunga qaramay, ushbu kitobda ko‘proq e’tibor ayollarga qaratilgan. Chunki ayol kishining o‘ziga lozim bo‘lgan ahkomlarni bilishi nihoyatda muhim, ayniqsa bugungi zamonda.

Zero, bugun islomga qarshi ochilgan urushlar sanog‘siz. Xususan, iqtisodiy bosimlar, ijtimoiy zarbalar va eng xavflisi - axborot maydonidagi urushlar. Filmlar, seriallar hamda turli ijtimoiy tarmoqlar orqali qilinayotgan hujumlarning katta qismi bevosita ayollarni nishonga olgan.

Buning muqobilida esa musulmonlarda - ham erkaklarda, ham ayollarda - ilmiy tahsil zaiflashgan. Ayniqsa, ayollar orasida bu yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Oilalarda to‘g‘ri tarbiya yo‘qligi, chiroyli o‘rnak bo‘ladigan ayollarning kamayib borishi esa bu muammoni yanada og‘irlashtiradi.

Bunga qo‘shimcha, ayollarni dindan chalg‘ituvchi va vaqtini behuda o‘tkazishga sabab bo‘layotgan omillar ham nihoyatda ko‘p. Shuningdek, erkaklarda ham omonatdorlik, ayol kishini to‘g‘rilash va tarbiyalash hislatlari zaiflashib bormoqda. Shu boisdan ayollarning ilmiy tahsil olishi juda ham muhim masaladir.

Erkaklarning ayrimlarida onasi yoki opasiga nisbatan e’tiborli bo‘lishini ko‘rasiz. Biroq xotiniga yoki qiziga kelganda, beparvolik qiladi. Boshqalarda esa buning aksi bo‘ladi: qiziga yoki xotiniga haddan ziyod qattiqqo‘l, ustidan doimiy nazoratchi - kiyim-kechagi, yurish-turishi, qayerga borayotgani, nima qilayotgani haqida keskin talabchan. Ammo opasi, singlisi yoki onasiga kelganda bee’tibor. Shu sababli ham yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu kitob asosan ayollarga bag‘ishlansada, erkaklar ham albatta bu mavzulardan ilm olishi zarur. Ayollarga oid hadislar va masalalarni erkaklar ham ma’lum darajada o‘rganmog‘i lozim. Zero, ayol - erkakning onasi, erkak shu ayoldan dunyoga kelgan.

“Ayol - kelajak avlodni tarbiyalovchi”, “Ayol - ummatlar madrasasi” deb bejiz aytilmagan. Chunki ayol, vaqti kelganda, ona bo‘ladi; opa, singil bo‘ladi; xotin, qiz bo‘ladi.

*__Ayol__ - zamon musibatlarida tayanch bo‘ladi. Mana, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamga birinchi vahiy kelganda, ul zotga dastak bo‘lgan zot - ayol, ya’ni Xadicha onamiz bo‘lganlar.

*__Ayol__ - dunyoda yupanchiq bo‘ladi. Madina hayotida ham ko‘p hollarda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning qalbiga yupanch bergan zot - Oisha onamiz edilar.

Ayol sakinat, hotirjamlik. Ayol bu jamiyatning yarmi. Shuning uchun islomda aytilgan:

وَلَهُنَّ مِثْلُ ٱلَّذِى عَلَيْهِنَّ بِٱلْمَعْرُوفِ ۚ وَلِلرِّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ ۗ وَٱللَّهُ عَزِيزٌ حَكِيمٌ

Ayollarning erkaklar ustida (o‘z haq-huquqlari) bor bo‘lgani kabi, erkaklarning ham ayollar ustida (o‘z haqlari) bor. (Lekin) erkaklar ayollar ustida bir daraja (ustunlikka) egadirlar.

(Baqara, 228 bir qismi)

Islomda ayol va erkakning tengligi shundaki, ayol zimmasida qanday majburiyat bo‘lsa, unga mos ravishda huquqlari ham berilgan. Faqatgina erkakka bir daraja yuqorilik berilgan, chunki u boshqaruvchidir. Shu boisdan ham islomda ayollarga ko‘rsatilgan izzat-ikromni boshqa biron tuzumda topish mumkin emas.

*__Ayol__ - jamiyatning qalbidir. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam hadislarida marhamat qilganlaridek:

إِنَّ فِي الْجَسَدِ مُضْغَةً، إِذَا صَلَحَتْ صَلَحَ الْجَسَدُ كُلُّهُ، وَإِذَا فَسَدَتْ فَسَدَ الْجَسَدُ كُلُّهُ، أَلَا وَهِيَ الْقَلْبُ

Rosululloh sollollohu alayhi va sallam: “Darhaqiqat, inson jasadida bir parcha go‘sht bor. Agar u sog‘lom bo‘lsa, butun tana sog‘lom bo‘ladi. Agar u buzuq bo‘lsa, butun tana buzuq bo‘ladi. Ogoh bo‘ling! U - qalbdir.”

(Buxoriy va Muslim. Abu Hurayra rivoyati)

Ayol ham jamiyatning qalbiga o‘xshaydi. Agar u buzilsa - jamiyat buziladi, agar u tuzalsa - jamiyat ham tuzaladi. Shu sababdan ayol haqida: “U ham zaif, ham quvvatli” deb ta’rif berilgan.

Ya’ni, jismoniy jihatdan qaralsa, u zaifdir. Shu boisdan ham ayol “zaifa” deb ataladi. Biroq aslida unga berilgan qudratli kuchlar mavjud. Masalan, ayol erkakni o‘ziga jalb qila oladi, uni fitnaga solishi yoki hatto o‘z yo‘liga yurgizib qo‘yishi mumkin. Demak, bu jihatdan qaralsa, u quvvatlidir.

Shuning uchun ayol haqida “u ham sodda, ham pishiq” deyiladi. Ba’zi masalalarda ayol sodda bo‘lib, ko‘p narsaga aqli yetmaydi, aldanishi oson. Ammo boshqa jihatlarda u nihoyatda pishiq, sinchkov va o‘ta zukko bo‘lib chiqadi.

إِنَّ كَيْدَكُنَّ عَظِيمٌ

Albatta, siz (ayollarning) makringiz og’irdir.

(Yusuf, 28 bir qismi)

Ayol kishi haqida: “U ham sukut qiluvchi, ham balog‘at bilan so‘zlovchi” deyiladi. Ya’ni, shunday vaziyatlar bo‘ladiki, ayolning gapirmasligi, sukut saqlashi, ko‘p gapirib yuborishdan ham og‘irroq ta’sir qiladi.

Masalan, oilaviy hayotda xotin bir arazlab, indamay yursa - u hech nima demasa ham eri uyda tinch yasholmaydi. “Nega gapirmayapti? Kirsam ham, chiqsam ham sukutda, salom bersam ‘va alaykum’ deb qo‘yadi, xolos”, deb o‘ylaydi. Aslida esa ayol ana shu sukuti bilan o‘zining ko‘p arzlarini bildirib qo‘yadi. Haqiqiy ayol ham shunday bo‘ladi: u arzini baqirib-chaqirib, janjal qilib emas, balki sukuti bilan izhor etadi.

Shu boisdan aytiladi: “Ayolning bir tomchi ko‘z yoshi bilan doston-doston she’rlar yoziladi.” U gapirmaydi, biroq bir tomchi ko‘z yosh oqsa kifoya - butun bir olam ma’no ifoda etiladi.

Qadim arab shoirlari ham varaq-varaq she’rlar bitar edilar: “Nega mening mahbubam yig‘layapti?” deb. Ayolning bitta kulgusi esa xuddi bulutli osmon orasidan quyosh chiqib kelgandek taassurot uyg‘otadi. U kulganda, uyda kayfiyat ko‘tariladi, baxt va saodat hissi paydo bo‘ladi.

Shuningdek, ayolning birgina kiprik qoqishi bilan, puxta aqlli bir erkakning ham aqlini o‘g‘irlab qo‘yishi mumkin. Bu haqda ham Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam hadisda marhamat qilganlar:

مَا رَأَيْتُ مِنْ نَاقِصَاتِ عَقْلٍ وَدِينٍ أَذْهَبَ لِلُبِّ الرَّجُلِ الْحَازِمِ مِنْ إِحْدَاكُنَّ

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: "Men aql va din jihatidan zaif bo‘la turib, aqlli va dono erkakning aqlini olib qo‘yuvchi siz ayollardan boshqa hech kimni ko‘rmaganman" dedilar.

(Buxoriy va Muslim. Abu Sa’id al-Xudriy rivoyati)

Aql-farosatli, ilmli va “mana men” degan inson ham, kerak bo‘lsa, ayolning birgina kiprik qoqishidan aqlini yo‘qotishi mumkin. Shu boisdan ham Qur’onda zikr qilinganidek, hatto Yusuf alayhissalom Alloh taologa duo qilib:

قَالَ رَبِّ ٱلسِّجْنُ أَحَبُّ إِلَيَّ مِمَّا يَدْعُونَنِيٓ إِلَيْهِ ۖ وَإِلَّا تَصْرِفْ عَنِّى كَيْدَهُنَّ أَصْبُ إِلَيْهِنَّ وَأَكُن مِّنَ ٱلْجَٰهِلِينَ

“U (Yusuf) dedi: 'Ey Robbim! Meni chaqirayotgan narsalaridan (ya’ni ayollarning fitnasidan) ko‘ra zindon menga mahbubroqdir. Agar mendan ularning makrini nari qilmasang, ularga moyil bo‘lib qolishim va johillardan bo‘lishim mumkin.”

(Yusuf surasi 33)

Shu sababdan ham arablar hikmat sifatida shunday deydilar: “Bir ona bir erkakni odam qilish, ya’ni irodali va qat’iyatli inson qilib tarbiyalash uchun kamida yigirma yil vaqt sarflaydi. Ammo bir ayol kelib, yigirma daqiqaning o‘zida pishiq, dono erkakni ham irodasiz, ojiz odamga aylantirib qo‘yishi mumkin.” Ha, yigirma yil mehnatni buzish uchun yigirma daqiqa kifoya.

Bir erkakni bir ayolning yoniga yigirma daqiqaga qo‘yib bering, yigirma yil mehnat bilan yetishtirilgan erkakni ham yo‘ldan chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘pincha onalar o‘g‘illarini qizg‘anadi, rashk qiladi. Axir yigirma yil davomida ona uni ovqatlantirib, ichirib, qiynalib dunyoga keltirib, emizib, tarbiyalab katta qiladi. Lekin bir ayol keladida, yigirma daqiqada uni o‘ziga bog‘lab oladi, hatto kerak bo‘lsa onasiga qarshi qilib qo‘yadi.

Erkak mana shunday zaifdir. Jismonan kuchli bo‘lsa ham, ayrim masalalarda irodali bo‘lsa ham, ayolga kelganda zaiflashadi. Ayol esa shu jihatdan quvvatlidir.

Biroq ayolga shunday quvvat berilgan ekan, bu uning barcha narsada quvvatli degani emas. Ayrim masalalar borki, unda u zaifdir. Masalan, tuyg‘ularida. Ayol hissiyotchan, ta’sirchan, uni aldash oson.

Demak, quvvatlar insonlar orasida taqsimlangan: erkaklarda bir jihatdan kuch bo‘lsa, ayollarda boshqa jihatdan kuch mavjud. Erkaklarda ayrim zaifliklar bo‘lsa, ayollarda boshqa zaifliklar topiladi. Shuning uchun ham har ikki jins o‘zlaridagi quvvatni Haq yo‘lida ishlatishi, zaifliklari esa Haqdan aldanib qolishiga sabab bo‘lmasligi lozim. Asl vazifa ham shudir.

إِنَّ الْمَرْأَةَ إِذَا خَرَجَتْ اسْتَشْرَفَهَا الشَّيْطَانُ

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: "Albatta, ayol kishi uydan chiqqanida, shayton unga tikiladi (yoki uni ko‘rkamroq qilib ko‘rsatadi)” dedilar.

(Termiziy va Ibn Hibbon. Abdulloh ibn Mas’ud rivoyati)

Ayol ko‘chaga chiqqanida erkaklar unga ko‘z tikishidan avval, bilingki, eng avval unga shaytonning ko‘zi qadalgandir. Uydan chiqqan zahoti shayton unga nazar tashlaydi. Nega? Chunki shayton shunday deydi: “Men uni yasantirib, bezantirib, qaddi-qomatini ko‘rsatib chiqarayki, ko‘chada ketayotgan erkaklar mening tuzoqlarimga ilinib qolishsin.” Shu sababdan erkaklardan oldin ayolga shaytonning ko‘zi tushadi.

Ya’ni ayol - odamlarni buzg‘unchilikka boshlashda shaytonning vositalaridandir. Buning ortidan ayol shaytonning do‘stlari qo‘lidagi qurolga aylanib qolishi mumkin. Kim o‘zi bu shaytonning oshnalari? Ular - bugungi kunda dinga qarshi kurashayotgan inson shaytonlardir. Fitna va buzg‘unchilikni yoyayotganlar ham, ko‘pincha ayoldan foydalanadi.

Haqqa da’vat qilayotganlar ayoldan vosita sifatida foydalanmaydi. Lekin aksariyat buzg‘unchi toifalar o‘z niyatlariga ayollar orqali erishadi: avval ayolni yo‘ldan urishadi, so‘ng o‘sha ayol orqali erkakni ham halokatga olib kirishadi.

Tarix ham bunga guvoh. Masalan, “Barsiso” rohibining qissasi mashhur: u yillar davomida ibodat qilib yashagan edi, biroq oxir-oqibat ayol vasvasasi sabab kofir holida jon berdi. Yoki “Julayj obid” qissasini olaylik: ko‘p yillar ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan odamni birgina fohisha sabab sharmanda qilishdi, uni zinoda ayblashdi, hatto odamlar toshbo‘ron qilib o‘ldirishga yaqinlashdilar.

Ali roziyallohu anhu ham bir ayolning hiylasi sabab qatl qilindilar. Rivoyat qilinishicha, bir xavorij ayolga bir erkak sovchi bo‘lib borganda, u: “Mahrim - Ali ibn Abu Tolibni o‘ldirishingdir”, degan. Shu boisdan o‘sha erkak Alini o‘ldirdi. Demak, bu ham ayolning ta’siri bilan yuz bergan voqea.

Qancha do‘stlar, birodarlar ham ayol sabab urushib, bir-biridan ajralib qoladi. Bugungi kunda ham musulmonlarni sharmanda qilish ko‘pincha ayollar orqali amalga oshiriladi. Bir buzuq ayolni topib kelishadi, uni kim bilandir gaplashtirishadi, uchrashtirishadi, keyin buni yashirincha suratga olishadi, yozishmalarini qayd etishadi. So‘ng ana shu narsalardan foydalanib, tahdid qiladilar: “Biror og‘iz gapirginchi, sharmandangni chiqaramiz”, deb.

Mana, bugungi kunda imomlar va mullalarga qilinayotgan fitnalar ham aynan shu yo‘sinda. Ataylab ayollarni ularga yo‘llashadi, so‘ng ularni qo‘rquv ostida burnidan ip o‘tkazib, boshqarib olishadi. Birinchi maqsad - ularni shaytonning oshnalari chizib bergan yo‘ldan chiqarmaslik. Ikkinchi maqsad - odamlarda din va dindorlarga nisbatan nafrat uyg‘otish: “Mana, dindorlarning qilayotgan ishlari shudir”, degan ig‘volarni tarqatish.

Shu boisdan ham aytiladi: “Ayol - shaytonning tuzoqlaridan biridir.” Ana o‘sha tuzoq orqali erkaklar ilinishadi. Bunda jin shaytonlar ham, inson shaytonlar ham bir xil amal qiladi.

Tarix guvoh: ayol sababli imperiyalar ham quladi. Ba’zilar nomahram ayolga ilakishgani uchun, ba’zilar esa mahram bo‘lsa-da, xotinlarini davlat ishlariga aralashtirgani sabab inqirozga uchradi. O‘sha xotinlarni tashqaridan boshqarishar, natijada esa saltanatlar qulardi.

Salibiylar bilan mo‘g‘illar o‘rtasida ham ayollar vosita sifatida ishlatilgan. Bir-birining taxtini egallash uchun ular ayollardan foydalangan: salibiylar mo‘g‘illarga qiz berib, shu orqali hukmronlikni qo‘lga olishga harakat qilganlar.

Bu sirni jin shaytonlar ham, inson shaytonlar ham juda yaxshi biladilar. Shu boisdan biz, xususan musulmon ayollarga murojaat qilamiz: hech qachon inson shaytonlarining ham, jin shaytonlarining ham qo‘lida qurolga aylanib qolmaslik kerak.

مَا تَرَكْتُ بَعْدِي فِتْنَةً أَضَرَّ عَلَى الرِّجَالِ مِنَ النِّسَاءِ

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: "Men o‘zimdan keyin erkaklar uchun ayollardan ko‘ra kattaroq fitna qoldirganim yo‘q" dedilar.

(Buxoriy va Muslim. Abdulloh ibn Mas’ud rivoyati)

Bu yerda “ayollar” so‘zi umumiy ma’noda kelgan: nomahram ayollar ham, mahramlar ham, hatto insonning jufti haloli ham - o‘rni kelganda fitna bo‘lishi mumkin.

Qarang, insoniyatga qanchadan-qancha fitnalar yuborilgan: Dajjol fitnasi, mol-dunyo fitnasi va boshqa ko‘plab sinovlar. Ammo Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Erkaklar uchun ayollardan ko‘ra kattaroq fitna qoldirganim yo‘q” dedilar.

Chunki erkak kishi boshqa ko‘plab masalalarda kuchli va matonatli bo‘lishi mumkin. U Dajjolga qarab ham, kerak bo‘lsa: “Sen Dajjolsan!” deb ayta oladi. Lekin bir ayolga qarab “Sen ayolsan!” deya qarshi turadigan erkak juda ham kam topiladi.

Ya’ni, erkak ko‘pincha ayolga qarab: “Sen ayolsan, men senga hech qachon to‘g‘ri nazar bilan boqmayman” deya olmasligi tabiiy. Ayol bilan erkak orasida, albatta, bir fitna mavjud bo‘ladi.

Shuning uchun ham g‘arb kofirlari bu masalaning ahamiyati va xatarliligiga juda katta e’tibor berishadi. Ular musulmonlarni buzishda aynan shu omildan keng foydalanishadi. Hatto g‘arb siyosatchilaridan biri shunday degan: “Bir kosa may va bir ayol Muhammadning ummatiga minglab zambaraklar va tanklar qilolmaydigan ishni qiladi. Shuning uchun bu ummatni modda va shahvatlar muhabbatiga ko‘mib yuboringlar.”

Musulmon erkak kishi tabiatan bosqinga qarshi turishga intiladi. Masalan, mingta tank bostirib kelsa, har qanday erkak, xususan musulmon erkak: “Jang qilamiz!” deydi. Ammo uning qo‘liga bir kosa may yoki bir qo‘shiqchi xotin berilsa, minglab zambarak qilolmagan ishni qiladi.

Bugungi kunda ham bu haqiqatning tasdig‘ini ochiq ko‘rib turibmiz. G‘arb bizga zambaraklar bilan, tanklar bilan kelmadi. Ha, ayrim hududlarga ular bilan kelyapti, ammo ular bora olmagan joylarga may va ayollar bilan kirmoqda. Misrni ko‘ring, Saudiya Arabistonini ko‘ring, o‘zimizdagi ajam mintaqalariga ham nazar soling: har tomonda ichkilik, fahsh, munkar va ayollar fitnasi bilan bostirib kelmoqda.

Bu faqat real hayotda emas, balki ijtimoiy tarmoqlarda ham shunday. Ummatni modda muhabbatiga va shahvat girdobiga cho‘ktirishdi. Modda muhabbati esa - hayotning maqsadini faqat yeyish-ichish, o‘ynab-kulish, kiyinish, nima trend bo‘lsa, shunga ergashishdan iborat qilib qo‘yishdir.

G‘arb siyosatchilaridan yana biri shunday degan: “Sharq taqaddumi uchun ikki ish zarur: birinchisi, ayol yuzidan hijobni ko‘tarish; ikkinchisi, o‘sha hijob bilan Qur’onni o‘rash.”
Albatta, ular “Sharq” deganda musulmon davlatlarini nazarda tutishadi. “Taqaddum” so‘zining asl ma’nosi “rivojlanish”dir. Lekin ular “Sharq taqaddumi” deganda musulmonlarning kofirga aylanishini tushunishadi. Chunki ular uchun rivojlanish mezoni faqat dunyoviy taraqqiyotdir.

Ularning bu so‘zlarining tasdig‘ini bugun ko‘rib turibmiz. Odamlar Qur’onga bahmallardan, terilardan, turli matolardan muqova yasaydilar, biroq ayolni shu muqova bilan yopmaydilar. Aksincha, Qur’onning yuzini yopib qo‘yadilar. Go‘yoki Qur’onni yopiq saqlash kerak, uni ochiq qo‘yish mumkin emas. Nahotki Qur’on nomahram bo‘lsa? Uni ochiq qoldirsak shahvat qo‘zg‘aydimi? (na’uzubillah).

“Qur’onni yop”, “Qur’onni ochiq qoldirma”, “joynamozni qayirib qo‘y” kabi arzimas amallar bilan ovora bo‘lib qolishgan. Aslida esa Qur’onni ochish, o‘qish kerak. Qur’on uni yopib qo‘yish uchun tushirilmagan.

Yana bir tarafdan: “Qur’onni tahoratsiz ushlama”, deydilar, lekin nomahramni bemalol ushlab yurishadi. Biz ham, albatta, Qur’onni tahoratsiz ushlamaslikni buyuramiz. Lekin ular Qur’onni ushlashdan qaytarib, nomahram bilan qo‘l berib ko‘rishaveradi, hatto uning sochidan silashga ham jur’at qiladi. “Tug‘dirib qo‘ymasang bo‘ldi”, deydi. Axir, shu yo‘l bilan kufr rivojlanadi-ku! Natijada ayollar ochiq, Qur’onlar esa yopiq holda qoladi. Aslida bizga buyurilgan narsa butunlay boshqacha: ayollar yopilib, Qur’onlar ochilishi kerak.

Yuqorida zikr etilgan g‘arb kofirlarining “dumlari” jamiyatimizda ham bor. Oldimizga kelib, xuddi shunday gaplarni tarqatishadi.

Ularning gaplariga qaralsa, go‘yoki rahmat, shafqatga o‘xshaydi. Ammo ichida esa haqiqiy azob yashirinadi. Masalan, “ayolni ozod qilish” da’vosi. Zohiridan bu gap rahmatday ko‘rinadi: “Ayol zaifa, uni ozod qilish kerak. U senga cho‘ri emas, nega uni o‘rab-chirmaysan, nega uni qiynaysan?” deya chiqishadi. Bir qarashda go‘yoki ayollarga rahmi kelayotgandek. Lekin aslini ko‘rsangiz, ichidan azob-uqubat to‘lib-toshgan. Buning tasdig‘i - bugungi hayotimizdir.

Masalan, 8-mart bayrami ham xuddi shu da’volar bilan chiqarilgan: “Paranjidan qutilamiz, ozod bo‘lamiz,” deb. Lekin o‘shandan buyon ayollar xorlikdan chiqdimi? Yo‘q. O‘shandan beri ular yanada pastlikka tushdi: kimdir og‘ir mehnatlarda ketmon chopmoqda, kimdir esa fohishalik yo‘liga kirib ketmoqda. Demak, zohiridan rahmat ko‘ringan bu da’volarning ichida aslida azob bor.

Bugun esa Afg‘oniston ayollarini bahona qilib shu da’voni qaytarishyapti: “Ularni paranjidan, qullikdan ozod qilish kerak,” deyishyapti. Ammo shu gapni aytayotganlarning o‘z yurtiga qarang: go‘yoki u yerda ayollar ozod bo‘lib, malikalardek yuribdimi?

Aslida afg‘on ayollari haqida shunday yomon nom chiqmagan. Siz Koreyada fohishalik qilib yurgan afg‘on ayolini ko‘rdingizmi? Turkiyada yoki Dubayda shunday tanilgan afg‘on ayolini uchratdingizmi? Lekin o‘zbek ayollari haqida esa afsuski, bu narsa ochiq-oydin tanilgan.

Demak, aslida “ozod qilish kerak bo‘lgan” ayollar - afg‘on ayollari emas, balki bizning ayollarimiz. Ularni ozod qilish kerak. Chunki ularning da’vosi ayolni ozod qilish emas, balki ayolni qul qilish, cho‘ri qilishdir.

Tarix mobaynida muslima ayol hech qachon Allohdan boshqaga qul bo‘lmagan. Endi bugun kimdan ozod qilishmoqchi? Islom tarixida ayollar qachon va kimga qul bo‘lgan? Agar bunday bo‘lgan bo‘lsa, aytishsin. Agar muslima ayol ularning ozod qilishiga muhtoj bo‘lsa, dalil keltirishsin. Aslida esa ular ayolni Allohga qullikdan ozod qilmoqchi. Bor haqiqat shudir.

Holbuki, Allohga qullik - bu ozodlikning eng oliy cho‘qqisidir. Chunki bu: “Hech bir inson zotiga qul emasmiz, faqat Allohga qul bo‘lamiz” degan ma’noni anglatadi.

Erkaklar “Abdulloh” - Allohning qullari. Ayollar “Amatulloh” - Allohning cho‘rilari. Erkak na xotiniga, na ota-onasiga, na podshohga va na boshqalarga qul emas - faqat Allohga qul. Ayol ham huddi shunday: u eriga ham cho‘ri emas, qaynonasiga ham, ota-onasiga ham, davlatga ham cho‘ri emas. U faqatgina Allohning cho‘risi.

Ular esa ayolni Allohning qulligidan ozod qilib, aslida o‘z qulligiga, o‘z cho‘richiligiga kiritmoqchi bo‘ladilar. Erkakni ham, ayolni ham havoyi-nafs qulligiga, moddaparastlik qulligiga, g‘arb qulligiga aylantirmoqchi bo‘ladilar.

Natijada, tarixdagi buyuk ayollarga ergashishdan to‘sib, tuban va razil ayollarga ergashishga majbur qilishadi. Xadicha onamizga, Oisha onamizga va boshqa sharafli onalarga ergashishdan burib, tuban hayot tarzini tanlagan ayollarga ergashishga chorlaydilar. Ular istayotgan “namuna ayollar” - yoki g‘arb kofiralari, yoki musulmon bo‘lsa ham g‘arbning havosi bilan mast bo‘lgan “zamonaviy muslimalar”.

Bular - TikTokchi muslimalar, Instagramchi muslimalar. O‘zini o‘zi odamlarga reklama qilib yuradigan, soch turmak qulligiga, kiyim-kechak qulligiga, bezanish qulligiga, raqs qulligiga aylangan ayollar.

Ular ummatni buzishda, avvalo, ayollardan foydalanadilar. Takror aytamiz: “Ayol - jamiyatning qalbi. Qalb buzilsa, butun jasad buziladi.”

Shu sababdan ularning ayollarni buzish rejasi bir necha bosqichlardan iboratdir:

Birinchi bosqich: fasod va fahsh-munkarni tabiiylashtirish.
Ya’ni, odamlar fasod, fahsh va munkarni ko‘rganda hayratlanmaydigan, ajablanmaydigan darajaga olib kelish.

Masalan, bundan yuz yil avval yarim-yalang‘och ayolni topishning imkoni yo‘q edi. Hatto Turkiyaning o‘zida ham. O‘sha paytda ayollar paranjida yurishardi. Agar biror ayol yarim-yalang‘och holda ko‘chaga chiqsa, barchaning ajablanishiga sabab bo‘lardi.

Bundan bir necha yillar avval ilk videokameralar ixtiro qilingan kezlarda, bir do‘konda ayollar uchun mo‘ljallangan kiyim sotuvga qo‘yiladi. U kiyim juda “ochiq-sochiq” bo’ladi. (Hatto hozirgi ba’zi hojobli ayollar afsuski shunday kiyimni kiyib yurishibdi.) O‘shanda kofir ayollardan intervyu qilishadi: “Mana, bu kiyim hozir moda. Sen kiyasanmi?” deb so‘rashganda, o‘sha ayollar: “Yo‘q, bunday kiyimlarni faqat buzuq ayollar kiyadi,” deb javob bergan.

Demak, insoniyatda din bo‘lmasa ham, tabiatan iffat bo‘lgan, fasodga qarshi tabiiy inkor tuyg‘usi mavjud bo‘lgan. Lekin yahudlar insoniyat avlodini buzish uchun ayollar orqali, sharqda ham, g‘arbda ham, musulmonlarda ham, kofirlarda ham ochiq-sochiqlikni targ‘ib qildilar. Nihoyat, fasod odamlar ongida tabiiy holga aylanib qoldi.

Shuning uchun ham qiyomat alomatlari haqida Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam marhamat qilganlar:

إِنَّ مِنْ أَشْرَاطِ السَّاعَةِ أَنْ يَظْهَرَ الزِّنَا

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: "Qiyomat alomatlaridan biri - zinoning oshkora bo‘lishidir" dedilar.

(Buxoriy. Anas ibn Molik rivoyati)

Hozirgi kunda odamlar hech narsaga e’tibor bermay, bemalol ko‘chada bir-biriga gap berib, ovqatlanib o‘tirgani kabi, qiyomatga yaqin yo‘lning o‘rtasida ikki nomahram ochiqchasiga zino qilib o‘tiradigan holga keladi. O‘sha davrdagi eng taqvodor inson esa ularga faqat shunday deydi: “Nariroqqa o‘tinglar, yo‘lda turib xalaqit beryapsizlar.” Shu darajada zino tabiiylashadi. Zamonimiz ham asta-sekin shu yo‘lga qarab bormoqda.

Shuni biling: “Botil - tabiiy holga aylanib qolsa, Haq - g‘ayritabiiy bo‘lib qoladi.” Bugun ham xuddi shunday bo‘lyapti. Masalan, bir ayol hijob yoki paranji kiysa, barcha unga alanglab qarashi, go‘yoki bu g‘ayritabiiydek ko‘rinishi - buning yaqqol misolidir.

Yoki tasavvur qiling: sog‘lom bir insonni jinnixonaga olib kirib qo‘ysangiz, hamma jinnilar unga qarab ajablanadi. Aslida ajablanishga arziydigan - jinnilarning o‘zi. Ammo gala jinnilar ichida sog‘ odam ajablanarliroq ko‘rinib qoladi. Huddi shuningdek, gala g‘ayritabiiy fosiqlarning ichida haqni tutgan tabiiy inson ajablanarli qilib qo‘yiladi.

Natijada, bunday jamiyatda haq yo‘lda yurgan inson ham o‘zini hijolatda his qilib, o‘zini axmoqdek sezib qoladi va asta-sekin o‘zi ham shu axmoqlarga o‘xshab qolishi mumkin.

Ko‘pchilik odam shunday: kim nimani qilsa, u ham ergashib qilaveradi. “Men aslida to‘g‘ri yo‘ldaman,” deya qat’iyat ko‘rsatmaydi. Shu bois kofirlar fasodni tabiiylashtirishadi. Natijada, hamma fosiqlar ketayotgan tomonga oxir-oqibat haq ahli ham ergashib ketaveradi.

Ikkinchi bosqich: fasod va fahsh-munkarni diniylashtirish.
Birinchi bosqichda tabiiylashtirilgan fasodni keyinchalik diniylashtirishadi. Buning uchun esa ular “mullavachchalar”dan foydalanishadi.

Masalan: “Hijobni quloqning orqasidan ham o‘rasang bo‘ladi,” deydi. Yoki: “Jag‘ingdan aylantirib o‘rash shart emas,” deb chiqadi. Yana: “Qop-qora kiyish shart emas, keng libos kiysang bas,” deya nasihat qilayotgandek gapirishadi. Shu tarzda asta-sekin fasodning o‘zini diniy libosga o‘rab berishadi.

Ba’zan odamning vijdoni unga to‘sqinlik qiladi: “Axir, bu ish fasod-ku, nega shuncha odam qilayotgan bo‘lsa ham men qilay?” deya o‘zini tiyishga harakat qiladi. Ana shunday vaziyatlarda ular fasodni diniylashtirib, odamlarni xotirjam qilishni istashadi. “Sen tinchlan, vijdoning qiynalmasin. Mana, bunga bizda fatvo bor,” deb odamlarni ishontiradilar.

Bugungi kunda, masalan, qosh terish masalasida ko‘plab ayollar vijdon azobiga duch keladi. Nojoiz ishga qo‘l urishdan cho‘chiydi. Ammo biror “shayx”ning bu ishni joiz degan fatvosini eshitib qolsa, xotirjam bo‘lib, qoshini teraveradi. Aslida vijdoni qiynalayotgan edi, biroq “dindan halollab berilganidan” keyin o‘zini hotirjam sezadi. Demak, ayollarning vijdoni ham dindan “ruxsat” berish orqali aldanmoqda.

Ko‘plab masalalarda ular dindan foydalanadilar. Masalan: “Ayolni ozod qilish - bu o‘zi dinning ham buyurgani,” deb da’vo qiladilar. Izlagan odam uchun esa dalil topish qiyin emas. Ular ham izlab, “Ayollar cho‘ri emas,” degan dalillarni topib chiqadilar. Shu bilan odamlarni ishontiradilar.

Uchinchi bosqich: shoz so‘zlardan dalil sifatida foydalanish.
Shoz so‘zlar - Islom olamida tarix davomida aksariyat ulamolar aytmagan, biror kitobning chekkasida uchrab qoladigan kamyob so‘zlardir. “Shoz” so‘zi aslida “podadan ajragan” degan ma’noni bildiradi. Huddi shunday, ummatning umumiy amaliyotidan ajrab qolgan amal yoki so‘zlar ham shoz hisoblanadi. Ana shunday gaplarni topib, “Islomning o‘zi shudir,” deya ko‘rsatadilar.

Yurtimizda ham shunday holatlarga guvoh bo‘ldik. Bir mulla chiqib aytdi: “Men musiqa haqida rosa qidirdim va nihoyat topdim,” deydi. Nima topdi ekan desangiz: “G‘azzoliy kitobining bir chekkasida musiqa harom emas, deb yozib qo‘yilgan ekan,” deydi. O‘zi ham tan oladi - rosa qidirganini. Demak, yuqorida aytganimizdek, izlagan odam hamma narsaga dalil topadi. Hattoki uyat bo‘lsa ham aytish kerak: izlagan odam “orqa avratga yaqinlik qilish joiz,” degan fatvoni ham topishi mumkin. Na’uzubillah.

Ana shu yuqorida aytilgan shoz so‘zlarni olib chiqib: “Islomning o‘zi shu,” deyishadi. Holbuki, unga qarshi qancha raddiyalar, dalillar, qat’iy isbotlar mavjud.

Agar ular: “Fatvolar orasida bunday qarash ham bor,” deyishsa, mayli edi. Yo‘q, ular: “Faqat shu fatvo bor,” deya ta’kidlaydilar. Masalan: “Ayol kishining yuzi avrat emas, qo‘li avrat emas,” degan so‘zlarni ko‘tarib yurishadi. Haqiqatan, mazhablarda bunday qarashlar uchraydi. Lekin bu yagona haqiqat emas-ku! Axir boshqa mazhablar ham bor, ularning ko‘pchiligi yuzni ham, qo‘lni ham avrat deb bilgan.

Eng qizig‘i shundaki, “yuzi va qo‘li avrat emas” degan so‘z aynan hanafiy mazhabida uchrasa-da, tarixda hanafiylar bo‘lgan Usmoniy ayollarining hammasi yuzlarini va qo‘llarini yopib yurgan. O‘zimizning ajdod ayollarimiz ham hanafiy bo‘lgan, ular ham yuz va qo‘lini yopishni odat qilganlar.

Demak, ular shoz so‘zni “bor gap - shu” darajasiga olib chiqadi. Asl haqiqatni esa shozga chiqarib, chetga surib qo‘yadi.

To‘rtinchi bosqich: film va seriallardan foydalanish.

Bu sir emas - bugungi kunda turk, meksika, koreys seriallarining aksariyati fahshni odatiylashtirish uchun xizmat qilmoqda. Ularning mazmuniga qarang: bir ayolning ortidan yigirmata erkak yugurib yuradi; yetmaganday, uning eri ham boshqa ayol bilan yuradi; xotini esa boshqa birini sevadi. Shunday qilib, hammasi bir-birini aldaydi. Akasi ukasining xotiniga oshiq bo‘ladi, qaynota keliniga ko‘ngil qo‘yadi va hokazo.

Bu uslub endi o‘zimizning o‘zbek seriallariga ham kirib bormoqda. Seriallarning nomlarini ko‘rsatishdi: “Qaynona kelinini ushlab oldi”, “Qaynota bilan yotganida kiyov kirib qoldi”, “Aka ukasining xotini bilan yotganda uka kirib qoldi” va shunga o‘xshash mavzular. Hammasida bir xil fahsh va buzuqlik targ‘ib qilinadi.

Beshinchi bosqich: ayollarning huquqlarini himoya qilish da’vosi bilan chiqish.

Bu bosqich haqida yuqorida ham to‘xtalib o‘tgan edik. Bugun G‘arb davlatlari Afg‘onistonga aynan shu shior bilan kirib boryapti. O‘zlarining yurtlarida ham xuddi shunday. Bir ayol hijob kiyib olsa, uni chaqirib so‘roq qilishadi: “Nega kiyding? Otang majburladimi? Ering majburladimi? Akang majburladimi? Sening huquqlaring himoyalangan, agar ular majburlayotgan bo‘lsa ayt,” deya so‘rashadi. Shu tariqa go‘yoki uning huquqlarini himoya qilayotgandek ichkariga kirib borishadi.

Ammo ayol yalang‘och holda yurganida, birov kelib unga tajovuz qilsa, “uning huquqlari” degan gap hech kimning yodiga kelmaydi.

Xususan, bir amaldor ayolga tajovuz qilsa-chi? Bugun bunday voqealarning tasdig‘ini ochiq ko‘ryapmiz-ku. Amaldorlar, kattakonlar yetimxonadagi qancha-qancha qizlarni zo‘rlab yurganlari fosh bo‘ldi. Qani edi shunda ayollar huquqi esga tushsa? Bunday ishlarni esa odatda yopti-yopti qilib, imi-jimida yo‘q qilib yuborishadi. Lekin ayol dinga amal qilsa, hijob kiyib olsa - ana o‘shanda “ayol huquqlari” birdaniga esga tushib qoladi.

Oltinchi bosqich: ayolning hijobida shak uyg‘otish.

Bunga ham yuqorida qisqacha to‘xtalib o‘tgan edik. “Dinda chuqur ketish shart emas, paranjiga kirib olish ham zarur emas,” degan da’volar bilan ayolni hijobida ikkilanishga soladilar. Shu yo‘l bilan asta-sekin uning hijobini susaytirib, oxir-oqibat uni butunlay ochishga urinishadi.

Muallif va kitob haqida

Ushbu kitob muallifi - Odil ibn Hasan Al-Hamd, aslida Bahraynlik shayxdir. U zot “Islom olamining Rabitosi Ulamolari” tashkilotining a’zolaridan biri. Muallif katta bir asar yozgan bo‘lib, uning nomi: “Olti kitobda ayol kishining hadislari ensiklopediyasi”. Ya’ni, Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy va Ibn Moja kabi olti mashhur hadis to‘plamlarida ayollarga oid qaysi hadislar bo‘lsa, ularning barchasini terib chiqqanlar.

Bu kitob muallifning shaxsiy so‘zlari emas, balki Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning muborak so‘zlaridir. Xuddi Imom Buxoriy Rosulullohning hadislarini jamlaganidek, Odil ibn Al-Hamd ham ayollarga doir hadislarni jamlab bergan. U zotning asarida jami 1272 ta hadis keltirilgan bo‘lib, unda ayol kishi uchun zarur bo‘ladigan barcha masalalar mavjud.

So‘ngra muallif shu katta asaridan ayollar ko‘proq muhtoj bo‘ladigan 100 ta hadisni alohida terib jamlagan. Bu hadislarning barchasi sahih bo‘lib, eng muhimlari hisoblanadi.

Muallif bu kitobni yozishga nima undaganini shunday bayon qilgan:
“Men arab diyori ayollarini o‘qitadigan bir markazga bordim. U yerda dars berayotgan ustozalarning bir nechtasi bilan suhbatlashdim. Qarasam, ularning aksarida ayollarga oid hadislar bo‘yicha ilmiy tahsil juda zaif ekan. Endi o‘quvchilarining ahvoli qanday bo‘ladi, o‘zingiz tasavvur qiling,” deganlar.

Darhaqiqat, haqiqat ham shudir. Qanchadan qancha qoriyalar bor, “dars beramiz,” deydigan ayol-qizlar bor, madrasalarda ustozalik qilayotgan ayollar bor. Sarf, nahv, tajvid fanlaridan dars beradilar, biroq qarasangiz, ayollarga oid o‘n dona hadisni ham bilmaydilar.

Ayollar odatda mujallad-mujallad kitoblarni o‘qimaydilar. Ularning ko‘pida bunga himmat yetmaydi, himmati yetganlarida esa vaqti yetmaydi. Shu bois ularga xos holda yig‘ilgan, qisqa va lo‘nda ilm kerak bo‘ladi. Ana shu kitob ham aynan ayollar uchun xos tarzda jamlangan 100 ta hadisdan iborat.

Bir ayol kuniga bittadan hadisni yodlasa, uch oy o‘tmasdan islomdagi o‘ziga tegishli eng asosiy narsalarni bilib oladi. Kitobda keltirilgan hadislar juda ham qisqa, ularni yodlash oson va zarurdir.

Bugungi kunda ko‘plab ta’lim muassasalarida, madrasalarda erkaklar bilan ayollarni jismonan ajratadilar, biroq manhajda - o‘quv dasturida - ajratmaydilar. Hukumat tomonidan tashkil etilgan madrasalarda ham, norasmiy hujralarda ham shu muammo mavjud. Masalan, bir erkak nimani o‘qigan, o‘rgangan bo‘lsa, xotiniga ham, qiziga ham o‘shani o‘qitadi. Yoki bir erkak ustoz kelib, ayollar markazini ochib, o‘zi o‘rgangan narsani ayol-qizlarga ham o‘rgatadi.

Holbuki, ayollarning o‘zlariga birinchi darajada lozim bo‘lgan, majburiy bilimlari bor. Ularni o‘rgatmay turib, ikkinchi darajali ilmlarni o‘rgatish to‘g‘ri emas. Qur’on va sunnatdagi barcha ilmlar, albatta, ayol uchun ham foydali, ammo ayol uchun birlamchi bo‘lgan ilmlar mavjud. Ana shu ilmlarni birinchi navbatda o‘rganishi lozim. Chunki ularning ichida ayolning dunyosini ham, oxiratini ham saodatga eltadigan narsalar bor. Shularni bilmaganlik sababli ayollar dunyoviy hayotida ham, diniy hayotida ham muammolarga duch keladilar.

Ayollar o‘zlariga xos bo‘lgan hadislarni bilmagani uchun ham ba’zida dinidan chiqib ketishi osonlashadi. Masalan, bir fosiq kishi ayolga: “Islom seni xorlagan, sen bechorasan, sen mazlumasan,” deb uni dinidan sovutadi.

Bugungi kunda eshitib turibmiz: hatto hujralarda katta bo‘lgan qizlar, qoriyalar ham uyidan niqobda chiqib, ko‘chada esa shim kiyib yurgan ekan. Ko‘chada yoki parklarda sayr qilganda, sevgilisi bilan uchrashganda shim kiyib yuradi, uyga qaytganda esa yana niqobini kiyib oladi.

Nega shunday bo‘lyapti? Chunki u o‘zini mazluma deb hisoblaydi. U o‘zini huquqlari toptalgan, hurmati yo‘qolgan deb o‘ylaydi. Aslida esa u Islomda ayol kishining qanday martabaga ega ekanini tushunmagan. Garchi Qur’on o‘rgangan bo‘lsa ham, tajvidni bilsa ham, sarf va nahvni o‘qigan bo‘lsa ham, baribir arzimas shubhalar sabab ayol qal’asi buziladi. O‘zi sezmagan holda tasavvuri buzilib, qalbiga g‘alati fikrlar kiradi. Chunki u o‘ziga kerak bo‘lmagan narsalarni o‘qigan, ammo o‘ziga eng zarur bo‘lgan narsalarni o‘qimagan.

Bu masala yosh tanlamaydi. Yoshi katta ayolda ham, yosh qizda ham o‘ziga yarasha fitna bor. Yosh qizlarning fitnasi - ko‘chada shim kiyib yurish va shunga o‘xshash narsalar. Katta ayollarning esa boshqa fitnalari bor: “Menga hurmat ko‘rsatilishi kerak, meni boshga ko‘tarishlari kerak,” deya talab qilishadi. Ammo o‘zining vojib va majburiyatlarini bilmagani uchun, unga qilinayotgan hurmatning asl qadrini ham anglamaydi.

Shuning uchun ayol avvalo o‘ziga lozim bo‘lgan ilmni o‘qishi shart. Albatta, barcha sohada cho‘qqiga chiqqan olima ayollar kerak ummatga. Har xil bo‘limlarda bilimli bo‘lgan ayollarga ehtiyoj bor. Ammo, avvalo, ayollarning e’tibori o‘zlariga xos bo‘lgan narsalarga qaratilishi kerak.

Muallif shunday bir holatni eslab aytadilar: “Er-xotin o‘rtasida kelib chiqqan bir muammoga duch keldim. Tolib er va toliba ayol. Ikkisi ham dars berib yurar edi. Ular urishib qolib, mening oldimga murojaat qilishdi.

Ularning o‘rtasidagi muammo nimadan chiqdi? Oddiy er-xotinlik huquqlarini bilmagandan. Falon vaziyatda erkak haq bo‘ladi, ayol jim turishi kerak. Boshqa bir vaziyatda esa ayol haq bo‘ladi, erkak sukut qilishi lozim. Ana shunday oddiy masalalarni bilmaganlari uchun arzimas narsadan katta janjal chiqdi.”

Bugungi kunda ham holat xuddi shunday. Dars beradigan, qoriya bo‘lgan, ilmli ko‘ringan ayollar ham o‘zining vojibotlarini bilmaydi.

Aslida, ibodat nima o‘zi? Biz istagan narsani qilishmi yoki Alloh istagan narsani qilishmi? Albatta, ibodat - bu Alloh istagan narsalarni bajarishdir. Ammo ayollar ko‘pincha: “O‘qiyman, o‘qitaman,” deydilar. Bu - sening istaging. Ibodat esa Allohning istagini ado etishdir.

Ayolning bu dunyodagi burchi nima? Vazifasi nima? Ko‘pchilik buni bilmaydi. Er-xotinlik hayotidagi ustuvorliklarni, avloviyyatlarni ham anglamaydi. Aslida esa bu - juda ham muhim narsa.

كَانَ يَكُونُ عَلَيَّ الصَّوْمُ مِنْ رَمَضَانَ، فَمَا أَسْتَطِيعُ أَنْ أَقْضِيَهُ إِلَّا فِي شَعْبَانَ، وَذَلِكَ لِمَكَانِ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ

Oisha onamiz aytadilar: “Mening Ramazondan qazolarim bo‘lardi. Men ularni faqat Sha'bonda ado qila olardim. Bu ham Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamni xizmatlarini qilayotganim” uchun edi.

(Buxoriy va Muslim)

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollari huzurida tunashlari uchun har bir onamizga to‘qqiz kunda bir navbat kelardi. Oisha onamizning navbati kelganida, agar: “Men ro‘zadorman,” deb qolmasliklari uchun, ya’ni Rosulullohga “yo‘q,” degandek bo‘lib qolmasliklari uchun, qazo ro‘zalarini tutmay turardilar. Shu sababdan onamiz qazo ro‘zalarini asosan Sha’bon oyida ado qilganlar. Chunki Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam Sha’bon oyini ko‘pincha ro‘zada o‘tkazganlari uchun, Oisha onamiz ham shu fursatdan foydalanib, qazo ro‘zalarini tutib olar edilar.

Birinchidan, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam boshqa oylarda ham dushanba va payshanba kunlari ro‘za tutar edilar, shuningdek, ko‘plab nafl ro‘zalar tutganlar. Onalarimiz ham bu bahona bilan ro‘za tutishlari mumkin edi. Ammo baribir, kutilmaganda Rosulullоh kelib qolsalar, “Nega ro‘za tutding?” demasalar ham, ularning roziliklarini ko‘zlab, rioya qilar edilar.

Ikkinchidan, onalarimiz ro‘za tutganlarida, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ularga tanbeh bermas edilar, aksincha: “Yaxshi ish qilibsan,” deya maqtardilar. Shunga qaramay, onalarimiz Rosulullohning rioyalarini qilardilar.

Bu bilan aytilmoqchi bo‘lgan narsa shudir: qaysi erkak Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamdek nafsiga hokim, qaysi erkak ul zotdek ibodatgo‘y? Hech kim bunday darajada emas. Endi shunday bo‘lgach, erkakning rioyasini qilish ayol uchun naqadar muhimligi ayon bo‘ladi. Ayol ibodat qilmoqchimi, ilm olmoqchimi - avvalo erining rioyasini qilish asosiy vazifasidir.

Demak, bu gaplardan maqsad shuki, har kimning o‘z vazifasi va o‘z majburiyatlari bor. Ayolning ham o‘ziga xos vazifalari bor. Ana shu muammolarni ko‘rib, muallif ushbu kitobni yozishga azm qilganlar.

1-hadis

Ta’lim – ayolning haqqi

Muallif shunday deydi: “Ey ayol! Sening o‘zing uchun ta’lim oladigan maxsus bir makon bo‘lishi - bu sening haqqingdir. Bas, uni talab qil!”

Bu masala juda ham zarur va dolzarbdir. Masalan, ko‘plab ayollar yoshligida ilm olib yurgan bo‘lsalar-da, turmush qurgach ilmni to‘xtatib qo‘yadilar. “Nega to‘xtatting?” desangiz, “Erim ruxsat bermayapti,” yoki “Qaynonam qo‘ymayapti,” deb javob beradilar.

Holbuki, ayol eridan mahr talab qilishga, uy-joy talab qilishga, nafaqa talab qilishga qanchalik haqli bo‘lsa, ta’lim talab qilishga ham xuddi shunday haqlidir. Chunki ilm - uning dinini ham, dunyosini ham saodatga eltadigan zaruriy ehtiyojidir.

Masalan, ayolning ta’lim uchun maxsus joy talab qilishi ham uning haqqidir. Agar o‘zi turgan yurtda ilm olish imkoniyati, ustozlar mavjud bo‘lsa - bu ne’mat. Ammo agar topilmasa, hatto ilm olish imkoniyati bo‘lgan joylarga borishni talab qilishga ham uning haqqi bor.

عَنْ أَبِي سَعِيدٍ الْخُدْرِيِّ رضي الله عنه قَالَ: جَاءَتِ امْرَأَةٌ إِلَى رَسُولِ اللَّهِ ﷺ فَقَالَتْ: يَا رَسُولَ اللَّهِ ذَهَبَ الرِّجَالُ بِحَدِيثِكَ، فَاجْعَلْ لَنَا مِنْ نَفْسِكَ يَوْمًا نَأْتِيكَ فِيهِ تُعَلِّمُنَا مِمَّا عَلَّمَكَ اللَّهُ. قَالَ: «اجْتَمِعْنَ يَوْمَ كَذَا وَكَذَا». فَاجْتَمَعْنَ، فَأَتَاهُنَّ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ فَعَلَّمَهُنَّ مِمَّا عَلَّمَهُ اللَّهُ، ثُمَّ قَالَ: «مَا مِنْكُنَّ امْرَأَةٌ تُقَدِّمُ بَيْنَ يَدَيْهَا مِنْ وَلَدِهَا ثَلَاثَةً إِلَّا كَانَ لَهَا حِجَابًا مِنَ النَّارِ». فَقَالَتِ امْرَأَةٌ: وَاثْنَيْنِ؟ وَاثْنَيْنِ؟ وَاثْنَيْنِ؟ فَقَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «وَاثْنَيْنِ، وَاثْنَيْنِ، وَاثْنَيْنِ».

Bir ayol Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib dedi: “Yo Rasulullоh, erkaklar sizning hadisingizni olib ketib qolishdi. Alloh sizga ta’lim bergan narsalardan bizga ham o‘rgating,” dedi.

Shunda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Falon kuni, falon joyda jamlaninglar,” dedilar. Ayollar jam bo‘ldilar. Rosulullоh ularning oldiga bordilar va Alloh taolo ul zotga ta’lim bergan narsalardan ayollarga ham ta’lim berdilar. So‘ngra ul zot marhamat qildilar: “Sizlardan qaysi bir ayol uch farzandini Allohga topshirsa (ya’ni uch farzandi vafot etsa), albatta, o‘sha farzandlari unga do‘zaxdan hijob - parda bo‘ladi.” Shunda ayollardan biri so‘radi: “Agar ikki farzandi bo‘lsa-chi?”
Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Ikki farzand bo‘lsa ham.” dedilar.

(Buxoriy va Muslim. Abu Sa’id al-Xudriy rivoyati)

Ushbu hadisdan shuni ko‘ramizki, hatto sahobiya ayollar ham Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamdan ilm talab qilganlar. Ular to‘g‘ri gapirgani uchun, haqqini to‘g‘ri so‘ragani uchun Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ularning talabini qabul qildilar.

Agar ayolning bu boradagi haqqi bo‘lmaganida, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ularning talabini inkor qilgan bo‘lardilar. “Avval eringni rozi qil,” yoki “Qaynonangni rozi qilib kel,” demadilar. Balki: “Falon kuni jamlaninglar,” dedilar.

Yana shuni ham ko‘ramizki, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Jamlaninglar,” deganida ayollarni ajratmadilar. U erli bo‘lsin, erga tegmagan bo‘lsin - barchasini umumiy tarzda ilm majlisiga chaqirdilar. Demak, bu - barcha ayollarning haqqi ekaniga dalolat qiladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayollarga ta’lim berish uchun maxsus kunlarni xoslash kerakligi. Bu kunda erkaklar sherik bo‘lmasligi lozim. Ba’zi odamlar: “Ayollarga alohida kun ajratishning nima hojati bor? Erkakka ham, ayolga ham birgalikda gapiraversa bo‘lmaydimi?” deb o‘ylashlari mumkin. Ha, ba’zi masalalarda umumiy tarzda gapirish mumkin. Ammo ayrim masalalar bor-ki, ular faqat ayollarga xos bo‘ladi. Ayol ularni erkaklar huzurida so‘ray olmaydi. Shu sababdan ayollarga xos alohida majlis bo‘lishi zarur.

Ikkinchi foyda: Ayol erkaklar bilan izdihom, ya’ni aralash-quralash bo‘lmasligi lozim. Hatto diniy ta’lim olish joyida ham ular birgalashib o‘tirmasliklari shart. Demak, dunyoviy maktab, kollej va universitetlarda esa bundan-da ko‘proq ehtiyot bo‘lish kerak. Dinni deb ham mumkin bo‘lmagan joyda, dunyo ilmlari sabab aralashib o‘tirish tabiiyki mumkin emas.

Buni masjid safidan ham ko‘rishimiz mumkin. Odatda hech kim masjidga yomon niyat bilan kelmaydi. Ammo shunday bo‘lsa ham, shariat erkak va ayollarning safini alohida qilishni buyurgan. Kimdir aytishi mumkin: “Maktabga, universitetga borayotganlarning yomon niyati bo‘lmaydi-ku.” Ammo bunga qaralmaydi. Har joyda erkaklar alohida, ayollar alohida bo‘lishi shart.

Uchinchi foyda: Erkaklarning ayollarga aralashib yurishi - haromdir. Bu ham yuqorida zikr qilingan foydaning davomi va unga o‘xshash masala.

To‘rtinchi foyda: Ta’lim amaliyotida erkak bilan ayol o‘rtasidagi farqlarga rioya qilish lozim. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollarga: “Sizlar ham erkaklar bor paytda kelaveringlar,” demaganlar. Demak, erkak va ayolning ilm olishida farq bor ekan. Shu bois Rosulullоh bu farqqa rioya qildilar. Chunki ba’zida ayollar erkaklar bilan aralashib o‘tirganda, hatto mahramlari bo‘lsa ham, ba’zi masalalarni so‘rashga uyalib qolishi mumkin.

Beshinchi foyda: Ayol kishini hayo ajratib turadigan fazilatdir. Ayollarning o‘zlariga xos alohida kun ajratib, ilm talab qilganlari ularning naqadar hayoli bo‘lganliklariga dalildir. Har qanday ishda ham ayolning shunday hayoli bo‘lishi kerak.

Oltinchi foyda: Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollarning chaqirig‘iga ijobat qildilar. Ularni ilmdan to‘sib qo‘ymadilar, balki aksincha, ularga ilm olish imkoniyatini yaratib berdilar.

Yettinchi foyda: Ayol kishini sabrga targ‘ib qilish zarur. Xususan, farzandini yo‘qotganida sabr qilishga. Chunki bu sabrning mukofoti - jannatdir. Ko‘pincha ayollar bu masalada besabr bo‘lishlari sabab, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aynan shu masalaga alohida urg‘u berganlar.

Sakkizinchi foyda: Musulmonlarning farzandlari vafot etsa, ular jannatdadir. Bu esa ota-onasi uchun ham jannatga kirishga sabab bo‘ladi. Chunki agar u farzandning o‘zi jannatda bo‘lmasa, qanday qilib ota-onasiga shafoat qila oladi? Farzandning o‘zi jannatda bo‘lgani uchun ota-onasiga ham shafoat qiladi.

Shu aqida o‘rgatilmagani bois odamlar, xususan ayollar, farzandini Alloh yo‘liga berishga qo‘rqadilar. Agar farzandi Alloh yo‘lida shahid bo‘lsa, odatda hammani ayblab yuradi: “Sen da’vat qilding, sen sababchi bo‘lding,” deb. Shu sababdan Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aynan ayollarga farzandlari ularni jahannamdan to‘suvchi bo‘lishini bayon qilganlar.

To‘qqizinchi foyda: Sahobiya ayollarning din ishlarida ta’limga qattiq haris bo‘lganliklari. Ularning Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam huzurlariga kelib, ilm talab qilganlaridan bu dalilni olamiz. Demak, sahobiya ayollar diniy ilmlarga doimo qiziqqan va intilgan ekanlar.

O‘ninchi foyda: Ayol kishining iffatli olim bilan din masalalarida munozara qilishi, ya’ni savol-javob qilishi joizdir. Buning sharti shuki, o‘sha olim iffatli bo‘lmog‘i lozim. Shunda ayolning ilmiy masalada so‘rashi va suhbat qilishi joiz sanaladi.

2-hadis

Shariatga taslim bo’lish

Muallif shunday deydi: “Ey ayol, sen nafsingni Allohning kalomiga va Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning kalomiga taslim bo‘lishga o‘rgat. Aqlingni esa shariat ahkomlariga qarshi qiyos qilishga urinma.”

عَنْ أَبِي سَعِيدٍ الْخُدْرِيِّ قَالَ: خَرَجَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ فِي أَضْحَى أَوْ فِطْرٍ إِلَى الْمُصَلَّى، فَمَرَّ عَلَى النِّسَاءِ فَقَالَ: «يَا مَعْشَرَ النِّسَاءِ تَصَدَّقْنَ، فَإِنِّي أُرِيتُكُنَّ أَكْثَرَ أَهْلِ النَّارِ». فَقُلْنَ: وَبِمَ يَا رَسُولَ اللَّهِ؟ قَالَ: «تُكْثِرْنَ اللَّعْنَ، وَتَكْفُرْنَ الْعَشِيرَ، مَا رَأَيْتُ مِنْ نَاقِصَاتِ عَقْلٍ وَدِينٍ أَذْهَبَ لِلُبِّ الرَّجُلِ الْحَازِمِ مِنْ إِحْدَاكُنَّ». قُلْنَ: وَمَا نُقْصَانُ دِينِنَا وَعَقْلِنَا يَا رَسُولَ اللَّهِ؟ قَالَ: «أَلَيْسَ شَهَادَةُ الْمَرْأَةِ مِثْلَ نِصْفِ شَهَادَةِ الرَّجُلِ؟» قُلْنَ: بَلَى. قَالَ: «فَذَلِكِ مِنْ نُقْصَانِ عَقْلِهَا، أَلَيْسَ إِذَا حَاضَتْ لَمْ تُصَلِّ وَلَمْ تَصُمْ؟» قُلْنَ: بَلَى. قَالَ: «فَذَلِكِ مِنْ نُقْصَانِ دِينِهَا»

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ikki hayitdan birida musalloga - namoz o‘qiladigan maydonga chiqdilar. Ul zot ayollarning oldidan o‘tdilar va dedilar: “Ey ayollar jamoasi! Sadaqa qilinglar. Chunki menga jahannam ahlining aksariyati sizlardan ekanligi ko‘rsatildi.” Ayollar so‘rashdi: “Nima sababdan, yo Rosulullоh?” Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam javob berdilar: “Sizlar la’natni ko‘p aytasizlar va ashirga - ya’ni birga yashaydigan kishiga (eriga, ota-onasiga va hokazolarga) nonko’rlik qilasizlar.”

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Men bir aqli noqisa va dini noqisa kishining sizlardan birortangiz kabi puxta kishining aqlini ketkazib qo‘yishini ko‘rmadim.” Shunda ayollar so‘radilar: “Bizning aqlimiz va dinimizning noqisligi nimada, yo Rosulullоh?” Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Ayolning guvohligi erkakning guvohligining yarmiga teng emasmi?” Ayollar aytdilar: “Ha, shunday.” Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Bu - ayolning aqlining noqisligidan.” Yana dedilar: “Ayol hayz ko‘rganida namoz o‘qimay, ro‘za tutmay o‘tirmaydimi?” Ayollar aytdilar: “Ha, shunday.” Rosulullоh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Mana bu - ayolning dini noqisligidan.”

Ushbu hadisdan ma’lum bo‘ladiki, jahannamdan eng katta qutqaruvchi narsalardan biri - sadaqadir. Shu bois Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollarga ularning ko‘pchiligi jahannam ahli bo‘lishini xabar qilgach, darhol sadaqa qilishga buyurdilar.

Hadisning so‘ngida esa ayollar haqidagi yana bir haqiqat zikr qilindi: ayol kishi aqli noqisa va dini noqisa bo‘lsa-da, shunga qaramay, eng puxta erkakning aqlini ham ketkazib qo‘yishga qodirdir. Avval ham ta’kidlaganimizdek, erkakni tarbiyalab, pishiq qilib yetishtirish uchun yigirma yil vaqt talab etiladi. Lekin uni yo‘ldan urish uchun birgina ayolga yigirma daqiqa kifoya qiladi.

Demak, hadisning avvalida ayollarning ko‘plari jahannam ahli ekanligi aytilgan bo‘lsa, so‘ngida ularning erkaklarni aqlidan ozdirib qo‘yishlari zikr qilinmoqda. Bu esa - ayolning erkakni yo‘ldan urishi ham uning jahannamiylik sabablaridan biri ekanligiga dalolat qiladi.

Hadisda ayollarning aqli noqisa ekanligiga sabab qilib misol tariqasida guvohlik masalasi keltirilgan: bir erkakning guvohligi ikki ayolning guvohligiga teng. Ya'ni ikki erkakning guvohligini to'rt ayolning guvohligi to'ldiradi. Demak, guvohlik masalasida ayolning guvohligi erkakning guvohligining yarmiga teng bo'lgani uchun, bu holatda ayollarning aqli erkaklarning aqlidan yarmiga teng bo'lib qoladi.

Biroq bu faqat guvohlik masalasida shunday. Demak, "Ayolning aqli faqat guvohlikda noqisa," degan ma'no ham emas. Guvohlik bu yerda misol sifatida keltirilgan xolos. Misol orqali boshqa masalalarga ham qiyos qilish mumkin. Masalan, mashina haydashni olaylik: ko'plab ayollar mashinani erkaklardek boshqara olmaydi. Shu bilan ham ularning zakovati va zehnida bir nuqson seziladi. Bu kabi misollarda jins jinsga taqqoslangan: erkak jinsi umumiy hisobda ayol jinsidan aql va zehn bobida ustun turadi.

Lekin albatta, istisnolar mavjud. Ba'zi erkaklar bor - ular ayolday ham aqlli bo'lmaydi. Yana ba'zi ayollar bor - ular o'nlab, yuzlab erkakdan ham aqlli bo'ladi. Shu sababdan bu masala alohida bir erkak yoki alohida bir ayol bilan taqqoslanadigan emas. Umumiy holda qaralganda, aksar ayollarda aqliy zaiflik ko'rinadi. Shu uchun ularga "aqli noqisa," deyiladi.

Hadisning davomida ayollarning dini noqisa ekanligiga sabab sifatida hayz keltirilgan. Masalan, ayol oyiga besh yoki o'n kun hayz ko'rsa, o'sha kunlarda namoz o'qimaydi, ro'za tutmaydi. Bu esa tabiiy ravishda uning amallarini kamaytiradi. Amali kamayganida dini ham kamayadi, iymoni susayadi. Shu sababli ayollarga "dini noqisa," deyiladi. Albatta, ayollarda tabiiy savol tug'iladi: "Bizning aqlimiz yoki dinimizning noqisa bo'lishi bizning aybimiz emas-ku! Nega bizga shunday deyiladi?" Darhaqiqat, bu - ayb emas, agar ayol bu kamchilikni boshqa narsalar bilan to'ldirsa.

Masalan, hadisda zikr qilinganidek, sadaqa qilish ayolning dini noqisligini to‘ldiradi. Chunki hayz ko‘rganida ayol namoz o‘qimaydi, ro‘za tutmaydi - bu esa amallarni kamaytiradi. Lekin sadaqa qilishda hayzning aloqasi yo‘q. Ayol sadaqa qilsa, o‘sha kamchilikni qoplaydi. Xuddi shuningdek, ayolning aqli noqisligini ham boshqa fazilatlar bilan to‘ldirish mumkin. Hadisda aytilganidek, eriga itoat qilish - ana shunday fazilatdir. Agar ayol eriga itoat qilsa, uning aqliy zaifligi zarar bermaydi. Demak, sadaqa qilsa - dini noqisligi, itoat qilsa - aqli noqisaligi zarar qilmaydi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining hayit namozlariga hozir bo‘lishi mustahabdir. Masjid bo‘lmagan taqdirda ham namozgohda hozir bo‘lishi kerak. Bunda, albatta, satrga rioya qilishi lozim. Bugungi kunda ayrim ayollarning yasanib, bezanib chiqib ketishlari kabi bo‘lmasligi kerak. Satr bilan chiqqan holda hayit namozlarida hozir bo‘lish - mustahab amal hisoblanadi.

Ikkinchi foyda: Ayollar sadaqaga targ‘ib qilingan. Yuqorida zikr etilganidek, jahannamdan saqlanish uchun ayollar sadaqa qilishlari lozim.

Uchinchi foyda: Sadaqa - jahannamdan saqlanish sabablaridandir. Bu ham yuqorida tushuntirilganidek, sadaqa Allohning g‘azabini o‘chiradi.

To‘rtinchi foyda: Ayollarni tarbiya qilish yo‘llaridan biri - ularga nasihat (maviza) qilishdir. Hadisda aytilganidek, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollarga nasihat qildilar. Demak, ularni tarbiyalashda ham nasihat qilish usuli muhimdir.

Beshinchi foyda: Mavizani qattiqroq qilish joizdir. Ammo bu nasihatni bir ayolga xoslab emas, umumiy tarzda qilish kerak. Masalan, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam hadisda: “Sizlarning aqlingiz noqisa, diningiz noqisa,” dedilar, biroq buni bir ayolga qarab, uni sharmanda qilmagan holda, umumiy davrada aytdilar. Demak, nasihatni umumiy qilmoq, odamni alohida ko‘rsatib sharmanda qilmaslik kerak. Shuningdek, mavizani ba’zan qattiqroq shaklda qilish ham joiz, masalan Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning: “Jahannam ahlining aksariyati ayollardir,” degan ogohlantirishlari kabi.

Oltinchi foyda: Ayollar - jahannam ahlining aksariyat qismini tashkil etadilar. Biroq boshqa hadislar orqali bilamizki, ayollar jannat ahlining ham katta qismini tashkil etadilar. Chunki jannatda har bir erkakning eng kamida ikki ayoli bo‘ladi. Demak, ayollar son jihatdan ham jannatda ko‘p, ham jahannamda ko‘p bo‘ladilar.

Yettinchi foyda: Ayollarning jahannamga kirishlariga sabab bo‘ladigan eng ko‘p illatlardan biri - ashirga, ya’ni birga yashaydigan kishiga (eriga, ota-onasiga va hokazolarga) nonko’rlik qilish va ko‘p la’nat aytishdir.

Sakkizinchi foyda: Ayollarni gapirish odobiga tarbiyalash muhimdir. Chunki ular ko‘pincha muomala odobini bilmaganidan, gapirish odobiga rioya qilmaganidan la’natni ko‘p aytadilar, natijada ashirlariga nonko’rlik qilib qo‘yadilar.

To‘qqizinchi foyda: Ayollarda aql va dinning noqis bo‘lishi - Alloh taolo tomonidan berilgan fitratdir. Bu ularning aybi emas, balki tabiiy holatdir. Ammo bu nuqsonlarni boshqa fazilatlar va amallar bilan to‘ldirishlari mumkin.

Alloh taolo ayolni tabiatan shunday qilib yaratgan. Bu sifat ayolni kamsitish uchun emas, balki uning haddini bildirish va o‘z o‘rnini anglatish uchun aytilgan. Demak, bu bilan ayol malomat qilinmaydi, gunohkor ham bo‘lmaydi.

O‘ninchi foyda: Ayollarning aqli va dini noqis bo‘lishi - bu ularning har jihatdan zaifligini anglatmaydi. Aksincha, ayol puxta erkakning aqlini ham ketkazib qo‘yishga qodir. Erkakka aql quroli berilgan bo‘lsa, ayolga erkakning aqlini chalg‘itadigan qurol berilgan. Tabiatda ham hammaning quroli bir xil emas: masalan, qushga uchish quroli berilgan, buqalamunga yashirinish quroli berilgan. Xuddi shunday, erkakning ham, ayolning ham o‘ziga yarasha quroli bor. Muvozanat bo‘lishi uchun Alloh taolo shunday qilgan.

O‘n birinchi foyda: Aql ham ziyoda yoki noqis bo‘lishni qabul qiladi. Ya’ni aql ko‘payib ham, kamayib ham borishi mumkin. Xuddi iymon ko‘payib-kamaygani kabi, aql ham ba’zan ziyoda, ba’zan esa zaif bo‘ladi. Bu holat tug‘ma bo‘lishi mumkin yoki kasb va sabablar bilan ham orttirish yoki kamaytirish mumkin.

O‘n ikkinchi foyda: Ayol qancha ilm o‘qib, ma’rifat kasb qilsa ham, erkaklarga xos bo‘lgan ba’zi masalalarda aqliy nuqsonini butunlay to‘ldira olmaydi. Ya’ni ayol qancha o‘qimishli bo‘lsa ham, “Men erkaklardan o‘tib ketdim,” deya olmaydi. Bu, xususan, boshqaruv kabi erkaklarga xos masalalarda shunday. Chunki bu ayolga xos bo‘lmagan hislatdir. Masalan, erkak qancha harakat qilmasin, ayoldek nozik bo‘la olmaydi. Hatto jinsini o‘zgartirgan kishilarda ham asl erkakligi bilinib turadi.

Huddi shunday, ayol qancha harakat qilmasin, to‘liq aqlga erisha olmaydi. Biroq bu ayb emas, balki Alloh taoloning yaratishda bergan tabiiy xususiyatidir.

O‘n uchinchi foyda: Kimki ayolning aqli noqisa ekanligini inkor qilsa, u Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning hadisini rad qilgan bo‘ladi. Chunki bu xabarni Rosulullоh o‘zlaridan aytmaganlar, balki Allohning vahiy qilgan so‘zlarini yetkazganlar. Ayollarga yoqadimi, ayrim erkaklarga og‘irmi - baribir bu Rosulullohning so‘zidir. Shuning uchun bunday gapni rad qilishdan saqlanish lozim. Aslida buni inkor qilish ham o‘zi aqlning noqisligidan dalolatdir. Agar aqli komil bo‘lsa, Alloh va Rosulining so‘zini rad qilmagan bo‘lardi.

O‘n to‘rtinchi foyda: Ayol kishining dini ham ziyoda bo‘lishi, ham kamayishi mumkin. Toat va ibodat bilan din ziyoda bo‘ladi, ma’siyat bilan esa kamayadi. Aslida bu faqat ayolga xos emas, balki erkak va ayolning har ikkisi uchun ham din ko‘payishi yoki kamayishi mumkin.

O‘n beshinchi foyda: Hayz ko‘rgan ayol uchun namoz o‘qish va ro‘za tutish joiz emas. Bu masalada shariat ochiq hukm qilgan.

O‘n oltinchi foyda: Ayolning aqli noqisaligini ko‘rsatuvchi belgilaridan biri - uning guvohligi erkakning guvohligining yarmiga teng bo‘lishidir. Shariat bu masalada aniq qoida qo‘ygan.

3-hadis

Sen eringni boshqarish uchun emas undan er tug’ish uchun yaratilgansan

Muallif shunday deydi: “Ey ayol, sen erkaklarni boshqarish uchun yaratilmagansan. Sen boshqaruvchilarni tug‘ish va ularni tarbiya qilish uchun yaratilgansan. Shuning uchun o‘z o‘rningni bil va uni lozim tut.”

Demak, “erkakni boshqarish uchun yaratilmagansan,” degani “sening vazifang yo‘q,” degani emas. Aksincha, ayolning buyuk vazifasi bor - u boshqaruvchilarni dunyoga keltiradi va ularni tarbiyalaydi. Har qanday erkakni ham, hatto ulug‘ boshqaruvchini ham bir ayol tug‘adi.
Shu bois har kim o‘ziga to‘g‘ri bo‘lgan o‘rinni bilishi va uni lozim tutishi kerak.

عَنْ أَبِي بَكْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: لَقَدْ نَفَعَنِي اللَّهُ بِكَلِمَةٍ سَمِعْتُهَا مِنْ رَسُولِ اللَّهِ ﷺ أَيَّامَ الْجَمَلِ بَعْدَمَا كِدْتُ أَنْ أَلْحَقَ بِأَصْحَابِ الْجَمَلِ فَأُقَاتِلَ مَعَهُمْ. قَالَ: لَمَّا بَلَغَ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ أَنَّ أَهْلَ فَارِسَ قَدْ مَلَّكُوا عَلَيْهِمْ بِنْتَ كِسْرَى قَالَ: «لَنْ يُفْلِحَ قَوْمٌ وَلَّوْا أَمْرَهُمُ امْرَأَةً»

Abu Bakra roziyallohu anhu aytadilar: “Men Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan eshitgan bir kalima bilan Alloh taolo meni manfaatlantirdi, ko‘p asqotdi. Bu kalima Jamal voqealari - ‘tuya kunlari’da menga asqotdi. Men ham tuya sohiblariga qo‘shilib ketishimga oz qolgandi. Jang qilmoqchi ham edim. Ammo Rosulullohdan eshitganim meni to‘xtatdi.” Rosulullohga xabar yetdi: “Fors ahli o‘zlariga boshliq qilib Kisroning qizini malika qilibdilar.” Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Ishlarini ayollarga topshirgan qavm hech qachon baraka topmaydi.”

Hadisda zikr qilingan “Jamal kunlari” yoki *“Tuya kuni”dan maqsad - Oisha onamiz roziyallohu anho tuyaga minib Ali roziyallohu anhu tomonga qarshi o‘zlariga ergashgan kishilar bilan yo‘lga chiqqan voqealardir.

Buning sababi shunda ediki, Usmon roziyallohu anhu qatl qilinganidan keyin ba’zi odamlar Oisha onamizni fitnalab: “Siz Ummul mu’mininsiz, biz bilan yuring, Aliga gapiring, bizga qasos olishda yordam bering,” deb u zotni o‘z tomonlariga og‘dirishga uringanlar. Oisha onamiz ham dastlab Usmon roziyallohu anhuning qotillaridan qasos olishni birinchi vazifa deb o‘ylaganlar.

Shundan so‘ng Oisha onamiz tuyaga minib, Ali roziyallohu anhuning oldilariga muzokaraga bormoqchi bo‘ldilar. Ammo fitnachilar ikki tarafni urushtirib yubordilar. Natijada musulmonlarning ikkita safga bo‘linishi yuz berdi: kimdir Ali roziyallohu anhuning safiga qo‘shildi, yana kimdir Oisha onamiz safiga ergashdi.

Ana shu mashhur voqea tarixda “Jamal kuni” deb nom qoldi.

Hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam “baraka topmaydi” deb na forslarni, na arablarni, na ajamlarni xoslab aytmadilar. U zot umumiy qilib: “Qavm” dedilar. Demak, bu qoida har qanday xalq, har qanday toifa uchun to‘g‘ridir.

Abu Bakra roziyallohu anhu ham aynan shu hadisni eslab, Oisha onamizning jamoatlariga qo‘shilib ketishdan o‘zlarini asrab qolganlar. Hatto boshliq qilingan zot Oisha onamiz roziyallohu anho bo‘lsalar ham, erkaklarga xos ishlarda u zotning rahbarligida baraka bo‘lmasligi ayon edi.

Demak, qaysi ishda baraka bo‘lmaydi? - Erkaklarga xos ishlarda.
Ayollar esa o‘zlariga xos jamoalarda, ayollarga oid ishlarda rahbarlik qilaveradilar. Lekin erkaklarga xos ishlarda boshliq qilinsalar, unda baraka bo‘lmaydi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining umumiy boshliqliklarga tayinlanishi man qilingan. Ayollar o‘z muassasalarini, ayollar qo‘mitalarini yoki ayollarga xos tashkilotlarni boshqarishlari mumkin. Ammo erkak va ayol aralashgan umumiy boshqaruvlarda ayol boshliq qilinmaydi.
Bugungi kunda g‘arb ta’sirida turli g‘oyalar kirib keldi: “Ayol bilan erkak teng huquqli, shuning uchun ayollar ham boshliq bo‘la oladi,” deya da’vo qilinmoqda. Ammo agar bu da’vo rost bo‘lsa, unda erkaklar ham boshliqlarni ayollar kabi tug‘sin. Bu esa imkonsiz. Chunki barcha boshliqlarni aslida ayollarning o‘zi tug‘adi.
Agar ayol ham boshliq tug‘sa, ham boshliqni tarbiyalasa, ham o‘zi boshliq bo‘lsa - demak, ayollarning vazifalari erkaklarnikidan ham og‘ir bo‘lib qoladi. Bu esa “teng huquq” da’vosiga zid. Aslida huquqlarning tengligi emas, balki vazifalarning adolatli taqsimoti muhimdir. Shuning uchun bu g‘arbona da’vo botildir.
Hech qachon erkak va ayolning huquqlari bir xil bo‘lmaydi. Chunki ularning vazifalari turlicha qilib taqsimlangan.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi erkaklarga raislik qilmasligi lozim. Bu qoida nafaqat davlat ishlari yoki katta sohalarga taalluqlidir, balki uy-joyda ham amal qiladi. Oilalarda ba'zan hamma narsani ayol hal qiladigan holatlar bo'ladi. Bunday oila noto'g'ri oiladir. Hatto sovchi kelganida ham, erkakdan oldin ayol chiqib gapni hal qilsa, bu noto'g'ri hisoblanadi. Ayol qanchalik aqlli bo'lmasin, oiladagi boshqaruv masalalarida qaror qabul qiluvchi erkak bo'lishi lozim.

Uchinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam qat'iy aytibdilarki, agar erkaklarning ishini ayollar boshqarsa, bunday jamiyat hech qachon baraka topmaydi. Ayollar o'zlariga xos bo'lgan ishlarda, ayollar jamoalarida rahbarlik qila oladilar. Ammo umumiy erkaklarga xos ishlarni ayol boshqaradigan jamiyat barakadan mahrum bo'ladi.

To'rtinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning ayol kishini umumiy boshliqlikka qo'yishni yomonlaganliklari Allohning vahiysi bilan bo'lgan narsadir. Chunki ayolni yaratgan Zot Allohning O'zidir va U Zot ayolning tabiati, unga qanday ishlar munosib ekanidan eng yaxshi xabardordir. Ba'zi kimsalar: "Ha, payg'ambarimiz ham odam edi, ular o'z zamonlaridagi ayollarni nazarda tutganlar. Hozir ayollar rivojlanib, aqlli bo'lib ketdi," deyishlari mumkin. Lekin bu gap noto'g'ri. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning bu amallarni yomonlashlari vahiy sababli bo'lgan. Bu hukm har bir makon va har bir zamonda amal qiladi.

Ayolning boshqaruvga yaramasligiga kundalik hayotdan ham katta misol keltirish mumkin: masalan, mashina boshqaruvi. Aksar hollarda yo'l-transport hodisalari ayollarning boshqaruvidan kelib chiqmoqda.

Ha, ba’zan erkaklardan ham yaxshi mashina boshqaradigan ayollar uchrab qoladi. Lekin shariat hukmi bir-ikki kishiga qarab qo‘yilmaydi. Shariat hukmi - aksarga qarab qo‘yiladi.

Aksar hollarda ayollar mashina boshqarishda zaif bo‘ladilar. Demak, bu misol shuni ko‘rsatadiki, ayol umumiy boshqaruvga ham yaramaydi. Mashina boshqaruvi - bu ayolning umumiy boshqaruvdagi zaifligini anglatadigan oddiy bir misol xolos.

4-hadis

Erkakshoda bo’lishdan ehtiyot bo’lish

Muallif shunday deydi: “Ey ayol, erkaklarga o‘xshashlikdan ehtiyot bo‘l! Chunki bu holat sening shaxsingni buzadi, Alloh bergan asl qadr-qimmatingni so‘ndiradi.”

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رضي الله عنه قَالَ: «لَعَنَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ الْمُتَشَبِّهِينَ مِنَ الرِّجَالِ بِالنِّسَاءِ، وَالْمُتَشَبِّهَاتِ مِنَ النِّسَاءِ بِالرِّجَالِ»

“Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam erkaklardan ayollarga o’xshaydiganlarini va ayollardan erkaklarga o’xshaydiganlarini la’natladilar”

Ba’zi erkaklar ayollarga o’xshab nozikroq, ba’zi ayollar erkaklarga o’xshab baquvvat bo’lishi mumkin. Bu tabiiy o’xshashlik. Hadisda aytilgan la’natlangan o’xshashlik emas.

Hadisda ishlatilgan lafz - “mutashabbih”. Bu esa “o‘zini o‘xshatish”, ya’ni qasddan harakat qilib, o‘zini boshqa jinsga o‘xshatishga intilish demakdir. Agar o‘xshashlik tabiatan bo‘lsa, arabchada “yushbih” yoki “shaabih” deyiladi. Ammo ataylab o‘zini o‘zgartirishga urinish, jinsini o‘zgartirishga intilish yoki kiyinish, gapirish, yurish-turishda boshqa jinsga taqlid qilish - bu “mutashabbih” hisoblanadi.

Shuning uchun hadisdagi la’nat aynan shunday qasddan qilinadigan ishlar uchundir. Ayniqsa bugungi kunda jinsini o‘zgartirishga urinayotganlar, erkak bo‘la turib ayollarga o‘xshashlikka harakat qilayotganlar va aksincha ayollar erkaklarga taqlid qilayotganlar - bu hadisdagi ogohlantirishga to‘liq kiradi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayolning erkakka o‘xshashi haromdir. Bugungi jaholat zamonida ayrimlar bu masalani “insonning ixtiyori emas” deb taqdim qilmoqdalar. Maktablarda, bog‘chalarda bolalarga “jinsni tanlash ixtiyoriy” ekanligi targ‘ib qilinmoqda. Shuning uchun yoshlarga va bolalarga ushbu hadislarni yodlatish kerak. Chunki bu ish haromdir.

Ikkinchi foyda: Ayolning erkakka o‘xshashi kaboir - katta gunohlardandir. Bu insonning jahannamga kirishiga sabab bo‘ladigan ulkan gunohlardan hisoblanadi.

Uchinchi foyda: Ayolning erkakka o‘xshashligining jazosi Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning so‘zlariga ko‘ra - la’natdir. Demak, bu toifalarni siz-u men emas, balki Rosulullohning o‘zlari la’natlaganlar.

To‘rtinchi foyda: Islom ayolning shaxsiyatini erkakdan ajralib turishini va uning o‘ziga xos, alohida bo‘lishini xohladi. Ayol - ayolligi bilan, erkak esa erkakligi bilan ulug‘lanadi.

Beshinchi foyda: Ayolning tabiiy hususiyatlari erkaknikidan farq qiladi. Ayol erkakka qanchalik o‘xshashlikka harakat qilmasin, undagi ayollik hislatlari o‘chirilmaydi. O‘zidan erkak yasab olsa ham, erkak o‘zidan ayol yasab olsa ham, fitratan ikkala jinsning asl belgilari yo‘qolib ketmaydi.

Oltinchi foyda: Ayolning o‘zini erkakka o‘xshatishi - uning fitratini buzadi. Chunki sog‘lom fitratda erkak ayolni, ayol esa erkakni istaydi. Agar fitrat buzilsa, erkak erkakni, ayol ayolni istaydigan darajaga keladi. Bu esa fitratning nosog‘lomlashganiga dalildir.

Yettinchi foyda: Ayollarning ziynatlari va liboslarining chegaralari erkaklarnikiga o‘xshamasligi lozim. Ayolning barcha hatti-harakatlari, yashash tarzi, orzu-istaklari, kiyinish uslubi va xulqi - barchasi erkaklardan farqli tarzda bo‘lishi shart.

Demak, ayol va erkakning libosi ham, odobi ham, yurish-turishi ham, bir-biridan aniq ajralib turishi kerak. Bu - Islom qo‘ygan tabiiy chegara.

5-hadis

Sen ahlingga ne'matsan, baloga aylanma

Muallif shunday deydi: “Ey ayol, sen ahli bayting uchun ne’matsan. Ular uchun niqmatga aylanib qolma!”

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: جَاءَتْنِي امْرَأَةٌ مَعَهَا ابْنَتَانِ تَسْأَلُنِي، فَلَمْ تَجِدْ عِنْدِي غَيْرَ تَمْرَةٍ وَاحِدَةٍ، فَأَعْطَيْتُهَا فَقَسَمَتْهَا بَيْنَ ابْنَتَيْهَا، ثُمَّ قَامَتْ فَخَرَجَتْ، فَدَخَلَ النَّبِيُّ ﷺ فَحَدَّثْتُهُ فَقَالَ: «مَنْ ابْتُلِيَ مِنْ هَذِهِ الْبَنَاتِ بِشَيْءٍ فَأَحْسَنَ إِلَيْهِنَّ كُنَّ لَهُ سِتْرًا مِنَ النَّارِ»

Oisha roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Bir ayol ikki qizi bilan mening oldimga kelib, narsa so‘radi. Menda esa faqat bir dona xurmo bor edi. Uni o‘sha ayolga berdim. Ayol xurmoni olib, ikki qizi o‘rtasida taqsimlab berdi-da, so‘ng chiqib ketdi. Keyin Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam kirib keldilar. Men Rosulullohga bu voqeani aytib berdim. Shunda Rosulullоh dedilar: “Kim mana shu qizlardan biror narsada boshliqlik qilsa va ularga yaxshi muomala qilsa, bu qizlar unga do‘zaxdan hijob (to‘siq) bo‘ladi.”

“Sen ahli baytinga ne’matsan” jumlasiga hadisdan dalil: Soliha ayol ahli baytini do‘zaxdan satrlanishiga sabab bo‘ladi. Demak, itoatli ayol ahli bayti uchun ne’matdir.

Ammo agar ayol buning aksi bo‘lsa, ya’ni ahli bayti unga qanchalik yaxshilik qilmasin, u esa yomonlik bilan qaytaradigan bo‘lsa - bunday holda ayol ne’mat emas, balki balo va musibatga, ya’ni niqmatga aylanadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Oisha roziyallohu anhuning sadaqaga bo‘lgan harisliklari. Uylarida taom juda kam bo‘lsa ham, qo‘llaridagi bir dona xurmoni ham sadaqa qildilar. Demak, mo‘min inson qo‘lida oz bo‘lsa ham, sadaqadan or qilmasligi kerak.

Ikkinchi foyda: Kim qizlariga har qanday holatda ham yaxshilik qilsa, ularni tarbiyasida sabr qilsa, o‘zini do‘zaxdan saqlagan bo‘ladi. Ba’zi johillar o‘ylaganidek, qiz tug‘ilganda hafa bo‘lish, xotinini haqoratlash, qizini mensimaslik, unga zulm qilish - mutlaqo noto‘g‘ri. Nima uchun sabr qilish kerak? Chunki qizlar odatda o‘g‘illarga o‘xshab pul topib kelmaydilar. Ular erga tegib ketgunlaricha ota-onaning zimmasida bo‘ladilar. Demak, bu davr mobaynida sabr bilan tarbiyalash kerak. Hatto erga tegib ketganidan keyin ham qizlariga yaxshilik va sabr ko‘rsatgan ota-ona do‘zaxdan najot topadi.

Uchinchi foyda: Ona kichkina farzandlariga rahm-shafqatli bo‘lishi zarur. Bu hadisda yaqqol ko‘rinib turibdi: ayol qo‘lida bitta xurmo bo‘lsa ham uni ikki qiziga adolat bilan taqsimlab berdi. Bu ona mehrining eng go‘zal ko‘rinishidir.

To‘rtinchi foyda: Qizlarda tabiiy zaiflik bo‘lgani uchun ularga alohida fazilat va mukofot va’da qilingan. Chunki qizlar o‘z nafsida mustaqil emas, ularga enaga yoki tarbiyachi kerak bo‘ladi. Shu bois kim qizlarini tarbiyada sabr bilan asrasa, ularga yaxshilik qilsa, bu amal do‘zaxdan saqlovchi bo‘ladi. Hadisda aytilishicha, qizlar ota-onasini do‘zaxdan saqlaydilar. Sababi - ularning tabiatan zaif bo‘lishi va ota-onaning ularni rioya qilib, sabr bilan tarbiyalashlari tufaylidir.

Beshinchi foyda: “Qizlarga yaxshilik qilish” degani faqat ularni yaxshi so‘zlar bilan siylash emas, balki ularni ta’minlash - ya’ni nafaqa berish, kiyintirish, odob o‘rgatish va chiroyli hikmat bilan ta’lim berishni ham o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi ota-onaning zimmasidagi haqqidir.

Oltinchi foyda: Qizlarni tarbiya qilishda sabr qilishga buyurilgani - ularning sinov-imtihon ekanligidan dalolatdir. Qizlarga sabr qilish ham bir imtihondir. Chunki ularni tarbiya qilish va boshqarish, ko‘pincha o‘g‘il bolalarni tarbiyalashdan ko‘ra mashaqqatlidir. Ba’zida aksincha holatlar ham bo‘lishi mumkin, ammo aksar hollarda ko‘p muammolar qizlarda uchraydi.

Yettinchi foyda: Bu buyuk fazilat, hadisda zikr qilingani kabi, ikkita yoki undan ortiq qizlarini tarbiya qilganlarga taalluqlidir. Ba’zi rivoyatlarda bitta qiz haqida ham kelgan. Demak, aslida bitta qizni tarbiya qilish ham fazilatli, biroq ikki yoki undan ortiq qizlarga sabr qilish yanada buyuk ajr keltiradi.

Sakkizinchi foyda: Qizlarni tarbiya qilishda faqat ota-onalar emas, balki kim ularga tarbiyachi bo‘lsa - akalar, holalar, ammalar, hatto yetimni asrab olgan kishilar ham bu ajrga erishadilar. Demak, “qizlarga yaxshilik qilish” barchaga umumiydir.

To‘qqizinchi foyda: Hadisda qizlarni dunyoga keltirib, ularga sabr bilan tarbiya qilganlarga xos fazilat zikr qilingan. Ammo bu bilan o‘g‘il farzandlarni tarbiyalashda nuqson sanaladi degan ma’no chiqmaydi. O‘g‘il farzandlar ham Allohning ne’mati. Ularni jazolash yoki yuz o‘girish kerak degani emas. Bunday noto‘g‘ri tushunchalar faqat johillarda uchraydi.

6-hadis

Eng yaxshi ayol sifatlari

Muallif shunday deydi: “Ayollar o‘rtasidagi fazilatda kim o‘zarlik va musobaqalashish - faqat kasb qilinadigan sifatlardagina bo‘ladi. Bu maqtovga loyiq sifatlarda, ayollarning asl vazifalariga bog‘liq sifatlarda bo‘ladi. Ammo chiroy bilan, ko‘p oro berish bilan, chiroyli kiyinish yoki zeb-u ziynatli bo‘lish bilan emas.”

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «خَيْرُ نِسَاءٍ رَكِبْنَ الْإِبِلَ صَالِحُ نِسَاءِ قُرَيْشٍ، أَحْنَاهُ عَلَى وَلَدٍ فِي صِغَرِهِ، وَأَرْعَاهُ عَلَى زَوْجٍ فِي ذَاتِ يَدِهِ».

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Tuya mingan ayollarning eng yaxshisi Quraysh ayollarining solihlaridir. Ular farzandlari kichkina bo‘lganda eng mehribon bo‘ladilar, erlariga va erlarining qo‘lidagi narsalarga eng ko‘p rioya qiladilar.”

“Tuya mingan ayollar” deganda arab ayollari nazarda tutilgan. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning davrida faqat arab ayollar mavjud edi.

Tanbeh: Bu hadis faqat arab ayollariga xos emas. Aksincha, bu hadis umumiydir - barcha ayollarga tegishlidir. Hadisda zikr qilingan sifatlar - farzandiga mehribon bo‘lish, eriga itoatli va uning qo‘lidagi narsaga rioya qiluvchi bo‘lish - qaysi ayolda topilsa, u ayol eng yaxshi ayol hisoblanadi. Hadisda “Ular Quraysh ayollarining solihalaridir” deyilgani - Quraysh ayollari o‘sha davrda hammasiga ega bo‘lgani uchun emas, balki ular ichidagi solihalarini sifatlash uchundir.

Demak, bu hislat nasabga yoki mansabga bog‘liq emas. “Soliha” deyishdan maqsad - dinida va ibodatida mustahkam bo‘lgan ayolning keyingi sifati, ya’ni uning solihaligi. Shundayki, u farzandlari kichkina bo‘lganda eng mehribon bo‘ladi, eriga rioya qiladi, uning qo‘lida boriga shukr qiladi.

Tanbeh: Agar ayol ibodat qilmasa, lekin bolani yaxshi tarbiya qilsa, erining rioyasini qilsa - bu hali uni “yaxshi ayol” qilmaydi. Chunki bu sifatlar ibodatdan keyingi ikkinchi darajali fazilatlar sifatida zikr qilingan. Avval din va ibodatda sobit bo‘lish, so‘ng bu hislatlarni chiroyli qilish kerak.

Hullas, oiladagi muhitni asosan ayol boshqaradi: u farzandni yaxshi tarbiya qiladi, eriga yaxshi rioya qiladi, boriga shukr qiladi, norozi bo‘lmaydi. Demak, bu ayollarning dini va ibodatidan keyingi eng katta vazifasidir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Nabiy sallollohu alayhi va sallam Quraysh ayollarining solihalarini maqtadilar. Ularni maqtashlik - ularda shu sifat bo‘lganligi uchundir. Ammo bu demak hozirgi zamonda ham Quraysh ayollarida aynan shu sifat mavjud degani emas. Aksincha, bugungi kunda ba’zan ajam ayollari orasida solihalar ko‘proq uchrashi mumkin.

Ikkinchi foyda: Rosulullohning Quraysh ayollarini maqtashlarining sababi - ularning Qurayshlik ekanliklarida emas, balki ularda ikki chiroyli sifat mujassam bo‘lganidadir: farzandlari kichikligida ularga mehribon bo‘lishlari va erlariga, hamda erlarining qo‘lida bo‘lgan narsalarga rioya qilishlari. Shuning uchun ham qaysi ayolda bu ikki sifat topilsa, u hadisdagi maqtovga kiradi.

Bu sifatlar quyidagilar:

1. Farzandning haqini ado qilish.
2. Erning haqini ado qilish.

Mana shu ikki hislat - ayollardagi eng maqtovli sifatlardan sanaladi.

Uchinchi foyda: Birinchi hislat - bolalarga mehribonlikda e'tiborli bo‘lish. Bunday ayol shavqatli bo‘ladi, tarbiyani rahm-shafqat bilan olib boradi. Farzandlarni chiroyli tarbiya qilishga haris bo‘ladi va vaqtining katta qismini shunga bag‘ishlaydi. Ayol ko‘chada ishlash yoki boshqa ishlar bilan mashg‘ul bo‘lib, farzandiga beparvo bo‘lmaydi. Ayniqsa yetim qolgan farzandlarga tarbiya berish yanada muhim bo‘ladi.

Beva ayol o‘z nafsidan kechib, farzandlarining tarbiyasi va kelajagi uchun turmushga chiqmay qolishi ham shunday fidoyilikdandir. Chunki ko‘p hollarda erkaklar birovning bolasini qabul qilmaydilar. Shunday paytda ayol o‘z xohishidan voz kechib, farzandining manfaatini ustun qo‘yadi. Eslatma: albatta ayolning turmushga chiqishi harom emas, lekin yuqorida zikr etilgan fazilat - farzandining tarbiyasini o‘ylab, sabr va fidoyilik qilgan ayolning sifatiga taalluqlidir.

To‘rtinchi foyda: Ikkinchi hislat - erning rioyasini qilish. Ya'ni, ayol barcha tomondan erining ishlarini qoim qiladi, unga xizmat qiladi, erining huquqlarini muhofaza qiladi, erining obro‘sini saqlaydi, uni g‘iybat qilmaydi. Erining mol-mulkini sarflashda ham yaxshi tasarruf qiladi, uni kerakli joylarda ishlatadi. Uy ro‘zg‘orini chiroyli olib boradi, uy uchun kerakli buyumlarni, kiyim-kechaklarni oqilona xarid qiladi.
Aslida, mana shu ikki buyuk sifat aksar o‘zbek ayollarida ham ko‘proq topiladi.

Agar ayol hijobida, namozida va ibodatida sobit bo‘lsa, shundan keyin yuqorida zikr qilingan sifatlar - farzandiga mehribon bo‘lish va erining huquqlariga rioya qilish - unda haqiqiy fazilat sifatida topiladi.

Demak, bu sifatlar iymondan keyin, namozdan keyin bo‘lishi kerak. Aks holda, ibodatini ado qilmay, faqat oilaviy masalalarda yaxshi bo‘lishning o‘zi yetarli emas.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam davrida Quraysh ayollarining solihalari shunday edi: avvalo dinida sobit, ibodatida mustahkam, so‘ng oilaviy masalalarda ham chiroyli sifatlarni o‘zida jam qilgan ayollar.

7-hadis

Erkak saodati ayolda

Muallif shunday deydi: “Ey ayol! Sen erkakning baxtli bo‘lish sabablariga moliksan.”

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قِيلَ لِرَسُولِ اللَّهِ ﷺ: أَيُّ النِّسَاءِ خَيْرٌ؟ قَالَ: «الَّتِي تَسُرُّهُ إِذَا نَظَرَ، وَتُطِيعُهُ إِذَا أَمَرَ، وَلَا تُخَالِفُهُ فِي نَفْسِهَا وَمَالِهَا بِمَا يَكْرَهُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘raldi: “Ayollarning yaxshisi qaysisi?” Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “U shunday ayolki: agar eri unga qarasa, uni quvontiradi; agar eri unga biror narsa buyursa, unga itoat qiladi; va u o‘z nafsida ham, molida ham, eri yomon ko‘radigan narsalarda unga xilof qilmaydi.”

Hadisda uchta sifat zikr qilingan:

Birinchi sifat: Ayol eriga qarashda uni quvontiradi. Ya’ni, ayol o‘zini ziynatlaydi, chiroyli kiyim kiyadi, go‘zalligini eriga ko‘rsatadi. Bu - erni huzur-halovatga, uyini esa osoyishtalikka eltadi.

Ikkinchi sifat: Ayol eriga itoat qiladi. Erining buyruqlarini shar’iy doirada bajaradi, o‘zboshimchalik qilmaydi. Itoat - yaxshi ayollarning eng asosiy belgilaridan biridir.

Uchinchi sifat: Ayol o‘z nafsida ham, molida ham eriga xilof qilmaydi. Ya’ni keraksiz narsalarga sarf qilmaydi, eri yomon ko‘radigan ishlarda molini ishlatmaydi. Erining obro‘sini saqlaydi, uy ro‘zg‘orini oqilona yuritadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi hadisda zikr qilingan sifatlar bilan xulqlanishga haris bo‘lishi lozim. Shulardan birinchisi - eri unga qaraganda uni quvontirishi.

Ikkinchi foyda: Ayolda chiroy ikki xil bo‘ladi:

1. **Tabiiy chiroy** - ya’ni Alloh taolo tomonidan berilgan tug‘ma go‘zallik.
2. **Kasb qilingan chiroy** - ya’ni ayolning o‘zini chiroyli ko‘rsatishga qilgan harakati.

Ayol jamolini chiroyli ko‘rsatishga doimo harakat qilishi kerak. Eri uni faqat go‘zal holda ko‘rishi uchun haris bo’lishi lozim. Ammo bunda erkak ham o‘z zimmasidagi mas’uliyatni ado qilib, ayoliga sharoit yaratib berishi kerak. Ayniqsa, qishloq hayoti yoki mashaqqatli muhitlarda erkakning qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Uchinchi foyda: “Eri ayoliga qarasa ko‘zini quvontiradi” degan qavldan olinadigan foydalar:

- Bu faqat bo‘yanish emas, balki ayolning yuzida tabassum bo‘lishidir. Ochiq chehrasi, kulib turishi erini quvontiradi.
- Badanining toza bo‘lishi. Poklik ham ruhiy, ham jismoniy go‘zallikdir.
- Hushbo‘y bo‘lishi. Atir yoki tabiiy hidlar bilan o‘zini bezash.
- Ayol fitnali o‘rinlarini (qaddi-qomati) eriga ko‘rsatish bilan erini quvontiradi. Bu holat faqat eriga xos bo‘lib, boshqa odamlar oldida (qaynota, qaynona, qarindoshlar, begona erkaklar) shariat chegarasidan chiqmasligi kerak.
- Libos tanlashda ayol o‘ziga mosini tanlash bilan birga erining nimani yaxshi ko‘rishini inobatga olishi zarur. Har bir ayol erining didini bilishi va shunga mos ravishda libos tanlashi muhimdir.

To‘rtinchi foyda: Hadisdagi ikkinchi buyuk hislat - ayolning eriga itoat qilishi. Biroq bu itoat faqat yaxshilikka buyurgan ishlaridadir. Alloh rozi bo‘lmagan narsalarda itoat qilinmaydi. Masalan, agar er ayolini namozdan, hijobdan yoki boshqa farzlardan qaytarsa, bunda unga itoat qilinmaydi. Shuningdek, er to‘shak masalasida noshariy narsalarni talab qilsa, ayol bunga javob bermaydi. Demak, haqiqiy itoat - Alloh rozi bo‘ladigan narsalardadir.

Beshinchi foyda: Er nafsiga chaqirganda ayol tezda javob qiladi. Bu hadisdagi “eriga nafsida xilof qilmaydi” degan qismdan olinadi. Ayol charchagan bo‘lsa ham erining rayini qaytarmasligi, imkon qadar javob berishi lozim. Boshqa hadislarda: “non yopayotganida ham, safarda ham, hatto egarning ustida bo‘lsa ham” deb kelgan. Lekin bu holat ayolga zulm bo‘lmaydigan darajada bo‘lishi shart. Agar ayol kasal bo‘lsa, homilador bo‘lsa yoki uzrli holatda bo‘lsa, bunda uning haqligi qaytariladi. Tabiiy o‘rinlarda javob berishi vojib, ammo uzrli holatlar bundan mustasno.

Oltinchi foyda: Ayol o‘zining moliga xilof qilmaydi. Ya’ni u molini eriga yaxshilikda yordam sifatida beradi, yomonlikda emas. Masalan, agar er xotinining pulini olib aroq ichsa yoki boshqa harom ishlarga sarf qilsa, ayol bunga yordam bermaydi. Shuningdek, ayol erining molini ham muhofaza qiladi. Oilada “bu sening puling, bu mening pulim” degan qarash bo‘lmaydi. Muhtojlik o‘rinlarida mol birgalikda ishlatiladi. Hadicha onamiz roziyallohu anho o‘z tijoratlarini Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga qo‘yib berganlari va ular orqali tijorat qilinganlari bunga yorqin dalildir.

Yettinchi foyda: Ayol eriga xizmat qilishi vojibdir. Bu uning asosiy vazifalaridan bo‘lib, oilaviy hayotdagi tinchlik va barakotning sababchisidir.

Erning amrini bajarish vojib ekanini tan olib, so‘ngra “erning xizmatini qilish ayolga vojib emas” deyishlik - to‘liq tasavvur qilib bo‘lmaydigan narsa. Chunki hadisdagi “u eriga xilof qilmaydi” degan qism aynan bu masalaga dalildir.

Ha, bu borada ulamolar orasida ixtilof bo‘lgan. Ba’zilar ayolning eriga xizmat qilishi vojib emas, deyishgan. Boshqa bir qism ulamolar esa xizmatni vojib deb bilganlar. Ammo shubhasiz, eng yaxshi ayol bo‘lishni istagan ayol itoat va xizmatda davom etadi. Chunki bu nafaqat erning haqqi, balki ayolning o‘z baxti va oilasidagi barakot uchun ham zarurdir.

8-hadis

Erkaklarni do‘zaxga tiqma

Muallif shunday deydi: “Ey ayol! Erkaklarning do‘zaxga kirishiga sababchi bo‘lma. Aks holda sen ham ularning gunohlariga mubtalo bo‘lib qolasan!”

عَنْ أُسَامَةَ بْنِ زَيْدٍ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «مَا تَرَكْتُ بَعْدِي فِتْنَةً أَضَرَّ عَلَى الرِّجَالِ مِنَ النِّسَاءِ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Men o‘zimdan keyin erkaklar uchun ayollardan ko‘ra zararliroq fitna qoldirmadim.”

Fitnalarning turlari juda ham ko‘p. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan keyin sahobalar davrida ham turli fitnalar yuz bergan: ayrim sahobalar o‘zaro urushlarga kirishgan, mol-dunyo fitnasi paydo bo‘lgan, qiyomatdan oldin chiqadigan eng katta fitna - Dajjol fitnasi ham zikr qilingan. Ammo shularning ichida erkaklarga eng zararli fitna - ayollar fitnasi ekani hadisda ochiq bayon qilingan.

Ayollar fitnasi qachon sodir bo‘ladi? Ayol o‘zining hatti-harakatlari, ko‘zi, ziynati, yurish-turishi bilan erkakni vasvasaga solganda. “G‘unajin ko‘zini suzmasa, ho‘kiz ipini uzmaydi” degan maqol ham shunga o‘xshaydi. Ayol o‘zini fitnaga sababchi qilganida, erkak uning ortidan gunohga tushadi. Shu bois, erkakning jahannamga kirishiga sababchi bo‘lgan ayolning o‘zi ham o‘sha gunohdan nasibador bo‘lib qoladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Erkak kishiga eng zararli fitna - ayol ekanligi. Bu fitna boshqa barcha fitnalardan ham kuchliroq va xavfliroq bo‘lishi hadisda ochiq zikr qilingan.

Ikkinchi foyda: Hadisda ayol fitnasiga yaqinlashishidan ogohlantirish bor. Bu ogohlantirish barcha erkak va ayollarga tegishlidir. Chunki ba’zi ayollar: “Erkaklar bizga qaramasin, ko‘zini tiysin” deydilar. Ammo bir jamiyatda minglab erkaklarning ko‘zini bog‘lab qo‘yish osonmi yoki bitta ayolni shariat buyurgandek o‘rab qo‘yish osonmi? Albatta, ayolning hijoblanishi va o‘zini tiyishi osonroq. Ayollar o‘zlarini shariat chegarasida tutsa, erkaklarga ham ko‘zini tiyish oson bo‘ladi.

Bunga yaqqol misol - rohib Barsiso qissasi. Bir qizning akalari uni rohibga qarash uchun topshirib ketadilar. Natijada u qiz rohib bilan zino qiladi, homilador bo‘ladi, bola tug‘adi. Keyin rohib bolasini ham, qizni ham o‘ldirib ko‘madi. Shu sababdan oxir-oqibat kofir bo‘lib o‘ladi. Bu dahshatli oqibatning asl sababi - ayol fitnasi edi.

Qur’onda ham shunga ishora qilingan. Bir oyatda “shaytonning nayrangi zaifdir” deyilsa, Yusuf alayhissalom qissasida “ayollarning nayrangi buyukdir (azimdir)” deyiladi. Demak, shayton ham o‘zining zaif hiylalarini amalga oshirishda ko‘pincha ayollardan vosita sifatida foydalanadi. Ayollar esa shaytondan emas, balki shayton ularning fitnalaridan foydalanadi.

Uchinchi foyda: Erkakka ayol fitnasi dinida ham, dunyosida ham zarar yetkazadi. Dinida - haromlarga, gunohlarga, zino va munkarlarga shu fitna sabab qadam qo‘yadi. Dunyosida esa - obro‘sidan, mansabidan, hatto davlatidan ayriladi. Tarixda ham, bugungi kunda ham birgina ayol fitnasi sabab butun jamiyatlar sinovga uchragani ma’lumdir.

Beshinchi foyda: Fitna gohida o‘z ayolidan ham sodir bo‘lishi mumkin. Ya’ni fitna faqat nomahram ayollardan emas, balki xotinidan ham bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Masalan, ayolning mol-mulk talab qilishi, o‘zining haddan tashqari xohish-istaklarini majburan eridan talab qilishi - erkakning dinida nuqson bo‘lishiga, hatto harom yo‘llarga kirib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Oltinchi foyda: Erkaklarning tabiati ayollarga moyil qilib yaratilgan. Bu tabiiy jarayon bo‘lib, inson fitratiga joylangan. Qanday qilib ayollar o‘z kundashlarini yomon ko‘rsalar, erkaklar ham shunday tabiatan ayollarga muhabbat qo‘yishga moyil qilingan. Erkaklarning tabiatidagi bu moyillik ularga Alloh tomonidan sinov sifatida berilgan.

Yettinchi foyda: Erkaklarning ayollardan fitnalanib qolishida ma’lum yosh chegarasi yo‘q. Bu holat barcha erkaklarda umumiy bo‘lib, barcha ayollarga ham taalluqlidir. Ko‘pincha ayollarimiz beparvo bo‘lib: “Yoshi katta erkaklar qaramasa kerak, qari chol-ku” deydilar. Aslida bu noto‘g‘ri qarash. Chunki erkak qari bo‘lsa ham uning qalbida va nafsida ayollarga moyillik saqlanib qoladi. Hatto 80 yoshga kirgan chol ham yosh qizni ko‘rsa fitnalanib qolishi mumkin. Shu bilan birga, erkak kishi qari kampir bilan ham fitnalanib qolishi ehtimoli bor. Qur’onda ham ayollarga iffatlarini saqlash buyurilgani, aynan barcha yoshdagi erkaklar uchun bu fitna mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Sakkizinchi foyda: Ayol erkakka eng katta zararini uning diniga beradi. Boshqa fitnalar erkakning dunyosiga zarar qilishi mumkin - oilaviy janjallar, ijtimoiy tartibsizliklar va hokazo. Ammo ayol fitnasi erkakni dinidan ayirsa, bu uni oxiratda jahannamga olib kiradigan eng katta zarar bo‘ladi. Demak, diniga ta’sir qiladigan fitna - fitnalar ichidagi eng og‘iridir.

To‘qqizinchi foyda: Fitnalar sabab ayol kishining bo‘yniga tushadigan gunoh juda ulkan gunohdir. Chunki u o‘zining harakati yoki ochiqligi bilan erkaklarni fitnaga solsa, bu orqali ko‘plab gunohlar jamlanadi. Shu sababdan ham do‘zax ahlining aksariyati ayollar ekanligi hadislarda zikr qilingan.

Bir erkak birgina ayolni ko‘rib gunohkor bo‘lsa, bir ayol ko‘chaga chiqqanida qancha ko‘p erkak unga qarasa, ularning har biri gunohga botadi va bu ayolning o‘zi ham ularning gunohlaridan ulushdor bo‘ladi. Shunga qarab uning jazosi ham og‘ir bo‘ladi.

Bunday fitna natijasida oilalar buzilib ketishi mumkin, erkaklar o‘z xotinidan ko‘ngli to‘lmay qoladi, natijada jamiyatda ijtimoiy halokatlar yuz beradi. Shuning uchun ayol o‘zini fitnaga sababchi qilmasligi, satrini saqlashi va iffati bilan jamiyatni asrashi lozim.

9-hadis

Ayol makonati

Muallif shunday deydi: “Ayolning maqomining oliyligidan islom uning oldiga har qanday insonning kirib-chiqishiga ijozat bermaydi.”

Maqomining oliyligi - bu ayolning darajasi yuksak ekanini anglatadi. Bilamizki, darajasi yuksak insonlarning oldiga hamma xohlagan paytida kira olmaydi. Masalan, podshohning, amaldorning yoki prezidentning huzuriga kim xohlagan paytida kira oladimi? Yo‘q, faqat o‘ziga yaqin bo‘lgan xos kishilargina kira oladi. Bu holat ularning “mazlumligi”dan emas, balki maqomining oliyligi va hurmatidan dalolatdir.

Xuddi shuningdek, islomda ayolning oldiga ham har kim xohlagancha kirib-chiqib yurmaydi. Bu uning kamsitilgani yoki “zo‘rlik bilan o‘rab qo‘yilgani” emas, balki maqomining oliyligi, zoti sharifligi uchundir.

Johillar esa bu haqiqatni tushunmaganidan ayollarni “mazlum” deb atashadi. Holbuki, ayolning hijobi, pardasi, cheklanishlari uning xorligidan emas, balki Alloh taolo uni oliy maqom egasi qilib yaratganidan, uni muhofaza qilish zaruratidan kelib chiqadi.

عَنْ عُقْبَةَ بْنِ عَامِرٍ رضي الله عنه أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ قَالَ: «إِيَّاكُمْ وَالدُّخُولَ عَلَى النِّسَاءِ». فَقَالَ رَجُلٌ مِنَ الْأَنْصَارِ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، أَفَرَأَيْتَ الْحَمْوَ؟ قَالَ: «الْحَمْوُ الْمَوْتُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Sizlar, ayollarning oldiga kirib-chiqishdan saqlaninglar!” Shunda ansorlardan bir kishi: “Ey Rosulullоh, qudalarchi, ular haqida nima deysiz?” deb so‘radi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Qudalar ham o‘limdir.”

Hadisda zikr qilingan “qudalar” deganda - ayol uchun nomahram bo‘lgan qarindosh qudalar nazarda tutiladi. Masalan, kelin uchun qaynota mahram hisoblanadi, uning huzuriga kirishda shariatda muammo yo‘q. Ammo qayni aka, qayni uka kabi nomahram qudalar - kelinning oldiga kirib yurishiga ruxsat yo‘q. Shu sababdan Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Qudalar ham o‘limdir” dedilar. Ya’ni bu masalada loqaydlik qilish, nomahram qudalar bilan aralashib yurish katta fitna va halokat sababidir. Uydagi eng xavfli fitna ham shundan boshlanishi mumkin.

Demak, ayollarning “maqomi oliyligi” deganda ham aynan shu ma’no yotadi: ular begona erkaklarning - xoh quda, xoh boshqa - nazariga tushib yurmaydilar, nomahramlardan muhofaza qilinadilar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Hadisdan ma’lum bo‘ladiki, erkaklarning mahram bo‘lmagan ayol huzuriga kirishi ham, ayollarning mahram bo‘lmagan erkak huzuriga kirishi ham hilvat (yolg‘izlik) holatida qat’iyan man qilingan.

Ya’ni agar erkak bir ayolning oldiga yolg‘iz kirsa yoki ayol erkakning oldida yolg‘iz bo‘lsa - bu hilvat bo‘lib, shariatda og‘ir gunoh sanaladi. Chunki bunday holatda fitna sodir bo‘lishi osonlashadi. Ammo oldida uchinchi shaxs bo‘lsa yoki jamoat joyida bo‘lsa - masalan, bozor, do‘kon, taksi, transport yoki boshqa ommaviy joylarda - bu hilvat hisoblanmaydi. Lekin bunda ham satr va odob chegaralariga qat’iy rioya qilish lozim bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Erkaklar begona ayol bilan hilvatda qolishi man qilingani kabi, ayol ham bundan tiyilishi lozim. Masalan, ayol yolg‘iz o‘zi taksiga chiqmaydi, liftga ham yolg‘iz holda bir erkak bilan chiqmaydi. Agar boshqa ayollar bilan chiqsa mumkin, muhimi - nomahram erkak bilan hilvatda yolg‘iz qolmaslikdir.

Uchinchi foyda: Ayollarning oldiga kiradiganlardan eng xatarlisi - erining qarindoshlari (qayni aka, qayni uka) hisoblanadi. Chunki ular aslida nikohlanishi halol bo‘lgan kishilar. Ayol turmushga chiqmaganida yoki eri vafot etganda, ajrashganda ularga erga tegishi mumkin edi. Shu sababdan ularga beparvo qarash katta xato. Ko‘p hollarda “nima bo‘ladi, qaynim-ku, mendan kichkina-ku” degan beparvolikdan fitna boshlanadi.

To‘rtinchi foyda: Odamlar odatlangan, “erining akasi yoki ukasi kelin oyisining oldiga kirib-chiqib yurishi” degan holat juda xatarli. Ayniqsa ular bo‘ydoq bo‘lsa, bunday vaziyat fitna xavfini yanada oshiradi.

Beshinchi foyda: Erning qarindoshlari bilan hilvatda yolg‘iz qolish holatlari voqelikda boshqalardan ko‘ra ko‘proq uchraydi. Shu sababdan ulardan saqlanishga yanada ko‘proq ehtiyot qilish kerak bo‘ladi.

Begona erkaklar - qo‘shni, oshna va boshqa tanishlardan ayol ko‘proq ehtiyot bo‘ladi, ularni uyga kiritishda odamlar ham ogoh bo‘ladi. Lekin erning aka-ukalari yoki qarindoshlari kirib chiqishi odatiy holatdek qaraladi. “O‘zingning akang-ku, ukang-ku” deb beparvo bo‘lishadi.

Aynan shu beparvolik sababidan fitna xavfi kattaroq bo‘ladi. Chunki qayni aka yoki qayni uka kirib chiqsa, hech kim gumon qilmaydi. Inkor va to‘sqinlik bo‘lmaganidan foydalanib, shayton u yerda yomonlikka yo‘l ochishi mumkin.

Biz tomonlarda bir hovlida bir necha oila birga yashashi odat bo‘lgani uchun bu xatar yanada kuchayadi. Bundan tashqari erning do‘stlari va qo‘shnilari ham uyga bemalol kirib-chiqaverishi odatiy hol bo‘lib qolgan. Aslida esa bu ham fitna uchun yo‘l ochadi. Shuning uchun, begonadan ko‘ra o‘z qarindoshidan fitna ko‘proq kutiladi. Shariatning “qudalar o‘limdir” degan ogohlantirishi aynan shuning uchun kelgan.

Oltinchi foyda: Erning yaqinlari bilan hilvatda qolish ayol uchun turli jihatdan halokatli bo‘ladi.

Hadisdagi “qudalar o‘limdir” degan ibora - ayolning turli tomondan halokatga yuz tutishini anglatadi.

Birinchidan, agar ma’siyatga tushib qolsa, bu uning dunyo va oxiratini barbod qiladi.

Ikkinchidan, ma’siyat sodir bo‘lmagan taqdirda ham, shubha va rashk sababidan er uni taloq qilishi mumkin. Shubha va gumon ham oilaning buzilishiga yetarli bo‘ladi.

Yana bir xavfli holat: rashk va g‘azab tufayli er hatto o‘ldirib qo‘yishi ham mumkin. Bu esa dunyoviy halokatdir.

Eng katta halokat esa - ayol beparvoligi sababida erini gunohga solib, oxiratda ikkovining ham jahannamga ketishi.
Shunday qilib, hilvatning o‘zi ma’siyatga olib bormasa ham, uning oqibatlari ayolni ham, erini ham halokatga olib kirishi mumkin.

Yettinchi foyda: Erning yaqinlari bilan hilvatda qolish - ayol uchun o‘lim manzilatida bo‘ladi. Bu holatga shariatda “o‘lim” deb baho berilgani ham shundan. Ya’ni ayol va erkak bunday vaziyatni o‘limdan saqlangandek saqlanishi lozim. Inson o‘zini ongli ravishda jarga tashlamaganidek, qo‘lini elektrga tiqmaganidek, hilvatdan ham qat’iy ehtiyot bo‘lishi kerak. Hadisdagi “qudalar o‘limdir” so‘zi - “ayol o‘zingni qanday o‘limdan ehtiyot qilsang, eringning qarindoshidan ham shunday ehtiyot qil” degan ma’noda. Shuningdek, er ham o‘z ayolini bunday xatardan xuddi o‘limdan ehtiyot qilgandek himoya qilishi lozim.

Sakkizinchi foyda: Erning yaqinlari bilan hilvat - ayolning dinini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘limdan ham ko‘ra xavfliroq. Chunki o‘lim faqat dunyo hayotini tugatsa, dinni ketkazish oxiratni ham halokatga mahkum qiladi.

10-hadis

Jamol va yoshlikni Allohni roziligida ishlat

Muallif shunday deydi: “Chiroying va yoshligingdagi go’zalligingni ummatni xalok qilmaydigan narsalarga yo’naltir.”

عَنْ أَبِي سَعِيدٍ الْخُدْرِيِّ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «إِنَّ الدُّنْيَا حُلْوَةٌ خَضِرَةٌ، وَإِنَّ اللَّهَ مُسْتَخْلِفُكُمْ فِيهَا فَنَاظِرٌ كَيْفَ تَعْمَلُونَ، فَاتَّقُوا الدُّنْيَا وَاتَّقُوا النِّسَاءَ، فَإِنَّ أَوَّلَ فِتْنَةِ بَنِي إِسْرَائِيلَ كَانَتْ فِي النِّسَاءِ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam shunday dedilar: “Albatta dunyo shirin va yam-yashildir. Albatta Alloh sizlarni unda xalifa qildi va sizlarning qanday amal qilishingizga qaraydi. Shuning uchun dunyodan taqvo qilinglar va ayollardan taqvo qilinglar. Albatta Bani Isroilning fitnalarining birinchisi ayollarda edi.”

Demak dunyoning fitnasi ikki tomonlama ekan:

Hulva - shirinligi: dunyo insonga ta’m berib qo‘yadi, og‘zida mazasi qoladi. Bir marta tatib ko‘rgan odam yana qayta istaydi. Mol, mansab, lazzat - bular hammasi og‘izda totiqlik qoldirib, qayta-qayta tortib turadi.

Xodiro - yam-yashilligi: hatto undan totib ko‘rmagan kishi ham ko‘rinishi uchun unga oshufta bo‘ladi. Go‘yo yashil o‘tloqday chiroyli ko‘rinadi, insonni o‘ziga chaqiradi.

Shu ikki jihati - tatib ko‘rganini ham, hali tatib ko‘rmaganini ham fitnaga tortadi. Shuning uchun Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Dunyodan taqvo qilinglar” deb ogohlantirdilar.

Alloh insonni shunday qilib sinaydi: uni dunyoga halifa qiladi. Bir avlod o‘tadi-da, o‘rniga yangi avlod keladi. O‘tgan ajdodlar ketib, yangilari kelaveradi. Alloh taolo Odam alayhissalomni yaratgan chog‘ida: “Men yerda halifa qilaman” deganida ham ana shu ma’no mujassamdir. Ya’ni insonlarning bir avlodi o‘tadi, o‘rniga yangisi keladi.

Buni tushunish juda muhim. Sababi, hozirgi odamlar go‘yoki dunyo faqat o‘zinikidek deb o‘ylaydi. Holbuki, agar hadisni anglasalar: “Avvalgilar kelib ketganidek, men ham kelaman, men ham ketaman, mendan keyin ham qoladi” degan ma’noni ko‘rgan bo‘lar edilar. Hadisda: “Sizlarni o‘rinbosar qilib qo‘yadi va sizlarning qanday amal qilishingizga qaraydi” deyilgan.

Hech kimga Alloh uni yaxshi ko‘rganidan dunyoni bermaydi. Insonlar esa ko‘pincha buni noto‘g‘ri tushunadilar: “Menga dunyo berildi, demak Alloh meni yaxshi ko‘radi” deydilar. Aslida esa unday emas. Alloh: “Qani, bandam qanday amal qiladi?” deb sinaydi. Shuning uchun ham hadisda: “Dunyodan taqvo qilinglar” deyildi. Ozgina dunyo qo‘liga kelgan odam “Allohning nazari menga tushdi” deb o‘ylab qolmasin, balki undan taqvo qilsin.

Misol uchun: kimdir muzlatkichni ochib, mushuk oldiga qo‘yib qo‘ysa, mushuk ham: “Egasi meni yaxshi ko‘radi, hamma narsani menga ochib berdi”, deb o‘ylaydi. Holbuki, egasi uni sinayapti. Xuddi shunday, Alloh dunyoni bandalarga ochib qo‘ysa, ular ham “Alloh meni yaxshi ko‘ryapti” deb o‘ylashadi. Aslida esa bu sinovdir. Mushuk egasining uni sinayotganini anglamaydi. Inson ham Alloh uni sinayotganini ko‘pincha tushunmaydi. Shuning uchun Qur’on va hadisda: “Dunyodan qo‘rqinglar” deyiladi. Mushuk kaltak yeganda qo‘rqqani kabi, inson ham boshiga sinov kelganda qo‘rqishi va hushyor bo‘lishi kerak. Shuningdek, Rosulullоh: “Ayollardan ham ehtiyot bo‘linglar” deb ogohlantirganlar. Chunki ayollar ham dunyoning eng shirin va ko‘rkam fitnalaridandir.

Hadis aslida erkaklarga tegishli bo‘lsa-da, bundan shuni tushunamizki, ayollarga berilgan chiroy va ko‘rkamlik ham o‘zlariga fitna bo‘ladi. Chunki bu go‘zallik – Allohning ularga bergan sinovi. Inson unga qanday munosabatda bo‘lishi, uni qanday ishlatishi bilan sinovdan o‘tadi.

Demak, ayollarning sinovi faqat erkaklarga emas, balki o‘zlariga ham taalluqlidir. Ularning chiroyli bo‘lishi o‘zlari uchun ham sinovdir. Shu bois hadisda: “Bani Isroilning fitnasining boshi ayollarda edi” deb aytilgan. Avvalo ayollar o‘zini ko‘rsatishni istagan, keyin esa erkaklar buzilgan. Ularning birinchi buzulishi – ayollarning fitnasidan boshlangan.

Shuning uchun ham ular butun dunyo bo‘ylab ayollar fitnasini yoyishga harakat qilmoqdalar. O‘z tarixlarida ayollari hijobsiz bo‘lgani uchun, endi boshqa xalqlarning ayollarini ham shunday qilishni istaydilar. Axloqsizlikni targ‘ib qilib, ayollarning ziynati va go‘zalligini noto‘g‘ri yo‘nalishga burmoqdalar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Dunyo shirin va ko‘rkamdir. Lekin biz uning fitnasidan saqlanishga buyurilganmiz. Xuddi shuningdek, ey ayol, sening o‘zinga ham nafislik, go‘zallik va rohatlanish ato etilgan. Shu sababdan erkaklarga sening fitnangdan ehtiyot bo‘lish buyurilgan. Zero, qars ikki qo‘ldan chiqadi. Shuning uchun bu hadisni ham erkaklarga, ham ayollarga tegishli deb tushunish lozim.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining fitnasi, agar u Allohdan taqvo qilmasa, butun jamiyatning halok bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu, “Bani Isroilning fitnasining boshi ayollarda edi” degan ma’nodan kelib chiqadi. Ba’zi johil ayollar: “Men ularni qarasin deb qilmadim” deya aytishlari mumkin. Ammo bunday o‘rinsiz gap butun jamiyatning buzilishiga, halokatga yuz tutishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi foyda: Erkak uchun ayol kishining fitnasi faqat begona ayol bilan cheklanmaydi. Xuddi shuningdek, uning o‘z xotini ham fitnaga sabab bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchi foyda: Xotinning eriga fitnasi ko‘pincha begona ayolning fitnasidan ham kuchliroq bo‘ladi. Chunki begona ayoldan erkaklar odatda cho‘chiydi, ehtiyotini oladi, hatto ozgina taqvoli odam ham begona ayol bilan bir xonada qolishdan qo‘rqadi. Lekin erkak o‘z xotinidan qo‘rqmaydi. Bu yerda gap shahvoniy fitna haqida emas, balki ayolning erining ishlari va diniy hayotiga aralashib, unga ta’sir o‘tkazishi haqida bormoqda.

Nega erkak o‘z ayolidan fitnaga uchraydi? Sababi, ular birga uzoq yashaganida, er asta-sekin ayolning ta’sirida qoladi va ayol uni diniy amallardan chalg‘itayotganini sezmay qolishi mumkin. Ayol o‘zining erini fitnalash qudratidan foydalanib, uni ibodatlarni tark etishga undaydi, ma’siyatlarga jalb qiladi. Masalan, onalar farzandlarini ilm olishdan to‘sadi, xotinlar esa erlarini hijratdan qaytaradi. Natijada, ko‘plar hijratdan va toatlardan qolib ketadi, ba’zida esa ma’siyatlarga qo‘l urib qo‘yadi.

Alloh taolo Qur’onda: “Sizlarning ayollaringiz va farzandlaringiz orasida sizlarga dushman bo‘luvchilar ham bor” deb ogohlantirgan. Ushbu oyatning nozil bo‘lish sababi haqida rivoyat qilinishicha, Makkadan Madinaga ko‘chib kelgan sahobalarning ayrimlari avvalroq hijrat qilgan musulmonlar kabi Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bilan birga bo‘lib, ko‘p amallar qilib, ilm olish imkonidan mahrum bo‘lib qolgan edilar. Chunki ularning xotinlari hijratdan to‘sib qolgan edi. Shunda bu oyat nozil bo‘ldi.

Demak, ko‘pincha ayollar erlarini fitnaga soladi: ya’ni ularni toatlarni tark qilishga undaydi, ma’siyatlarga yo‘naltiradi.

Beshinchi foyda: Bani Isroilning fitnasi avvalo ayollar fitnasi bilan boshlangan. Rosululloh sollallohu alayhi va sallam bizga bu ma'lumotni yetkazishni istadilar. Ya'ni erkaklar ayollar fitnasidan ehtiyot bo'lishlari lozim. Ammo biz uchun bu fitnaning tafsilotlarini chuqur muhokama qilish muhim emas. Chunki fitnaning ko'rinishi zamon va makonga qarab o'zgaradi. Lekin uning ildizi, ya'ni o'zagi baribir ayol bo'lib qoladi.

Bani Isroil zamonida bo'lgan voqealarning tafsiloti bugun biz uchun ahamiyatli emas, chunki u paytdagi fitnaning shakli o'sha davrga mos bo'lgan, keyinchalik esa suratlari o'zgarib ketdi. Ammo mastar, ya'ni asosiy sabab o'zgarmaydi – u ayoldir. Bu ayol mahram bo'ladimi yoki begona bo'ladimi, baribir insonga fitna keltirishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Oltinchi foyda: Dunyo fitnasi bilan ayollar fitnasi birga zikr qilingan. Bu esa ikkisidan keladigan xavfning naqadar kuchli ekaniga dalildir. Ya'ni dunyo qanday fitna bo'lsa, ayollar ham shunday fitnadir. Dunyoga nisbatan ishlatilgan ta'riflar – uning chiroyliligi va shirinligi – ayollarga ham o'xshatilmoqda. Bu esa ayollarning fitnasi ham quvvatli va kuchli ekanini bildiradi. Demak, dunyoda qanday fitna mavjud bo'lsa, ayollarda ham xuddi shunday fitna borligi ogohlantirilmoqda.

11-hadis
Nomahram bilan ko'rishma

Muallif shunday deydi: “Mahramlaringdan boshqa biror erkak bilan qo‘l berib ko‘rishma.”

Bizning yurtlarda esa erkak va ayolning qo‘l berib ko‘rishishi oddiy holdek qaraladi. Biroq shuni bilish lozimki, qarindoshlarning farzandlari – amakining, tog‘aning farzandlari, qo‘shnilar, sinfdoshlar va boshqalar – barchasi nomahram hisoblanadi. Ayol uchun erkakka erga tegish joiz bo‘lsa yoki erkak uchun u ayolga uylanish joiz bo‘lsa, demak ular bir-biriga nomahramdir.
Nomahramlar bilan qo‘l berib ko‘rishish shar’an joiz emas.

عَنْ أُمَيْمَةَ بِنْتِ رُقَيْقَةَ أَنَّهَا قَالَتْ: أَتَيْتُ النَّبِيَّ ﷺ فِي نِسْوَةٍ مِنَ الْأَنْصَارِ نُبَايِعُهُ، فَقُلْنَا: يَا رَسُولَ اللَّهِ نُبَايِعُكَ عَلَى أَنْ لَا نُشْرِكَ بِاللَّهِ شَيْئًا، وَلَا نَسْرِقُ، وَلَا نَزْنِيَ، وَلَا نَأْتِيَ بِبُهْتَانٍ نَفْتَرِيهِ بَيْنَ أَيْدِينَا وَأَرْجُلِنَا، وَلَا نَعْصِيكَ فِي مَعْرُوفٍ. قَالَ: «فِيمَا اسْتَطَعْتُنَّ وَأَطَقْتُنَّ». قَالَتْ: فَقُلْنَا: اللَّهُ وَرَسُولُهُ أَرْحَمُ بِنَا، هَلُمَّ نُبَايِعْكَ يَا رَسُولَ اللَّهِ. فَقَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «إِنِّي لَا أُصَافِحُ النِّسَاءَ، إِنَّمَا قَوْلِي لِمِائَةِ امْرَأَةٍ كَقَوْلِي لِامْرَأَةٍ وَاحِدَةٍ»

Umaymat bintu Ruqayqa roziyallohu anho rivoyat qiladi: “Men ayollar orasidan ansorlar bilan birga Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamga bay’at berish uchun bordim. Biz aytdik: ‘Yo Rosulullоh, biz sizga bay’at berish uchun keldik. Biz shunday dedik: ‘Allohga biron narsani shirk keltirmaslikka, o‘g‘rilik qilmaslikka, zino qilmaslikka, qo‘llarimiz va oyoqlarimiz orasidan to‘qib chiqaradigan bo‘htonlarni keltirmaslikka bay’at beramiz. Yaxshilikda sizga itoatsizlik qilmaslikka bay’at beramiz.’

Shunda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Qodir bo‘lgan va toqatlaringiz yetgan narsalarda bay’at beringlar” — dedilar.
Biz, ayollar: “Alloh va Rosuli bizga bizning o‘zimizdan ham rahmliroq” — dedik. Keyin: “Keling, ey Rosulullоh, sizga bay’at beraylik” — dedik. Shunda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Men ayollar bilan qo‘l berib ko‘rishmayman. Mening yuz ayolga aytgan so‘zim, bir ayolga aytgan so‘zim bilan barobar. Yoki bir ayolga aytganimning mislidur” — dedilar.

Aslida islomda barcha narsalarda amal qilishga bay’at olinadi. Lekin bu o‘rinda eng asosiy va ko‘p uchraydigan muammolar tilga olingan.

Birinchisi — shirk. Bu eng katta gunohdir. Masalan, baxshiga borish, Allohdan boshqasiga atab qon chiqarish, ip bog‘lash, folchiga murojaat qilish va shunga o‘xshash ishlarning barchasi shirkdir. Shu bois, ayollardan olingan bay’atlarning birinchisi ham: “Allohga biron narsani sherik qilmaslik” bo‘ldi. Ayollar bunga bay’at berdilar.

Ikkinchisi — o‘g‘rilik qilmaslik. Bunga birovning mol-mulkini yashirincha olib ketish, qarz olib qaytarmay qo‘yish va o‘g‘rilikning barcha turlari kiradi.

Uchinchi bay’at — zino qilmaslik. Bu ham jamiyatni buzadigan eng katta gunohlardan biridir.

To‘rtinchi bay’at — bo‘hton keltirmaslik. Ya’ni tuhmat qilish, birovga yolg‘on ayb qo‘yish. Hadisda “qo‘llarimiz va oyoqlarimizdan to‘qiydigan bo‘hton” deyilganda, nafs nazarda tutiladi. Chunki insonning nafs manbai uning o‘zida, qo‘l va oyoqlarining orasidadir. Ya’ni nafsimizga ergashib birovga tuhmat qilmaslik, birovning haqqiga yolg‘on gapirmaslik. Muhimi, uydirma narsani boshqalarga isnod qilmaslik.

Beshinchisi bay’at — “Yaxshilikda sizga osiy bo‘lmaslikka bay’at berdik”. Aslida Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam hech qachon yaxshilikdan boshqa narsaga buyurmas edilar. Ammo bu so‘z umumiy tanbeh sifatida keltirilgan: ya’ni boshqalarga ham yaxshilikda itoatsizlik qilmaslikni eslatish. Yomonlikda esa itoat qilinmaydi. Masalan, erga ham, ota-onaga ham, podshohga ham yomonlikda itoat qilinmaydi.

Hatto Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam yomonlikka buyurmagan bo‘lsalar-da, baribir ayollar: “Yaxshilikda sizga osiy bo‘lmaymiz” deb bay’at berdilar.

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam esa: “Qodir bo‘lganingizcha, toqatlaringiz yetganicha” — deb qo‘shimcha qildilar. Chunki qasamyod aytish oson, ammo unga amal qilish qiyin bo‘ladi. Shu bois, toqat va qudrat shart qilib qo‘yildi. Ayollar buni eshitib: “Alloh va Rosuli bizga bizning o‘zimizdan ham rahmliroq ekanlar” — dedilar. Ya’ni: “Bizning hayolimizga kelmagan narsalarni ham Rosulullоh eslatib qo‘ydilar” degan ma’noda.

Shu hadisdan ma’lum bo‘ladiki, shariat hech qachon insonning toqati yetmaydigan narsaga buyurmagan. Aksincha, odam “bunga toqatim yetadi” deb o‘ylagan joyida ham shariat: “toqating yetganicha” deb eslatadi. Demak, hech kim: “Shariatdagi mana bu narsaga toqatim yetmaydi” deyolmaydi. Zero, shariat barcha ishlarni imkon darajasida buyurgan.

Keyin ayollar: “Bay’at beraylik” dedilar. Bay’at odatda qo‘l bilan amalga oshiriladi. Shunda ayollar ham: “Biz ham erkaklardek qo‘l berib bay’at qilamiz” deb o‘yladilar. Ammo Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Men ayollar bilan qo‘l berib ko‘rishmayman. Men sizlardan og‘zaki bay’at olaman. Sizlar aytasizlar, men qabul qilaman, shu yetarli” — dedilar.

Yana dedilarki: “Yuzta ayolga aytgan so‘zim, bir ayolga aytgan so‘zim kabidir.” Ya’ni, agar yuz ayol birgalashib turib, ulardan bittasi kelib bay’at so‘zlarini aytsa, bu hamma ayolning nomidan qabul qilinadi. Har biridan alohida-alohida bay’at olib chiqish shart emas.

Demak, bu hadis Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning ayollar bilan qo‘l berib ko‘rishmaganlariga dalildir. Endi kimdir: “Amakimning o‘g‘li, tog‘amning qizi yoki yoshi katta odam menga yomon niyatda emas, shunchaki qo‘l beradi” desa, bunga javob shuki: Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning o‘zlari ham hech qachon yomon maqsadda qo‘l bermaganlar. Lekin shunda ham ular biror ayol bilan qo‘l berib ko‘rishmagan. Shu bois, “niyatga bog‘liq” degan gap o‘rinsizdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayollarni katta gunohlarga tushib qolishdan ogohlantirilmoqda. Shirk, tuhmat, zino, bo‘hton, o‘g‘rilik — bularning barchasi katta gunohlar jumlasidandir.

Ikkinchi foyda: Ayolning eridan bo‘lmagan farzandni eridan deb nisbat berishi haromdir. “Qo‘llarimiz va oyoqlarimizdan to‘qigan narsani bo‘hton qilmaymiz” degan bay’at shartidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, ayol boshqa erkakdan bola orttirib, uni eridan deb da’vo qilishi — bo‘hton uyushtirishdir.

Uchinchi foyda: Ayollarning itoati faqat yaxshiliklarda bo‘ladi. Ota-ona yoki er yaxshilikka buyurganda itoat qilish vojibdir. Ammo Alloh taoloning hukmlarida, masalan hijob o‘rash, namoz o‘qish kabi amallarda ularga itoat qilinmaydi. Zero, bu amrlar bevosita Allohning hukmidir.

To‘rtinchi foyda: Ayolning nomahram erkak bilan qo‘l berib ko‘rishishi haromdir. Shuningdek, uning jasadiga tegishi ham harom hisoblanadi. Demak, qo‘l bermasa tirsak bilan bo‘lishi mumkin degani emas. Har qanday holda jasadiga teginish — erkak uchun ham, ayol uchun ham haromdir.

وَقَدْ وَرَدَ فِي الْحَدِيثِ الصَّحِيحِ الَّذِي أَخْرَجَهُ الطَّبَرَانِيُّ وَالْبَيْهَقِيُّ عَنْ مَعْقِلِ بْنِ يَسَارٍ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ قَالَ: «لَأَنْ يُطْعَنَ فِي رَأْسِ أَحَدِكُمْ بِمِخْيَطٍ مِنْ حَدِيدٍ خَيْرٌ لَهُ مِنْ أَنْ يَمَسَّ امْرَأَةً لَا تَحِلُّ لَهُ»

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Sizlardan biringizning boshiga temirdan yasalgan bigiz sanchilgani, o‘zi uchun halol bo‘lmagan ayolga teginishidan yaxshiroqdir.”

Beshinchi foyda: Shariatning hukmlari ayol kishidan ham qodir bo‘lganicha va toqati yetadigan darajada talab qilinadi. Alloh biron jonni toqatidan tashqaridagi narsaga buyurmaydi.

Oltinchi foyda: Qodirlik va toqatning chegarasi insonning havoyi nafsiga qurilmagan, balki shar’iy me’yorga binoan belgilanadi. Ya’ni hech kim: “Mening toqatim yetmadi, bu joy menga to‘g‘ri kelmadi” deb aytolmaydi. Agar shunday deyish mumkin bo‘lsa, oqibatda dinning biror hukmi ham qolmaydi. Chunki har kim o‘z nafsiga yoqmagan narsani rad etaveradi. Masalan, ko‘p xotinlik yoki hijob unga yoqmasligi mumkin. Yoki kimdir: “Ishim uchun xo‘jayinim bilan qo‘l berib ko‘rishishim kerak, bunga toqatim yetmaydi” deb bahona qilishi mumkin. Agar shunday ruxsat berilsa, shariatdagi barcha hukmlar odamlarning nafslariga qurbon bo‘lib ketadi. Shu sababli qodirlik va toqat chegarasi odamlarning havoyi nafsiga emas, balki shar’iy me’yorga asoslangan.

Bu qanday bo‘ladi, deyilsa — masalan, bir ayolning jasadi kasal bo‘lsa, ayol do‘xtir topilmagan holatda erkak do‘xtir uni davolashga majbur bo‘lsa, bu ayolning toqatidan tashqari bo‘lgan holat hisoblanadi. Shuning uchun shariat zarurat yuzasidan erkak do‘xtirning uni tekshirishida qo‘l tekkizishiga ruxsat bergan.

Yana, ayollar Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamga: “Yaxshilikda sizga osiy bo‘lmaymiz” deganlarida, bu ibora butun dinga amal qilishni o‘z ichiga olgandek bo‘lib qoladi. Holbuki, hech kimning qo‘lidan buni mukammal tarzda ado etish kelmaydi. Ana shunday paytlarda qodir bo‘lganicha amal qilish talab qilinadi. Masalan, sunnat amallarda — kim qodir bo‘lsa ado qiladi, qodir bo‘lmasa uzrli bo‘ladi.

Yettinchi foyda: Shariat qaytargan narsani “jamiyatning bosimi” yoki “insonlar shunga rag‘bat qilmoqda” degan hujjat bilan qilish joiz emas. Masalan, kimdir: “Hamma qo‘l berib ko‘rishyapti, men qanday qilib qo‘l bermayman?” desa, bu hech qachon uzr bo‘lmaydi.

O‘quv muassasalarida, masalan, o‘qituvchilar yoki direktorlar diplom topshirishda qo‘l berib ko‘rishib taqdim qilish odat bo‘lsa-da, bunday vaziyatda ham qo‘l berish joiz emas. Shariat qaytargan narsani “o‘qishdan haydab yuborishlari mumkin”, “odamlar shuni istayapti”, “qarindoshlar majburlayapti” kabi bahonalar bilan qilish mumkin emas.

Bunday holatlarda qarshilik ko‘rsatish va sabr qilish ayolning jihodi hisoblanadi.

Sakkizinchi foyda: Allohning ayollarga rahmati buyukdir. Chunki ayolning qudrati va toqati yetishiga qarab ulardan talab qilinadi. Bu esa Allohning ayollarga bo‘lgan rahm-shafqatining dalilidir.

To‘qqizinchi foyda: Erkak kishining ayolni eshitishi joiz, agar ayol o‘z so‘zi yoki fe’li bilan erkakni o‘ziga moyil qilmasa. Agar ayolning ovozi harom bo‘lganida, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ularni eshitmagan bo‘lardilar. Demak, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam eshitgan ekanlar, erkaklar ham ayolning ovozini eshitishlari joizdir. Xuddi shuningdek, ayol ham erkakni eshitishi mumkin. Faqat bunda yumshoq gapirib, ishora qilib yoki boshqa fe’l bilan uni o‘ziga moyil qilishi mumkin emas. Shunday hol bo‘lmasa, erkak va ayolning gaplashishi shar’an joizdir.

12-hadis

Erkak bilan xilvatda qolma

Muallif shunday deydi: “Bir erkak bilan holi qolayotgan paytingda bilginki, uchinchilaringiz shaytondir. Undan (shaytondan) nimani kutasan?”

Tabiiyki, shaytonning fitna qilishi kutiladi. U hech qachon qarab o‘tirmaydi. Shu sababdan hech qachon ayol bilan erkak holi qolmaydi. Masalan, yolg‘iz liftga chiqish, taksiga chiqish, maktablarda va shunga o‘xshash joylarda erkak va ayolning yakkama-yakka qolishi haromdir.

عَنْ ابْنِ عُمَرَ رضي الله عنه قَالَ: خَطَبَنَا عُمَرُ رضي الله عنه بِالْجَابِيَةِ فَقَالَ: يَا أَيُّهَا النَّاسُ، إِنِّي قُمْتُ فِيكُمْ كَمَقَامِ رَسُولِ اللَّهِ ﷺ فِينَا، فَقَالَ: «أُوصِيكُمْ بِأَصْحَابِي، ثُمَّ الَّذِينَ يَلُونَهُمْ، ثُمَّ الَّذِينَ يَلُونَهُمْ، ثُمَّ يَفْشُو الْكَذِبُ حَتَّى يَحْلِفَ الرَّجُلُ وَلَا يُسْتَحْلَفُ، وَيَشْهَدَ الشَّاهِدُ وَلَا يُسْتَشْهَدُ. أَلَا لَا يَخْلُوَنَّ رَجُلٌ بِامْرَأَةٍ إِلَّا كَانَ ثَالِثُهُمَا الشَّيْطَانُ. عَلَيْكُمْ بِالْجَمَاعَةِ وَإِيَّاكُمْ وَالْفُرْقَةَ، فَإِنَّ الشَّيْطَانَ مَعَ الْوَاحِدِ، وَهُوَ مِنَ الِاثْنَيْنِ أَبْعَدُ، مَنْ أَرَادَ بُحْبُوحَةَ الْجَنَّةِ فَلْيَلْزَمِ الْجَمَاعَةَ، مَنْ سَرَّتْهُ حَسَنَتُهُ وَسَاءَتْهُ سَيِّئَتُهُ فَذَلِكُمُ الْمُؤْمِنُ»

Ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Umar roziyallohu anhu Jobiya degan joyda bizga xutba qildilar. Umar roziyallohu anhu dedilar: ‘Ey odamlar! Men sizlarning ichingizda turibman, xuddi Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam shu joyda turganlaridek.’ Chunki o‘sha joyda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ham xutba qilgan edilar. Shunda Umar roziyallohu anhu o‘sha joyda turib, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning so‘zlarini eslatdilar: “Men sizlarga as’hoblarimni vasiyat qilaman. So‘ngra ulardan keyingilarni, so‘ngra ulardan keyingilarni. Keyin yolg‘on tarqaladi. Hatto bir kishi qasam ichadi, u qasam ichtirilmagan bo‘lsa ham. Bir kishi guvohlik beradi, undan guvohlik so‘ralmagan bo‘lsa ham. Ogoh bo‘linglar! Biror kishi bir ayol bilan holi qolmasin. Agar holi qolsa, ularning uchinchisi shayton bo‘ladi. Sizlar jamoatni lozim tutinglar, firqalanishdan saqlaninglar. Albatta shayton yolg‘iz bir kishi bilan bo‘ladi, ikki kishidan uzoqdir. Kim jannatning markazini istasa, u jamoatni lozim tutsin. Kimni yaxshiligi xursand qilsa va yomonligi hafa qilsa, ana o‘sha mo‘mindir.”

Hadisning bir qismi bizning mavzumizga tegishli bo‘lsa-da, u to‘liq holda keltiriladi. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam avval ashoblariga ergashishni vasiyat qildilar. So‘ngra ularning ortidan keladiganlarga, keyin esa ulardan keyin keladiganlarga ergashishni vasiyat qildilar. Ya’ni, sahobalar, tobeinlar va tab’ tabi’inlar — mana shu uch avlod. Biz uchun ergashish lozim bo‘lgan avlodlar ana shu uch toifadandir.

Shundan keyin esa yolg‘onchi kazzoblar ko‘payib ketadi. Shunday davr keladiki, bir kishi qasam talab qilinmagan bo‘lsa ham qasam ichadi. Yoki boshqa bir kishi undan qasam talab qilsa, albatta qasam ichishi lozim bo‘ladi.

Hadisda aytilishicha, kimki talab qilinmagan holda o‘z-o‘zidan qasam ichaversa, g‘oliban u yolg‘onchi bo‘ladi. Biroq ba’zan mustasno holatlar ham bo‘ladi: masalan, bir gapini ta’kid uchun qasam bilan kuchaytirishi mumkin. Lekin odatda talab qilinmagan joyda qasam ichish — insonning yomon sifatidan darak beradi.

Xuddi shuningdek, guvohlik ham. Odamlardan hech kim undan: “Buni ko‘rdingmi, eshitdingmi, guvohlik bera olasanmi?” deb so‘ramagan bo‘lsa ham, o‘zi chiqib guvohlik berishi ham insonning yomon xulqidan dalolat qiladi. Chunki guvohlik faqat so‘ralganda berilishi kerak. So‘ralmagan joyda guvohlik qilish — keraksiz va yomon sifatlardan biridir.

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Biron erkak bir ayol bilan holi qolmasin, chunki ular holi qolsa, uchinchilari shayton bo‘ladi.”

“Shuning uchun jamoatni lozim tutinglar” deganlar. Demak, imkon qadar inson yolg‘iz qolmasligi kerak. Na erkak yolg‘iz ayol bilan qolishi, na umuman odam o‘zi bo‘lib ketishi ma’qul. Chunki yolg‘izlikda shaytonning hujumi kuchli bo‘ladi. Bu nafaqat shahvoniy fitna, balki e’tiqodiy jihatdan ham xatarli.

Umuman olganda, jamoatni lozim tutish — sahobalar, tobeinlar va tab’ tabi’inlarning yo‘liga ergashishdir. Hadisdagi “jamoat”dan maqsad ham aynan mana shu uch avloddir. Bu, “ko‘pchilik qayerda bo‘lsa, o‘sha jamoat” degani emas. Hozirgi kunda ayrim odamlar “jamoat”ni ko‘pchilikka qarab yashash deb noto‘g‘ri tushunadilar. Aslida esa, jamoat — sahobalar, tobeinlar va tab’ tabi’inlarning yo‘li demakdir.

Hadisdagi “Firqalanmanglar” degani ham shundan dalolat beradi: ya’ni ana shu uch avlodning yo‘lidan ayrilmanglar. Chunki qancha odam yolg‘iz qolsa, shayton unga shunchalik hujum qiladi.

“Kimning yaxshiligi uni xursand qilsa va yomonligi hafa qilsa, u mo‘mindir” dedilar. Demak, bir kishi yaxshilik qilganda bundan xursand bo‘lsa, yomonlik qilganda hafa bo‘lsa — bu uning iymonli ekanining alomatidir. Agar buning aksi bo‘lsa, ya’ni inson yaxshilikdan ham, yomonlikdan ham ta’sirlanmasa, xursand ham, hafa ham bo‘lmasa, u mo‘min hisoblanmaydi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining mahramsiz bir erkak bilan xilvatda qolishi haromdir. Shu sababdan ayollarning yolg‘iz safar qilishlari ham qaytarilgan.

Ikkinchi foyda: Agar ayol erkak bilan xilvatda qolsa, ularning uchinchisi shayton bo‘ladi. Bu yerda “xilvatda” so‘ziga urg‘u berilgan. Demak, jamoat joyida zarurat yuzasidan erkak va ayolning gaplashishida biror qabihlik yo‘q. Ammo xilvatda qolishdan qat’iy qaytarilgan.

Uchinchi foyda: Ayol va erkak xilvatda qolganida shaytonning mavjudligi shundan dalolat beradiki, fujur va yomonlik eshiklari ular o‘rtasida ikki tabaqasi bilan ochilib ketadi. Ya’ni, ular xilvatda qolishi bilanoq fisq va fujur uchun barcha imkoniyatlar ochiladi.

To‘rtinchi foyda: Shaytonning davri avvalo ayolni erkak ko‘ziga ziynatli qilib ko‘rsatishi, erkakni ayol ko‘ziga ziynatli qilib ko‘rsatishi bilan boshlanadi. So‘ngra ularning ko‘ziga buni chiroyli qilib ko‘rsatadi va fahsh amallarini osonlashtirib beradi. Odam o‘zicha: “Mening nazarimda yomonlik yo‘q” deb o‘ylaydi, lekin aslida shayton ularni ziynatlab, chiroyli qilib ko‘rsatgan bo‘ladi. Oxirida esa fahsh yo‘li ular uchun yengil qilib qo‘yiladi.

Beshinchi foyda: Shariat haromga eltuvchi vositalarni to‘sish bilan kelgan. Xilvat nimaga harom qilindi? Chunki u haromga olib boradigan yo‘ldir. Shariat istilohida bu “zariyani to‘sish” deyiladi. Ya’ni haromga eltuvchi eshikni yopish.

Xilvat — zinoga tushib qolishga vosita hisoblanadi. Shu sababdan bu eshikni yopish uchun shariat xilvatni harom qildi. Alloh taolo Qur’onda: “Zinoga yaqinlashmanglar” (Isro surasi, 32-oyat) — deb amr qildi. Bu esa shuni anglatadiki, zinoning o‘zini emas, balki unga olib boradigan har qanday narsani ham tark qilish kerak. Chunki insonni asta-sekin shu yo‘lga boshlab boruvchi har bir amaldan qaytarilmasa, oxirida kishi zinoning o‘ziga ham tushib qolishi mumkin.

Ya’ni faqat “zina qilmanglar” degan bilan kifoyalanilmagan, balki “unga yaqinlashmanglar” deb qat’iy ta’kidlangan. Shunday ekan, zinoga olib boradigan barcha yo‘llar — ko‘z qarashi, yolg‘iz uchrashish, sirli suhbatlar, yashirin maktublar — barchasi man qilingan.

Bugungi kunda xilvatning ko‘rinishlari nafaqat jismoniy uchrashuvda, balki telefon orqali gaplashish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda maxfiy yozishmalar orqali ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun gaplashish zarurat tug‘ilganda ham jamoat joyida, ochiq va shubhasiz bo‘lmagan tarzda bo‘lishi kerak.

13-hadis

Ziynat sabab Allohning g‘azabiga qolma

Muallif shunday deydi: “Ziynating Allohning g‘azabidan uzoq ko‘rinishda bo‘lsin.”

Ayollar tabiatan ziynatlanadilar. Qur’onda ham zikr qilingan: “Ziynat ichida o‘stiriladigan qizlarni Allohga nisbat berib: ‘Allohning qizlari bor’ deydilarmi?!” (Zuxruf 18). Bu oyatda qizlarning ziynat ichida o‘stirilishi tabiiy sifat sifatida tilga olingan.

Lekin ziynat Allohning g‘azabiga sabab bo‘lmaydigan tarzda bo‘lishi shart. Hozirgi davrda esa ko‘plab ayollar bunga parvo qilmaydilar. Har qanday narsa ziynat bo‘lsa, uni ishlatish joiz deb o‘ylaydilar. “Erim uchun bo‘lsa bo‘lavergani” deydilar. Holbuki, aslida ziynat ham shariat chegarasida, Allohning g‘azabidan uzoq bo‘lishi kerak.

عَنْ ابْنِ عُمَرَ رضي الله عنه أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ قَالَ: «لَعَنَ اللَّهُ الْوَاصِلَةَ وَالْمُسْتَوْصِلَةَ، وَالْوَاشِمَةَ وَالْمُسْتَوْشِمَةَ». وَقَالَ نَافِعٌ: «الْوَشْمُ فِي اللِّثَةِ»

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Alloh soch ulovchi va soch ulattiruvchi ayolni la’natlagan. Shuningdek, chizuvchi va chizdiruvchini ham la’natlagan.”

Ayol kishining soch ulashi ziynatlanish uchun bo‘ladi. Arablarda qadimda ayolning sochi kalta bo‘lsa, unga soch ulashgan. Lekin Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam bu amalni la’natladilar. Chunki bu — Alloh taolo bergan ziynatga norozi bo‘lib, unga qo‘shimcha qilish demakdir. Ayolga Alloh ato etgan soch bor bo‘lsa ham, unga qanoat qilmasdan sochiga ulash — harom sanaladi.

Ayolning soch ulashi nafaqat qanoatsizlik, balki aldash yo‘li bilan — yo‘q sochini bor qilib ko‘rsatishi ham la’natlangan amaldir. Bu amalni qiluvchi sartarosh ham, ulattiruvchi ayol ham la’natga tushadi. Demak, soch ulash yoki boshqa turli ziynatlarni qilishni kasb qilib olgan sartarosh va bezatadigan ayollar hammasini ziynat deb ishlatmaydilar. Shariat ruxsat bergan ko‘rinishda ishlash mumkin bo‘lsa, faqat o‘sha chegarada ishlash joiz bo‘ladi. “Bu mening ishim, rizqim shundan” deyishi uzr bo‘la olmaydi. Shuning uchun Rosululloh sollallohu alayhi va sallam birinchi navbatda bunday bezatib beruvchilarning o‘zlarini, keyin esa mijozni la’natladilar.

Hadisda yana “vošima va mustavšima” — ya’ni badaniga chizadigan va chizdiradiganlar ham la’natlangan. Bu ham yuqorida aytilgandek: kasb qiluvchi ham, mijoz ham la’natga tushadi. Nega? Chunki bu — badan va jasadga ozor berish, zulm qilish va shaytoniy hilqatlarga o‘xshashlik belgilaridir.

Bugungi kunda badan bezatishning boshqa ko‘rinishlari ham uchraydi. Masalan, xina bilan bezash yoki bolalar uchun yopishtiriladigan nakleykalar. Bular badanga ozor bermaydi, jonli tasvir bo‘lmasa, g‘usl va tahoratda suvni to‘smasa, joiz bo‘ladi. Hadisda qaytarilgan narsa — badan ichiga igna bilan o‘yib kiritiladigan yoki lazer bilan chizdiriladigan naqshlardir. Chunki ular terining ichiga kirib, badandan chiqmaydigan bo‘ladi.

Ba’zi ulamolar qaytarilish sababini “qon najas, chizdirishda badanda qon tiqilib qolib, qora rang bo‘lib chiqadi” deb izohlaganlar. Aslida esa asosiy hikmat shunda: bu amal shaytoniy suratlarga o‘xshatishdir. Alloh yaratgan sof oppoq badan ustidan qora rang bilan o‘yib, uni buzish — inson jasadiga zulmdir. Shu sababdan ham bu amallar qat’iy man etilgan.

Aslida hadisning davomi bor. Unda: “Allohning hilqatini o‘zgartiruvchilar” deb umumiy qilib aytiladi. Shundan kelib chiqadiki, hozirgi zamonda ham insonning yaratilgan hilqatini o‘zgartiradigan turli jarrohlik amaliyotlari shu hukmga kiradi. Masalan, burunni o‘zgartirish, yuz tuzilishini o‘zgartirish, kiprik qo‘yish, iyakni o‘zgartirish — bularning barchasi shariatda man etilgan ishlardan hisoblanadi.

Boshqa rivoyatda esa: “Qoshlarini yuladigan va yuldirtadigan ayollar la’natlangan” — deb keladi. Demak, Alloh taolo insonni qanday hilqatda yaratgan bo‘lsa, uni buzish, o‘zgartirish mumkin emas. Ammo o‘zgartirmaydigan, balki bezak va ko‘rkamlik uchun qilingan ziynatlar joizdir. Masalan, sochni bo‘yash, shakl berish yoki hilqatni buzmaydigan ko‘rinishlarda ziynatlanish mumkin.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining ziynatlarida shariat belgilab qo‘ygan chegaralar bor. U mutlaqo ochib yuborilgan emas. Birgina hadis bilan hamma hukmni to‘liq ifodalab bo‘lmaydi. Shuning uchun har qanday ziynatlanishda joiz yoki nojoizligini albatta so‘rab aniqlash lozim.

Ikkinchi foyda: Badanga chizdirish ham ziynatlanish turlaridan biridir, lekin u shariatda harom qilingan.

Uchinchi foyda: Soch turmagi ham ayolning tabiiy istagidan bo‘lgan ziynat turidir. Albatta, har qanday ayol sochini turmaklab, uzun qilib ko‘rishni yoqtiradi. Ammo bu faqat Alloh taolo ruxsat bergan ko‘rinishda bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi foyda: Soch turmagi bilan ziynatlanish joizdir, agar u soch ulash darajasiga yetmasa. Bu yerda gap tabiiy soch haqida ketyapti, yasama soch haqida emas. Hikmatlaridan biri shuki, soch ulash ishlari soch savdosiga olib kelishi mumkin.

Masalan, kambag‘al ayollar uzun sochini kesib sotishga majbur bo‘lishadi. Shuning uchun tabiiy soch ulashdan qaytarilgan. Ammo yasama narsalar bu hukmga kirmaydi.

Beshinchi foyda: Harom qilingan soch ulashning o‘z zamoniga qarab turli suratlari bo‘ladi. Unda ishlatiladigan moddalar ham turlicha bo‘lgani uchun ko‘rinishlari farqlanadi. Hozirgi davrda parik taqish, ulama soch qo‘yish kabi holatlarda ham hukmlar xilma-xildir. Ba’zilar bularning barchasi bir xil hukmda, deydilar. Lekin rojih (to‘g‘riroq) qavl shuki: man qilingan soch ulashdan maqsad — haqiqiy, tabiiy sochni ulashdir.

Oltinchi foyda: Soch ulash va badaniga chizdirish katta gunohlardandir. Odamlar ko‘pincha buni kichik narsadek ko‘rishadi: “Nima qiladi, bitta sochni ulasa, bitta chizdirsa” deb o‘ylashadi. Lekin hadisda Allohning la’nati kelgani — bu amallar kabira (katta) gunohlardan ekaniga dalildir. Chunki Alloh sog‘iyra (kichik) gunohlarga la’nat qilmaydi.

Yettinchi foyda: Hadisda vorid bo‘lgan la’nat faqat qiluvchigagina emas, balki yordam beruvchiga ham tegishlidir. Soch ulashda ham, chizdirishda ham — ulovchi ham, ulattiruvchi ham, chizuvchi ham, chizdiruvchi ham birdek la’natlangan. Demak, “Men o‘zim qilmayapman, boshqalar menga qilyapti-ku” yoki “Men o‘zimga qilmayapman, boshqalarga qilib qo‘yaman” deyish uzr bo‘lmaydi. Barchasi hukmda barobardir.

Sakkizinchi foyda: Bu la’natlarning o‘ziyoq bir qoidaga dalildir: botilga yordam berish ham haromdir. Ya’ni noto‘g‘ri ishda yordam bergan odam — o‘sha ishni qilgan bilan bir xil bo‘ladi. Masalan, soch ulagan ayol boshqalarga ulab beryapti, o‘zi qilmagan bo‘lsa ham, haromga sherik bo‘lmoqda. Bu qoida barcha sohalarga tatbiq qilinadi: har qanday harom ishda yordam bergan kishi uning gunohida sherikdir. Bezatadigan ayollar kimni bezatsa, ular keyinchalik sahnalarda, ko‘z-ko‘z joylarda chiqsa, bu bezovchilar ham ularning gunohida sherik bo‘ladilar. Chunki botilga yordam bergan kishi gunohda barobar sherikdir.

14-hadis

Do‘zaxiy ayollar sifati

Muallif shunday deydi: “Kiyingan yalang‘och ayollar do‘zax ahlidan bir turidir. Ulardan bo‘lib qolma!”

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «صِنْفَانِ مِنْ أَهْلِ النَّارِ لَمْ أَرَهُمَا: قَوْمٌ مَعَهُمْ سِيَاطٌ كَأَذْنَابِ الْبَقَرِ يَضْرِبُونَ بِهَا النَّاسَ، وَنِسَاءٌ كَاسِيَاتٌ عَارِيَاتٌ مُمِيلَاتٌ مَائِلَاتٌ، رُءُوسُهُنَّ كَأَسْنِمَةِ الْبُخْتِ الْمَائِلَةِ، لَا يَدْخُلْنَ الْجَنَّةَ وَلَا يَجِدْنَ رِيحَهَا، وَإِنَّ رِيحَهَا لَيُوجَدُ مِنْ مَسِيرَةِ كَذَا وَكَذَا»

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Do‘zax ahlidan ikki sinf bor, men ularni hali ko‘rmaganman. Birinchisi: ular qo‘llarida sigirning dumlariga o‘xshash qamchilar bo‘ladi va ular bilan odamlarni uradilar. Ikkinchisi: kiyingan-yalang‘och, boshqalarni ham moyil qiladigan va o‘zlari ham moyil bo‘lgan ayollar. Ularning boshlarida tuyaning o‘rkachiga o‘xshash shakl bo‘ladi. Ular jannatga kirmaydilar, hatto uning hidini ham hidlamaydilar. Holbuki, jannatning hidi falon-falon masofadan topiladi.”

Demak, bu hadisda ikki xil do‘zaxiylar zikr qilinyapti. E’tibor bersak, ularning ikkalasini ham jamlaydigan bir sifat bor: odamlarni yo‘ldan urish. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “U ikkisini ham ko‘rmaganman” dedilar. Ya’ni bu sifatlar Rosulullоh zamonida bo‘lmagan, balki keyinroq chiqadigan insonlarning sifati sifatida xabar berilgan.

Birinchisi: Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Bir qavm bo‘ladi, ularda sigir dumlariga o‘xshash qamchilar bo‘ladi.” Bu sifat Rosulullоh vafotidan keyingi podshohlik va xonlik davrlariga to‘g‘ri keladi. O‘sha paytlarda mirshablar — hozirgi davrdagi militsiyaga o‘xshash qo‘riqchilar bo‘lgan. Ularning qo‘lida sigir dumiga o‘xshash qamchilari bo‘lardi va ular bilan insonlarni nohaq urardilar. Bu bilan odamlarni dinidan qaytarib, fitnalaganlari sababli jahannamiylar qatoriga tushdilar. Bu sifat erkaklarga taalluqlidir.

Ayollarchi? Hadisda ayollar haqida ham keltirilgan. Ular ham jahannamiy sifatiga ega bo‘lishlari mumkin. Bular kiyingan-yalang‘och ayollardir. Bu kiyimning tafsirida ulamolar turlicha izoh berishgan: ba’zilar shaffof kiyim degan, ba’zilar tor kiyim degan, yana boshqalar ziynatli kiyimni nazarda tutgan. Aslida bu tafsirlarning barchasi mazmunga kiradi. Shariat buyurgan hijobni kiymagan ayol “yalang‘och ayol” hisoblanadi. Hatto ba’zan niqob taqqan bo‘lsa ham, agar uni ziynatga aylantirsa, u ham shu jumlaga kiradi.
Hadisda: “Ular moyil qiluvchi va o‘zlari ham moyil bo‘lgan ayollar” deyiladi. Ya’ni bunday ayollar erkaklarni shahvatga moyil qilib fitnalaydilar, o‘zlari ham shu narsaga moyildirlar. Yana bir alomat sifatida: “Ularning boshlari tuyaning qiyshaygan o‘rkachiga o‘xshaydi” deyiladi. Bu — sochni tepaga turmaklab olish odatiga ishora. Boshini shunday ziynatlab yuradigan ayollar nazarda tutiladi, hatto bu ro‘mol ostida bo‘lsa ham. Masalan, turkiy xalqlar orasida ham bu uslub keng tarqalgan, afsuski bu odat biz tomonlarga ham kirib kelgan.

Savol tug‘ilishi mumkin: “Endi bitta sochini turmak qilib qo‘ysa, shu sababli jannatga kirmaydimi?” Ha, shunday. Chunki ular shu orqali qanchadan qancha erkaklarni fitnaga soladilar. Ularning bu ishi erkak mirshablarning odamlarni qamchi bilan chalg‘itib, dindan qaytarishiga o‘xshaydi. Mirshab odamlarni majburlab chalg‘itsa, bunday ayollar esa shahvoniy uslub bilan dindan chalg‘itadilar. Shu sababli ular ham og‘ir azobga loyiq bo‘ladilar.

Hadisga doir foydalar

B**irinchi foyda:** Har qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, ochiq-sochiqlik haromdir.
Ikkinchi foyda: Libos masalasi ayollar uchun eng xatarli mavzulardan biridir. Chunki birgina libos ayolni do‘zaxga sababchi qilishi mumkin. Shu bois ayol kishi kiyimlariga yetarli darajada diqqat qilishi zarur.

Uchinchi foyda: Ayolning libosidan maqsad — avratini satr qilishdir. Ammo bu har xil holatga qarab o‘zgaradi. Masalan, mahramlar oldida bir ko‘rinishdagi libos, nomahramlar oldida esa boshqa ko‘rinishdagi libos bo‘ladi. Ayollar oldida ham o‘z chegaralari bor. Balog‘atga yaqinlashib, oqni qoradan ajrata boshlagan bolalar oldida ham libosning o‘z darajasi bo‘ladi. Demak, ayol kishi kimning oldida bo‘lsa, shunga mos ravishda kiyim kiyishi kerak. Mahramlari oldida taqiq kamroq bo‘lsa, begonalar oldida esa taqiq va to‘siqlar ko‘proq bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Ayolning libosi tanani ifodalab turadigan darajada tor bo‘lsa, badanini ko‘rsatib qo‘yadigan shaffof bo‘lsa yoki satridan kalta bo‘lsa — bularning barchasi “kiyingan-yalang‘och ayollar” hukmiga kiradi.

Beshinchi foyda: Ayolning qasddan erkaklarni harom ishga moyil qiladigan har qanday tasarrufi harom hisoblanadi. Bu kiyim bo‘lsin, yurish-turishi bo‘lsin, soch turmagi yoki jasadidagi boshqa ko‘rinishlar bo‘lsin — barchasi shu hukmga kiradi.

Oltinchi foyda: Ayolning yurishda moyil bo‘lib, nozlanib yoki qiyshayib yurishi haromdir. Hadisda aytilganidek: “Momilat” — erkaklarni moyil qiluvchi ayol, “Mayilat” — o‘zi suzilib yuruvchi ayol demakdir. Bu yurishlar erkaklarni fitnaga soladigan yurishlardandir. Ayol buni qasddan qiladimi yoki qilmaydimi — farqi yo‘q. Hatto poshnali tuflida yurish ham shu jumlaga kiradi. Chunki bunda ayol qasd qilmagan taqdirda ham, o‘z-o‘zidan moyil bo‘lib, nozlanib yurgan ko‘rinishga majbur bo‘ladi.

Yettinchi foyda: Soch turmagining qoidalaridan biri — u tuyaning o‘rkachiga o‘xshab tepaga ko‘tarilgan bo‘lmasligi kerak. Bunday ko‘rinish ham harom qilingan.

Sakkizinchi foyda: Mana shu turdagi ayollarga beriladigan jazo — jannatga kirishdan mahrumlik va do‘zaxga kiritilishdir. Aslida eng katta jazo ham shu hisoblanadi.

To‘qqizinchi foyda: Jannatning o‘zi hushbo‘y hidga to‘la bo‘ladi. Uning hidi uzoq masofalardan ham seziladi. Ammo kiyingan-yalang‘och ayollar bu buyuk ne’matdan mahrum qilinadilar.

O‘ninchi foyda: Kiyingan-yalang‘och liboslar yoki ochiq-sochiqlik jismning ba’zi a’zolarini ochib qo‘yish, fitnalash yoki ziynatlarini ko‘z-ko‘z qilish orqali sodir bo‘ladi. Bu kabi ochiq-sochiqlik bugungi kunda ayollar orasida keng tarqalgan katta gunohlardan sanaladi.

O‘n birinchi foyda: Shariy libos qoidalaridan biri shuki, u ayolning avratli joylarini satr qilishi, yopishi, shaffof bo‘lmasligi, badanini tor kiyimlar bilan ta’riflab qo‘ymasligi va ziynatlarini ko‘rsatmasligi kerak.

O‘n ikkinchi foyda: Ayol kishiga vojibdirki, begona erkaklardan har doim satrlanishi. Bu yuzni yopadigan kiyim orqali amalga oshadi.

Hijoblanishda topilishi kerak bo’lgan sifatlar

Birinchi sifat: Libos ostidagini zohir qilmaydigan qalin bo‘lishi kerak. Shuningdek, badaniga yopishib qoluvchi hususiyatda ham bo‘lmasligi lozim.

Ikkinchi sifat: Libos butun jasadni yopadigan bo‘lishi kerak. U keng bo‘lib, ayolning bo‘g‘inlari va tana shakllarini oshkor qilmasligi lozim.

Uchinchi sifat: Ko‘ylakda yoki kiyimda tananing biron joyiga e’tibor qaratadigan ziynatlar bo‘lmasligi kerak. Har xil alomatlar, yozuvlar va bezaklar kishi diqqatini jalb qilishi sababli man etiladi.

To‘rtinchi sifat: Shariy libos kofir ayollarning libosiga yoki erkaklarning kiyimiga o‘xshamasligi lozim. Ayolning kofiraga o‘xshashi e’tiqodiy muammo bo‘lsa, erkaklarga o‘xshashi axloqiy muammoga olib keladi.

Beshinchi sifat: Libos boshidan kelib, tepadan boshlab butun tanani yopadigan bo‘lishi kerak.

15-hadis

Alloh bilan o'rtangdagi satrni saqla

Muallif shunday deydi: “Sen o‘zing va Robbing o‘rtasidagi satrni muhofaza qil.”

عَنْ أَبِي الْمَلِيحِ قَالَ: دَخَلَ نِسْوَةٌ مِنْ أَهْلِ الشَّامِ عَلَى عَائِشَةَ رضي الله عنها فَقَالَتْ: مِمَّنْ أَنْتُنَّ؟ قُلْنَ: مِنْ أَهْلِ الشَّامِ. قَالَتْ: لَعَلَّكُنَّ مِنَ الْكُرُورَةِ الَّتِي تَدْخُلْنَ نِسَاؤُهُنَّ الْحَمَّامَاتِ. قُلْنَ: نَعَمْ. قَالَتْ: أَمَا إِنِّي سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ يَقُولُ: «مَا مِنِ امْرَأَةٍ تَخْلَعُ ثِيَابَهَا فِي غَيْرِ بَيْتِهَا إِلَّا هَتَكَتْ مَا بَيْنَهَا وَبَيْنَ اللَّهِ تَعَالَى»

Abulmalih aytadilar: Shom ahlidan bir guruh ayollar Oisha roziyallohu anho huzurlariga kirishdi. Oisha roziyallohu anho ulardan: “Sizlar kimlardansizlar?” deb so‘radilar. Ayollar: “Biz Shom ahlidanmiz” deb javob berishdi. Shunda Oisha roziyallohu anho: “Ehtimol sizlar ayollari hammomlarga kiradigan shahardansizlar shekilli?” dedilar. Ayollar: “Ha” deb aytishdi. Oisha roziyallohu anho shunda aytdilarki: “Men Rosulullohsollallohu alayhi va sallamning shunday deganlarini eshitganman: ‘Qaysi bir ayol uyidan boshqa joyda kiyimini yechsa, albatta u Alloh taolo bilan o‘zining o‘rtasidagi satrni yirtgan bo‘ladi.’”

Shom diyori Umar roziyallohu anhu zamonlarida fath qilingan. Ana shu davrlarda o‘sha yerlardan ayollar kelib, Oisha roziyallohu anho huzurlarida iymon keltirib qaytar edilar. Shom yerlari qadimda Vizantiya hukmronligi ostida bo‘lib, ularning madaniyatida zamonaviy tarzda qurilgan hammomlar — bugungi tildagi saunalar mavjud edi. Shu sababli Shom ayollari hammomlarga kirish odatiga o‘rganib qolgan edilar.

Oisha roziyallohu anho Shom ayollaridan hammomlarga kirish odati borligini eshitganlar, ammo o‘zlari hayotlarida bunday narsani ko‘rmagan edilar. Shuning uchun ham ulardan: “Sizlar hammomlariga kiradigan joylardanmisizlar?” deb so‘radilar. Chunki arablar orasida hammomlar mavjud emas edi, ular uylarida cho‘milishardi.

Aslida hammomga kirishning o‘zi yomon emas. Lekin Shom hammomlari umumiy bo‘lgan: erkaklar alohida to‘planib cho‘milar, ayollar ham alohida guruh bo‘lib cho‘milar edilar. Ba’zan esa aralashib ketadigan hollari ham bo‘lgan. Qaysi turdagi bo‘lmasin, jamoat bo‘lib hammomga kirishdan shariat qaytargan. Inson hammomga yolg‘iz kirishi lozim. Faqat er-xotin birga kirishi mustasno bo‘ladi. Chunki Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam Oisha roziyallohu anho bilan bir tag‘orada cho‘milganliklari haqida hadis kelgan. Ammo jamoaviy hammomlarga kirish qat’iy man etilgan.

Hadisda Oisha roziyallohu anho aytadilarki, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollarning uyidan boshqa joyda kiyim yechishidan qaytarganlar. “Qaysi ayol erining uyidan boshqa joyda kiyimini yechsa, Alloh bilan o‘rtasidagi pardani yirtgan bo‘ladi.”

Yana bir foyda shuki, ayol yolg‘iz bo‘lib ham uyidan boshqa hammomga kirishdan qaytarilgan. Bunga davlat hammomlari, pullik hammomlar, saunalar, cho‘milish maskanlari ham kiradi. Chunki ayol o‘z uyidan boshqa joyda kiyim yechgan bo‘ladi, hatto yolg‘iz kirsa ham.

Nega bunday? Chunki bunday joylarda ko‘pincha poyloqchilar bo‘ladi. O‘tmishda yog‘ochlar orasidan yoki devorlarni teshib ayollarni kuzatadigan fosiqlar bo‘lgan. Hozirgi zamonda esa bunday joylarda yashirin kamera o‘rnatilishi mumkin, va bu voqealar amalda ham yuz bermoqda.

Ba’zan musulmonlar amal qilmagan narsaga boshqalar amal qiladi. Masalan, Xitoyliklar yashirin kameralarni topib, ularni kavlab chiqarishga usta bo‘lishgan. Hatto Dubayning o‘zida ham rozetkalar ichiga yoki televizorlarga yashirib qo‘yilgan kameralarni aniqlab chiqarishgan.

Aslida Alloh bir ayolni sharmanda qilishni istamaydi. Ammo bugun: “Falonchi ayolning videosi tarqab ketibdi” degan gaplarni ko‘p eshitamiz. Ularning orasida hijobli ayollar ham bo‘lmoqda. Sababi — bu ayollar hadisda kelgan ogohlantirishga amal qilmay, erining uyidan boshqa joyda kiyimlarini yechishadi. Natijada Alloh bilan o‘rtalaridagi hayoni o‘zlari yirtgan bo‘ladilar. Endi Alloh ularni asramaydi. Bizning maqolimizda aytilgandek: “O‘zingni ehtiyot qil, qo‘shningni o‘g‘ri tutma.”

Shu sababdan sauna yoki basseynlarga boradigan bo‘lsa ham, yechinmaydigan holda borish kerak. Ammo bu ham haraj, qiyinchilik tug‘diradi. Shuningdek, bu hadis kiyim-kechak do‘konlariga ham tegishlidir. U yerda ham yalang‘ochlanib kiyimni sinab ko‘rish to‘g‘ri emas. Chunki bunday joylarda ham yashirin kameralar qo‘yilayotgani aniqlangan. Demak, ayollar o‘z satrini mahkam tutib, ehtiyot choralarini ko‘rishlari zarur.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining uyidan tashqarida kiyimini yechishi haromdir. Xususan, do‘konlarda kiyim almashtiradigan xonalarda, agar bunga majburiy zarurat bo‘lmasa, kiyim yechishi joiz emas. Qachonki ko‘ylagiga najas tegsa, o‘sha paytda almashtirishga ruxsat bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Bu amallarning haromligi ochiq-sochiqlik yuzaga kelishidadir.

Uchinchi foyda: Umumiy hammomlarga kirish ayollar uchun haromdir. Bunga har qanday jamoaviy cho‘milish joylari kiradi.

To‘rtinchi foyda: Ayollarning o‘zaro bir-birlarini ziyorat qilishlari joizdir. Xususan, fazilatli ayollarning huzuriga borib, ularni ziyorat qilish ma’quldir.

Beshinchi foyda: Muslimalarning o‘zaro bir-birlariga nasihat qilishlari mustahab amaldir.

Oltinchi foyda: Ayol kishi o‘z birodarlarini jamiyat ichida keng tarqalgan munkarlardan ogohlantirishi kerak.

Yettinchi foyda: Da’vatchi ayollar butun dunyodagi musulmon ayollarning ahvolini, voqealarni kuzatib borishi va jamiyat bilan hamnafas yashashi lozim. Chunki faqat o‘z doirasidagigina muammolarni biladigan ayolning ta’siri cheklangan bo‘ladi. Jamiyatga nazar solish esa ayollarning yo‘nalishini to‘g‘rilashga yordam beradi.

Sakkizinchi foyda: Da’vat qiluvchi yoki nasihat qiluvchi har bir ayol gapini dalil bilan aytishi lozim. “Menimcha bu yomon” deyish kifoya emas. Har qanday nasihat dalilga tayangan holda bo‘lishi kerak.

To‘qqizinchi foyda: Bugungi kunda tasvirga olish va odamlarni josuslik qilish vositalari keng tarqalgan bir davrda ayollar yanada ehtiyot bo‘lishlari lozim. Ayniqsa, umumiy makonlarda kiyim yechish, avratni yoki satrni ochishdan qattiq saqlanishlari kerak.

16-hadis

Ko‘ylagingni yerdan ko‘tarma

Muallif shunday deydi: “Yer najas degan hujjat bilan oyog‘ingni yoki boldiringni ochma!”

عَنْ أُمِّ وَلَدٍ لِإِبْرَاهِيمَ بْنِ عَبْدِ الرَّحْمَنِ بْنِ عَوْفٍ: أَنَّهَا سَأَلَتْ أُمَّ سَلَمَةَ زَوْجَ النَّبِيِّ ﷺ فَقَالَتْ: إِنِّي امْرَأَةٌ أُطِيلُ ذَيْلِي وَأَمْشِي فِي الْمَكَانِ الْقَذِرِ. فَقَالَتْ أُمُّ سَلَمَةَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «يُطَهِّرُهُ مَا بَعْدَهُ»

Abdurahmon ibn Avfning o‘g‘lining ummu valadi rivoyat qiladi: U ayol Nabiy sollallohu alayhi va sallamning ayoli Ummu Salama roziyallohu anhoga aytib dedi: “Men etagimni uzun qilib, iflos joylarda yuradigan ayolman.” Shunda Ummu Salama roziyallohu anho dedilarki: “Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam: ‘Uni undan keyin keladigan narsa tozalab qo‘yadi’, degan edilar.”

Bu ayol ko‘ylagining etagini uzun qilib yuradigan ayol edi. Qadim zamonlarda ko‘chalarda iflos joylar ko‘p bo‘lgani sababli, ko‘ylak etagi yerga tegib najas bo‘lib qolishidan xavotirlanib so‘ragan edi. Shunda Ummu Salama roziyallohu anho unga: “Ko‘ylagingni kalta qilib yur, kiyiming najas bo‘lib qoladi” demadilar. Shundan dalil chiqadiki, ayolning kiyimi hatto kir bo‘lib qolsa ham, uni uzun qilib yurishi lozim. Chunki ayol libosining uzunligi — uning haya va satriga dalolatdir.

Bu rivoyatdan tashqari yana boshqa rivoyatlarda ham sahobiya ayollar bu haqida Rosulullohdan so'rashgan. Aslida ummu Salama onamizning o'zlari Rosulullohdan shu haqida so'ragan rivoyat ham kelgan. Shuning uchun ham Rosulullоh "kiyimingdagi narsalarni yer tozalaydi" deb aytganlar. Oyoq kiyim ham yerga ishqalanib toza bo'lganidek kiyim ham tuproq bilan tozalanadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol libosining qoidalaridan biri — ko'ylagi uzun bo'lishi va oyoqlarini yopishi lozim. Shaytonga ayolning uzun kiyimi yoqmaydi, shuning uchun u ayollarning oyoqlarini ochishga undaydi.

Ikkinchi foyda: Etakni uzun qilish bilan oyoqlar yopilishi dalolat qiladiki, jasadning qolgan qismlarini yopish bundan ham ustunroqdir. Demak, nafaqat oyoqlar, balki tananing boshqa joylari ham yopilishi lozim. Uzun ko'ylak kiyib, ammo yenglari yoki yelkasi ochiq bo'lsa, bundan foyda yo'q. Hozirgi kunda ba'zi kelinlar orqasi ochiq uzun ko'ylak kiyadilar. Bunday kiyim shariatda joiz emas.

Uchinchi foyda: Yer najosatligi uzr bo'lib, ayol kishining etagini qisqartirishiga ruxsat bermaydi. Agar etak qisqarganidan oyog'i yoki boldiri ochilib qolsa, "yer najos" degan da'vo bilan bu muboh bo'lmaydi. Chunki yerda uchragan najosatlar keyingi pokiza qadamlar bilan tozalanadi. Bu masala xususan arab diyorlarida uchragan, Misr kabi joylarda chiqindi quvurlari toshib ketib, yo'llarda suv oqib, axlatlar to'planib qolgan. Ammo bunday sabab bilan ko'ylagini kalta qilish shariatda joiz emas.

To‘rtinchi foyda: Ayol kiyimining etagi najosatga tegib qolsa, undan keyin bosiladigan pok yer uni tozalab yuboradi.

Beshinchi foyda: Ayol ba’zi shubhalarni uzr qilib, o‘z nafsidan kelib chiqib shariy libos talabini yengillashtirmoqchi bo‘lsa, bunday shubhalar haqni bayon qilish bilan ketkaziladi. Bahona bilan shariat hukmlarida ruxsat berilmaydi.

Oltinchi foyda: Ayol kishiga vojib bo‘ladi — din ishlarida tafsirini so‘rash. Nafsida shubha uyg‘otayotgan narsalar bo‘lsa, ularni albatta bilib olishi lozim.

Yettinchi foyda: Ayollar orasida ayol ahkomlarini yaxshi biladigan bir ayolning bo‘lishi muhimdir. U boshqa ayollarga ustozlik qilishi, ularga murojaat qilish uchun qulay bo‘lishi kerak. Chunki ayollar masalalarida ayoldan so‘rash osonroq bo‘ladi. Doim ham erkaklardan so‘ray olishmaydi, hatto ba’zi hollarda erlari bunga ruxsat bermaydi. Shu sababdan ayollarga oid ahkomlarni tushuntirib bera oladigan bir ayol bo‘lishi juda zarurdir.

17-hadis

Boldir va yuzni yopish

Muallif shunday deydi: “Yuzingning chiroyi oyog‘ingning chiroyi bilan o‘lchanmaydi. Erkak oyog‘ing bilan ham fitnalanar ekan, endi yuzing bilan qanday fitnalanmasin?!”

عَنْ ابْنِ عُمَرَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «مَنْ جَرَّ ثَوْبَهُ خُيَلَاءَ لَمْ يَنْظُرِ اللَّهُ إِلَيْهِ يَوْمَ الْقِيَامَةِ». فَقَالَتْ أُمُّ سَلَمَةَ: فَكَيْفَ يَصْنَعْنَ النِّسَاءُ بِذُيُولِهِنَّ؟ قَالَ: «يُرْخِينَ شِبْرًا». فَقَالَتْ: إِذَنْ تَنْكَشِفَ أَقْدَامُهُنَّ. قَالَ: «يُرْخِينَهُ ذِرَاعًا لَا يَزِدْنَ عَلَيْهِ»

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Kimki manmansirab kiyimini sudrab yursa, Alloh taolo qiyomat kunida unga nazar ham solmaydi.” Shunda Ummu Salama roziyallohu anho: “Ayollar etaklarini qanday qilishadi?” deb so‘radilar. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Bir qarich osiltiradilar.” Ummu Salama roziyallohu anho: “Unda oyoqlari ochilib qoladiku,” dedilar. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Bir ziro osiltiradilar, undan ziyoda qilmaydilar.”

Aslida bu hadis avvalo erkaklarga taalluqlidir. Erkak kishi manmansirab kiyimini sudrab yursa, Alloh taolo qiyomat kunida unga nazar ham solmaydi. Bu shuni anglatadiki, Alloh unga shu darajada g‘azab qiladiki, hatto rahmat nazarini ham qaratmaydi.

Qadimda kiyimni sudrab yurish mutakabbirlik va kibr alomati sanalgan. Podshohlar, maliklar, yuqori tabaqa kishilar kibrlanib, kiyimlarini yerga sudrab yurganlar. Shu sababli bu amal ta’qiqlangan va qattiq ogohlantirilgan.

Bugungi kunda kiyimni sudrab yurish odati asosan yangi kelinchaklarning oq liboslarida, podshoh va malikalar taqlidi sifatida qolgan. Kiyimini uzun qilib sudrab yurish manmansirash hisoblanadi va uning hukmi — haromdir. Agar kimdir “men kibrlanmayapman” desa ham, baribir bu amal ularga o‘xshashlik bo‘lgani uchun makruh sanaladi.

Hadis aslida erkaklarga aytilgan. Shunda Ummu Salama roziyallohu anho: “Ayol satr qilishi kerak-ku, etaklarini qanday qiladi?” deb so‘raganlarida, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Bir qarich osiltirsa mayli” deb javob berdilar. Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, ayolning oyog‘i yopilishi kerak. Erkaklarga esa liboslari to‘piqdan tepada bo‘lishi buyurilgan.

Ayollarning ko‘ylagi esa to‘piqdan bir qarich pastga bo‘lishi lozim. Bu — ayol kishi oyog‘ini to‘liq yopib yurishi kerak deganidir. Ummu Salama roziyallohu anho nima uchun oyog‘ini o‘yladilar? Chunki oyoq ham avrat hisoblanganidan g‘am qildilar. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam esa ularning bu tashvishlarini tasdiqlab: “Ochilib qolaversin” demadilar, balki “Bir ziro osiltirsin” deb ruxsat berdilar.

Bir ziro — qo‘l uchidan tirsakgacha bo‘lgan uzunlik bo‘lib, taxminan 50–60 sm ga teng. Shuning uchun ayolning oyog‘i ochilib qolmasligi uchun etagini yarim metrcha sudrab yurishi mumkin ekan. Bunda maqsad kiyim sudralishi emas, balki oyoq yopilishi. Chunki undan ortiq uzunlikka hojat yo‘q, u esa malikalar va kibrlanganlarning odatiga o‘xshab qoladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Aslida erkakning kiyimini to‘piqdan uzun qilib kiyishi haromdir. Ayolga esa avrati ochilib qolmasligi uchun istisno qilingan. Erkaklarga bu ta’kidli ravishda man etilgan.

Ikkinchi foyda: Bu hadisdan avval ham ayolning oyoqlarini satr qilish sahobalar nazdida aniq masala bo‘lgan. Shuning uchun ham ayollar etakni osiltirish hukmini tafsilot bilan so‘raganlar. Ya’ni: “Oyog‘i ochilib qoladi-ku” deyishlari, oyoq ochilishi man qilinganligi ular uchun oldindan ma’lum bo‘lganidan dalolat beradi.

Uchinchi foyda: Ayolning etagini uzun qilishi — oyoqlarini yopish uchundir. Agar bir qarich uzunlik kifoya qilmasa, hatto uning ziyodasi bo‘lib, bir zirogacha uzaytirilishi joiz.

To‘rtinchi foyda: Kiyimning etagini bir zirodan ortiq osiltirish joiz emas. Bu kelinlarga ham tegishlidir. Kelinlar odatda kiyimlarini obro‘ yoki ko‘rkamlik uchun juda uzun qilib yuradilar. Bunday holatda bu manmansirash va riyokorlik hisoblanadi. Shuning uchun kelinlarga ham bir qarichdan ortiq uzaytirish joiz emas.

Beshinchi foyda: To‘ylarda uchraydigan xatolardan biri — kelinchaklarning etagini bir zirodan ham ko‘proq sudrab yurishidir. Bu esa hadisga xilofdir. Chunki bunda oyoqni yopish maqsadi emas, balki riyokorlik va ko‘z-ko‘z qilish maqsadi bor.

Oltinchi foyda: Sahobiyalar satrga juda haris bo‘lganlar. Shuning uchun ham ular oyog‘ining ochilib qolishini g‘am qilib so‘raganlar.

Yettinchi foyda: Ayol kishi iffatli erkak olim bilan din ishlari borasida munoqasha qilishi, o‘ziga mushkul bo‘lgan narsalarning tafsilotini so‘rashi joizdir. Bu bilan u dinini yaxshiroq tushunib oladi.

Sakkizinchi foyda: Ayolning erkaklar oldida ochilishi harom ishlardan sanaladi. Bunday ish qilsa, u gunohkor bo‘ladi. Shu bois oyog‘ini yopishi ham vojib qilingan.

To‘qqizinchi foyda: Ayolning oyog‘i fitna manbalaridan biridir. Shuning uchun uni satr qilish buyurilgan. Holbuki, oyoq ayolning eng chiroyli a’zosi emas. Agar oyoq shunday bo‘lsa, unda ayolning fitnalik jihatlari ko‘proq bo‘lgan yuzini, kaftini, bilaklarini, boldirini, bo‘ynini va boshqa a’zolarini satr qilish yanada a’loroqdir. Qo‘l asosan suyakdan iborat, yuz esa ko‘plab a’zolardan tashkil topgan. Demak, yuzni yopish qo‘l va oyoqdan ham afzalroqdir.

O‘ninchi foyda: Kibr bilan kiyimni sudrab yurish erkak uchun ham, ayol uchun ham gunohdir. Hadisda ayollarga faqat satr uchun etakni uzun qilishga ruxsat berilgan. Agar ayol ham, erkak ham kibrlanish maqsadida kiyimini sudrab yursa, ikkalasi ham barobar gunohkor bo‘ladilar. Chunki kiyimni manmansirab sudrab yurish nafsdagi kibr alomatlaridandir.

18-hadis

Ko‘chaga atrlanib chiqish gunohi

Muallif shunday deydi: “Uyingdan atir surgan holda chiqishing seni zino holatiga tushiradi.”

Ya’ni, ayol kishi ko‘chaga atir sepib chiqsa, bu Alloh huzurida zino qilgandek yoziladi. Bu ishni ayol qasddan qiladimi yoki “o‘zim shirin bo‘lib yurishni xohladim” deydimi — farqi yo‘q. Chunki erkaklar uni ko‘rib, xayollarida u bilan zino qilganidek tasavvur qilishadi. Shu bois bunday ayolning chiqishi zino gunohiga sabab bo‘ladi, deb ogohlantirilgan.

عَنْ أَبِي مُوسَى رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «إِذَا اسْتَعْطَرَتِ الْمَرْأَةُ فَمَرَّتْ عَلَى الْقَوْمِ لِيَجِدُوا رِيحَهَا فَهِيَ كَذَا وَكَذَا». قَالَ قَوْلًا شَدِيدًا

Nabiy sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Agar ayol atir sepib, keyin bir qavm oldidan ularning hidni sezishlari uchun o‘tib ketsa, u (zinokor) falon, falondekdir.” U haqida qattiq gap gapirdilar.

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam bu masalada ayolni shunday qattiq gap bilan ogohlantirdilarki, ko‘plab sahobalar va tobeinlar uni so‘zma-so‘z rivoyat qilishga ham uyalganlar. Ular: “Rosulullоh bu borada juda qattiq gap aytdilar” debgina rivoyat qilganlar. Bu — masalaning naqadar og‘irligini va ayolning atir sepib ko‘chaga chiqishidan keladigan fitnaning ulkan xatarini ko‘rsatadi.

Rosululloh sollallohu alayhi va sallam ochiqchasiga bunday ayolni “zino qilgan” deb aytdilar. Ehtimol, undan ham og‘irroq so‘z ishlatgan bo‘lishlari mumkin. Muhimi shundaki, bu amal zino gunohiga tenglashtirilgan.

Bu yerda muhim nuqta bor: hadisdagi “agar bir ayol atir sepib, keyin bir qavm oldidan o‘tsa, ular uning hidini topishlari uchun” degan jumlani noto‘g‘ri tushunmaslik kerak. Kimdir o‘ylab qolishi mumkin: “Men atir sepaman, lekin hidini topishlari uchun emas, shunchaki o‘zim uchun” deb. Aslida bu yerda shart qo‘yilmayapti, balki tabiiy holat bayon qilinyapti. Ya’ni ayol ko‘chaga chiqdimi — albatta kimdir uning yonidan o‘tadi, ko‘chada yolg‘iz yurmaydi. Shuning uchun “ular uning hidini topadi” deyildi.

Demak, ayolning ko‘chaga atir surib chiqishi o‘z-o‘zidan fitna sababidir va uni zino gunohiga tenglashtirganlikning sababi ham shudir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining uyidan atirlanib chiqishi haromdir. Rosululloh sollallohu alayhi va sallam oddiy narsani harom qilmaganlar. Bu ishning haromligi shunchaki emas, balki ayolni “zino qilgan” hukmiga chiqaradigan darajada og‘ir ekanligi uchun harom qilingan. Hozirgi zamonda esa buni g‘arib sanashadi. Sababi — ochiq-sochiqliklar haddan ziyod ko‘payib ketgani bois odamlar bu ishni gunoh sanashdan to‘xtagan. Agar ayol satrda bo‘lsa ham, atir sepib chiqsa erkakning xayoliga zino hayoli keladi. Hozirgi davr erkaklarida ochiq-sochiqlar ko‘pligi sababli shahvatlari pasayib, bu narsaga e’tiborlari susaygan. Shuning uchun ayrimlar “faqat hididan ham zino hayoli keladimi?” deb o‘ylashadi. Aslida haqiqiy g‘ayratli erkak uchun bu tabiiydir. Aynan shuning uchun ham bu amal harom qilindi. Hadisdagi “uyidan chiqqan” deganda esa farqi yo‘q — qayerga chiqmasin, qayerdan chiqmasin, hukm bir xil.

I**kkinchi foyda:** Atir ayolning ziynatidan hisoblanadi. Qur'onda Alloh taolo ayollar ziynatlarini yashirishga buyuradi: "Ayollar ziynatlarini oshkor qilmasinlar." (Nuur, 31). Demak, "atirlarini tashqarida sepib chiqmasinlar" degan ma'no ham shu oyatga kiradi. Oyatning davomida esa: "Illo erlariga yoki mahramlariga ziynatlarini oshkor qilsalar bo'ladi" deb zikr qilingan. Shunga o'xshash, atir ham faqat erining yoki mahramlarining huzurida ishlatilishi joizdir.

Uchinchi foyda: Ayolning atir hidi erkaklarga ta'sir qiladi va ularni fitnaga soladi. Avvalgi zamonlarda atirlar oddiy misk, anbar kabi hidlardan iborat bo'lgan. Hozir esa erkaklarning hirsini qo'zg'atadigan maxsus atirlar ishlab chiqarilmoqda. Shunday atirlarni sepib ko'chaga chiqish batariqa a'lo harom bo'ladi.

To'rtinchi foyda: Man qilingan atirlanish faqat bir idish atir bilan cheklanmaydi. U ko'plab vositalar orqali ham hosil bo'ladi. Masalan: maxsus sovunlar, namlantiruvchi kremlar, turli dezodorantlar va shunga o'xshash narsalar. Agar ularning hidi zohir bo'lib, tashqariga taralib tursa, ayolning uyidan chiqishi harom bo'ladi. Agar faqat o'ziga bilinib, tashqariga yoyilmasa — zarari yo'q. Hatto bu krem bo'lsa ham, tashqariga hidi yoyilib ketsa, u ham harom bo'ladi.

Beshinchi foyda: Zinoga eltuvchi vositalar ko'p. Ulardan biri — ayolning atirlanib uyidan chiqishidir. Ya'ni "zino qilmadim" degan odam faqat zino qilishni tark qilishi bilan qutulmaydi. Balki unga olib boradigan barcha vositalardan ham tiyilishi kerak. Shuning uchun atir sepib chiqish taqiqlangan.

Oltinchi foyda: Zino umumiy ma'noda faqat erkak va ayolning o'zaro yaqinligi bilan cheklanmaydi. Balki Nabiy sollallohu alayhi va sallam "zino" lafzini unga olib boradigan boshqa fe'llarga ham ishlatganlar. Demak, ko'z zinosi, quloq zinosi, hatto hid bilan fitna keltiradigan hollar ham shu doiraga kiradi.

Masalan, ayolga qarash, unga teginish, uning ovozidan lazzatlanish, uni o‘pish — bularning barchasi zino hisoblanadi. Xuddi shu jumlaga ayolning atirlanib ko‘chaga chiqishi ham kiradi.

Yuqoridagi hadisni eshitgan ba’zi g‘arazli insonlar: “Islomda hamma narsa zino ekan”, deb kulishadi. Ularning nazdida zino faqat to‘shakda bo‘ladi. Faqat o‘shanda “zino bo‘ldi” deyishadi. Lekin bu noto‘g‘ri. Chunki hadisda aytilgan “zino” sening o‘ylagan mezoningdagi zino emas. Balki Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning ishlatgan so‘zlari bilan o‘lchanadi.

Demak, Rosulullоh nimaga “zino” deb nom bergan bo‘lsalar, o‘sha zinodir: ayolga qarash zino, unga teginish zino, uning ovozidan lazzatlanish zino, o‘pish zino, va jumladan atir sepib ko‘chaga chiqish ham zino hisoblanadi.

19-hadis

Uyning hushbo'yligi va ko‘chaning hushbo'yligini ajratish

Muallif shunday deydi: “Uyingning hushbo‘yligi bilan ziyorat hushbo‘yligini bir-biridan ajrat.”

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «طِيبُ الرِّجَالِ مَا ظَهَرَ رِيحُهُ وَخَفِيَ لَوْنُهُ، وَطِيبُ النِّسَاءِ مَا ظَهَرَ لَوْنُهُ وَخَفِيَ رِيحُهُ»

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Erkaklarning hushbo‘yligi — hidi zohir, rangi esa yashirin bo‘lgani. Ayollarning hushbo‘yligi esa — rangi zohir, hidi esa yashirin bo‘lgani.”

Erkak kishiga yaltir-yultir, rang-baranglik yarashmaydi. Shuning uchun erkaklarga qizil kiyim kiyishdan qaytarilgan. Chunki bunday ranglar ayollar kiyimlariga xosdir. Atir ham xuddi shunday: qadimda atirlarning rangi bo‘lgan. Shu sabab erkaklar hushbo‘y sursa, uning hidi zohir bo‘lishi kerak, ammo rangi yashirin bo‘lishi lozim.

Ayollarniki esa aksi: atirining rangi zohir bo‘lishi mumkin, ya’ni ko‘rinib tursa joiz. Lekin hidi yashirin bo‘lishi kerak. Ya’ni ko‘chaga chiqqanda atir hidi taralmasligi lozim.

Ammo hozirgi jamiyatda bu masalada tamoman teskari holat bo‘lmoqda. Uyda na rang-baranglik, na hushbo‘y atir bo‘ladi.

Faqat ko‘chaga chiqqanda, to‘y-ma’rakalarda yoki bayramlarda bezanib, chiroyli kiyinib chiqishadi. Aslida esa bularning barchasi uyda — erining huzurida bo‘lishi lozim.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Hushbo‘ylik ayolning ziynatidan hisoblanadi. Shu sababdan ham Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam uni yashirin qilishni buyurdilar. Alloh taolo ham Qur’onda: “Ayollar ziynatlarini oshkor qilmasinlar” (Nuur, 31) deb aytgan. Demak, hushbo‘ylik ham ziynat bo‘lib, uni faqat eriga zohir qilishi mumkin.

Ikkinchi foyda: Ayolning hushbo‘yligi erkaknikidan farqlanishi ularning vazifa va tabiati ham bir-biridan boshqacha ekanligiga dalildir. Erkakka rangi yashirin, hidi zohir bo‘lsa, ayolga rangi zohir, hidi yashirin buyurilgani ana shundan.

Uchinchi foyda: Ayollarning hushbo‘yligi faqat atir bilangina cheklanmaydi. Hidi yoki rangi bo‘lgan barcha vositalar unga kiradi. Bugungi kunda keng tarqalgan atir-upalar, lab bo‘yog‘lari, yuz bo‘yanish vositalari ham shu jumladandir. Demak, ular ham ayollarning atiri hukmida bo‘lib, faqat erining oldida ishlatish mumkin, ko‘chada esa emas.

To‘rtinchi foyda: Ayollarning hushbo‘yliklarini nomahramlar oldida zohir qilishlari muboh degani emas. Aksincha, bu man qilingan.
Beshinchi foyda: Ayol bo‘yanadigan yoki labini bo‘yaydigan narsalarni qo‘ysa ham, agar uyidan chiqadigan bo‘lsa, ularni shariatga muvofiq hijob bilan to‘liq yopishi shart. Modomiki, yuzini ochmas ekan, chiqishi joiz bo‘ladi.

Demak, ayolning ko‘chaga chiqqanida ham yuzini bo‘yashi mumkin. Biroq sharti shuki — yuzi yopiq bo‘lishi lozim. Ya’ni u qo‘ygan bo‘yoqlarini niqobining tagida qo‘yib yursa joiz bo‘ladi. Chunki ayol ham to‘ylarga boradi, mehmonga chiqadi va boshqa hollarda ham odamlar orasida yuradi. Bularning barchasida ziynatini faqat eriga zohir qiladi, nomahramlarga esa yopib qo‘yadi.

20-hadis

Erkaklardan tortinmaslik satr zaifligiga dalil

Muallif shunday deydi: “Umumiy yo‘lning o‘rtasida yurishing — nafsingdagi satrning zaifligiga dalildir.”

Umumiy ko‘chalarda, erkak-ayol birga o‘tib yuradigan joylarda ayol o‘zini chetga olmay, yo‘lning o‘rtasidan yuraversa, oldidan ham, orqasidan ham erkaklar kesib o‘tadi. Ana shu holat ayolning ichki satrida zaiflik borligidan darak beradi.

Misol uchun, modellarni ko‘raylik: ular o‘zini ko‘rsatish uchun sahnaning o‘rtasidan yurib chiqib qaytadilar. Shunday ekan, “yo‘lning o‘rtasidan yuraman” deyish — o‘zini modellarga o‘xshatib ko‘rsatishga intilish deb tushuniladi. Bu esa satrining yo‘qligiga yoki zaifligiga dalildir.

Bugungi kunda esa bu qoidaga ijtimoiy tarmoqlardagi “yo‘llar” ham kiradi. Ya’ni Facebook, Instagram kabi umumiy platformalarda ayol ochiq-oshkora ko‘rinaversa, bu ham yo‘lning o‘rtasidan yurishga o‘xshaydi. Chunki bu ham erkaklarning oldidan ham, orqasidan ham o‘tib turish bilan barobar.

Ammo ayollarga xos, qat’iy doiradagi yopiq guruhlar bundan mustasno. Lekin umumiy guruhlar, kanallar, ommaviy sahifalarda gaplashib yurish — mana shu “yo‘lning o‘rtasidan yurish” hukmiga kiradi.

عَنْ أَبِي أُسَيْدٍ الْأَنْصَارِيِّ رضي الله عنه أَنَّهُ سَمِعَ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ يَقُولُ وَهُوَ خَارِجٌ مِنَ الْمَسْجِدِ فَاخْتَلَطَ الرِّجَالُ مَعَ النِّسَاءِ فِي الطَّرِيقِ فَقَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ لِلنِّسَاءِ: «اسْتَأْخِرْنَ، فَإِنَّهُ لَيْسَ لَكُنَّ أَنْ تَحْقُقْنَ الطَّرِيقَ، عَلَيْكُنَّ بِحَافَّاتِ الطَّرِيقِ». فَكَانَتِ الْمَرْأَةُ تَلْتَصِقُ بِالْجِدَارِ حَتَّى إِنَّ ثَوْبَهَا لَيَتَعَلَّقُ بِالْجِدَارِ مِنْ لُصُوقِهَا بِهِ

Abu Usayd al-Ansoriy roziyallohu anhu aytadilar: “Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam masjiddan chiqayotgan edilar. Yo‘lda erkaklar bilan ayollar aralashib, bir-biriga quralashib ketishayotgan edi. Shunda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollarga: «Nariroq turinglar, sizlarning yo‘lning o‘rtasidan yurishga haqqingiz yo‘q. Sizlar yo‘lning chetini lozim tutinglar», — dedilar. Shundan keyin ayollar devorlarga yopishib yuradigan bo‘ldilar. Hatto ularning kiyimlari devorlarga ilashib qolaverardi.”

Ya’ni, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam masjiddan chiqayotgan edilar. Shu vaqtda masjid oldidan erkaklar ham, ayollar ham birga chiqib, aralashib yurishayotganini ko‘rdilar. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam bu manzarani ko‘rib, ayollarni ogohlantirdilar va ularga yo‘lning chetida yurishni buyurdilar.

Demak, bu hadis shuni ko‘rsatadiki, masjid yonida erkak-ayollarning aralashib ketishi man qilingan. Shuningdek, bugungi kunda bozorlarda, dam olish maskanlarida, umumiy yo‘llarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda ayol va erkaklarning aralashib ketishi ham xuddi shu hukmga kiradi va bunday holatlar batariqa a’lo joiz bo‘lmaydi.

“Sizlar yo‘lning chekkalarini lozim tutinglar” deb buyurilganida, ayollar shunchalik rioya qilganlarki, devorlarga yopishib yurishar, hatto kiyimlari devorlarga ilashib qolardi. Bu ularning satrga bo‘lgan g‘ayrati va Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam amrlariga qat’iy itoatlaridan dalolat beradi.

Bugun esa ayrim qizlar “islom dinining bag‘ri kengligini ko‘rsataman” degan niyat bilan roliklarda, samokatlarda, skeytlarda uchib yuradilar. Ammo bu narsa aynan qaytarilgan ishlardandir. Chunki bunday holatda ular hammaning ko‘ziga tashlanadi, erkaklar qarab qoladi, hatto ba’zida to‘qnashuvlar ham bo‘ladi. Natijada ayolning satri sharmanda bo‘lib ochilib ketadi.

Shunday ekan, “islom bag‘ri keng” degan da’vo bilan ham ayolga bunday ishlarga ruxsat yo‘q. Dinimizning bag‘ri kengligi — halollarda, poklikda va taqvoda, lekin harom va fitnaga eltuvchi amallarga ijozat bermaydi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Nabiy sollallohu alayhi va sallam jamiyat hayotini tartibga solishga juda haris bo‘lganlar. Erkaklar bilan ayollar o‘rtasida fitna chiqishiga sabab bo‘ladigan narsalarni man qilish orqali jamiyatni tartib va adolat bilan boshqarganlar.

Ikkinchi foyda: Umumiy yo‘llarda yurish qoidasini ham Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam tartibga solganlar. Yo‘lning ikki chetini ayollar uchun, o‘rtasini esa erkaklar uchun qilganlar. Bu esa erkaklar bilan ayollar o‘rtasida aralashishni oldini olish uchundir. Ya’ni bu tanzim — tartibga solishdir. Bunga misol sifatida bugungi kun yo‘l harakati qoidalarini olaylik: katta trassalarda uchta oq chiziq bo‘ladi. O‘ng tarafda yuk mashinalari yuradi, o‘rtada oddiy haydovchilar, chap taraf esa bo‘sh turadi. Chunki shoshilganlar, yuqori tezlikda harakat qilmoqchilar chap yo‘ldan o‘tadi. Endi kimdir chiqib: “og‘ir yuk mashinalari, avtobuslar, haydovchilarning huquqi poymol qilinyapti” deb aytmaydi. Chunki bu — tartib, tanzim uchun belgilangan qoidadir.

Hech kim: “Nega yuk mashinalari yoki avtobuslar chetga chiqarib qo‘yilgan, ularning huquqi poymol qilindi” deb aytmaydi. Chunki yo‘lni tartibga solish zarur. Shuncha odam harakat qilayotgan joyda, biri bu yoqdan, biri u yoqdan yurishini tartibga solmaslikning iloji yo‘q. Xuddi shuningdek, ayollarga yo‘lning chekkasidan yurishni buyurilganining sababi ham ularning huquqini kamsitish emas, balki tartibni saqlashdir.

Demak, yo‘lning ikki chekkasi ayollar uchun, o‘rtasi esa erkaklar uchun qilingan. Bunda mutlaqo muammo yo‘q. Chunki bu — fitnani oldini olish va jamiyat hayotini tartibga solish uchundir.
Hozir aytganimiz yo‘l harakati qoidalarida ham shunday: yuk mashinalari sekin yurgani sabab o‘ng tarafdan yuradi, odatdagi haydovchilar o‘rtada yuradi, shoshilganlar esa chap tomondan tezroq yuradi. Bularning barchasi tartibga solish uchun belgilangan qoidalar, zulm yoki huquqni poymol qilish emas.

Uchinchi foyda: Agar Nabiy sollallohu alayhi va sallam umumiy yo‘llarda erkak-ayol aralashib yurishini man qilgan bo‘lsalar, endi batariqa a’lo xos makonlarda aralashish ham man qilinadi. Masalan, universitetlar, madrasalar, ish joylari va boshqa muhitlarda ham erkaklar va ayollar alohida bo‘lishlari lozim.

To‘rtinchi foyda: Sahobiyalarning itoatlari naqadar kuchli bo‘lganini shu hadisdan ko‘ramiz. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: “Sizlar yo‘lning chekkasidan yuringlar” deb buyurganlarida, ular bir zumda itoat qildilar va devorlarga yopishib yuradigan bo‘ldilar. Hatto kiyimlari devorlarga ilinib qolardi. Demak, ular hech qanday e’tiroz bildirmaganlar. “Nega biz? Nimaga endi? Biz odammasmizmi?” kabi gaplar bo‘lmagan. Aksincha, ular buyruqni eshitishi bilan darhol amal qilganlar.

Beshinchi foyda: Ayollarning yo‘lning chekkasidan, devorga yopishib yurishida katta hikmatlar bor. Devorning o‘zi ayol uchun yarim to‘siq bo‘lib qoladi va uni bir tarafdan himoyalaydi. Shamol ham uning kiyimlarini o‘ynab, avratini ochib yuborishiga yo‘l qo‘ymaydi. Chunki devorga yopishib yurganda shamol hamma tarafidan emas, faqat bir tomondan aylanib o‘tadi.

Bundan tashqari, yonidan, oldidan yoki orqasidan kelgan kishilarning tegib o‘tishidan ham omon bo‘ladi. Chunki devor unga pana bo‘ladi. Shunday qilib, faqat bir tomoni ochiq bo‘lib qoladi, boshqa tomoni esa devor bilan yopiladi.

Bugungi kunda ham ayollar ko‘chadan o‘tayotib, bezori yoki o‘g‘ridan qo‘rqib, tabiiy ravishda yo‘lning chekkasidan yuradilar. Ayniqsa, G‘arb davlatlarida ayollar yo‘lning o‘rtasidan yurishga botina olmaydi, shunchalik qo‘rqadilar. Demak, bunga majburlik ham bor. Lekin musulmon ayolning amal qilishi — qo‘rqqani uchun emas, balki shariatga itoat qilgani uchundir.

21-hadis

Shayton qo‘lida o‘yinchoq bo‘lma

Muallif shunday deydi: “Sen avratsan, o‘z nafsingni satr qil, shayton sen bilan o‘ynamasin.”

“Avrat” so‘zi — “ochilmasligi kerak bo‘lgan narsa” degan ma’noni bildiradi. Demak, ayol o‘zini satr qilishi, yopishi shart. Agar satr qilmasa, shayton uni vosita qilib, boshqa insonlarni fitnaga soladi va ular bilan o‘ynaydi.

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ مَسْعُودٍ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «الْمَرْأَةُ عَوْرَةٌ، فَإِذَا خَرَجَتِ اسْتَشْرَفَهَا الشَّيْطَانُ»

Nabiy sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Ayol avratdir. Agar u (uyidan) chiqsa, shayton unga bo‘yin cho‘zadi.”

“Istashrofa” — bir odamning tepalikdan pastga qarab kuzatishi degan ma’noni bildiradi. Ya’ni bo‘yin cho‘zib, diqqat bilan qarash. Masalan, o‘tib ketayotgan odamga tikilib qarash ham istashrofa deyiladi. “Aslida sharofa — tepalik” degan ma’noda keladi. Tepaga ko‘tarilgan odamni “sharafli” deyilishi ham shundan. Demak, “shayton ayolga bo‘yin cho‘zadi” deyilganda, maqsad shuki: go‘yoki yo‘qotgan narsasini topgandek, unga tikilib qaraydi, undan foydalanmoqchi bo‘ladi.

Buning tasdig‘ini insonlar hayotida ham ko‘rish mumkin: ayol uyidan chiqsa, shayton uni vosita qilib, boshqalarning ko‘zini unga qaratadi, xuddi bir narsasini topib olgandek, undan foydalanishga urinadi.

Bir ayol ko‘chada yurganida hamma qarab qolaveradi: uylardan, derazalardan, eshiklardan, hatto mashina ichidan o‘tayotgan odamlar ham nazar tashlaydi. Aslida bu qarashlarning barchasi — shaytonning qaratishidir. Yuqorida aytilgan “shayton sen bilan, ya’ni sening sababing bilan o‘yin qilmasin” degan so‘zlar ham ana shu holatni nazarda tutadi.

Masalan, bir odamning ishtoni yirtilib, avrati ochilib qolsa, ko‘chada hammaning unga qarashi tabiiy holat. Xuddi shuningdek, ayol ko‘chaga chiqdimi, u ham avratdir, demak shayton tabiiy ravishda unga ko‘zlarni qaratadi. Boshqalarni ham unga tikiltiradi.

Ammo shayton faqat qarash bilan cheklanmaydi. Qaraganidan keyin albatta boshqa fitnalarga ham yo‘l ochadi, shahvatni qo‘zg‘atadi, fisqu-fujurga boshlaydi. Shuning uchun Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam ogohlantirib, ayolning satrini mahkam tutishga buyurdilar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi butunlay avratdir. Hadisda “faqat tepang to‘silsin” yoki “faqat bo‘yninggacha yopilsin” deyilmagan. Demak, ayolning hamma joyi avratdir. Shunga rojih so‘z shuki: yuzi ham avrat, qo‘llari ham avrat, hattoki oyoqlari ham avratdir.

Ikkinchi foyda: Shaytonning xursand bo‘lishi va ko‘zlarning ayolga tikilishi — uning ko‘chaga chiqishi bilan yuz beradi. Bu umumiy hukmdir: satrlangan ayol ham, satrsiz chiqqan ayol ham bunga kiradi. Chunki hadisda ularning o‘rtasida farq qo‘yilmagan. Ayol — avrat. Ko‘chada har qanday odam unga tegajog‘lik qilib ko‘rishi, gap otib ko‘rishi mumkin. Shuning uchun ham bu umumiy deyilgan.

Demak, satrlangan bo‘lsa ham, ayol yolg‘iz yurishi joiz emas. Shu sababdan ham ayol erining iznisiz ko‘chaga chiqishdan qaytarilgan. Chunki bu ogohlantirishlarning barchasi aslida fitnani to‘sish va shaytonning o‘yinidan saqlash uchundir.

Uchinchi foyda: Ayolning ochiq-sochiq holda ko‘chaga chiqishi shaytonni boshqasidan ko‘ra ko‘proq xursand qiladi. Chunki hatto satrlangan ayolning chiqishidan ham shayton xursand bo‘lar ekan, tabiiyki ochiq-sochiq holda chiqsa, bu shaytonni yanada ko‘proq quvontiradi.

To‘rtinchi foyda: Ayolning uyida qaror topib o‘tirishi Qur’onda targ‘ib qilingan asl asosdir. Bu asosni behuda sabablar bilan buzib bo‘lmaydi. Alloh taolo marhamat qiladi: “Viqor bilan uyingizda o‘tiring. Ilgarigi johiliyatning ochiq-sochiqligi kabi ochiq-sochiq yurmang” (Ahzob 33).

Demak, ayolning ishi ko‘chada emas, uyi ichidadir. Illo zarurat bo‘lsa chiqadi. Shuning uchun muallif: “Bu asosni bo‘lmag‘ur sabablar bilan tark qilinmaydi” deganlar. Ya’ni “men ishga borishim kerak, men ko‘chada o‘qishim kerak” kabi zaif sabablar asl asosni bekor qila olmaydi. Ko‘chaga chiqishi uchun haqiqiy zarurat bo‘lishi kerak.

Beshinchi foyda: Ayolning uydan chiqishi butunlay harom emas. Lekin bu chiqish shar’iy qoidalar bilan cheklangan bo‘lishi shart. Zarurat uchun, satrni saqlagan holda va fitnadan saqlanish choralari bilan bo‘lsa — joiz hisoblanadi.

Demak, “ayol uydan chiqmay o‘tiradi” degani butunlay chiqmaydi, degan ma’no emas. Ayol chiqadi, ammo shar’iy qoidalarga rioya qilgan holda chiqadi. Birinchidan, zarurat bo‘lsa chiqadi. Ikkinchidan, bemahalda chiqmaydi. Uchinchidan, imkon qadar yolg‘iz yurmaydi.

Shu kabi shar’iy qoidalarga amal qilgan holda ayolning uydan chiqishi joiz bo‘ladi.

22-hadis

Cho‘milish joylari va umumiy hammomlardan taqvo qil

Muallif shunday deydi: “Ayollar yalang‘ochlanadigan sport klublari va to‘garaklarga borishdan chetlan. Agarchi erining talabi bilan bo‘lsa ham.”

Ya’ni “yalang‘ochlanadigan” deganda — kiyinib-yechinib ochilib ketadigan hammomlar, suzish joylari, sport zallari va shunga o‘xshash maskanlar nazarda tutilmoqda. Bu shunchaki misol, asl maqsad — ayollarning bir-birining avratiga ko‘zi tushadigan joylardan chetlanishidir.

“Agarchi erining talabi bilan bo‘lsa ham” deyilgani shuni anglatadiki, ba’zi erkaklar o‘z ayolining sport zallarga yoki suzish joylariga borishini talab qiladi. Lekin agar bu joylarda ayollar bir-birining avratiga ko‘zi tushadigan bo‘lsa, bu man qilingan. Chunki shariatda ayol ham ayol uchun avratdir. Shu sababdan bunday joylardan uzoq turish lozim.

عَنْ جَابِرٍ رضي الله عنه أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ قَالَ: «مَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ فَلَا يَدْخُلِ الْحَمَّامَ إِلَّا بِمِئْزَرٍ، وَمَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ فَلَا يُدْخِلْ حَلِيلَتَهُ الْحَمَّامَ، وَمَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ فَلَا يَجْلِسْ عَلَى مَائِدَةٍ يُدَارُ عَلَيْهَا بِالْخَمْرِ»

Nabiy sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa — hammomga izorsiz kirmasin. Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa — halolini hammomga kiritmasin. Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa — aroq aylantirilayotgan dasturxonda o‘tirmasin.”

Hadisda uch bor takrorlangan: “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa...”. Bu ta’kidning ma’nosi shuki, mo‘min odam bu amallarni qilmaydi.

Birinchisi: “Hammomga izorsiz kirmasin.”
Bundan maqsad — umumiy hammomlar. Ya’ni erkaklar erkaklar bilan, ayollar ayollar bilan yalang‘och holda birga kiradigan joylar. Agar izorsiz kirsa, albatta avratlar ochilib qoladi, bir-birlarining avratiga ko‘z tushadi. Shuning uchun Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam izorsiz kirmaslikni buyurdilar. Izor — kindigidan tizzagacha yopadigan libosdir (ihromdagi kiyimga o‘xshash). Demak, hammomga kirish mumkin, ammo izor bilan, ya’ni avrat yopiq bo‘lsa. Agar hammomdagilar ham shunday qoidalarga rioya qilsa, joiz bo‘ladi.

Ikkinchisi: “Halolini hammomga kiritmasin.”
Haloli — ya’ni xotinidir. Bu bilan erlarning mas’uliyati eslatilmoqda: xotini qayerlarga kirib-chiqishini er nazorat qiladi. Xotin cho‘milishi mumkin, lekin umumiy hammomlarda emas. Chunki umumiy hammomlarda avratlar ochilib ketishi, boshqa ayollarning ko‘zi tushishi muqarrar. Shuning uchun er o‘z halolini bunday joylarga kiritmasligi buyurilgan.

Uchinchisi: “Aroq aylantirilayotgan dasturxonda o‘tirmasin.”
Bundan maqsad — harom narsa bor dasturxon atrofida o‘tirishning o‘zi ham man qilinganidir. “Men ichmayman, shunchaki yonida o‘tiribman” deyish bilan uzr bo‘lmaydi. Chunki bunday majlisda o‘tirgan odam ham gunohga sherik bo‘ladi. Hadislarning boshqa rivoyatlarida ham kelganki: “Aroq ichuvchiga, uni quyuvchiga, sotuvchiga, olib yuruvchiga, sotib oluvchiga va uning dasturxoni atrofida o‘tiruvchilarga la’nat bo‘ladi.”

Demak, aroq ichilayotgan, harom narsalar aylantirilayotgan majlisda o‘tirish — ichmagan bo‘lsa ham, hammani bir xil la’nat ostiga qo‘yadi. Shu bois mo‘min kishi bunday dasturxon atrofida o‘tirishdan ham tiyiladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Erkak kishi o‘z xotiniga mas’uldir. Ayolning qilayotgan amallari uchun erkak qiyomatda javob beradi. Xotini qanday joylarga kirib-chiqmoqda, nimalar qilmoqda — bularning hammasidan er so‘raladi.

Ikkinchi foyda: Erkakning xotiniga bo‘lgan mas’uliyatini ado etishi uning Allohga va oxirat kuniga iymoniga dalolatdir. Chunki hadisda shart qilib qo‘yildi: “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa...” deb. Demak, bularni ado qilmagan kishi iymonidan mahrum bo‘ladi. Agar erkak xotiniga qarab turmasa, qayerga boryapti, qayerdan kelyapti deb qiziqmasa, demak u iymonini zaif qilmoqda. Xotini ustidan nazoratini ado etishi esa, uning haqiqatan Allohga va oxirat kuniga iymon keltirayotganiga dalildir.

Uchinchi foyda: Ayol kishi umumiy hammomlarga kirishi haromdir. Bunda avrat ochiladigan holda kirish man qilingan. Agar avrat yopiq bo‘lsa, kirish joiz bo‘ladi. Bugungi kunda bizning yurtlardagi yoki g‘arb yurtlaridagi ayollar salonlari ham shu jumlaga kiradi. Chunki u yerda avrat ochiladi yoki kimningdir ochiq avratiga ko‘z tushadi. Bu yerda erkak-ayol aralashib yurishi haqida emas, ayollarning o‘zaro holati haqida so‘z ketmoqda. Shunga qaramay, bunday joylar taqiqlangan. Chunki ayolda ham ayolning avratiga qarash haromdir.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi eriga yordamchi bo‘lishi vojibdir. Ya’ni eriga yuklangan mas’uliyatni yengillashtirishi lozim. Hadisda “er xotinini hammomga kiritmasin” deyildi. Endi ayolning o‘zi ham bu amrga bo‘ysunishga moyil bo‘lishi kerak. Agar ayol “boraman” deb turib olsa, eri oxirida rozi bo‘lib yuborsa, bu erning mas’uliyatini zaiflashtiradi. Demak, ayol eriga itoat qilib, uning zimmasidagi mas’uliyatni ado etishga ko‘maklashishi kerak.

23-hadis

Ko‘zni tiyish

Muallif shunday deydilar: Qo‘lingni Alloh harom qilgan narsadan tiygin.

Bu aslida Qur’ondan keladi. Alloh taolo: “Mo‘minlarga ayting, ko‘zlarini tiyib yursinlar” (Nuur 30) deb erkaklarga amr qildi. Shundan so‘ng, oyatning davomida ayollarga ham: “Mo‘minalarga ayting, ular ham ko‘zlarini tiyib yursinlar” deb amr qildi.

Ya’ni bu yerda bir nozik ma’no bordir: erkak ayolga qaraganida va ayol erkakka qaraganida hukmlar farqlanadi. Har doim ham ayol erkakka yomon niyat bilan qaramaydi. Lekin erkak, tabiati sabab, ayolning qarashini o‘ziga yomon maqsad bilan qaratilgan deb tushunadi. Shuning uchun ayollarga ham “ko‘zlarini tiyish” buyurilgan.
Demak, agar ayolning ko‘nglida yomon maqsad bo‘lmasa ham, baribir erkakka qarab o‘tirishi — xususan erkak unga qarab o‘tirgan bir paytda — qaytarilgan ish hisoblanadi. Chunki erkak “u menga qarayapti” deb gumon qiladi va bu gumon uni yomon maqsadga boshlashi mumkin.

عَنْ أَبِي سَعِيدٍ الْخُدْرِيِّ رضي الله عنه أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ قَالَ: «لَا يَنْظُرُ الرَّجُلُ إِلَى عَوْرَةِ الرَّجُلِ، وَلَا الْمَرْأَةُ إِلَى عَوْرَةِ الْمَرْأَةِ، وَلَا يُفْضِي الرَّجُلُ إِلَى الرَّجُلِ فِي ثَوْبٍ وَاحِدٍ، وَلَا تُفْضِي الْمَرْأَةُ إِلَى الْمَرْأَةِ فِي الثَّوْبِ الْوَاحِدِ»

Rosulullоh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Erkak erkakning avratiga qaramasin. Ayol ayolning avratiga qaramasin. Erkak bir erkak bilan bitta kiyim ostida yotib, uning badani bilan tegishmasin. Ayol ham boshqa bir ayol bilan bitta kiyim ostida yotib, uning badani bilan tegishmasin.”

Bu hadisda Rosulullоh sollallohu alayhi vasallam nafaqat erkak va ayolning bir-biriga qarashini, balki erkakning erkakka, ayolning ayolga qarashini ham qaytardilar. Demak, shariat nazarida “avrat” hurmat qilinadigan, ochilishi man qilingan hududdir — kimniki bo‘lishidan qat’i nazar.

Avratning chegarasi: erkak uchun: kindikdan tizzagacha. Ayolning ayolga nisbatan avratida ham asl qoidaga ko‘ra shu: kindikdan tizzagacha. Ba’zi ulamolar qo‘shimcha ixtilof keltirishadi (masalan, ko‘krak qismi yoki yelka-beldan pastroq joylari ham avratga kiradi, deyishgan). Ammo rojih so‘z — ayolning ayol oldidagi avrat chegarasi ham erkaknikidek.

“Bir kiyimda teginmasin” degani: Hadisda ta’kidlangan “erkak erkakka bitta kiyimda teginmasin, ayol ayolga bitta kiyimda teginmasin” — ya’ni ularning orasida to‘suvchi narsasi bo‘lmaydi, badani badanga tegib yotadi. Masalan, ikki kishi yalang‘och bo‘lib bitta choyshab yoki yopinchiq ostida yotsa. Bu holat shariatda “ifdo” deyiladi.
Ifdo lug‘atda “ochilish, bo‘sh qolish” degani. Ya’ni, ikkita inson bitta yopinchig‘i ichida badani ochiq holda bir-biriga tegib turadi. Shariat bunday holatni qat’iyan man qiladi, chunki u zinoga eltuvchi vositalardan hisoblanadi va nopok shahvatni qo‘zg‘atadi.

Bu holatda har ikkala insonning badani bir-biriga tegib turadi. Natijada ular bir-birining badanidagi haroratni his qiladilar va bundan so‘ng yomon hayollar paydo bo‘lishi mumkin. Hatto erkak erkak bilan bo‘lsa ham, ayol ayol bilan bo‘lsa ham shunday bo‘ladi. Shuning uchun ham “ikki kishi bitta kiyim ichida bo‘lmasin” deb ta’kidlanmoqda. Agar ularning alohida-alohida kiyimlari bo‘lsa, masalan ikkita ayol yonma-yon yotsa yoki ikkita erkak yonma-yon yotsa, lekin badani bir-biriga tegib, issiqligini sezmasa — bunday holatda zarar yo‘q. Hadisda “bitta kiyim” deyilayotgani — bitta yopinchig‘, bitta libos ichida bo‘lish nazarda tutilganidir.

Endi hadisdagi mavzuga tegishli joyi: “Ayol ayolning avratiga qaramasin” degan jumla. Bundan chiqadiki, ayol ham ayolning avratiga ko‘zi tushsa, ko‘zini tiyishi lozim bo‘ladi. Demak ko‘zni tiyish faqat erkaklarga xos emas, ayollarga ham taalluqlidir. Bugungi kunda bu qoidaning ijtimoiy tarmoqdagi ko‘rinishi ham mavjud. Ko‘zni tiyish faqat erkaklarga emas, ayollarga ham tegishli. Erkaklar internetda ko‘zini tiyishi kerak bo‘lgani kabi, ayollar ham boshqa ayollardan ko‘zini tiyishlari kerak. Shunday qilib, ham erkaklar, ham ayollar ko‘zlarini tiyadilar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayolning ayol avratiga qarashi ham haromdir. Bu tabiiy holda bo‘lsin yoki surat orqali bo‘lsin, farqi yo‘q. Ya’ni tirik ayolga ham, uning rasmiga ham, hozirgi zamondagi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan ko‘rinishlariga ham qarash man qilingan. Ba’zilar “bu haqiqiy emas, surat-ku” deb yengil qarashlari mumkin, ammo ta’kidlab aytiladiki: tabiiymi yoki suratmi — baribir unga qarash harom hisoblanadi.

Ikkinchi foyda: Ayolning boshqa bir ayol jasadiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri teginishi ham haromdir. Bunday teginishda nafs uyg‘onishi yoki fisq sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud bo‘lgani uchun shariat buni qat’iy man qilgan.

Uchinchi foyda: Fitna o‘rinlaridan chetlanish shart. Ayniqsa ayollar o‘rtasida shahvatni qo‘zg‘atadigan narsalardan uzoq bo‘lishlik lozim. Bizning tomonlarda odamlar “bunchalik emas” deb yengil qarashlari mumkin. Lekin arab diyorlarida yotoqxonalarda, qizlar orasida yoki hatto hujralarda ham ko‘p munkar ishlar eshitilgan. Ko‘pchilik hayron bo‘lib so‘raydi: “Nega hujralarda o‘qiydigan bolalar bachavozlikka ketib qoladi?” yoki “qizlarda ham shunday holatlar bo‘ladi” deb. Sababi — islomiy muhitda erkak bilan ayol orasidagi aloqa cheklangan, uchrasha olmaydi, gaplasha olmaydi. Shuning uchun ayrimlar noto‘g‘ri yo‘lga kirib qoladi. Endi kimdir kelib: “Shuning uchun yengilroq qo‘yib berish kerak” deb o‘ylashi mumkin, ammo bu yechim emas. To‘g‘ri yechim — Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytib ketgan yo‘l: fitna o‘rinlariga beparvo bo‘lmaslik va ulardan chetlanish. Ayniqsa ayollar orasida shahvatni uyg‘otadigan narsalardan uzoqda bo‘lishga targ‘ib qilinmoqda.

To‘rtinchi foyda: Odamlarning ko‘zidan avratni to‘sish vojibdir. “Ayolga ko‘zingni tiy” deb buyurilganda, o‘z-o‘zidan boshqa tomonga ham “avratingni yop” degan ma’no chiqadi. Chunki avrat yopilmagan bo‘lsa, “ko‘zini tiy” deyishdan foyda bo‘lmaydi.

Beshinchi foyda: Odamlarning avratidan ko‘zini tiyish ham shart. Bu yuqoridagining aksi bo‘lib, ikki tomonga ham buyruq berilgan. Birinchidan avrat yopilishi kerak, ikkinchidan qolganlar ham ko‘zini tiyishlari kerak. Masalan, maktablarda, o‘quv yurtlarida yoki kiyim almashtiradigan joylarda ham har kim ko‘zini tiyib, chegaradan chiqmasligi lozim.

Oltinchi foyda: Ayolning ayol bilan muomalasi ham islomiy odoblar bilan cheklangan bo‘ladi. “Ayol-ku, baribir” deb istaganini qilish mumkin emas. U ham shariat qo‘ygan chegaralarda yurishi lozim. Masalan, ayolning kindikdan tizzagacha bo‘lgan qismi avrat hisoblanadi. Demak, uni boshqa ayolga ko‘rsatmasligi, badanini yopishtirmasligi, bir-birining badani bilan erkin muomala qilmasligi kerak. Bularning barchasi islomiy odoblar jumlasiga kiradi.

Yettinchi foyda: Ayolning ayollar salonlariga kirishi ham harom bo‘ladi, agar o‘sha salonlarda ayollar yalang‘ochlanib, bir-birining avratiga qarab yuradigan bo‘lsa. Bu haqida avval ham zikr qilingan. Ayniqsa, o‘zimizning yurtdagi ayrim salonlarda yoki kofirlar diyorlaridagi hammom va salonlarda bu ko‘p uchraydi. Hamma ochilib-sochilib yuradigan, hech kim tortinmaydigan joylarda bunday ish harom hisoblanadi. Lekin agar u joyda yalang‘ochlanish bo‘lmasa, ya’ni shariat chegaralari buzilmasa, bunday salonlarga kirish harom bo‘lmaydi.

Sakkizinchi foyda: Ayolning ayolning avratiga teginishi ham harom ekan. Bu, hatto kiyim ustidan bo‘lsa ham, fitnani qo‘zg‘atadi. Bu yerda “avrat” deganda haqiqiy jinsiy a’zolar nazarda tutiladi. Chunki ularga qarash yoki teginish shahvatni uyg‘otadi. Biroq zarurat holatlari bundan mustasno: masalan, ayol kasallik sabab ko‘rikka borganda va shifokorga murojaat qilganda bunga ruxsat beriladi.

Ammo ba’zi ayollar salonlarga borib, kindikdan pastini tozalatmoqchi bo‘ladi. Bunday paytlarda ham, agarchi u yerda faqat ayollar bo‘lsa ham, avratni ko‘rish ham, teginish ham haromdir.

24-hadis
Hayo ilmdan to'smasin

Muallif shunday deydilar: Hayoying seni din ishlarini ta’lim olishdan to‘sib qo‘ymasın.

Ya’ni “uyalaman, qanday so‘rayman, qanday dars o‘taman” deb ilm olishdan ortda qolma. Bu nasihat aslida erkaklarga ham tegishli, lekin ko‘proq ayollar haqida gapirilmoqda. Chunki ayollarga oid masalalar ko‘p va ularda ayollarning o‘zlari ilmli bo‘lishiga katta ehtiyoj bor. Agar ayollar ilmda sust bo‘lishsa, ular bilmagan narsalarida xatoga yo‘l qo‘yishlari oson bo‘ladi. Shu sababdan hayoni bahona qilib, o‘ziga kerakli diniy masalalarni o‘rganmaslikka yo‘l qo‘yilmaydi.

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: جَاءَتْ أُمُّ سُلَيْمٍ إِلَى رَسُولِ اللَّهِ ﷺ فَقَالَتْ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، إِنَّ اللَّهَ لَا يَسْتَحْيِي مِنَ الْحَقِّ، فَهَلْ عَلَى الْمَرْأَةِ مِنْ غُسْلٍ إِذَا احْتَلَمَتْ؟ قَالَ النَّبِيُّ ﷺ: «إِذَا رَأَتِ الْمَاءَ». فَضَحِكَتْ أُمُّ سَلَمَةَ تَعْنِي وَجْهَهَا وَقَالَتْ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، أَوَتَحْتَلِمُ الْمَرْأَةُ؟ قَالَ: «نَعَمْ، تَرِبَتْ يَمِينُكِ، فَبِمَ يُشْبِهُهَا وَلَدُهَا؟»

Ummu Sulaym roziyallohu anho Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib dedilar: “Yo Rosulullоh, Alloh taolo haqni bayon qilishdan hayo qilmaydi. Ayol kishiga ham ehtilom bo‘lsa g‘usl vojib bo‘ladimi?” Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Agar suvni ko‘rsa, g‘usl qilishi lozim.” Bu gapni eshitib Ummu Salama roziyallohu anho yuzlarini yopib, (hayo qildilar) va so‘radilar: “Yo Rosulullоh, ayol ham ehtilom bo‘ladimi?” Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Ha, bo‘ladi. Qo‘lingni tuproqqa belangur, bolasi nima uchun onasiga o‘xshaydi, deb o‘ylaysan?”

Hayo insonga shuning uchun berilganki, u noto‘g‘ri ishlaridan o‘zini tiyishi kerak. To‘g‘ri ishlardan esa uyalish emas, balki ochiq so‘rab, o‘rganish lozim. Shuning uchun Qur’onda ham: “Alloh haqdan hayo qilmaydi” deb kelgan. Ya’ni haqni bayon qilishda, to‘g‘rini aytishda hayoning o‘rni yo‘q.

Payg‘ambarimiz sollollohu alayhi va sallam Zaynab onamizga uylanganlarida, to‘y marosimidan keyin erkaklar hali ham turmay o‘tirib qolishgan. Rosulullоh bir necha marta tashqariga chiqib qaytgan bo‘lsalar ham, ular o‘tiraverishgan. Oxiri payg‘ambarimizning bezovta bo‘layotganlarini sezishgach, odamlar tarqalishgan. Ana shunda Alloh taolo oyat nozil qildi: “Payg‘ambar sizlardan uyalar edi, lekin Alloh esa haqdan uyalmaydi” (Ahzob 53).

Ya’ni, Rosulullоh: “Endi ketinglar” deyishga hayo qilgan edilar, lekin Alloh taolo bandalarini adabga chaqirib, to‘g‘rini ochiq aytdi. Shu oyat sababidan Ummu Sulaym roziyallohu anho ham “Alloh haqdan hayo qilmaydi” degan so‘z bilan savol berishga jur’at qildilar.
Uning savoli shunday edi: ayol tushida o‘zini eri bilan birga ko‘rdi. Erkaklarda ma’lumki, tushida shunday holat bo‘lsa, uyg‘onganda kiyimida namlik ko‘rsa, g‘usl qilish vojib bo‘ladi. Ayolda ham shunday bo‘lsa, hukmi qanday?

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Ha, agar suvni ko‘rsa, g‘usl qilishi vojib bo‘ladi”. Demak, bu masalada erkak va ayol hukmi bir xil: uyg‘onganda namlik ko‘rilsa, g‘usl qilish vojib bo‘ladi.

Shu bilan hadisdan ham, oyatdan ham ochiq ko‘rinadiki, hayo insonni to‘g‘ri narsani so‘rashdan to‘smasligi kerak, aksincha, noto‘g‘ri ishlardan tiyilishi uchun qo‘yilgan fazilatdir.

To‘g‘ri, g‘usl vojib bo‘lishining ikki sharti bor:
Birinchisi: tushida jinsiy aloqa kabi holatni ko‘rish.
Ikkinchisi: uyg‘onganda namlikni ko‘rishi.

Bu ikki shart birlashmasa, g‘usl vojib bo‘lmaydi. Masalan, faqat namlik ko‘rib, lekin tush ko‘rmagan bo‘lsa — g‘usl vojib emas. Yoki faqat tush ko‘rib, lekin uyg‘onganda namlik ko‘rinmasa ham g‘usl vojib bo‘lmaydi.

Ummu Sulaym roziyallohu anho shu masalani so‘raganida, Ummu Salama roziyallohu anho hayo qilib yuzlarini yopdilar-da, hayrat bilan: “Ya Rosulullоh, ayol ham ehtilom bo‘ladimi?” deb so‘radilar. Demak, hamma ayollarda bu narsa bo‘lavermaydi. Shuning uchun ham Ummu Salama onamiz ajablandilar. Chunki ko‘p ayollar, hatto erga tekkanlari ham ehtilom holatini sezmaydi. Ba’zan ayol eri bilan birga bo‘lganida ham oxiriga yetayotganini yoki yetmayotganini bilmaydi. Shu bois tabiiyki, bunday narsani tushida ham ko‘rmaydi.

Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam javob qilib aytdilar: “Unda bolasi nima sababdan unga o‘xshaydi?”

Ya’ni, agar ayolda ham erkakdagi kabi urug‘lik suyuqligi bo‘lmaganida, bola onasiga qanday o‘xshardi? Demak, farzandning otaga o‘xshashi kabi, onasiga ham o‘xshashi — ayoldagi suyuqlik hissasidan. Shu bilan hadisdan ma’lum bo‘ladiki, ehtilom masalasi erkak va ayol uchun umumiy bo‘lib, ayol ham shunday holatga tushishi mumkin.

Hadisdagi ilmiy mo’jiza

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollar ham ehtilom bo‘lishini bayon qilib, “Agar ayolning urug‘i bo‘lmasa, bola unga qanday o‘xshaydi?” deb javob berganlar.

Qadim zamonlarda erkak urug‘ligining mavjudligi hammaga ma’lum bo‘lgan. Chunki u tashqariga chiqadi va ko‘rinadi. Lekin ayol urug‘ligi (ya’ni tuxumdoni) ko‘zga ko‘rinmaydi, sirli jarayon bo‘lib, uni faqat mikroskop ostida keyingi asrlarda olimlar kashf qilishdi.
Ayolning tuxumdonidan bachadoniga tushadigan urug‘i (tuxum hujayrasi) tashqi tomondan bilinmaydi. Lekin ilmiy tadqiqotlarda aniqlandi: ayol urug‘i erkak urug‘i bilan qo‘shilganda farzand hosil bo‘ladi. Ba’zan bola otaga o‘xshaydi, ba’zan onaga — bu ikkalasining urug‘lari qo‘shilishidan. Shunday qilib, hadisda bundan 14 asr oldin aytilgan haqiqat keyinchalik ilmiy usulda tasdiqlandi. Bu Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning nubuvvatlarining mo‘jizasi bo‘lib, Qur’on va Sunnatning ilmiy haqiqatlarga qanday muvofiq kelishini ko‘rsatadi.
Natija: Erkak va ayolda urug‘lik bor, ikkalasining hissasi tufayli farzand ota-onasiga o‘xshaydi. Shariat hukmida ham erkak g‘usl qilganidek, ayol ham shunday holatda g‘usl qilishi vojib bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi savol berishidan oldin unga shafoat qiladigan narsani keltirishi uning ziyrakligidan dalolat beradi. Chunki ayol ziyrak bo‘lsa, savol berishdan oldin savolining ma’nosini aniq anglab, uni qanday ifodalashni o‘ylab oladi. Shunda savol berib bo‘lgach, o‘zi sharmanda bo‘lib qolmaslik uchun o‘zini oqlashga majbur bo‘lmaydi. Ya’ni unga shafoat qiladigan so‘zni savoldan oldin aytib qo‘yishi kerak bo‘ladi.

Mana, Ummu Sulaym onamiz savol berishdan avval: “Alloh haqdan hayo qilmaydi”, — deb, o‘zining uyalib qolishini oldini olganlar.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining ehtilom bo‘lishida va undan g‘usl qilish hukmida erkakka o‘xshashligi bor. Ya’ni erkak qanday ehtilom bo‘lsa va undan keyin g‘usl qilishi vojib bo‘lsa, ayolda ham xuddi shunday hukm tatbiq etiladi.

Uchinchi foyda: Ayolning ehtilom bo‘lishi o‘zi bilan o‘zi e’tiborga olinmaydi. Illo, ayoldan suv tushsa yoki ehtilomning ta’sirini sezsa, ana shunda e’tiborga olinadi. Demak, tush ko‘rishning o‘zi g‘usl uchun dalil bo‘lolmaydi. Qachonki ayol farjidan suv ko‘rsa yoki uni sezsa, shundagina g‘usl qilish vojib bo‘ladi.

Suyuqlikning xususiyatlari shunday: **raqiyq** — ingichka, suyuq, sarg‘ish va oqadigan bo‘ladi. Lekin bu erkak kishidagidek emas. Uni tabiiy ajratib olish ham qiyin. Aslida, buni “maziy” deb atasa ham bo‘ladi. Chunki ayolning haqiqiy urug‘ligi hech qachon tashqariga chiqmaydi. U doimo bachadon ichida qoladi. Lekin maziy — aynan erkak bilan qo‘shilganda chiqadigan suyuqlikdir. Ayolning urug‘ligi erkaknikiga o‘xshab tashqariga chiqib, ko‘rinadigan darajada bo‘lmaydi. U oqib ketadigan darajada ko‘p ham bo‘lmaydi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishining tabiiy hayosi uni erkakka rag‘bat uyg‘otadigan ba’zi so‘z va ishlarni ochiq zikr qilishdan to‘sadi.

Beshinchi foyda: Hayo — ilm olishdan man qilmaydi. Ya’ni ba’zan kimdir: “Bunday narsalarni so‘rashdan uyalmaysizmi?” deb aytishi mumkin. Lekin “uyalaman” deb ilm olishdan voz kechish to‘g‘ri emas.

Oltinchi foyda: Uyatli narsalarni so‘ragan ayol kishi yomonlanmaydi. Aksincha, u ilmni talab qilgani uchun maqtovga loyiq bo‘ladi.

Yettinchi foyda: Ayol kishiga dinga oid bir savol ko‘ndalang bo‘lsa, uni so‘rashi vojib bo‘ladi. Chunki u o‘zida tug‘ilgan shubhani “uyalaman” deb, hayolidagi taxmin yoki o‘zicha hujjat bilan tashlab qo‘yishi joiz emas. Din masalasida ayol savol berishdan uyalib yurmasligi kerak.

Sakkizinchi foyda: Odatda ayolning hayoli savollari inkor qilinmaydi. Balki, unga savol bergani uchun yomon muomala qilgan kishiga inkor qilinadi. Ya’ni so‘ragan ayolni ayblash emas, balki uni yomonlaganni ayblash lozim bo‘ladi.

To‘qqizinchi foyda: Haqiqiy hayo — hammasi yaxshilikdir. U faqat yaxshilikni keltiradi. Demak, haqiqiy hayoning yomon tomoni bo‘lmaydi.

O‘ninchi foyda: Ayol kishi iffatli va taqvodor olim kishidan o‘zi borib savol so‘rashi, fatvo olishi joizdir. Diniy masalalarda, hattoki ayollarga xos masalalarda ham, ayolning olim huzuriga borib so‘rashi mumkin bo‘ladi.

O‘n birinchi foyda: “Qo‘ling tuproqqa belangur” degan ibora arablar tilida urf bo‘lgan. Uni duoi bad sifatida qasd qilishmaydi. Kimga shunday deyilsa, bu so‘z qarg‘ash ma’nosida emas, balki odatiy ibora sifatida aytiladi. Bizda ham “ha, o‘lib ketgur” deyiladi. Lekin hech kim o‘sha so‘z bilan haqiqatda o‘limni istamaganidek.

O‘n ikkinchi foyda: Ayolning “suvi” ham bolaga ta’sir qiladi. Ya’ni bu yerda suvdan maqsad urug‘likdir. Erkakda qanday nasl genlari bo‘lsa, ayolda ham shunday genlari mavjud. Ana shu sababdan farzand ota-onasidan biriga yoki ikkisiga o‘xshash bo‘lib tug‘iladi.

25-hadis

Poklikka e'tibor

Muallif shunday deydi: Poklanish — hayotdagi masalalarning eng ko‘plaridan biridir. Shu sababdan uni bilmaslik to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Ayniqsa ayollar uchun poklanish masalalari juda ko‘p zarur bo‘ladi. Hayz, nifos, janobat va boshqa shunga o‘xshash hollarda poklanish ilmini bilish majburiydir. Shuning uchun bu ilmlarni o‘rganmaslikning imkoni yo‘q. Zero, bu hamma bilishi farz bo‘lgan ilmlar jumlasidandir.

عَنْ أَسْمَاءَ رضي الله عنها قَالَتْ: جَاءَتِ امْرَأَةُ النَّبِيِّ ﷺ فَقَالَتْ: أَرَأَيْتِ إِحْدَانَا تَحِيضُ فِي الثَّوْبِ كَيْفَ تَصْنَعُ؟ قَالَ: «تَحُتُّهُ ثُمَّ تَقْرُصُهُ بِالْمَاءِ وَتَنْضَحُهُ وَتُصَلِّي فِيهِ»

Asmo roziyallohu anho (Oyisha onamizning opalari) rivoyat qiladilar: Bir ayol Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam huzurlariga kelib: “Aytingchi, bizlardan birimiz kiyimida hayz ko‘rsa, qanday yo‘l tutadi?” deb so‘radi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Uni ishqalaydi, so‘ng suv bilan chertib yuvadi, ustiga suv quyadi va keyin o‘sha kiyimida namoz o‘qiyveradi.”

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Hadisda aytilgan “tahukkuhu” so‘zi — ishqalash, “taqrusuhu” esa — barmoqlarning uchlari bilan ishqalash deganidir. Muhimi, najosatning asorati ketkazilishi, aynan qo‘l barmog‘i bilan bo‘lishi shart emas. Biror narsa bilan ishqalasa ham bo‘laveradi. Masalan, hozirgi kunda kiyimni kir mashinasiga tashlab yuvsa ham kifoya qiladi. Muhim jihat — najosatning izi qolmasligi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi uyatli masalalardan bo‘lsa ham savol qilishi joizdir. Bu ayb sanalmaydi va inkor ham qilinmaydi. Ya’ni hozirgi hadisda ayolning hayz qonidan qanday tozalanishni so‘rashi — ilm talabidan bo‘lib, bu narsa uyat emas. Bilmagani uchun so‘raydi va bunga tanbeh berilmaydi.

Uchinchi foyda: Jirkanch narsalarni ham zarurat yuzasidan ochiq aytish joizdir. Ya’ni shar’iy hukmni bilish uchun so‘ralsa, jirkaniladigan narsa bo‘lsa ham uni tushuntirish joiz. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hadisda hayz qonini tozalashni mayda tafsilotlari bilan tushuntirganlar. Demak, zaruratda jirkanch narsa bo‘lsa ham uni ochiq bayon qilish mumkin.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishining iffatli va ishonchli olimdan fatvo so‘rashi joizdir. Hattoki o‘zi borib, yuzma-yuz savol bersa ham ayol uchun joiz hisoblanadi.

Beshinchi foyda: Najosatni suv bilan yuvish vojibdir. Agar kiyim yoki badan najosatga tegsa, uni suv bilan yuvib tozalash kerak bo‘ladi. Hadisdagi “taqrusuhu” iborasidan ham shuni anglaymiz: najosat suv bilan ishqalab yuvilishi lozim. Shu bois kiyim yoki badanga najosat tegsa, uni faqat suv bilan yuvib ketkazish vojibdir.

Oltinchi foyda: Najosatni yuvishda ma’lum bir adad (son) shart qilinmaydi. Toza bo‘lishi bilan kifoyalaniladi. Ya’ni hadisda “uch marta yuvilsin” yoki “yetti marta yuvilsin” deb aniq adad belgilanmagan. Shuning uchun agar kiyim yoki narsa bir marta yuvilganda toza bo‘lsa — bitta ham yetadi. Agar uch martada ham tozalanmasa, bundan ham orttirish mumkin. Bu kiyimning yoki narsaning holatiga bog‘liq. Masalan, yupqa kiyim bir marta yuvishda ham tez tozalanishi mumkin, biroq qalin gilam yoki shunga o‘xshagan narsalar uch martada ham toza bo‘lmasligi ehtimoldan xoli emas. Demak, shart adadda emas, balki asoratning ketishidadir.

Yettinchi foyda: Ikki yo‘ldan — old va orqa avrat yo‘llaridan chiqadigan qon najas hisoblanadi. Chunki bu yo‘llar najosat chiqadigan yo‘llardir. Shundan kelib chiqadiki, boshqa a’zolardan chiqqan qonlar najas emas. Masalan, burundan qon kelishi, tishdan qon chiqishi yoki biror a’zo kesilganda chiqqan qonlar najosat hisoblanmaydi. Ular toza qon sanaladi. Faqat ikki yo‘ldan chiqadigan qonlargina “najosat yo‘lidan kelgani uchun” najas deyiladi.

26-hadis

Hayz Allohning taqdiri ekanligi va undan foydalanish

Muallif shunday deydi: Hayzdan ko‘ngling siqilmasin, chunki u Alloh taolo ayollarga bitgan bir ishdur. Uni taqdir sifatida qabul qil va undan qanday foydalanishni bil.

Hayz Allohning ayolga yozgan taqdiri bo‘lib, bu hech ham xafa bo‘ladigan narsa emas. Aksincha, hayz kelganida ham o‘sha fursatdan foydalanish lozim. Hayz kelishi “endi hech narsa qilmay o‘tiraverish kerak” degani emas. Balki uning ham samarasini bilish kerak. Nifos ham xuddi shunday. Farqi shundaki, hayz odatda to‘rt-besh kunda o‘tib ketadi, nifos esa ko‘pincha qirq kunlab davom etadi. Bu vaqt mobaynida namoz o‘qilmaydi, lekin bu fursat ham befoyda o‘tkazilmaydi.

Masalan, hayzda yoki nifosda bo‘lsa ham, ayol ilm eshitishi, ilm o‘qishi mumkin. Shuning uchun “foydalanishni bilish” degani shu — ibodatni tark etgandek emas, balki imkon bo‘lgan boshqa savobli ishlarga chalg‘ish. Agar ayol: “Men hayz yoki nifos holatida bo‘lmaganimda hozir ibodat qilayotgan bo‘lardim” deb niyat qilsa, Alloh uning niyatiga qarab ajr yozadi. Bunga dalil, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hadislarida aytganlar: “Kasal yoki safarda bo‘lgan kishining kasalligi yoki safarligi sababli qila olmagan ibodatlari unga sog‘lom va muqim davridagi kabi yoziladi.” Demak, uni kasallik yoki safar ibodatdan to‘xtatgan bo‘lsa ham, avvalgi odati va niyati sababli ajrdan bebahra qolmaydi. Xuddi shuningdek, hayz va nifos ham shunday. Agar ayol: “Men hayz bo‘lmaganimda yoki nifos bo‘lmaganimda hozir falon ibodatni qilayotgan bo‘lardim” deb niyat qilsa, aynan o‘sha amalni qilmagan holda ham ajrni oladi. Bu — qilolmagan amal evaziga ham savob yozilishi deganidir.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: خَرَجْنَا لَا نَرَى إِلَّا الْحَجَّ، فَلَمَّا كُنَّا بِسَرِفٍ (١) حِضْتُ، فَدَخَلَ عَلَيَّ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ وَأَنَا أَبْكِي، فَقَالَ: «مَا لَكِ أَنُفِسْتِ؟» قُلْتُ: نَعَمْ. قَالَ: «إِنَّ هَذَا أَمْرٌ كَتَبَهُ اللَّهُ عَلَى بَنَاتِ آدَمَ، فَاقْضِي مَا يَقْضِي الْحَاجُّ غَيْرَ أَنْ لَا تَطُوفِي بِالْبَيْتِ». قَالَتْ: وَضَحَّى رَسُولُ اللَّهِ ﷺ عَنْ نِسَائِهِ بِالْبَقَرِ

Oyisha roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Biz faqat haj niyatida yo‘lga chiqqan edik. Sarif degan joyga yetganimizda men hayz ko‘rdim. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam huzurimga kirib keldilar. Men yig‘lab o‘tirar edim. U zot dedilar: ‘Nima bo‘ldi senga? Nifos ko‘rdingmi?’ Men: ‘Ha’, — dedim. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Bu ish Alloh taolo Odam qizlariga bitgan narsadir. Sen ham hojilar qiladigan narsalarning barchasini qilavergin, faqat Baytni tavof qilma’. So‘ng Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarining nomidan bir molni qurbonlik qildilar.”

Oyisha onamizning: “Biz faqat hajni niyat qilib yo‘lga chiqqan edik” — degan so‘zlari shuni anglatadiki, Madinadan Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hamda sahobalarning ayollari faqat haj qilish niyatida yo‘lga chiqqan edilar. Ularning niyatida avval umra qilib, so‘ng haj qilish bor emas edi. Balki, faqatgina hajni ado etish uchun ihrom bog‘lab chiqqan edilar.

Shundan keyin Sarif deb ataluvchi, Makkaga yaqin joyga yetganlarida Oyisha onamizga hayz keldi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam o‘sha paytda: “Avval umra qilinglar. Kim o‘zi bilan qurbonlik olib kelmagan bo‘lsa, ham umra, ham haj qilib oladi”, — deb amr qilgan edilar. Shunda Oyisha onamiz ham hajdan oldin umra qilib olishni xohlab edilar, biroq hayz ko‘rib qoldilar. Shu bois boshqa sahobalar va onaxonlar avval umra qilib, keyin haj qilgan bo‘lsalar-da, Oyisha onamiz umra qila olmay qolgan edilar.

Shu sababli u zot xafa bo‘lib, yig‘lab o‘tirgan paytlarida Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam huzurlariga kirib, yig‘laganining sababini so‘radilar. Oyisha onamiz aytdilar: “Hamma hajdan oldin umra qilib olib, keyin haj qilayotgan ekan. Men esa endi faqat haj qilib, umrasiz qaytar ekanman”, — deb dildan xafa bo‘lib yig‘ladilar. Bu voqea yuqorida zikr qilingan qoidaga dalildir: agar bir amalni qilishga niyat bo‘lsa, ammo uzr tufayli qilolmasa, niyat sababli amal qildi deb yoziladi.

Ana shu paytda, agar ayol bu holatidan xursand bo‘lsa, ajr yozilmaydi. Lekin “ibodatdan qoldim” deb xafa bo‘lsa va niyatida sobit tursa, niyatining o‘zi uchun ajr yoziladi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ham Oyisha onamiz yig‘layotganlarini ko‘rib, birdan: “Nifos ko‘rdingmi?” — deb so‘radilar. Bu yerda “nifos”dan maqsad hayzdir. Oyisha onamiz: “Ha”, — dedilar.

Shuning uchun u zot yig‘lab o‘tirgan edilar. Keyin Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ularga tasalli berib: “Bu ish Alloh taolo odam qizlariga bitgan narsadir”, — dedilar. Ya’ni bu yig‘laydigan narsa emas, xafa bo‘ladigan holat emas. Bu Allohning taqdiri. Inson qanday qilib taqdirga nolishi mumkin bo‘lmasa, hayzga ham shunday nolishi mumkin emas. Uning og‘rig‘i tufayli bo‘lsin yoki ibodatdan qolganidan bo‘lsin, bunga sabr qilish lozim. Shu bois Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Bu — odam qizlariga bitilgan narsa”, — deb u zotni taskin berdilar.

Ayollarga hayzning bitilganida hikmat haqida shunday so‘z aytiladi: Odatda hayvonlarning ko‘pi hayz ko‘rmaydi. Bu holat faqat insonlarda va ayrim hayvonlarda uchraydi. Masalan, quyon hayz ko‘radi degan rivoyat bor. Demak, hayvonlar orasida bu juda kam uchraydigan holat. Insoniyat ayollariga esa bu qismat — kafforat tarzida bitilgan.

Birinchidan, Odam alayhissalom jannatda o‘sha mevani yeganlarida, Havvo onamizning targ‘ib va rag‘bati bo‘lgan. Shuning uchun “Odam qizlariga hayz illati urgan” deyiladi.

Kimdir aytishi mumkin: “Xo‘p, lekin Havvo qilgan ishga nima uchun qiyomatgacha bo‘lgan barcha ayollar javobgar bo‘ladi?” Javob shuki: ayollar ham xuddi Havvo onamiz qilgan ishni qiladilar. Ya’ni ular ham erlarini biror ishga qistaydilar, “buni qilaylik, uni qilaylik” deb ko‘pincha erlarini fitnaga soladilar, buzib qo‘yadilar. Shu bois bu holat ayollarga kafforat sifatida bitilgan.

Shu sababdan Qur’onda zikr qilinganidek, Fir’avn va uning qavmiga Alloh balo tarzida qonni yubordi. Ba’zi tafsirlarda aytiladi: “Fir’avnlarning ayollaridan hayz to‘xtamay qolgan.” Bu ham ularning gunohlariga kafforat bo‘lgan. Demak, hayzning “Odam qizlariga bitilgan narsa” deb atalishi — Allohning taqdiridir.

So‘ng Rosululloh sollollohu alayhi va sallam: “Sen hoji nimani qiladigan bo‘lsa, shuni qilavergin”, — dedilar. Ya’ni ayol hayz ko‘rdi degani, endi hajni tark qiladi yoki o‘tiraveradi degani emas. Balki haj amalini davom ettiraveradi. Masalan, Arafa kuni tog‘da turadi, keyin Muzdalifaga boradi, boshqa hojilar nima qilsa, u ham qiladi. Faqatgina Ka’bani tavof qilishni kechiktiradi. Chunki tavof — namoz hukmida. Unda tahorat va poklik shart. Shuning uchun ayol pok bo‘lmaguncha Ka’bani tavof qilmaydi.

Ayolning Ka’bani tavofi hayzdan toza bo‘lguncha kechiktiriladi. Shunda ham haj ado etilgan hisoblanadi. Endi savol tug‘iladi: umra nima bo‘ladi? Umra ham niyatida bo‘lgani sababli ajri yozilaveradi. Oyisha onamiz ham aslida umra niyatida edilar, lekin hayz tufayli bajara olmadilar. Shunga qaramay, ajr niyatlari sabab yozildi. Lekin u zot buni ko‘ngillariga sig‘dira olmadilar: “Odamlar ham haj, ham umra qilib qaytishyapti, men esa faqat bitta haj niyatida qaytib ketayapman”, — deb o‘ksinib yig‘ladilar.

Shu sababdan Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam haj tugaganidan keyin Oyisha onamizning akalari Abdurahmon ibn Avfga buyurdilar: “Oyishani Taniyim degan joyga olib borib, ihrom o‘ratib, umra qildirib kel”. Shunday qilib, Oyisha onamiz hajdan keyin umralarini ham ado etib qaytdilar.

Keyin Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam o‘z ayollari nomidan bitta molni qurbonlik qildilar. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, hayzda ham qurbonlik qilinaveradi. Aslida hayzli bo‘lishi shart emas, odam o‘z ahli nomidan xohlagan paytda qurbonlik qilishi mumkin. Xohlasa o‘zi uchun bitta, xohlasa ahli uchun bitta, xohlasa barchasi uchun bitta qurbonlik qilishi joizdir. Muhimi, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam barcha ayollarining nomidan bir molni qurbonlik qilib berdilar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Hayz — barcha odam qizlariga bitilgan narsa, ya’ni taqdirdir. Bu Alloh taolo tomonidan ayol zotiga yozilgan holat bo‘lib, uni inkor etish yoki nolish emas, sabr bilan qabul qilish lozimdir.

Ikkinchi foyda: Ayol kishiga hayz og‘rig‘i sababli yetadigan musibatlarga sabr qilganida unga ajr yoziladi. Shuning uchun ham hayz — kafforat bo‘lib, uning sabr qilishi orqali gunohlariga mag‘firat va ajr beriladi.

Uchinchi foyda: Ayol kishi safarda ham eridan behojat bo‘la olmaydi. Ayniqsa, nafsga tegishli masalalar va boshqa ehtiyojlarda. Mana, Oyisha onamiz Rosululloh sollollohu alayhi va sallam bilan safarda yurganlarida ham bir o‘zlari mustaqil emas, balki ul zotga suyanib yurardilar. Nafsga taalluqli masalalarda ham Rosululloh sollollohu alayhi va sallamdan so‘rashga majbur bo‘lganlar. Demak, ayol hech qachon safarda eridan yoki mahramidan behojat bo‘lmaydi. Shu bois erisiz va mahramisiz safar qilishdan qaytarilgan.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishining mahrami bilan safar qilishi juda muhimdir. Chunki mahram uning yonida tursa, bir ishda muhtoj bo‘lsa yordam beradi, uni qo‘llab-quvvatlaydi. Inson tabiatan boshqa insonning yordamsiz yashay olmaydi. Shu kabi vaziyatlarda ayol yonida mahrami bo‘lishi lozim.

Beshinchi foyda: Ayol kishi tabiiy hodisalar — hayz, homiladorlik, nifos kabi holatlar bilan ham nafsiy jihatdan ta’sirlanadi. Bu paytlarda u bilan muomala qilayotgan kishi uning holatini inobatga olib, rioya qilishi kerak. Masalan, asabiylik, tez jahllanish va ruhiy tushkunliklar bo‘lishi mumkin. Shunday paytlarda hamroh kishilar ayolning ahvolini tushunib, sabr bilan muomala qilishi zarur. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam ham Oyisha onamizning bu holatlarida ularni yupatib, tasalli berganlar.

Oltinchi foyda: Ayol kishi erkalanishni yaxshi ko‘radi. Odatda hayzli ayol yig‘lamaydi. Lekin Oyisha onamiz Rosululloh sollollohu alayhi va sallamdan tasalli olish uchun erkalanganlar va yig‘laganlar. Bu ham ayol tabiatidagi noziklikdan dalolatdir.

Yettinchi foyda: Hayz — haj yoki umra uchun ihrom bog‘lashga to‘sqinlik qilmaydi. Ayol hayz ko‘rgan bo‘lsa ham ihrom o‘rayveradi, faqatgina Ka’bani tavof qilishni kechiktiradi. Shu bilan haj va umraning qolgan amallarini ado etishi mumkin bo‘ladi.

Sakkizinchi foyda: Hayz ko‘rgan ayol haj amallarining hech biridan to‘xtatilmaydi, faqatgina Ka’bani tavof qilishdan chetlanadi. Nega? Chunki tavof — namoz hukmida bo‘lgan ibodatdir. Namozda qanday poklik shart bo‘lsa, tavofda ham shunday poklik talab etiladi. Shu bois hayzli ayol tavofni kechiktirib turadi.

To‘qqizinchi foyda: Hayz ko‘rgan ayolga Qur’on tilovat qilish joizdir. Lekin u Musxafni bevosita qo‘liga olmaydi. Agar ushlashi kerak bo‘lsa, qo‘lqop yoki boshqa vosita bilan ushlashi mumkin. Chunki Qur’on o‘qish haj amallarining eng afzalidir. Oyisha onamiz ham bu amalni tark etishga buyurilmadilar. Demak, dalil shuki — ayol hayz holida Qur’on tilovat qilishi mumkin, ammo Musxafni bevosita ushlashdan saqlanadi, to‘suvchi vosita bilan ushlashi mumkin bo‘ladi.

27-hadis

Poklik va hayz ishonch ustiga quriladi

Muallif shunday deydi: Namozni faqatgina shariatdan dalil ustiga bino qilingan ishonch bilan tark qil.

Hayz va nifos holatlarida namozni tark qilish joizdir. Lekin buning tashqarisida hech qanday sabab namozni tark etishga dalil bo‘lolmaydi. Aslida namoz doim o‘qilishi kerak. Faqatgina shariatning o‘zida “bu paytda tark qil” deb dalil kelgan joyidagina, ya’ni sahih ilm bilan sobit bo‘lgandagina tark qilinadi.

Masalan, “hayz keldimi yoki kelmadimi?” degan shubha bo‘lsa, ya’ni aniq dalil bo‘lmasa, namozni tark etmaydi, balki o‘qiyveradi. Ayniqsa hayz boshlanish paytlarida ko‘pincha noaniq holatlar bo‘ladi. U vaqtda hali to‘liq qon kelmagan bo‘ladi, balki sarg‘ish yoki noaniq suyuqlik keladi. Bunday holatda ayol tahorat olib, namozini o‘qiyveradi.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: جَاءَتْ فَاطِمَةُ بِنْتُ أَبِي حُبَيْشٍ إِلَى النَّبِيِّ ﷺ فَقَالَتْ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، إِنِّي امْرَأَةٌ أُسْتَحَاضُ فَلَا أَطْهُرُ أَفَأَدَعُ الصَّلَاةَ؟ فَقَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «لَا، إِنَّمَا ذَلِكِ عِرْقٌ وَلَيْسَ بِحَيْضٍ، فَإِذَا أَقْبَلَتْ حَيْضَتُكِ فَدَعِي الصَّلَاةَ، وَإِذَا أَدْبَرَتْ فَاغْسِلِي عَنْكِ الدَّمَ ثُمَّ صَلِّي»

Fatima bintu Abu Hubaysh roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Men Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam huzurlariga kelib: ‘Yo Rosulullоh, men istihoza bo‘ladigan ayolman. Hech qachon toza bo‘lmayman. Namozni tark qilaymi?’ — deb so‘radim. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Yo‘q, bu faqatgina bir tomirdan keladigan qon, hayz emas. Agar hayzing kelsa, namozni o‘qima. Agar hayzing tugasa, o‘zingdan qonni yuvib, so‘ng namozni o‘qiyver’.”

Demak, bu ayolda qon tinmay oqaverar, hayz qoni bilan istihoza qoni aralashib kelaveradi. Shuning uchun u: “Endi men hayzmi yoki boshqami, ajrata olmayman. Balki umuman namozni o‘qimay yuraverarman?” — deb o‘yladi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam esa unga: “Yo‘q, bunday emas. Namoz baribir o‘qiladi. Chunki bu faqat bir tomirdan kelayotgan qon, hayz emas”, — deb tushuntirdilar. Ya’ni ayol kishining bachadonida yoki boshqa yo‘llarida tomir yorilib ketgandek bo‘lib, qon kelishi mumkin. Bu kasallik bo‘lsa-da, hayz hisoblanmaydi.

Endi ayol qayerdan biladi hayz kelganini? Buni hayzning o‘z alomatlaridan biladi. Masalan, odatda qaysi kunlarda hayz ko‘rardi, hayz qonining rangi qanday bo‘lardi — ana shu belgilariga qarab o‘zi ajratib oladi.

Hayz va nifos qonining o‘ziga xos sifatlari bor: u qoramtir rangda bo‘ladi, hidi o‘tkir bo‘ladi, laxta-laxta bo‘lib oqadi, bel og‘riqlari ham kuzatiladi. Istihoza qoni esa undan farqli — rangi tiniqroq, hidi o‘tkir emas, laxtalanmaydi. Shunday belgilar orqali ayol hayz bilan istihozani farqlay oladi.

Demak, masalan, ayol: “Men odatda besh kun hayz ko‘rardim”, — deb hisoblab, o‘sha besh kunni hayz kunlari deb qabul qiladi va shu kunlari namozni tark qiladi. Keyin o‘sha hayz kunlari tugab bo‘lgach, g‘usl qilib, tahorat olib namozini o‘qiydi, hattoki qon kelishi davom etsa ham. Mana shu hadisdan dalil olinadiki, aslida istihoza holatida namozni tark qilish joiz emas, balki o‘qish vojibdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Istihoza hukmlari tafsilotlari bilan bayon qilinyapti. Yuqoridagi hadisda ham ayolning hayz va istihoza qonini qanday ajratishi, qanday amal qilishi aniq tushuntirib berilgan.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining o‘ziga xos, nozik masalalarda ham iffatli erkak olimdan fatvo so‘rashi joizdir. Chunki ilmda hayoning to‘siqlari bo‘lmaydi, shar’iy hukmni bilish uchun savol qilish zarur.

Uchinchi foyda: Agar ayolning boshiga biror masala tushsa va uning hukmini bilmasa, uni so‘rashi lozim bo‘ladi. Buning uchun o‘zi so‘rashi yoki boshqa bir kishini vakil qilib, olim huzuriga jo‘natishi mumkin. Masalani o‘rganmasdan tashlab qo‘yish esa joiz emas.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishining hayosi uni ilm ta’limidan man qilmaydi. Uyatli bo‘lsa ham, zarur masalalarda savol berishi, ilm talab qilishi lozim.

Beshinchi foyda: Ayolni omonatga tarbiyalash ham bu hadisda namoyon bo‘lmoqda. Chunki istihoza holatida hayz kunlarini ajratib olish masalasi ayolning o‘ziga topshirilmoqda. Bu ishda ayolning rostgo‘yligi va daqiqligiga Allohdan boshqa hech kim guvoh bo‘lmaydi. Ayolning holatini o‘zidan boshqa hech kim bilmaydi. Alloh biladi, keyin ayolning o‘zi biladi. Demak, ayol o‘zini Allohga havola qilgan holda, taqvo bilan halol va rostgo‘y bo‘lishga undalmoqda.

Oltinchi foyda: Qon oqishida hayz bilan istihozaning farqi ajratiladi. Ya’ni qonning oqish manbaiga va sifatiga qarab hukm qilinadi. Istihoza qoni tomirdan keladi, hayz qoni esa bachadondan keladi. Asl qonning sifati — rangi, hidi, oqish usuli — orqali qaysi qonligi aniqlanadi.

Yettinchi foyda: Istihoza holatidagi ayolga har bir namoz uchun g‘usl qilish vojib emas. Balki u faqat tahorat qiladi. G‘usl esa hayz muddati tugagach qilinadi.

Sakkizinchi foyda: Istihoza ayolga namoz vaqti kirgach, har safar tushayotgan qonni yuvib tozalash vojib bo‘ladi. Keyin tahorat olib, namozini o‘qiydi. Ya’ni vaqt kirmasidan oldin yuvib-tahorat qilib olgani o‘tmaydi. Har bir namoz o‘z vaqtida kirgachgina, qon yuvilib, tozalab, so‘ng tahorat olinib namoz o‘qiladi.

To‘qqizinchi foyda: Ayolning hayz muddatini bilishda bir necha holatlar mavjud.

Birinchi holat: Istihozadan oldin ayolning odati bo‘lsa, o‘sha odatiga qaytadi. Ya’ni hayz bilan istihozani ajratishda vaqtga tayangan holda hukm qiladi. Masalan, avvallari hayz muddati aniq bo‘lgan, keyinchalik sabab bilan istihoza kelib qolgan. Shunda eng osoni — eski odatini mezon qilish. Qachon va necha kun hayz ko‘rar edi, o‘sha muddatni hayz deb qabul qiladi. Keyin odati tugagan kunidan boshlab g‘usl qiladi va namozni o‘qiydi.

Ikkinchi holat: Agar ayolda hayz qoni bilan istihoza qonini ajratishga qudrati bo‘lsa, ya’ni farqini fahmlay olsa, hukmni shunga binoan qiladi. Hayz qoni qoraga moyil bo‘ladi — to‘q jigarrang, og‘ir, quyuq va o‘tkir hidli bo‘ladi. Istihoza qoni esa och qizil, suyuq, tabiiy qon kabi bo‘ladi va unda o‘tkir hid bo‘lmaydi. Shunday belgilar asosida ayol hayz muddatini hisoblaydi.

Agar birinchi holatdagi kabi aniq odati bo‘lmasa, maxsus belgilangan kunlari ham bo‘lmasa, unda faqat qonining sifatiga qarab hukm qiladi. Qaysi kuni qora va og‘ir qon kelayotganini, necha kunda to‘xtayotganini kuzatadi, va o‘sha kunlarni hayz kuni deb hisoblaydi. Keyin g‘usl qilib namozini o‘qiydi. Bu usul qiyinroq bo‘lishi mumkin, lekin ayol farosat bilan kuzatib, o‘z holatini shunday aniqlashi kerak bo‘ladi.

Uchinchi holat: Bu eng qiyin holatdir. Ya’ni ayolning asli odati ham bo‘lmagan, maxsus kunlarda hayz ko‘rish odati ham yo‘q va hayz qonini istihoza qonidan ajratishga ham qurbi yetmaydi. Har doim bir xil qon kelaveradi.

Bunday vaziyatda u onasining, opasining, yaqin qarindoshlaridan birining odatini o‘lchov qiladi. Masalan, onasi yoki opasi odatda necha kun hayz ko‘rardi — besh kunmi, yetti kunmi — o‘sha muddatni hayz deb chamalaydi. Shuncha kunni hayz deb hisoblab, keyin g‘usl qiladi va namozni o‘qiydi.

Demak, bu oxirgi imkoniyatdir. Agar ayolning fahmi yetib hayz bilan istihozani ajrata olsa, birinchi yoki ikkinchi holatga qarab amal qiladi. Agar buni ham qila olmasa, uchinchi holatga amal qilib, yaqinlarining odatiga qarab muddatni belgilaydi.

28-hadis

Hayz va janobatdan g'usl

Muallif shunday deydi: Hayzdan keyingi g‘usl qilish sifatining tafsilotlari hamda janobatdan (junub bo‘lishdan) keyin g‘usl qilish tafsilotlari bir qancha buyuk ma’nolarga dalolat qiladi. Bu tafsilotlarning o‘zida taammul qilib, chuqur mulohaza yuritishga arzigulik dalillar mavjud.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها: أَنَّ أَسْمَاءَ سَأَلَتِ النَّبِيَّ ﷺ عَنْ غُسْلِ الْمَحِيضِ، فَقَالَ: «تَأْخُذُ إِحْدَاكُنَّ مَاءَهَا وَسِدْرَتَهَا فَتَطَهَّرُ فَتُحْسِنُ الطُّهُورَ، ثُمَّ تَصُبُّ عَلَى رَأْسِهَا فَتَدْلُكُهُ دَلْكًا شَدِيدًا حَتَّى تَبْلُغَ شُعُورَ رَأْسِهَا، ثُمَّ تَصُبُّ عَلَيْهَا الْمَاءَ، ثُمَّ تَأْخُذُ فِرْصَةً مُمَسَّكَةً فَتَطَهَّرُ بِهَا». فَقَالَتْ أَسْمَاءُ: وَكَيْفَ تَطَهَّرُ بِهَا؟ فَقَالَ: «سُبْحَانَ اللَّهِ تَطَهَّرِينَ بِهَا». فَقَالَتْ عَائِشَةُ (كَأَنَّهَا تُخْفِي ذَلِكَ): تَتَبَّعِينَ أَثَرَ الدَّمِ. وَسَأَلَتْهُ عَنْ غُسْلِ الْجَنَابَةِ، فَقَالَ: «تَأْخُذُ مَاءً فَتُطَهِّرُ فَتُحْسِنُ الطُّهُورَ، ثُمَّ تُصَبُّ عَلَى رَأْسِهَا فَتُدْلِكُهُ حَتَّى تَبْلُغَ شُعُورَ رَأْسِهَا، ثُمَّ تُفِيضُ عَلَيْهَا الْمَاءَ». فَقَالَتْ عَائِشَةُ: نِعْمَ النِّسَاءُ نِسَاءُ الْأَنْصَارِ، لَمْ يَكُنْ يَمْنَعُهُنَّ الْحَيَاءُ أَنْ يَتَفَقَّهْنَ فِي الدِّينِ

Asmo roziyallohu anho Rosulullohdan sollollohu alayhi va sallamdan hayzdan keyingi g‘usl haqida so‘radilar. Rosulullohsollollohu alayhi va sallam dedilar: “Birlaring suv va sidr olib, u bilan yaxshilab tozalanadi. Keyin boshidan suv quyadi, boshini qattiq ishqalaydi, hatto bosh terisigacha yetguncha. So‘ngra butun tanasidan suv quyadi. Keyin misk surtilgan bir matoni olib, u bilan tozalanadi.” Asmo: “Qanday qilib u bilan tozalanadi?” — deb so‘raganlarida, Rosulullohsollollohu alayhi va sallam: “Subhanalloh! U bilan tozalanadi-da”, — dedilar.

Oyisha roziyallohu anho aytdilar: “Go‘yoki u yerini maxfiy qilgandek, qonning o‘rnini ishqalab artadi.” Keyin Asmo janobatdan g‘usl qilish haqida ham so‘radilar. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Suv olib tozalanadi, tozalanishni yaxshilab bajaradi yoki mubolag‘ali darajada tozalanadi. So‘ngra boshidan suv quyadi va boshini qattiq ishqalaydi, hatto bosh terisigacha yetguncha. So‘ngra yana butun tanasidan suv quyadi.” Oyisha roziyallohu anho dedilar: “Ansor ayollari naqadar yaxshi ayollar! Hayo ularni dinda faqih bo‘lishdan man qilmadi.”

Bu hadisda zikr qilingan Asmo — Ansor ayoli Asmo, u Asmo bintu Abu Bakr ham emas, Oyisha roziyallohu anho onamizning opalari Asmo ham emas. Boshqa bir ansoriy ayol bo‘lib, u Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan hayzdan keyingi g‘usl haqida savol so‘ramoqda. U so‘raydi: “Qanday g‘usl qilamiz?” Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Birlaring suvini va sidrini oladi.”

Sidr — qadimgi zamonlarda sovun o‘rnida ishlatilgan bir o‘simlik bo‘lib, mayyitlarni yuvishda ham o‘sha ishlatilgan. Unda xushbo‘ylik ham, ko‘pirtiruvchi xususiyat ham bor. Shuning uchun u suv bilan ishlatiladi.
So‘ng: “U bilan tozalanadi”, — dedilar. Ya’ni birinchi navbatda hayz joylarini sidr bilan yaxshilab tozalashni aytdilar. Keyin: “Boshidan suv quyadi”, — dedilar. Bu oddiy g‘uslning keyingi bosqichidir. Keyin: “Boshini qattiq ishqalaydi”, — dedilar. Ya’ni suv soch orasidan o‘tib, bosh terisigacha yetishi uchun. So‘ng: “Ustidan suv quyadi”, — deb amallarni yakunladilar.

Demak, tartib shunday bo‘ladi: avval hayz joylarini sidr bilan tozalash, keyin boshni suv bilan yaxshilab yuvish, soch tagigacha suvni yetkazish, undan keyin butun badan ustidan suv quyib yuvinish. Shu bilan g‘usl mukammal bo‘ladi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hadisda: “Keyin misk surtilgan bir matoni olib, u bilan tozalanadi”, — deb aytdilar. Bu shuni ko‘rsatadiki, g‘usldan keyin ham, cho‘milgandan keyin ham ayoldan xushbo‘y hid kelib turishi lozim. Chunki tabiiyki, hayzdan keyin asoratlar qoladi. Ayniqsa qadimgi zamonlarda bugungidek sovun yoki shampunlar bo‘lmagan. Shuning uchun ham ayol misk surtilgan latta yoki paxta bilan hayz o‘rnini yaxshilab tozalardi.

Ma’lumki, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam kinoya bilan: “Hayz o‘rnini tozalaydi”, — deb aytganlar. Bu aniq narsani to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmasdan, hayo yuzasidan kinoya qilib bayon qilganlar. Asmo roziyallohu anho esa buni tushunmay: “Qanday qilib u bilan tozalaydi?” — deb qayta so‘raganlarida, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam taajjublanib, hayoli bir gapni aytishdan hayo qilib: “Subhanalloh, u bilan tozalanadi-da!” — deb javob berganlar.

Bu yerda ayollarning tabiatidagi farq ham ochiladi. Qur’onda Oyisha onamiz va boshqa sahoba ayollar haqida “g‘ofila ayollar” degan sifat ishlatilgan. “G‘ofila” degani — bunday ishoralarni ham tushunmaydigan, faxsh-munkarlarga olib boradigan gaplarni ham anglamaydigan, o‘z tabiatida beg‘ubor va iffatli ayollar demakdir. Bu ularning hayosi va pokligidan dalolat qiladi.

Masalan, ayrim ayollar bor — bunday mavzudagi gap aytilsa, darrov tushunib oladi, bu esa ularning tabiati shahvatga moyil ekanidan darak beradi. Lekin boshqa ayollar bo‘ladi — ular tabiatida bunday moyillik bo‘lmagani uchun, hatto biror fahshga eltuvchi ishorali gapni ham umuman tushunmaydi. Shunday ayolga zino qildi deb tuhmat qilish esa eng katta tuhmatdir. Demak, Ansor ayollari aslida shunday “g‘ofila” ayollar bo‘lgan. Hadisda ham ularning sodda va beg‘ubor tabiati ochilgan. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam kinoya qilgan gapni tushunmay, qayta-qayta so‘rab turishgan. So‘ng Oyisha onamiz masalani xuddi maxfiy qilgandek, pichirlab bayon qilib berganlar.

Boshqa rivoyatda Oyisha roziyallohu anho aytadilar: “Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamni hijolat qilib qo‘ymaslik uchun o‘sha ayolni chetga tortib, sekin o‘ziga aytdim.” Ya’ni, masalani ochiq aytishga uyalib, ayolga alohida tushuntirib berganlar.

So‘ngra u ayol Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan janobat g‘usli haqida so‘radi. U zot dedilar: “Suv olib, u bilan tozalanadi va tozalanishni yaxshi qiladi.” Chunki janobatdan keyin ham badanda turli asoratlar qolishi mumkin. Shuning uchun: “Mubolag‘alik darajada tozalanadi”, — deb buyurilgan. Maqsad — namoz o‘qiyotganda tahorat buzilib qolmasligi, ayolning ichidan har xil namlik chiqib ketsa ham xalaqit bermasligi uchun, qin ichini ham yaxshilab tozalashdir. Buning uchun maxsus moslamalar yordamida suv quyib, tozalash mumkin.

Shundan so‘ng boshidan suv quyib, boshini yaxshilab ishqalab, suv terisigacha yetkazadi. Keyin ustidan suv quyib, oddiy holda g‘uslni yakunlaydi. Bu g‘uslda hayzdagi kabi “misk bilan artish” qismi kelmaydi. Chunki bu holatda hech qanday najosat yo‘q. Hatto maniy ham aslida pok hisoblanadi.

Shu joyda Oyisha roziyallohu anho aytadilar: “Ansor ayollari naqadar yaxshi ayollar! Hayo ularni dinda faqih bo‘lishdan man qilmadi.”

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining iffatli erkak olimlardan ayollarga xos masalalarda fatvo so‘rashi joizdir. Bu ilmni talab qilishdan to‘siq emas, balki shar’iy hukmni bilish uchun zarur amaldir.

Ikkinchi foyda: Hadisda ayolning hayzdan keyin g‘usl qilish sifati bayon qilindi. Nifosdan keyingi g‘usl ham xuddi shu sifat bilan qilinadi.

Uchinchi foyda: Hayzdan tozalangandan so‘ng qon o‘rnini misk bilan tozalash ayol kishi uchun sunnatdir. Bu — ayolning pokizaligini ta’minlash va xushbo‘y hid taratishi uchun buyurilgan odobdir.

To‘rtinchi foyda: Hayo — shar’iy ta’lim olishdan man qilmaydi. Ya’ni ayol dinida kerakli masalalarni so‘rashdan uyalmasligi lozim. Hayo qilaman deb savolni tashlab qo‘yish joiz emas.

Beshinchi foyda: Poklikdan keyin misk ishlatish — jirkanch narsalarni ketkazishga va ayoldan yoqimsiz hid kelmasligiga ishora qiladi. Shuning uchun ayol kishiga misk ishlatish buyurilgan. Bu boshqa masalalarga ham qiyos qilinadi. Masalan, terlaganida xushbo‘y narsalar ishlatishi lozim. Albatta, bu ishda shariat izn bergan ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Hadisda aynan misk targ‘ib qilingan. O‘sha davrda boshqa xushbo‘y narsalar ham bo‘lgan, lekin miskning afzalligi — mikroblarni o‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lishida, degan ta’bir ham bor. Demak, kimdir zohiran misk ishlatsa, hadisga to‘liq amal qiladi, ammo boshqa xushbo‘y narsalar ham ishlatish mumkin.

Oltinchi foyda: Yoqimsiz yoki uyatli ishlarning shar’iy hukmini bilish uchun ularni tilga olish joizdir. Ba’zan gap quloqqa g‘alati eshitilishi yoki hayo tug‘dirishi mumkin, ammo ilmni o‘rganish uchun uni so‘rash va ochiq aytish zarur bo‘lsa, bunda hech yomonlik yo‘q. Yuqorida aytilgandek, kinoyani tushunmaganlarga majburan, ochiqcha aytishga to‘g‘ri keladi.

Yettinchi foyda: Hadisdan dalolat qiladiki, ayol kishining ayollarga ta’lim berishi muhimdir. Chunki ayollar o‘rtasidagi suhbatda hayoning darajasi erkaklar o‘rtasidagi kabi bo‘lmaydi. Ayol ayolga ayrim nozik masalalarni erkinroq tushuntiradi, bu ham shar’iy ta’limni yoyishda muhim vositadir.

29-hadis

Poklik va hayz alomatlarini ajratish

Muallif shunday deydi: Loyqa suyuqlik bilan sarg‘ish suyuqlikni bir-biridan ajratish lozim. Bu holat poklikdan oldin ham, poklikdan keyin ham poklanish hukmiga taalluqlidir.

Ya’ni hayz boshlanishida ham, hayz tugaganidan keyin ham keladigan loyqa suyuqliklar — qon aralash suyuqliklar yoki sarg‘ish suvlarni farqlab olish zarur. Agar hayz kelishidan avval loyqa yoki sarg‘ish suyuqlik chiqsa, bu hayz hisoblanmaydi. Ammo hayz boshlanganidan keyin, hayzning orqasidan keladigan sarg‘ish (sufro) yoki loyqa (kudra) suyuqliklar poklik yuz bermasdan turib kelsa, u hayz hisoblanadi.
Shunday qilib, farq shunda: hayz kelishidan avvalgi loyqa yoki sarg‘ish suyuqliklar hayz emas, ammo hayz kelib bo‘lgach va hali poklanish yuz bermasidan kelsa, hayz hisoblanadi. Demak, “hayzdan avval hisoblamaslik kerak” degani, “hayzdan keyin ham hisoblamaslik kerak” degani emas.

عَنْ أُمِّ عَطِيَّةَ وَكَانَتْ بَايَعَتِ النَّبِيَّ ﷺ قَالَتْ: «كُنَّا لَا نَعُدُّ الْكُدْرَةَ وَالصُّفْرَةَ بَعْدَ الطُّهْرِ شَيْئًا»

Ummu A’tiya roziyallohu anho (Nabiy sollollohu alayhi va sallamga bay‘at bergan ayollardan biri) rivoyat qiladilar: “Biz poklanganimizdan keyin keladigan loyqa va sarg‘ish suyuqliklarni hech narsa deb hisoblamas edik.”

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayollarda ba'zida loyqa rangli yoki sarg'ish rangli suyuqlik keladi. U xuddi yiringga o'xshab ko'rinadi, ammo unda sarg'ishlik ustun bo'ladi. Hadisda aytilgan "sarg'ish" yoki "qora" suyuqliklar ana shularni anglatadi.

Ikkinchi foyda: Sarg'ish yoki loyqa suyuqliklar poklik ko'ringandan keyin e'tiborga olinmaydi. Ya'ni ayol hayzdan pok bo'lib g'usl qilganidan keyin yana shunday suyuqlik chiqsa, "yana hayz qaytdimi?" deb o'ylanmaydi.

Uchinchi foyda: Sarg'ish va loyqa suyuqliklar hayz muddatining o'zida bo'lsa, hayz hisoblanadi. Masalan, bir ayol odatda besh kun hayz ko'radi. Agar uch kun qon kelib, so'ngra to'xtab, keyin sarg'ish suyuqlik ko'rinsa, qolgan ikki kun hali hayz muddati ichida bo'lgani uchun bu ham hayz hisoblanadi. "Sarg'ish keldi, demak hayz tugadi", deb o'ylash xato. Chunki u hali hayz muddatining ichida bo'lib turibdi.

To'rtinchi foyda: Hayz muddatidan tashqarida keladigan sarg'ish yoki loyqa suyuqliklar hayz hisoblanmaydi. Ularni faqat hayz muddati ichidagina hayz deb qabul qilish mumkin. Muddatdan tashqarida ularni hayzga yo'ymaydi.

Beshinchi foyda: Shar'iy hukmlarni bilishda e'tibor Nabiy sollollohu alayhi va sallam zamonidagi holatga qarab belgilanadi. U zot davrida qanday amal qilingan bo'lsa, keyingi zamonlarda paydo bo'lgan masalalar ham o'sha aslda qaytariladi. Demak, keyinchalik yuzaga keladigan yangi holatlar ham Rasulullоh sollollohu alayhi va sallamning davrida ko'rsatilgan yo'l bilan o'lchanadi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan keyin yangi bir ahkom paydo bo‘lmaydi. U zotning davrida bir ish to‘g‘ri deb bilingan bo‘lsa, u doim to‘g‘ri bo‘lib qoladi. Agar bir ish noto‘g‘ri deb bilingan bo‘lsa, u keyin ham noto‘g‘ri bo‘lib qoladi. Demak, keyinchalik paydo bo‘ladigan gaplar va yangiliklarga qarab emas, balki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning zamonidagi holatlarga qarab hukm qilinadi.

Bu mavzuga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ikki xil asos bor:

Birinchisi — hayz kelishidan oldin ayolning asli tozaligi hisoblanadi. Shuning uchun haqiqiy qizil hayz qonigacha keladigan turli suyuqliklar (sarg‘ish, loyqa, noaniq ranglar) hech narsa hisoblanmaydi.

Ikkinchisi — hayz boshlanganidan keyin ayolning asli notozalik holati hisoblanadi. Shuning uchun sarg‘ish, qizil yoki loyqa suyuqliklar ham hayz hisoblanadi. To poklik belgisi — to‘liq oq suyuqlik yoki quruqlik ko‘ringuniga qadar hayz davom etadi.
Demak, ikki xil asos ikki xil muddatda e’tiborga olinadi: hayzdan oldin “asl tozaligi”, hayz boshlanganidan keyin esa “asl notozaligi” hukm qilinadi.

30-hadis

G‘uslda ayolga shariat yengilligi

Muallif shunday deydi: Hatto janobatdan g‘usl qilishda ham ayolning o‘ziga xos tabiati, ya’ni nozikliklari va tabiiy holatlari inobatga olingan.

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ قَالَتْ: قُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، إِنِّي امْرَأَةٌ أَشُدُّ ضَفْرَ رَأْسِي، أَفَأَنْقُضُهُ لِغُسْلِ الْجَنَابَةِ؟ قَالَ: «لَا، إِنَّمَا يَكْفِيكِ أَنْ تَحْثِي عَلَى رَأْسِكِ ثَلَاثَ حَثَيَاتٍ، ثُمَّ تُفِيضِينَ عَلَيْكِ الْمَاءَ فَتَطْهُرِينَ»

Ummu Salama roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Ey Rosulullоh, men boshimni o‘ramini qattiq qilib yuradigan ayolman. Janobat g‘usli uchun uni yechib buzaymi?” Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Yo‘q, senga kifoya qiladiki, boshingga uch hovuch suv quyasan. So‘ngra butun ustingdan suv quysan, shunda toza bo‘lib chiqasan.”

Erkaklar uchun g‘uslda sochning har bir tolasi va uning ildizigacha suv yetkazilishi shart. Ammo ayollar masalasida shariat ularning tabiati va holatiga rioya qilgan.

Agar ayol sochini mahkam o‘rib yursa, janobat g‘uslida uni yechib yoyishi shart emas. Chunki bunda unga yengillik berilgan. Faqatgina boshiga uch hovuch suv quyib, soch ildizigacha suv yetkazishi kifoya qiladi. Har bir soch tolasi suv bilan ho‘llanishi majburiy emas. Bu — faqat janobat g‘uslida amal qilinadi.

Ammo hayz yoki nifosdan keyingi g‘uslda bunday emas. Chunki hayz bir oyda bir marta, nifos esa tug‘ruqdan keyin keladi. Bu holat kam bo‘lgani uchun unda albatta sochni yechib yoyib, yaxshilab yuvish shart qilib qo‘yilgan.

Janobat esa tez-tez takrorlanishi mumkinligi sababli ayollarga yengillik berilib, sochini yechmay, bosh terisiga suv yetkazishning o‘zi kifoya deb belgilangan.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Hadisda aytilgan “sochning o‘ramini qattiqlash” deganidan maqsad — sochni o‘rib, ba’zi tolalarini bir-biriga kirgizib qo‘yishdir. Ya’ni bu yerda sochni o‘rish nazarda tutilmoqda. Agar ayolning sochi kalta bo‘lib, uni o‘ray olmasa, u holda tabiiy ravishda sochini yechib yuvadi.

Ikkinchi foyda: Er-xotin o‘rtasida diniy masalalarni bir-biridan so‘rash va o‘rganish — ularning yaxshi munosabatlaridan biridir. Ayol eridan din ishlarida savol so‘rashi lozim, erkak esa unga ilm o‘rgatishga e’tibor qilishi kerak. Agar erkakning o‘zi o‘rgata olsa, bevosita o‘rgatadi, o‘rgata olmasa, ayolini ilm beradigan kishiga yuboradi. Bu er-xotin o‘rtasida dinga xizmat qilishning muhim ko‘rinishlaridan biridir.

Uchinchi foyda: Ayol kishining janobatdan g‘usl qilishi uchun soch o‘ramini buzishi vojib emas. Muhimi — soch oldindan o‘rib qo‘yilgan bo‘lsa, g‘uslda uni yechmasdan, bosh ildizigacha suv yetkazsa kifoya qiladi. Ammo agar soch odatda o‘rilmagan bo‘lsa yoki janobatdan keyin o‘rib, shu holda g‘usl qilsa, bu to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni g‘usl to‘g‘ri bo‘lishi uchun soch janobatdan oldin o‘rilgan bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi foyda: G‘uslda ayol kishi birinchi boshini yuvishdan boshlaydi, keyin suvni butun badani ustiga quyadi. Shu bilan u janobatdan pok bo‘ladi. “Boshini yuvish” deganda maqsad — suvni bosh terisigacha yetkazib yuvishdir. Masalan, ba’zilar oddiygina bir vannaga yoki basseyn-hovuzga tushib chiqishadi, bu g‘usl hisoblanmaydi. Chunki g‘usl uchun faqat cho‘milishning o‘zi kifoya emas, balki qalbda niyat qilish ham vojib. Agar niyat bo‘lmasa, u faqat oddiy cho‘milganlar qatorida bo‘lib qoladi, g‘usl hisoblanmaydi.

Beshinchi foyda: G‘uslda a’zolarni uch martadan yuvish mustahabdir. Hadisda: “Boshingga uch marta suv quyasan”, — deb aytilgani ham bunga dalolat qiladi. Shundan kelib chiqadiki, qolgan a’zolarni ham tahoratdagi kabi uch martadan yuvish mustahab sanaladi. Shu orqali tozalash mukammal bo‘ladi.

31-hadis
Qiz va o'g'il bola ahkomlari farqli

Muallif shunday deydi: Ey ayol, sen kichikligingdanoq erkakdan farqli qilib yaratilgansan. Endi qanday qilib katta bo‘lganingda unga teng bo‘lishing mumkin?!

Bu so‘zlar bilan muallif hozirgi davrda aytilayotgan “erkak-ayol teng huquqli” degan da’volarga ishora qilmoqda. Qanday qilib ular teng bo‘la oladi? Axir erkak bilan ayolning jismoniy va tabiatdagi farqlari hatto kichkinaligidan boshlanadi. Demak, u ulg‘ayganda ham, katta bo‘lganda ham farq yo‘qolib ketmaydi, balki tabiiy holda davom etaveradi. Shunday ekan, ayol bilan erkakni mutlaq teng deb qo‘yish — fitratga zid bir da’vo hisoblanadi.

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ قَالَتْ: قُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، إِنِّي امْرَأَةٌ أَشُدُّ ضَفْرَ رَأْسِي، أَفَأَنْقُضُهُ لِغُسْلِ الْجَنَابَةِ؟ قَالَ: «لَا، إِنَّمَا يَكْفِيكِ أَنْ تَحْثِي عَلَى رَأْسِكِ ثَلَاثَ حَثَيَاتٍ، ثُمَّ تُفِيضِينَ عَلَيْكِ الْمَاءَ فَتَطْهُرِينَ»

Luboba bintu Horis roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Husayn ibn Ali roziyallohu anhu Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning bag‘rida edilar. U kishi Rosulullohning ustilariga siyib qo‘ydi. Shunda men: ‘Menga izoringizni bering, boshqa kiyim kiying, men sizga buni yuvib beraman’, — dedim. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Yuvish — qiz bolaning siydigida bo‘ladi. Erkak bolaning siydigida esa faqat sepish kifoya qiladi’.”

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam Hasan ibn Alini bag‘irlariga olib, o‘ynatib o‘tirganlarida, Hasan yosh bola bo‘lganlari uchun ustilariga siyib qo‘yadilar. Shunda Luboba bintu Horis roziyallohu anho kiyimni olib yuvishni taklif qiladilar. Ammo Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “O‘g‘il bolaning siydigini yuvish shart emas, suv sepib qo‘yish kifoya qiladi” — deb aytganlar.

Albatta, bu hukmning o‘ziga ham shart bor: bu holat ovqat yemaydigan, faqat sut emadigan yosh bola haqida. Chunki uning siydigi hali “sut siydigi” bo‘ladi, ya’ni najosat darajasi og‘ir bo‘lmaydi. Shu bois, ustiga suv sepib qo‘yish kifoya bo‘ladi. Ammo sovuq o‘lkalarda suv sepib qo‘yib, kiyim nam holda qolsa, odamni bezovta qiladi. Bunday paytda yuvish afzal bo‘ladi.

Qiz bolaning siydigida esa albatta yuvish kerak. Ulamolar buning bir necha sababini zikr qilganlar:

- Ba’zilar: o‘g‘il bolaning siydigi odatda bir joyga tushadi, qiz bolaniki esa sachrab tarqaladi, — deyishgan.
- Ba’zilar: o‘g‘il bolaning siydigi harorati kuchliroq bo‘ladi, shuning uchun ichidagi zararli narsalar yo‘qoladi. Qiz bolaning siydigi esa zaifroq, sovuqroq bo‘lib, unda zararli mikroblar ko‘proq qoladi, — deyishgan.

Boshqa izohlar ham bor, lekin aslida hadisning zohiriga kifoyalangan eng to‘g‘risidir. Sababini to‘liq Alloh taolo biladi.
Nima bo‘lganda ham, bu hukm kichik chaqaloqlik davrida amal qiladi. Bola ovqat yeydigan yoshga yetgach, u qiz bo‘ladimi, o‘g‘il bo‘ladimi — ikkala holatda ham siydik ustidan to‘liq yuvish vojib bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Suv sepish bilan yuvish o‘rtasida farq bor. Sepish — suvni sachratib, najosat tegib qolgan joyning hamma tomoniga suv yetkazishdir. Bunda najosatni to‘liq ketkazish emas, balki kamaytirish, yengillatish maqsad qilinadi. Shariatda bu holat “taxfīful-najosat” — najosatni yengillatish deb ataladi. Masalan, issiq diyorlarda ba’zan kishi bavl qilgach, to‘liq yuvinmay, faqat artib ketaveradi. Toza bo‘lib qolmasa-da, najosat yengillashadi. Shuning kabi, sepish ham najosatni to‘liq ketkazmasdan, uni yengillashtiradi.

Ikkinchi foyda: O‘g‘il bolaning siydigidan keladigan najosat, qiz bolaning siydigidan keladigan najosatdan farqli ekan. Bu hukm emizish davriga xos. Ya’ni bola hali ovqat yemay, faqat sut bilan yashayotganida shunday farq qilinadi. O‘g‘il bola emizish davrida bo‘lsa — siydigida faqat sepish kifoya. Qiz bola esa emizish davrida bo‘lsa ham, siydigini yuvish kerak. Ammo bola ovqat yeyishga kirgandan keyin — farqi yo‘q, o‘g‘il ham, qiz ham siydigida kiyimni yuvish vojib bo‘ladi. Bu esa yuqoridagi mavzuga ishora: erkak bilan ayolning farqi hatto chaqaloqligida ham mavjud ekan. Endi qanday qilib katta bo‘lganda ular bir xil deb aytilishi mumkin?!

Uchinchi foyda: Najosatning turlicha bo‘lishi — uni ketkazish yo‘lining ham turlicha bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Qiz bolaning siydigi bir xil najosat, o‘g‘il bolaning siydigi esa boshqa xil najosat sanaldi. Shu bois uni ketkazish yo‘li ham boshqacha: qiz bolaniki yuviladi, o‘g‘il bolaniki esa sepiladi. Demak, najosatning o‘z sifatiga qarab, uni ketkazish usuli ham farq qilarkan.

To‘rtinchi foyda: O‘g‘il bola siydigining najosatini ketkazishda o‘sha joyga suv sepish kifoya bo‘ladi. Qiz bola siydigi esa bundan farqli — unda albatta siydik tekkan joyni to‘liq yuvish zarur bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Hukmdagi bu farqlilik faqat ovqat yeyishdan oldingi davrga taalluqli. Bola hali ovqatga kirmagan, faqatgina sut bilan yashayotgan vaqtidagi siydik haqida gap ketmoqda. Bola ovqat yeyishga kirgandan keyin esa o‘g‘il ham, qiz ham bir xil hukmda bo‘ladi va siydik to‘liq yuviladi. Chunki o‘sha paytdan boshlab siydik haqiqiy najosatga aylanadi.

Oltinchi foyda: Erkak bilan ayolning yaratilishidagi tabiiy xilqatlarida farq borligi ochiq-oydin ko‘rinadi. Shuning uchun ular bilan muomalada adolat — ularni hamma jihatdan tenglashtirish emas, balki tabiiy farqlarini hisobga olishdir. Demak, erkak bilan ayol barcha jabhalarda teng bo‘lmaydi, balki ayrim jihatlarda tenglashtiriladi. Masalan, shariat ibodatlarida — namozda, ro‘zada ular tengdirlar. Lekin boshqa jihatlarda, yaratilish, tabiat va mas’uliyatlarda erkakning xilqati boshqa, ayolning xilqati boshqacha. Shu bois shariat hukmlarida ham ular orasidagi farqlar ajratib qo‘yilgan.

32-hadis

Uydagi namoz masjiddagidan afzal

Muallif shunday deydi: Ayol kishining uyida o‘qigan namozi, masjidda o‘qigan namozidan ko‘ra afzaldir.

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ مَسْعُودٍ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «صَلَاةُ الْمَرْأَةِ فِي بَيْتِهَا أَفْضَلُ مِنْ صَلَاتِهَا فِي حُجْرَتِهَا، وَصَلَاتُهَا فِي مَخْدَعِهَا أَفْضَلُ مِنْ صَلَاتِهَا فِي بَيْتِهَا»

Nabiy sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Ayolning uyida namoz o‘qishi, masjidida namoz o‘qishidan afzalroqdir. Hujrasida o‘qishi uyida o‘qishidan yaxshidir. Yotar joyida, ya’ni eng yashirin joyida namoz o‘qishi esa hujrasida o‘qishidan ham afzalroqdir.”

Hadislarning ma’nosidan chiqadiki: ayol qancha ichkarida, berkroq va satrda namoz o‘qisa, shuncha afzal bo‘ladi.

Masalan, uyida o‘qishi — hujrasida (ya’ni hovlisida) o‘qishidan afzal. Uy bilan hujrani farqlaydigan bo‘lsak, hujra — hovli, uy esa hovlining ichidagi xona. Demak, ayol hovlida namoz o‘qigandan ko‘ra uyining ichida o‘qigani afzal bo‘ladi. Maqsad — ayol qancha ichkarida, ko‘zdan yiroq va satrda bo‘lsa, namozi shuncha fazilatli bo‘ladi.

Boshqa rivoyatda ham kelgan: “Ayolning masjidda namoz o‘qishi, uyida namoz o‘qishidan afzal emas. Balki uyida o‘qigani afzal”. Shu bilan ayolning uydagi namozi, erkaklarning masjiddagi namozidan kamroq savob bo‘ladi, deb emas, balki uning uchun ko‘proq hijob va satrga yaqinroq bo‘lgani uchun afzal, deb tushuniladi.

Istisno holatlar

Agar ayol uyida Qur’on hatmlarini, taroveh yoki tahajjud namozlarini ado eta olmasa, bu hollarda masjidga chiqib o‘qishi afzal bo‘ladi. Chunki uyda yolg‘iz qolsa, ehtimol umuman o‘qimay qo‘yishi mumkin. Shu sababdan Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam davrida ham ayollar masjidlarga chiqqanlar. Xususan, bomdod namozlarida Qur’on qiroatini eshitish uchun, xufton namozlarida esa qiroati uzun bo‘lgani sababli masjidga borganlar. Hech kim ularni bundan man qilmagan.
Bunga dalil — sahih hadisda kelgan: “Allohning cho‘rilari Allohning masjidlariga chiqishni istashsa, ularni man qilmanglar”.
Ammo agar ayol masjidga chiqqanida o‘z satrini to‘liq ololmasa yoki erkaklarga fitna bo‘ladigan holat yuzaga kelsa, bunday vaziyatda uyida o‘qishi afzal bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayolning namozidan olinadigan ajr — uning qaysi joyda va qanday makonda o‘qiyotganiga qarab o‘zgaradi. Uyida o‘qishi, uyning ham ichkarisida o‘qishi shunchalik afzal bo‘layotganidan bilinadiki, satrga bo‘lgan e’tibor qanchalik kuchli bo‘lsa, ajri ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Aslida namoz eng ulug‘ ibodat bo‘lgani uchun uni eng satrli, eng berk joyda ado etish eng afzaldir. Bu qoidani boshqa amallarga ham qiyos qilish mumkin: ayolning o‘qishi, eshitishi, ibodatlarida satr va taqvoga rioya qilishi — eng go‘zal ajrlarni olib keladi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining ibodatini satrli joylarda ado etishi, boshqa ochiq joyda o‘qigan namozidan ko‘ra afzal bo‘ladi. Chunki bunda satr bor. U uyining eng ichkarisida, eng berk joyida namoz o‘qisa, savobi va fazilati shunchalik ortadi.

Uchinchi foyda: Shariat ayol kishini erkaklardan satr qilishga tarbiyalaydi. Hatto ibodatida ham imkon qadar satlanishi, ayolning odobi va hulqining go‘zal bo‘lishiga dalolat qiladi. Demak, satr — faqat tashqi libos emas, balki ibodatdagi ruhiy tarbiya vositasidir.

To‘rtinchi foyda: Satrlanish ayol kishining masalalarida talab qilingan asosiy maqsaddir. Ayol nafaqat ibodatda, balki hayotining barcha jabhalarida — ishida, o‘qishda, ko‘chada ham satrga rioya qilishi lozim. Chunki satr — uning iffatini saqlash va sharafini ulug‘lashdir. Ibodat uchun satrlanish eng a’lo darajada bo‘lsa, boshqa ishlarida ham satrni e’tibordan qoldirmaslik talab etiladi.

Ayolning uyidagi ichkari xonasida namoz o‘qishi hovlida o‘qishidan afzal bo‘lishi ham shunga dalolat qiladi: ya’ni ayol satrini uyidan tashqarida ham ehtiyot qilishi kerak. Ayol uchun eng afzal va ajri eng ko‘p bo‘ladigan satrli joy — uning uyining eng ichkari xonasidir.

33-hadis
Erkaklar nafasidan uzoq tur

Muallif shunday deydi: Erkaklar nafasidan yiroq tur, agarchi namoz saflarida bo‘lsang ham.

“Erkaklar nafasi” deganidan maqsad — erkaklarning ko‘ziga ko‘rinishdan, ularning qulog‘iga ovoz eshittirishdan, burniga hid chalinishidan uzoqda bo‘lishdir. Bu hatto namoz safida turganda ham shunday. Demak, bunda hech qanday bahona va uzr yo‘q: ish bo‘lsin, bozor bo‘lsin, o‘qish bo‘lsin — farqi yo‘q. Har qanday holatda ayol erkaklar nafasi yetadigan joydan yiroq turishi lozim.

Bu qoida boshqa narsalarda ham batariqa a’lo amal qiladi. Masalan, haj yoki umra vaqtida Ka’bani ushlab olish, rasmga tushish uchun erkaklar orasiga tiqilib kirish to‘g‘ri emas. Chunki u yerda nafaqat nafasi, balki badani ham tegib ketishi ehtimoli katta. Shunday ekan, har qanday holatda ham ayol erkaklar nafasidan uzoqroq turishga buyurilgan.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «خَيْرُ صُفُوفِ الرِّجَالِ أَوَّلُهَا، وَشَرُّهَا آخِرُهَا، وَخَيْرُ صُفُوفِ النِّسَاءِ آخِرُهَا، وَشَرُّهَا أَوَّلُهَا»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Erkaklar saflarining eng yaxshisi — oldi, eng yomoni esa oxiridir. Ayollar saflarining eng yaxshisi — oxiri, eng yomoni esa oldidir.”

Erkaklar hayotda doimo oldinda yurishi kerak. Shu bois ularga namoz safida ham eng yaxshi saf — avvalgi saf qilib berilgan. Erkak odam hammadan orqada qolib yurishi ayb sanaladi. Shuning uchun hatto namozda ham eng oxirgi saf erkaklar uchun eng yomon saf bo‘lgan. Bu qoidani hayotning boshqa sohalariga ham qiyoslash mumkin.

Ayollar esa aksincha. Ular erkaklardan imkon qadar uzoqroq turishlari uchun namozda eng yaxshi saf — oxirgi saf qilib belgilangan. Eng yomon saf esa oldingi safdir. Chunki old safda turgan ayol erkaklarning ko‘z o‘ngida bo‘ladi, hammadan oldinda turib qoladi. Bu esa ayol uchun maqbul emas. Shu dalilga ko‘ra, boshqa o‘rinlarda ham hammadan oldinda yurish, oldinga chiqib olish ayollarga xos emas.

Agar masjidda faqat bitta saf bo‘lsa, ayollar ham shu safda turaveradilar. Masalan, masjidda 4-5 ta saf bo‘lsa, ayollar uchun eng afzali oxirgi safdir.

Agar masjid yopiq bo‘lsa, ya’ni ayollar erkaklardan to‘silib, ko‘rinmaydigan bo‘lsa, bu holda ayollarning birinchi safda turishi afzal bo‘lib qoladi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam davrida masjidlar bunday emas edi, ayollar orqada turar, lekin erkaklarga ko‘rinib turganlari uchun ularga eng yomon saf — oldingi saf hisoblangan.

Demak, to‘siq bo‘lsa ayollar uchun birinchi saf afzal bo‘ladi. Masjidning old tomoni yopiq, orqa tomoni ochiq bo‘lsa, bunday paytda ham ayollarning birinchi safi eng yaxshi saf bo‘ladi. Chunki erkaklar tomonga ochiq bo‘lsa, orqada turgan ayollar ruku va sajda holatida erkaklarga ko‘rinib qolishi mumkin. Ana shunday vaziyatda oxirgi saf eng yomon saf bo‘lib qoladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayollar ham jamoatda namoz o‘qiganda tartib va intizomda bo‘lishlari lozim. Ular ham erkaklardek saf tortib, jipslashib, intizom bilan namoz o‘qishlari kerak. Agar ayollar jamoat bo‘lsa, har kim o‘zicha tarqalib o‘qimaydi, balki bir saf bo‘lib turib namoz ado etadi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining jamoatda o‘qigan namozining ajri ham uning safda qayerda turganiga qarab farqlanadi. Erkaklarda ham shunday: jamoat afzal bo‘lsa-da, saflar orasida ham fazilat jihatidan farq bor. Oldingi saf yanada afzal. Ayollarda esa buning aksi — safning ajri fitnadan qancha uzoq bo‘lsa, shuncha ko‘p bo‘ladi.

Uchinchi foyda: Ayollar saflarining eng yaxshisi oxirgi saflardir, agar ular erkaklar ko‘rib turadigan joyda saf tortib turgan bo‘lsalar. Chunki bu satrga va fitnadan yiroqlikka yaqinroqdir. Ammo agar ayollar erkaklarga ko‘rinmaydigan joyda bo‘lsalar, bu hukm o‘zgaradi va oldingi saf afzal bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchi foyda: Shariat erkaklarning amallarini ham, ayollarning amallarini ham bir-biridan farqlab qo‘ygan. Hattoki bitta ibodatning o‘zida, bitta joyda ham jinslar orasida farq bor. Bu — ularning xilqat xususiyatlariga rioya qilinganidan dalolat beradi. Shu sababli erkaklarning saflari boshqacha tartiblangan bo‘lsa, ayollarniki boshqa tartibda belgilangandir.

Beshinchi foyda: Shariat ayol kishini erkaklardan uzoq turishga tarbiyalaydi. Afsuski, bugungi zamonda, xususan arab va turk diyolarida, ayollarning o‘zini erkaklardan olib qochib turish odati ko‘p hollarda yo‘qolib ketgan. Aksincha, erkaklar ularga yo‘l berib chekinishi kerak bo‘lyapti. Holbuki bizning diyorda, din qanchalik zaif bo‘lsa ham, odob va xulq saqlangan: erkak kelsa, ayol yo‘l berib chetga chiqadi. Demak, chet elga borib o‘qiyotganlar bu nojo‘ya xulqlarni o‘rganmasliklari lozim.

Shariat ayollarni erkaklardan yiroq qilib tarbiyalagan. Lekin bugun g‘arb ta’sirida “erkak va ayol teng” degan tushuncha takror-takror quloqlarga quyilmoqda. Hatto “ayol erkakdan ham ustun” deyuvchilar bor. Aslida esa ayol o‘zini erkakdan uzoq tutishi kerak, hatto namoz safida ham. Chunki bunda nafaqat iffat, balki erkak va ayolning nafsoniyati ham ta’sir ostida qoladi.

“Erkak va ayol teng” degan da’vo, ayol erga tekkanidan keyin yanada zararli oqibatlarini ko‘rsatadi: eriga bo‘ysungisi kelmaydi, doim janjal qiladi, “men sendan tengman, balki ustunman” deydi. Natijada o‘zini ham, erini ham baxtsiz qiladi. Bu erkakning nafsoniyatini ham sindiradi. Erkakka ham, jamiyatga ham bunday ayol yoqmaydi. Erkakning oldiga tushib oladigan, undan tortinmaydigan ayol erkak nazarida qadrini yo‘qotadi.

Qur’onda hurlarning sifatida ham shunday kelgan: “Ular ko‘zlarini past qiladigan ayollar”. Bu esa dalolat qiladiki, jannatdagi hur ham o‘zini erkakdan past qiluvchi, hayo va iffatni ko‘zda tutuvchi bo‘ladi. Demak, ayol kishiga erkakka tenglik da’vosini qilmaslik, balki tabiiy satr va hayo bilan o‘z o‘rnini bilishi lozim.

Oltinchi foyda: Shariat erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy tortishish kuchini inobatga olgan. Ular orasida magnit kabi bir-biriga tortishish bor. Agar qo‘yib qo‘yilsa, bu tortishish namozda ham bo‘lishi mumkin. Shu sababli shariat ularni imkon qadar bir-biridan uzoq qilgan. Sahobalar ham ayollarga ko‘zimiz tushib qolmasin, deb oldingi safga o‘tishga shoshilar edilar. Munofiqlar esa eng oxirgi safga o‘tirib olib, sajda qilgan paytda ayollarga qarab o‘tirganlari rivoyat qilingan. Shu holat haqida Alloh taolo oyat tushirdi: “Sizlardan kimlar oldinlarga o‘tib ketayotganini ham, kimlar orqaga chekinayotganini ham Biz bilib turibmiz”. Demak, shariat bu tabiiy tortishishni hisobga olib, ikkalasini fitnaga tushib qolishidan saqlaydigan hukmlar qo‘ygan.

Yettinchi foyda: Shariat hukmlari ayolni satrda tarbiyalaydi va erkaklardan uzoqroq turishga undaydi. Bu orqali ayolning hayosi, iffati va hurmati saqlanadi.

Sakkizinchi foyda: Ayollarning namozda eng yomon saflari — birinchi saflari. Holbuki, namoz — banda bilan Robbisi orasidagi eng buyuk mashg‘ulotdir. Inson masjidga Alloh bilan mashg‘ul bo‘lish uchun keladi. Shunday bir ibodatda ham erkak va ayolning aralashib turishiga uzr berilmadi. Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, hayotning boshqa jabhalarida ham — maktabda, universitetda, ishxonada va boshqa joylarda erkak va ayolning alohida bo‘lishi, satrni rioya qilishi shariat talabiga ko‘ra yanada zarurdir.

34-hadis

Ovoz bilan fitna qilma

Muallif shunday deydi: Erkaklar bilan jamlangan paytingda, biror ibodat chog‘ida ovozing zohir bo‘lmasin, hatto Allohning zikri bilan bo‘lsa ham.

Aslida ayolning ovozi avrat emas. Lekin ayollar va erkaklar birga ibodat qilayotgan paytda ayolning ovozi baland chiqmasa ham, bu hol erkaklarning xayolini chalg‘itishi mumkin. Ayniqsa masjidda, tavofda yoki boshqa jamlangan ibodat joylarida ayolning ovozi baland bo‘lmasligi kerak. Shuning uchun ayol Allohni zikr qilsa ham, ovozini pas qilib, erkaklar eshitmaydigan darajada bo‘lishi lozim.

عَنْ سَهْلِ بْنِ سَعْدٍ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ النَّبِيُّ ﷺ: «التَّسْبِيحُ لِلرِّجَالِ، وَالتَّصْفِيقُ لِلنِّسَاءِ»

Nabiy sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Tasbih erkaklar uchun, tasfiq (chapak chalish) esa ayollar uchun.”

Hadisda aytilgan gaplar mana bunday voqeada sodir bo‘lgan: masjidda namoz paytida imom biror xatoga yo‘l qo‘yib qoladi — tahorati yo‘qligini eslab qoladimi, ruku’ yoki sajdani unutib qo‘yadimi, boshqa namozni o‘qib yuboradimi, xullas shunday holatlar bo‘ladi. Bu paytda jamoat imomni to‘xtatishi yoki ogohlantirishi kerak bo‘ladi. Lekin namoz ustida gapirish joiz emas.

Shuning uchun bu vaziyatda erkaklar “Subhanalloh” deb tasbih aytish orqali imomni ogohlantiradilar. Shu yo‘l bilan imom xatosini bilib oladi.

Qarsak chalish deganda — to‘ylardagi kabi ikki kaftni bir-biriga urib baland ovoz chiqarish nazarda tutilmaydi. Bunday qarsak lag‘v, ya’ni bekorchi ish hisoblanadi. Hadisda zikr qilingan tasbih o‘rnidagi chapak esa boshqa: bunda ayol qo‘lining kafti orqasiga ikkinchi qo‘lini uradi. Bu tovush chiqaradi, ammo odatiy qarsakdek emas. Shu tariqa hadisda aytilgan “tasfiq” — ya’ni chapak, tasbih o‘rnida ayollarga ruxsat qilingan ishora bo‘ladi. Shu bilan ular imomni ogohlantiradilar. Demak, bu lag‘v qarsakdan farqli, faqat zaruratda — namoz holatida ishlatiladigan ishoradir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Shariat ayrim ibodatlarda erkaklar bilan ayollar amallarini bir-biridan ajratgan. Bu ajratish ham ularning tabiati va xilqatiga mos holda bo‘lgan. Aslida ibodatlarda erkak va ayolning hukmlari bir xil, lekin ayrim masalalarda farq qiladi. Masalan, imom xato qilsa, erkaklar “Subhanalloh” deb tasbih aytadilar, ayollar esa qarsak (tasfiq) bilan ogohlantiradilar. Bu — ikki jinsning tabiati va vaziyatiga mos ravishda belgilangan.

Ikkinchi foyda: Ayollar ham namozda imom xato qilganda unga tanbeh berishlari mumkin. Imom erkak bo‘ladimi, ayol bo‘ladimi — farqi yo‘q. Ayol ham uni ogohlantirishga haqli.

Uchinchi foyda: Ayollar erkaklar jam bo‘ladigan umumiy joylarda ovozini baland ko‘tarmasliklari kerak. Ovozlarini pasaytirib gapirishlari lozim. Chunki bunday joylar — masjid, bozor, transport vositalari kabi erkaklar bilan to‘lib-toshadigan maskanlar hisoblanadi.

To‘rtinchi foyda: Erkak kishi ba’zan hatto namozda ham ayolning ovozi bilan fitnalanishi mumkin ekan. Endi namozdan tashqarida qanday qilib fitnalanmasligi mumkin?! Shu bois ayol nomunosib tarzda ovozini balandlatib, baqir-chaqir qilib hammaga eshittirib yurmasligi lozim. U sekin va muloyim ovozda gapirishi kerak.

Beshinchi foyda: Chapak chalish — namozda ayollarga xos amallardan biridir. Bu erkaklarga haromdir. Chunki uni qilish erkakning ayollarga o‘xshashligiga sabab bo‘ladi. Masalan, to‘ylarda raqs paytida erkaklarning ham qarsak chalishi kuzatiladi. Aslida bu ayollarga xos amal bo‘lib, erkakning uni qilishi qiyofasini ayollarga o‘xshatib qo‘yadi.

Ayollarga chapak berilgani — ovoz fitna sabab bo‘lgani uchun. Erkaklarga esa “Subhanalloh” deyish buyurilgan. Endi erkak kishi chapak chalib imomni ogohlantirsa yoki jamoat joyida qarsak chalsa, u ayollarga o‘xshash bo‘lib qoladi.

Shuningdek, bugungi kunda majlislarda yoki boshqa yig‘inlarda kimnidir olqishlash uchun ham erkaklar birgalikda qarsak chalishadi. Aslida islomda olqishlash — qarsak chalish bilan emas, balki tasbih aytish bilan bo‘ladi.

35-hadis

Erni hurmat qilish alomati undan ruxsat so‘rab ish qilishdir

Muallif shunday deydi: Ayolning erini taqdirlashidagi go‘zallik ko‘rinishlaridan biri — biror ishni qilishdan oldin eridan izn so‘rashidir. Ayol har qanday ishni eridan so‘ramasdan qilavermasligi, balki izn so‘rab qilishi uning erini qadrlashidan dalolat beradi. Albatta, farz ibodatlarda hech kimdan izn so‘rab o‘tirilmaydi. Masalan, hijob o‘rashda, besh vaqt namozni ado etishda, farz ro‘zalarni tutishda ayol eridan so‘ramaydi. Lekin nafl ibodatlarda, hattoki boshqa ishlarda ham eridan izn so‘rab qilishi — bu erini hurmat qilish, qadrlashdir. Agar ayol izn so‘ramasa, bu erini qadrlamasligiga dalolat qiladi.

Bu masalaga ilm ham kiradi. Chunki ilm — ibodatdir. Ilmni farz miqdorida o‘rganishda ayol eridan so‘ramaydi, chunki bu uning zimmasidagi burch. Ammo farz bo‘lmagan darajadagi ilmlarni — masalan, Qur’onni to‘liq yodlash, hadislarni yodlash, fiqhning keng-keng masalalarini o‘rganishni istasa, bunda eridan izn so‘rashi kerak. Agar eridan so‘ramasdan bu ishlarni qilsa, bu erini qadrlamasligiga ishora qiladi.

Demak, nafl ibodatlar va farz bo‘lmagan boshqa ishlarda ayol eridan izn so‘raydi. Agar eri ruxsat bersa — qiladi, ruxsat bermasa — qilmaydi.

عَنْ ابْنِ عُمَرَ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «إِذَا اسْتَأْذَنَكُمْ نِسَاؤُكُمْ بِاللَّيْلِ إِلَى الْمَسْجِدِ فَأْذَنُوا لَهُنَّ»

Nabiy sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Sizlardan ayollaringiz kechqurun masjidga izn so‘rasa, ularga izn beringlar.”

Demak, hatto ayol masjidga boradigan bo‘lsa ham eridan izn so‘rab boradi. Agar masjidga borishda ham izn so‘rashi lozim bo‘lsa, boshqa narsalarda — ota-onasini ko‘rgani borishda, uyiga kirib chiqishda, bozorga chiqishda yoki ilm o‘qishga borishda — albatta izn so‘rashi kerakligi yanada ravshan bo‘ladi.

Hadisda “kechqurun izn so‘rasalar” deb aytilgani, “kunduzi iznsiz ketaveradilar” degani emas. Chunki kechqurunda fitna ko‘proq, xavf-xatar ko‘proq bo‘ladi. Shuning uchun aynan kechqurun misol qilingan. Demak, kunduzda ham, kechada ham asl qoida bir xil: ayol eridan izn so‘rab chiqadi.

Bu hadisda erkak uchun ham, ayol uchun ham hukm bor:

- Ayolga tegishli hukm — u chiqmoqchi bo‘lsa, albatta eridan izn so‘rashi kerak.
- Erkakka tegishli hukm — agar man qilishga asosiy sabab bo‘lmasa, shubha yoki fitna ehtimoli yo‘q bo‘lsa, u ham shunchaki man qilib, ayolini qamoqda ushlagandek qilmog‘i to‘g‘ri emas. “Sizlar ham ularga izn beringlar” deyilganida shu ma’no yotadi.

Ya’ni ayol izn so‘rashi vojib, erkak esa asossiz ravishda uni man qilmay, imkon bo‘lsa izn berishi kerak. Nafl ibodatni ado etmoqchi bo‘lsa ham shu qoidaga amal qilinadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining jamoat bilan masjidda namoz o‘qishi joiz. Aslida uning uchun eng yaxshisi — uyida ibodat qilishidir. Lekin baribir eridan izn so‘rab masjidga chiqsa bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining masjidga chiqishi joiz, hatto kechqurun bo‘lsa ham. Faqat sharti — fitna bo‘lmaydigan joy bo‘lishi kerak. Shu bois hadisda “ayollaringiz” deb kelgan, “qizlaringiz” deyilmagan. Chunki qiz bilan onaning farqi bor. Masalan, 19 yoshli qizning yolg‘iz chiqishi to‘g‘ri emas, lekin onasi bilan birga chiqsa mayli deyiladi. Demak, bunda fitna bo‘lish-yo‘qligiga qarab hukm qilinadi.

Uchinchi foyda: Ayol kishining erining uyidan iznsiz chiqishi joiz emas. Hatto nafl ibodat uchun ham izn so‘ramasdan chiqib ketolmaydi. Boshqa ishlarda ham bu qoida batariqa a’lo amal qiladi.

To‘rtinchi foyda: Erkak kishining ham xotinini masjidga chiqishidan man qilishi joiz emas, agar u undan izn so‘ragan bo‘lsa va bu chiqishda ochiq shubha yoki fasod bo‘lmasa. Odatda erkaklarning mutlaqo izn bermasligi ayollarning bebosh bo‘lib ketishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun “qars ikki qo‘ldan chiqadi” misolida bo‘lgani kabi, erkak ham izn berishda adolat qilishi kerak.

Beshinchi foyda: Ayol kishiga kechqurun masjidga chiqishiga izn berilgani — dalilki, kunduzda ham otasi yoki eridan izn so‘rab chiqishi joiz bo‘ladi.

36-hadis
Hayit namoziga qatnashish

Muallif shunday deydi: Musulmonlar bilan hayit namozida shohid bo‘lishni o‘tkazib yuborma!

Ayollar odatda uyida namoz o‘qishga targ‘ib qilingan bo‘lsalar-da, hayit namoziga o‘xshagan, barcha musulmonlar bir joyga yig‘ilib, Islomning ulug‘ sha’oirlari — shukuhi va ramzlari namoyon bo‘ladigan ibodatlarda ayollar ham ishtirok etadilar. Shuni o‘tkazib yubormaslik lozim.
Hayit kunlari ko‘pincha pishiriq tayyorlash, bordi-keldi qilish kabi ishlarga berilib, asl ibodat bo‘lgan hayit namozini yo‘qqa chiqarmaslik kerak. Ayniqsa, biz tomonlarda ayollarning hayit namoziga chiqmaslik odat tusiga kirib qolgan. Aslida esa bu odatni o‘zgartirish, ayollarning ham hayitga chiqishlariga imkon berish lozim.

عَنْ حَفْصَةَ قَالَتْ: كُنَّا نَمْنَعُ عَوَاتِقَنَا أَنْ يَخْرُجْنَ فِي الْعِيدَيْنِ، فَقَدِمَتِ امْرَأَةٌ فَنَزَلَتْ قَصْرَ بَنِي خَلَفٍ، فَحَدَّثَتْ عَنْ أُخْتِهَا. قَالَتْ: كَانَ زَوْجُ أُخْتِي غَزَا مَعَ النَّبِيِّ ﷺ ثِنْتَيْ عَشْرَةَ غَزْوَةً، وَكَانَتْ أُخْتِي مَعَهُ فِي بَيْتٍ. قَالَتْ: كُنَّا نُدَاوِي الْكَلْمَى وَنَقُومُ عَلَى الْمَرْضَى، فَسَأَلَتْ أُخْتِي النَّبِيَّ ﷺ: أَعَلَى إِحْدَانَا بَأْسٌ إِذَا لَمْ يَكُنْ لَهَا جِلْبَابٌ أَلَّا تَخْرُجَ؟ قَالَ: «لِتُلْبِسْهَا صَاحِبَتُهَا مِنْ جِلْبَابِهَا، وَلْتَشْهَدْ الْعِيدَ مَعَ الْمُسْلِمِينَ». فَلَمَّا قَدِمَتْ أُمُّ عَطِيَّةَ سَأَلْنَاهَا. فَذَكَرْنَا ذَلِكَ لَهَا، فَقَالَتْ: بَلَغَنِي أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ قَالَ: «لِتُخْرِجِ الْعَوَاتِقَ وَذَوَاتِ الْخُدُورِ، أَوِ الْعَوَاتِقَ وَالْحُيَّضَ، فَيَشْهَدْنَ الْخَيْرَ وَدَعْوَةَ الْمُؤْمِنِينَ، وَيَعْتَزِلُ الْحُيَّضُ الْمُصَلَّى». حَفْصَةُ: فَقُلْتُ: الْحُيَّضُ؟ فَقَالَتْ: أَلَيْسَ تَشْهَدُ عَرَفَةَ وَكَذَا وَكَذَا

Tobeinlardan Hafsa roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Biz avatiqlarimizni (o‘spirin qizlarimizni) ikki hayit namoziga chiqishdan qaytarardik. Shunda bir ayol kelib Bani Hasraf qasriga (uyiga) tushdi. U o‘zining opasidan bir hadisni aytib berdi. Opasining eri sahobiy bo‘lib, Nabiy sollollohu alayhi va sallam bilan o‘n ikki g‘azotda qatnashgan ekan. O‘sha ayolning opasi ham oltita g‘azotda birga bo‘lgan ekan. Opasi dedi: ‘Biz jarohatlanganlarni davolar edik, kasallarga qarardik’. Shunda opam Nabiy sollollohu alayhi va sallamdan so‘rabdi: ‘Ayollardan birimizning jilbobi bo‘lmasa va hayitga chiqmasa, bu gunoh bo‘ladimi?’ Rosululloh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘U ayolning do‘stlari o‘z jilbobidan unga kiygizsinlar. Va u ham yaxshilikka shohid bo‘lsin, musulmonlarning duosiga shohid bo‘lsin’. Hafsa deydilar: ‘Qachon Ummu Atiya kelsa, men undan ham so‘rardim: “Siz ham bu hadisni Nabiy sollollohu alayhi va sallamdan eshitganmisiz?” U esa: “Otam unga fido bo‘lsin, ha” derdi. Ummu Atiya qachon Rosulullohni eslasalar, “otam unga fido bo‘lsin” deb eslardilar. Va yana aytdilar: “Men ham eshitganman. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam aytardilar: Avatiqa qizlar ham, chimildiqdagi (kelinchak) qizlar ham, hayz ko‘rgan ayollar ham chiqsin. Yaxshilikka shohid bo‘lsinlar va musulmonlar duosiga shohid bo‘lsinlar. Hayz ko‘rgan ayollar namozgohning chetroqda turadilar”. Men so‘radim: “Hayz ko‘rganlar hammi?” Ummu Atiya dedi: “Ha, hayz ko‘rganlar ham. Axir arafa va falon-falon narsalarga ayol shohid bo’lmaydimi?”.’”

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi hayit namoziga musulmonlar bilan chiqishi lozim. Chunki u yaxshilikka shohid bo‘ladi, musulmonlarning duosiga sherik bo‘ladi. Hatto hayz ko‘rgan bo‘lsa ham, namozgohda namozni o‘qimasa-da, baribir hayit majlisiga chiqadi.

Ikkinchi foyda: Ayolning hayit namoziga chiqishi unga ta’kidlangan amaldir. Bu sunnati nabaviy bo‘lib, uni yengil sanash mumkin emas. Shariatda bunday ta’kidlangan ishlarda ayolning qatnashishi katta fazilatdir.

Uchinchi foyda: Ayol kishi jilbobga ega bo‘lmaganligi — hayit namoziga chiqmaslikka uzr emas. Balki u birodaridan, qo‘shnisidan yoki yaqinidan jilbob olib bo‘lsa ham chiqishi kerak. Bu bilan sunnatda amr qilingan ishtirokini ado etadi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishiga birodariga yordam berish targ‘ib qilinmoqda. Bir ayol ibodatni ado etishi uchun kerakli narsani vaqtincha so‘rasa, unga yordam berish kerak. Masalan, kelinchak bir kunlik to‘y uchun ko‘ylak so‘rab tursa, uni berib yordam qilinadi. Bu ham ijtimoiy yaxshilikka kiradi.

Beshinchi foyda: Ayollar o‘rtasida kiyim-kechakni bir-biriga berib turish joizdir, xususan bu toatni ado etishga yengillik beradigan bo‘lsa. Bu islomiy birdamlik va hamjihatlikning ko‘rinishidir.

Oltinchi foyda: Ayolning jilbobsiz ko‘chaga chiqishi haromdir. Hatto ibodatga chiqsa ham jilbobsiz chiqishi joiz emas. Demak, hayit namoziga chiqish ham satr va hijob sharti bilan bo‘ladi.

Yettinchi foyda: Ayol kishi ilm halqalariga va shu kabi diniy majlislarga hozir bo‘lishga chaqiriladi. U bunga haris bo‘lishi kerak. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam “musulmonlarning duosiga shohid bo‘lsin” deganlar. Bu esa hayitdagi xutbani tinglash, ilmiy va diniy maslahatlarda qatnashish zarurligiga dalolat qiladi. Demak, ayol kishining ilm halqalariga borishi ham muhimdir.

Sakkizinchi foyda: Ayol kishi mahrami bilan birga Alloh yo‘lidagi mujohidlar bilan jangga chiqishi mumkin ekan. Sharti — unga omonlik bo‘lishi, ya’ni asirga tushib qolmasligi, hammaga tashvish bo‘lmasligi. U holda ayol erkaklarning jihodiga yordamchi bo‘lib qatnashadi: jarohatlanganlarni davolaydi, ovqat tayyorlaydi va boshqa yordamchi ishlarda xizmat qiladi. Lekin agar fitna bo‘lsa yoki bu haqiqiy shar’iy jihod bo‘lmasa, chiqmaydi.

To‘qqizinchi foyda: Payg‘ambarimiz sollollohu alayhi va sallam ayollarga ta’lim berishga alohida haris bo‘lganlar. Bu hadisdan ham ko‘rinadiki, ayollarga ilm berish, ularning ham shar’iy bilim olishlariga sharoit yaratish — sunnati nabaviydir.

O‘ninchi foyda: Islomda tartib va nizom targ‘ib qilingan. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam musulmonlar bilan namoz o‘qiydigan joyni belgiladilar, hayz ko‘rgan ayollar uchun esa alohida joy ajratdilar. Bu amaldan jamiyat hayotida tartib-intizom zarurligiga dalil olinadi.

O‘n birinchi foyda: Erkak-ayol aralash bo‘lish haromdir. Shu sababli Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam erkaklarga boshqa, ayollarga esa alohida joy tayinladilar. Bu esa islomda jinslar o‘rtasida chegaralarning qat’iy saqlanishi lozimligiga ochiq dalildir.

O‘n ikkinchi foyda: Hayz — ayolni yaxshilikka shohid bo‘lishdan va ilm majlislarida ishtirok etishdan man qilmaydi. “Hayzli ayollar ham hayitga chiqsin” degan jumladan juda katta foydalar olinadi. Masalan, ko‘p bora savol qilinadi: “Diniy ta’lim institutida Qur’on, hadis darslari o‘tiladi. Ayol hayz holatida o‘qishga bora oladimi?” Mana shu hadisdan dalolat topiladiki, ha — bora oladi. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hayzli ayollarga ham hayit majlisiga chiqishni buyurganlar.

Demak, hayz — ilm olishga to‘sqinlik qilmaydi. Namoz va Qur’on mushafini qo‘ldan ushlab tilovat qilishda hukmlar alohida bo‘lsa-da, ilm o‘rganish, dars tinglash, xutba va nasihat eshitishda hayz ayolga to‘siq bo‘lmaydi. Shu sababli ta’lim ham, ilm majlislari ham hayz vaqtida ham davom etaveradi.

37-hadis
Taqinchoqlar zakoti

Muallif shunday deydi: Molingni zakotiga va uni poklashlikka haris bo‘l.

Ayolning ham mol-mulki bo‘lishi mumkin. Agar u mol nisobga yetsa, unga ham zakot berish vojib bo‘ladi. Zakot berish faqat erning zimmasidagi vazifa emas. Ayol ham o‘z molidan zakot chiqarishi kerak. “Uni poklashlikka” degan jumladan murod — molni zakot berish bilan poklashdir. Chunki zakot molni najosatdan, xudbinlik va baxillikdan poklaydi. Shuningdek, kambag‘alning haqqi mol ichidan chiqarilib, o‘z egasiga qaytariladi. Demak, zakot berish nafaqat moliyaviy ibodat, balki qalbni ham poklovchi buyuk amal bo‘ladi.

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: كُنْتُ أَلْبَسُ أَوْضَاحًا مِنْ ذَهَبٍ، فَقُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، أَكَنْزٌ هُوَ؟ فَقَالَ: «مَا بَلَغَ أَنْ تُؤَدِّيَ زَكَاتَهُ فَزَكِّيَ فَلَيْسَ بِكَنْزٍ»

Ummu Salama roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Men tillodan iborat taqinchoqlar taqardim. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan bu haqida so‘radim: ‘Yo Rosulullоh, bu hazina hisoblanadimi?’ Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Qaysi narsa zakotini ado qilish darajasiga yetsa va uning zakoti berilsa, u hazina hisoblanmaydi.’”

Ummu Salama roziyallohu anho “tilla taqinchoqlar hazinami?” deb so‘raganlarining sababi Qur’onda Alloh taolo aytgan oyat bilan bog‘liqdir: “Tilla va kumushni hazina qilib, keyin uni Alloh yo‘lida sarf qilmaydiganlarga alamli azob borligini bashorat qilgin.” (Tavba 34)

Shu oyatdan ma’lum bo‘ladiki, tilla va kumushni zakotini bermasdan sandiqqa solib qo‘yish oqibatida oxiratda alamli azob bo‘ladi. Qur’onda ham aytilgan: qiyomat kuni o‘sha tillalar qizdirilib, ularni yig‘ib olgan kishilarning peshonasi, yelkasi va orqasiga bosiladi.

Ummu Salama roziyallohu anho ham ana shu oyatdan qo‘rqib, “mening tilla taqinchoqlarim ham shu holatga kirmaydimi, qiyomatda men ham shunday azoblanmaymanmi?” deb Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘raganlar. Rosulullоh esa: “Agar zakoti ado qilinsa, u hazina emas” deb javob berganlar.

Zakot nisobi tillada 85 gramm qilib belgilangan. Demak, ayolning tilla taqinchoqlari shu miqdorga yetsa, ulardan zakot chiqarilishi vojib bo‘ladi. Zakot miqdori — 40 da 1, ya’ni 2,5%. Masalan, 100 gramm tilla bo‘lsa, undan 2,5 gramm tilla yoki uning qiymatiga teng pul zakot sifatida chiqariladi. Shu zakot ado qilinsa, tilla “hazina” hisoblanmaydi va oyatda va’dalangan azobdan saqlanadi. Xuddi shu hukm kumushga ham tegishli, lekin kumushning nisobi boshqacharoq.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayolning tilla va kumush taqinchoqlar bilan ziynatlanishi joizdir. Bu narsalar unga Alloh tomonidan halol qilingan bezakdir.

Ikkinchi foyda: Zakoti berilgan tilla hazina sanalmaydi. Qur’onda va’dalangan azob — faqat zakoti ado qilinmagan va Alloh yo‘lida sarf qilinmagan tilla-kumushga tegishli bo‘ladi.

Uchinchi foyda: Ayolning o‘zi bilmagan narsalari haqida iffatli, ishonchli olimlardan fatvo so‘rashi joiz. Ummu Salama roziyallohu anho ham tilla taqinchoqlari masalasida Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘raganlari bunga dalildir.

38-hadis

Nafs saxovati bilan sadaqa qilish

Muallif shunday deydi: Nafs saxovati bilan sadaqani sarflashga haris bo‘l.

عَنْ أَبِي أُمَامَةَ بْنِ سَهْلِ بْنِ حُنَيْفٍ قَالَ: كُنَّا يَوْمًا فِي الْمَسْجِدِ جُلُوسًا مَعَ نَفَرٍ مِنَ الْمُهَاجِرِينَ وَالْأَنْصَارِ، فَأَرْسَلْنَا رَجُلًا إِلَى عَائِشَةَ يَسْتَأْذِنُ لَنَا، فَدَخَلْنَا عَلَيْهَا، فَقَالَتْ: دَخَلَ عَلَيَّ سَائِلٌ مَرَّةً وَعِنْدِي رَسُولُ اللَّهِ ﷺ، فَأَمَرْتُ لَهُ بِشَيْءٍ، ثُمَّ دَعَوْتُ بِهِ فَنَظَرْتُ إِلَيْهِ، فَقَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «أَمَا تُرِيدِينَ أَنْ لَا يَدْخُلَ بَيْتَكِ شَيْءٌ وَلَا يَخْرُجَ إِلَّا بِعِلْمِكِ؟» قُلْتُ: نَعَمْ. قَالَ: «مَهْلًا يَا عَائِشَةُ، لَا تُحْصِي فَيُحْصِيَ اللَّهُ عَلَيْكِ»

Abu Umoma ibn Sahl ibn Hunayf roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Bir kuni biz masjidda o‘tirgan edik. Biz bilan bir guruh muhojirlar va ansorlar ham bor edi. Biz Oisha roziyallohu anho huzurlariga izn so‘rash uchun bir kishini jo‘natdik. U kishi Oisha onamizning oldilariga kirdi. Oisha roziyallohu anho aytdilar: ‘Bir kuni Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam mening huzurimda bo‘lganlarida oldimga bir tilanchi keldi. Men unga bir narsa berishni buyurdim va uni chaqirib, qaradim. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Uyingdan chiqadigan va kiradigan narsa faqat sening ilm bilishing bilangina bo‘lishini xohlaysanmi?” (ya’ni Oishaning bu holatini mubolag‘a qilib aytdilar). Men: “Ha” dedim. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “To‘xta, ey Oisha! Hisob-kitob qilaverma. Alloh azza va jalla ham senga hisob qilib qo‘yadi.””

Oisha roziyallohu anho huzurlariga bir tilanchi kelganida, ular unga: “bor, uydan biror nima olib ket” deb yuborganlar. Tilanchi bir narsa olib chiqayotganida, Oisha roziyallohu anho uni qaytarib, “qani, nima olib chiqayapti, qancha olib chiqayapti” degan ma’noda qo‘llariga qarab qolganlar.

Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bu holatni ko‘rib, u zotni tanbeh qildilar: “Sen uyingdan nima kirishi va nima chiqishini hammasini hisob-kitob qilib o‘tirishni xohlaysanmi?!” dedilar. Ya’ni bu qizg‘anchiqlik alomatidir — bir tiyin kirishini ham, chiqishini ham sanab, nazorat qilib o‘tirish odati. Shariat esa bunday holatdan qaytardi.

Tilanchiga: “Olaver” deb yuborilganidan keyin, u nima olsa, qizg‘anchiqlik qilmasdan berish kerak edi. Yoki agar beriladigan narsa oldindan tanlab qo‘yilsa, uni berib yuborish kerak edi. Lekin “olaver” deyib, so‘ngra nazorat qilib qarash yaxshi bo‘lmadi. Shuning uchun Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bu amaldan qaytardilar va dedilar: “Hisob-kitob qilaverma, Alloh ham senga hisob-kitob qilib qo‘yadi.”

Bu gapning ma’nosi shuki, kimki sadaqasida qizg‘anchiqlik qilib, doimo hisob-kitob yuritsa, Alloh ham unga amalida va rizqida shunday hisob-kitob qilib qo‘yadi. Ammo kimki qo‘lini ochiq tutib, berayotganida qancha ketayotganini sanamasa, Alloh taolo ham unga hisob-kitobsiz rizq ato qiladi. Bu hikmat xalq orasidagi: “Pulni sanama, barakasi qochadi” degan so‘zning asl manbaiga ham ishora qiladi. Chunki doimo sanab, qizg‘anchiq bo‘lish barakani ketkazadi. Haqiqatda esa saxovat barakani ziyoda qiladi.
Shuningdek, rivoyatlarda keladiki, qiyomatdan oldin keladigan Mahdiy ham saxiy bo‘lib: “Odamlarga pulni sanab emas, hovuchlab beradi” — deb sifatlangan. Bu ham insonning qizg‘anchiqlikdan uzoq, qo‘li ochiq bo‘lishi lozimligiga dalolat qiladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi sadaqaga targʻib qilinadi. Chunki sadaqa faqat erkaklarga emas, ayollarga ham vojib va mustahab jihatlarda tegishli. Ayolning qoʻlidan chiqqan sadaqa ham Alloh huzurida qabul qilinadi va savoblari erkaklarnikidan kam emas.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi sadaqa qilganida uni hisoblab, tekshirib berishdan qaytariladi. Chunki hisob-kitob qilinib berilgan sadaqa saxovat emas, balki qizgʻanchiq qalbdan chiqqan amal boʻladi.

Uchinchi foyda: Jazo — kishining amalining jinsidan keladi. Kim sadaqasida hisob-kitob yuritsa, Alloh ham unga hisob-kitob qiladi, rizqini siqib qoʻyadi. Kim qoʻlini keng ochib saxiylik qilsa, Alloh ham unga saxiy boʻladi, rizqini keng qilib beradi.

Toʻrtinchi foyda: Ayol kishi oʻz nafsiga oid holatlarni boshqalarga ibrat boʻlish uchun gapirib berishi joiz. Bu ham bir mardlikdir — oʻz aybini tan olib, boshqalarga ibrat qilish. Oisha onamizning oʻz holatini aytib berishlari bunga dalildir.

Beshinchi foyda: Kishi sadaqasida hisob-kitobni tark qilishi, tekshiruvni qoʻyib yuborishi — nafsining saxiyligiga dalildir. Uydagi narsalarda ham hadeb sanab, hisob-kitob yuritmaslik kerak. Chunki har narsani hisoblab yurish — barakani uchiradi, saxovatni soʻndiradi.

39-hadis

Pishirgan ovqatdan sadaqa qilish

Muallif shunday deydi: Uyingdagi pishirgan narsangdan bo‘lsa ham sadaqa qil.

Sadaqa faqatgina pul berish yoki bozordan narsa olib berish bilan cheklanmaydi. Insonning o‘z qo‘li bilan tayyorlagan taomidan, pishirgan nonidan, oshidan bo‘lsa ham sadaqa qilishi mumkin. Bu amal Alloh huzurida qadrli bo‘ladi. Chunki bunda nafaqat mol, balki insonning mehnati, mehr-muhabbati ham qo‘shiladi. Shu orqali sadaqaning savobi ham kattalashadi.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «إِذَا أَنْفَقَتِ الْمَرْأَةُ مِنْ طَعَامِ بَيْتِهَا غَيْرَ مُفْسِدَةٍ كَانَ لَهَا أَجْرُهَا بِمَا أَنْفَقَتْ، وَلِزَوْجِهَا أَجْرُهُ بِمَا كَسَبَ، وَلِلْخَازِنِ مِثْلُ ذَلِكَ، لَا يَنْقُصُ بَعْضُهُمْ أَجْرَ بَعْضٍ شَيْئًا»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Agar ayol kishi uyining taomidan, buzmagan holda infoq qilsa, unga infoq qilgani sababidan ajr bo‘ladi. Eriga ham, kasb qilib topgani sababidan ajr bo‘ladi. Xizmatkorga ham xuddi shunday ajr bo‘ladi. Ba’zilari ba’zilaridan ajrini biror narsasini noqis qilmagan holda.”

Huddi “bitta o‘q bilan ikki quyonni uradi” deganidek, bir sadaqa bilan uch kishi bir xil ajr oladi. Ayol — o‘zi pishirib, sadaqa qilgani uchun savob oladi. Eri — o‘sha taomning mahsulotini halol mehnat bilan topib kelgani uchun ajr oladi. Hizmatkor yoki yonida yordamlashgan kishi ham, o‘sha ishda xizmat qilgani sababli savobdan bebahra qolmaydi.

Sharti — ayol erining molini isrof qilmasdan, odatdagi tartibda pishirishi kerak. Sadaqani ham munosib ahliga yetkazishi lozim. Ya'ni qorni to‘q oshnolariga emas, haqiqatan muhtoj bo‘lgan insonlarga berishi maqsadga muvofiqdir. Ehsonni joyiga, kerakli kishiga qilsa, ajri to‘liq yoziladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi uyida pishirgan taomini buzmasdan, halol va pok yo‘lda sadaqaga tortiq qilishi mumkin. Bu amal uning saxiyligi va qalb pokligidan dalolat beradi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi uyidagi mollarida mas'uldir. U ovqatlarni, oziq-ovqat mahsulotlarini va boshqa mulklarni isrof qilmasligi kerak. Chunki er topib olib keladi, ammo uni oqilona idora qilish mas'uliyati ayol zimmasidadir.

Uchinchi foyda: Ayol kishi erining xonadoniga olib kelgan narsalarda tasarruf qilish huquqiga ega. Sharti, bu tasarruf eriga zarar bermasligi lozim. Er oshxonaga olib kelgan taomlar ayol qo‘liga o‘tadi va u xohlaganidek pishiradi, bir qismini boshqalarga beradi, ishlatadi.

To‘rtinchi foyda: Ayolning er xonadoniga rioya qilishi ko‘rinishlaridan biri — uyidagi narsalarni idora qilishdir. Bu rioya — o‘ylab ishlatish, isrof qilmaslik va ularni to‘g‘ri taqsimlash demakdir.

Beshinchi foyda: Uy ichidagi ishlarda er va ayolning bir-birini to‘ldirishi talab qilingan. Oila yukini faqat bir tomon ko‘tarib yurmaydi. Hadisda ham "biri sotib olib kelsa, ikkinchisi pishiradi" deyilgan. Erkak — taomga pul topib keladi, ayol esa undan taom tayyorlaydi. Shu tariqa ayol uy taomini asrab, buzilmasdan saqlash, isrof qilmaslik mas'uliyatini zimmasiga oladi. Agar erkak: "Uy taomlarini isrof qilyapsan" desa, bu ayolning o‘z mas'uliyatiga befarqligidan dalolat beradi.

Oltinchi foyda: Ayolga uyida taom pishirishlik mas'uliyati topshirilgan. Bu oila ichidagi tabiiy vazifalardan bo'lib, erning topib kelgani taomni isrof qilmay, buzmay pishirib oilani ta'minlash ayol zimmasida bo'ladi.

Yettinchi foyda: Ayol kishi erining hisobidan solih amal qilsa, ajrda ikkalasi ham sherik bo'ladi. Ya'ni er halol mehnat qilib taom topib keladi, ayol esa undan sadaqa qilsa yoki solih amal qilsa, ikkisiga ham savob yoziladi. Shu tariqa oila ichidagi hamkorlik oxirat ajrida ham sheriklikka sabab bo'ladi.

40-hadis
Qo‘shnichilik aloqalari

Muallif shunday deydi: Qo‘shnilaring bilan hadiya va sadaqa orqali aloqada bo‘l, agarchi ozgina narsa bilan bo‘lsa ham.

Ya’ni qo‘shnichilik aloqalarini yaxshilashga kichkina hadiya ham sabab bo‘ladi. Bir dona xurmo, bir kosa ovqat, bir burda non bo‘lsa ham, uni qo‘shniga ulashish — mehr-muhabbatni mustahkamlaydi. Chunki insonning eng katta yordamchisi ham, ba’zan eng ko‘p ozorini yetkazishi ham qo‘shnisidan bo‘ladi. Shariat esa qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibatni hadiya va sadaqa orqali mustahkamlashga targ‘ib qiladi.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «يَا نِسَاءَ الْمُسْلِمَاتِ، لَا تَحْقِرَنَّ جَارَةٌ لِجَارَتِهَا وَلَوْ فِرْسِنَ شَاةٍ»

Nabiy sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Ey muslima ayollar, bir qo‘shni ayol qo‘shni ayolga hech narsani haqir sanamasin, agarchi qo‘yning tuyog‘i bo‘lsa ham.”

“Bitta qo‘yning tuyog‘ini ham beramanmi?” deb arzimas sanash kerak emas, bersin — deyilmoqda. Chunki hadis aytilgan davrda tuyoqni ham ishlatib yeyishardi. Bu faqat bir misol sifatida keltirilgan.

Ehsonning qiymati odamlarning holatiga qarab belgilanadi. Masalan, ba’zi joylarda tovuqning oyog‘i ham olinadi, ba’zi boylar orasida esa bu delikates sifatida iste’mol qilinadi. Demak, arzonlik-qimmatchilikka, urf-odatga qarab sadaqa va hadiya ham o‘zgaradi.

Kufr yurtida esa hatto tirik qo‘yni bersangiz ham qabul qilinmaydi. Shuning uchun bu masalada albatta urfga amal qilinadi. Hadisdagi misol esa ocharchilik zamonida aytilgan: odamlar oylab qozon qaynatmagan, shuning uchun bitta qo‘yning tuyog‘i ham ular uchun qadrlik bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir kishi o‘zining yashash joyidagi urf-odatidan kelib chiqib, arzimas bo‘lsa ham ehson qilishi kerak. Muhimi — qo‘l ochiqlik va saxovat.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi sadaqaga undalmoqda, garchi u arzimas narsa bo‘lsa ham. Bu bilan ayollarga ham saxovatli bo‘lishlik targ‘ib qilinmoqda.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi qo‘shnilar bilan aloqa qilishga targ‘ib qilinmoqda. Ozgina narsa bo‘lsa ham ehson qilib, qo‘shnichilik rishtalarini mustahkamlash buyurilgan.

Uchinchi foyda: Sadaqani ozgina bo‘lsa ham sha’nini kamaytirish xato hisoblanadi. “Shu ham sadaqami?” deb kamsitish yoki ustidan kulish joiz emas. Lekin odamlarning urf-odatini rioya qilish — boshqa bir buyruq bilan bo‘ladi va bunda istisno bor.

To‘rtinchi foyda: Sahiylik degani — qo‘lida muyassar bo‘lgan narsani berishdir. U ko‘p bo‘lsa ham, oz bo‘lsa ham sahiylik sanaladi.

Beshinchi foyda: Qo‘shnilarga ozgina narsa bilan bo‘lsa ham silai-rahm, ya’ni aloqani mustahkamlash buyuk ma’nolarni beradi. Aslida esa berilgan narsadan ham muhimrog‘i — qo‘shnidan hol-ahvol so‘rab, aloqani doimiy qilishdir.

41-hadis

Ibodatlarda erni rioyasini qilish

Muallif shunday deydi: Ramazondan qazoyingni o‘tashni er-hotinlik hayoti bilan bog‘liq qil.

Ya’ni ibodat qilish — er-hotinlik munosabatini chetga surib qo‘yish degani emas. Allohni rozi qilishlik, erning roziligi bilan chambarchas bog‘langan. Ramazon ro‘zasini tutish farz amal bo‘lsa-da, uni tutishda er-xotinlik hayotiga zarar bermaydigan holatda bo‘lishi buyurilgan.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: «لَقَدْ كَانَتْ إِحْدَانَا تُفْطِرُ فِي رَمَضَانَ، فَمَا تَقْدِرُ عَلَى أَنْ تَقْضِيَهُ حَتَّى يَدْخُلَ شَعْبَانُ، وَمَا كَانَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ يَصُومُ فِي شَهْرٍ مَا يَصُومُ فِي شَعْبَانَ، كَانَ يَصُومُهُ كُلَّهُ إِلَّا قَلِيلًا، بَلْ كَانَ يَصُومُهُ كُلَّهُ»

Oisha roziyallohu anho dedilar: “Bizning birimiz Ramazonda og‘zi ochiq yurar edi. Keyin u Ramazonning ro‘zasini tutishga qodir bo‘lmas edi, hatto Sha’bon kirgunicha. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam biror oyda Sha’bonni ro‘za tutganchalik ro‘za tutmas edilar. Sha’bonning hammasini, magar ozginasidan boshqasini tutardilar. Balki hammasini tutar edilar.”

Oisha roziyallohu anho aytganlarida “bizning birimiz Ramazonda og‘zi ochiq yurar edi” degan so‘zlaridan murod — ularning Ramazon oyida hayz holatida ro‘za tuta olmaganliklaridir.

Shunda Ramazondan keyin qazo ro‘zalarini tutishga imkon topa olmasdan yurgan ekanlar. Sababi — Rosululloh sollollohu alayhi va sallamning rioyalariga to‘g‘ri kelib qolmasligi edi. Ya’ni, ibodat qilaman deb erining haqqini chetga surib qo‘ymaslik kerakligi ta’kidlanmoqda. Shu bois Oisha roziyallohu anho 11 oy davomida Rosulullohning roziliklarini rioya qilib, qazo ro‘zalarini Sha’bongacha kechiktirib yurganlar.

Sha’bon oyiga yetgach esa qazo ro‘zalarini tutar edilar. Chunki bilardilarki, Rosululloh sollollohu alayhi va sallam Sha’bon oyida juda ko‘p ro‘za tutar edilar. Hatto Oisha onamiz: “Sha’bon oyida hammasini tutar edilar, magar ozginasini tutmas edilar” deb ta’rif berganlar. Bu so‘z zamirida, u zotning Sha’bon ro‘zalarini shunchalik ko‘p tutganlari nazarda tutiladiki, deyarli hamma kunlarini tutadi desa ham bo‘laveradi. Lekin aslida barcha kunlari emas, balki aksariyatini tutganlar. Chunki Ramazondan oldingi “shakk kuni”da ro‘za tutish man qilingan.

Demak, Rosululloh sollollohu alayhi va sallamning Sha’bon oyida ko‘p ro‘za tutishlarining hikmati — Ramazonga tayyorgarlik edi. Bu holat peshin farzidan oldin o‘qiladigan sunnat namozga o‘xshaydi: sunnat — farzga tayyorlovchi amal. Xuddi shunday, Sha’bon ro‘zasi ham Ramazon ro‘zasiga ruhiy va jismoniy tayyorgarlik bo‘lgan.
Shunday qilib, Oisha roziyallohu anho o‘z amallari orqali Allohning roziligi bilan Rosulullohning roziligini jamlashga harakat qilganlar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishiga Ramazon ro‘zasini Sha’bon oyigacha kechiktirib tutishi joiz bo‘ladi, bunda hech qanday gunoh yo‘q. Ramazon tugashi bilan darrov keyingi oyda qazosini tutishi shart degan hukm mavjud emas.

Bu o‘rinda yana Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning hadislaridan biri yodga keladi: “Kim Ramazon ro‘zasini tutib, keyin Shavvol oyidan olti kun ro‘za tutsa, bir yil ro‘za tutgandek bo‘ladi”. Oisha onamiz Ramazondan qazo ro‘zasini tutmagan bo‘lsalar, tabiiyki Shavvol ro‘zasini ham tutmagan bo‘lishlari mumkin. Lekin bundan “hadisga amal qilinmagan” degan xulosa chiqmaydi. Chunki tafsiloti bor: balki Oisha onamiz “avval Shavvolni tutib, keyin qazosini ado qilaman” deb niyat qilgan bo‘lishlari mumkin. Yoki tutmagan bo‘lsalar ham, bu farz amal emas — sunnat amal. Hukmga ko‘ra sunnatni tark qilgan kishi gunohkor bo‘lmaydi, faqat savobdan mahrum bo‘ladi. Shunday qilib, bu hadisdan chiqadigan foyda shuki: ibodat faqatgina namoz va ro‘za bilan o‘lchanmaydi. Oisha onamizning qazo ro‘zalarini Sha’bon oyigacha kechiktirishlari u zotni “ibodatsiz ayol” qilmaydi. Chunki ular Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning rioyalarini qilishgan, erning haqqini ado etish ham o‘z-o‘zicha bir ibodatdir. Demak, Oisha onamiz bu masalada uzrli hisoblanadilar.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi erining unga ehtiyoj vaqtlarini rioya qilishi lozim bo‘ladi. Ya’ni eri oldiga kelgan paytda ayol ro‘za tutib yoki nafl ibodat bilan mashg‘ul bo‘lib erini ranjitib qo‘ymasligi kerak. Eri ehtiyoj sezganida ayol uni muhayyo qilishi shart. Farz amallarda ham ayol erining rioyasini qiladi: masalan, namozni vaqti keng bo‘lsa, avval erining xizmatini bajaradi, keyin namozini ado qiladi. Faqat agar namoz vaqti o‘tib qazo bo‘lib ketadigan holatda bo‘lsa, bu istisno qilinadi — bunday paytda namozni avval o‘qishi lozim bo‘ladi.

Uchinchi foyda: Qazo roʻzasi shar'iy sababsiz buzilmaydi va bekor boʻlmaydi. Farz amal uzrsiz kishidan soqit qilinmaydi. Agar shar'iy uzr boʻlsa — masalan, surunkali kasallik yoki emizikli ayollarda — u holda fidya beriladi.

Toʻrtinchi foyda: Qazo roʻzasini kechiktirish nafl roʻzani man qilmaydi. Lekin avlosi, ya'ni eng toʻgʻri yoʻli, avval qazo roʻzasini ado qilishdir. Naflni butunlay tark qiladi degani emas.

Beshinchi foyda: Bu holat boshqa ummul mo'mininlardan ham voqea boʻlgan. Faqatgina Oisha onamizning oʻzlarida emas, boshqa onaxonlarimizda ham shunday vaziyat kuzatilgan.

Oltinchi foyda: Erning rioyasini qilish boshqa nafl ibodatlardan ham yuqori darajada muqaddamdir. Oisha onamizning oʻzlari ham erlarini rioya qilganlari shundan. Nafl ibodatlarda ham ayol erining rioyasini qiladi. Masalan, ilm olishda ham: agar erining rioyasini qilmasdan ilm olsa, bu toʻgʻri boʻlmaydi.

Savol: Oisha onamiz Rosulullohning dushanba va payshanba kunlari, oq kunlarda yoki Muharram oyida roʻza tutganlarini bilganlar. Oʻshanda qazo roʻzalarini tutib olsalar boʻlmasmidi?
Javob: Ehtimol, Oisha onamizning qazo roʻzalari bu kunlarga toʻgʻri kelmagan boʻlishi mumkin. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam toʻqqiz kunda bir marta kelib turar edilar. Shuning uchun bu kunlarga toʻgʻri kelmagani bois qazo tutmagan boʻlishlari mumkin. Vallohu a'lam.

Yettinchi foyda: Erkakning haqqi islomdagi buyuk huquqlardandir. Shuning uchun ham boshqa hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytganlar: "Agar birov birovga sajda qilishga buyurilganida, ayol eriga sajda qilishini buyurar edim."

42-hadis

E'tikofdan nasiba olish

Muallif shunday deydilar: “O‘z nafsing uchun ramazonda e’tikofdan nasiba qil.”

Ayol kishi ham ramazon oyida e’tikofning nasibasidan bahramand bo‘lishi kerak. Agar imkoniyati bo‘lsa, masjidda ayollarga ajratilgan joyda e’tikof o‘tiradi. E’tikofga kirganda ham uning sunnatlariga rioya qilish lozim. Imkon bo‘lmasa, ayol kishi uyida ham e’tikofga o‘xshash tarzda hilvatda o‘tirib ibodat qilishi mumkin.

Oxirgi o‘n kunlikda ro‘za holida Alloh bilan yolg‘iz qolib, tafakkur va tadabburda o‘tirishi, garchi e’tikof niyatini qilmagan bo‘lsa ham, ma’noda e’tikofdan nasiba olish sanaladi. Chunki asl e’tikofning sharti — masjidda bo‘lishlik. Ammo e’tikofning maqsadi — Alloh taolo bilan hilvatda qolib, bandalikni his qilish, tafakkur va zikr bilan mashg‘ul bo‘lishdir. Shu ruhiyatda ibodat qilsa, e’tikofning ma’nosiga erishadi.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها: «أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ كَانَ يَعْتَكِفُ الْعَشْرَ الْأَوَاخِرَ مِنْ رَمَضَانَ حَتَّى تَوَفَّاهُ اللَّهُ، ثُمَّ اعْتَكَفَ أَزْوَاجُهُ مِنْ بَعْدِهِ»

Oisha roziyallohu anho aytadilar: “Nabiy sollollohu alayhi va sallam Ramazonning oxirgi o‘n kunligida e’tikof o‘tirar edilar. To Alloh u kishini vafot ettirgunga qadar. So‘ng u zotdan keyin ayollari ham e’tikof o‘tirdilar.”

Demak, ayollar ham e’tikof o‘tirishgan ekan. Shuning uchun bizda ba’zilar ayollar masjidga chiqmaydi degan fikrni ilgari surishadi — bu to‘g‘ri emas. Nafaqat masjidga chiqishi joiz, balki ular e’tikof ham o‘tirishlari mumkin ekan.

Albatta, bunda bir shart bor: ayol faqat eri izn bersagina e’tikof o‘tiradi. Chunki nafl ibodatlarning barchasida erning ruxsati shart hisoblanadi. E’tikofning asl sharti shuki, ayol Alloh taolo bilan holi qolib, tafakkur va tadabbur qilishi, dunyo ishlari va mashg‘ulotlaridan uzilishi kerak. Agar e’tikofga kirib olib, faqatgina bir-birlari bilan gaplashib, yeb-ichish, vaqt o‘tkazish bilan mashg‘ul bo‘lsa, bu e’tikofning maqsadiga to‘g‘ri kelmaydi va haqiqiy e’tikof hisoblanmaydi.

Bunga dalil shuki, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam e’tikof o‘tirganlarida onalari — ularning ayollari yoki boshqa bir nechta kishilar ham o‘z chodirlarini masjidga qurib, e’tikof o‘tirishni boshlashgan. Shunda masjid ichida odamlar ko‘payib, bir-biriga aralashib, e’tikof maqsadidan chetga chiqib ketilgach, Rosululloh sollallohu alayhi va sallam o‘zlari e’tikofdan chiqib ketganlar.

Mana shu voqeadan dalolat qiladiki, e’tikofning asl maqsadi hosil bo‘lishi lozim. Agar bu maqsad hosil bo‘lmay, shovqin-suron, ortiqcha aralashuv yuzaga chiqsa, unday paytda uyda yolg‘iz o‘tirib tafakkur qilish afzalroq bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining masjidda etikof o‘tirishi joiz hisoblanadi. Bunga dalillardan yana biri Maryam onamiz qissasidir. Maryam onamiz yoshligidan boshlab Iso alayhissalomga homilador bo‘lgunlaricha masjidda etikofda katta bo‘lganlar. Bu o‘tgan ummatlarda ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, islomda man qilinmagan. Demak, joizligiga dalil bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Etikof — ayol uchun ramazon oyida Allohga yaqinlashtiradigan qurbatlardan biridir. Qurbat esa bandani Robbisiga yaqin qiladigan ibodatdir.

Uchinchi foyda: Hadislarda zikr qilingan e'tikofdan maqsad — Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning yo'nalishlariga, sunnatlariga muvofiq bo'lgan komil e'tikofdir. Ayniqsa, ramazonning oxirgi o'n kechasida to'liq masjiddan chiqmay o'tirib, ibodat bilan mashg'ul bo'lish. Bu, ba'zi odamlarning faqat shomdan bomdodgacha masjidda turib, keyin uyiga qaytib ketishidan afzalroqdir. Albatta, umuman amal qilmaslikdan ko'ra shunday qilish ham yaxshi. Lekin hadisda kelgan haqiqiy e'tikof — masjiddan chiqmay, to'liq o'n kun qolishdir. Yana bir sunnat amal shuki, e'tikof o'tirgan kishi boshqalarga og'irlik tushirmaydigan tarzda e'tikof qilishi lozim.

Rivoyat qilinishicha, bir kuni Ibn Abbos roziyallohu anhu e'tikofda bo'lib, yonlariga bir kishi kelib egasining qarzini to'lashda qiynalayotganini aytgan. Shunda Ibn Abbos roziyallohu anhu e'tikofdan chiqib, o'sha kishining qarzini to'lab berganlar. Odamlar ulardan: "Nega e'tikofingizni buzib chiqdingiz?" deb so'rashganida, u zot: "Bir musulmonning hojatini bajo keltirish, falon kun e'tikofda o'tirishdan yaxshiroqdir", deb javob berganlar. Shundan anglashiladiki, birovning hojatini chiqarish e'tikofda o'tirishdan ham afzal bo'lishi mumkin. Agar bir kishi faqat o'zi uchun e'tikofda o'tirib, boshqalarga o'z ishini qildirsa, unday e'tikofdan ko'zlangan ma'no qolmaydi. Shuning uchun ham birovning ishini qilib e'tikof qilganidan, umuman qilmaganining o'zi afzal bo'lishi mumkin.

Safarda ro'za masalasida ham shunga o'xshash holat bo'lgan. Ramazon oyida sahobalardan ba'zilari ro'za tutishgan, boshqalari esa tutmagan. Ro'za tutganlar zaiflashib yiqilib qolishgan, tutmaganlar esa ularga xizmat qilishgan. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: "Bugun barcha ajrni ro'za tutmaganlar olib ketishdi", deganlar. Chunki safarda ro'za tutmaslikka izn bor edi. Ro'za tutmaganlar esa xizmat qilishlari sababli katta savobga ega bo'lishgan.

43-hadis

Nafl ibodatlar bilan nuqsonni to'ldirish

Muallif shunday deydi: Sen o‘zing uchun nafl ibodatlarni lozim tutgin va shu orqali tarozingni og‘ir qilgin. Zero, nafl ibodatlar farz amallardagi nuqsonlarni to‘ldiradi.

Ayol kishining hayz paytida ba’zi amallari kamayadi, shuningdek boshqa ko‘p sabablarga ko‘ra ham ba’zi ibodatlarni bajara olmaydi. Shuning uchun ularning o‘rnini to‘ldirish uchun nafl ibodatlarni ko‘proq ado etishi kerak bo‘ladi. Shunda amallaridagi kamchiliklar to‘ldiriladi, tarozisi og‘ir keladi va noqis amallarini nafl ibodatlar bilan mukammal qiladi.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ قَالَ: «لَا يَحِلُّ لِلْمَرْأَةِ أَنْ تَصُومَ وَزَوْجُهَا شَاهِدٌ إِلَّا بِإِذْنِهِ، وَلَا تَأْذَنَ فِي بَيْتِهِ إِلَّا بِإِذْنِهِ، وَمَا أَنْفَقَتْ مِنْ نَفَقَةٍ عَنْ غَيْرِ أَمْرِهِ فَإِنَّ نِصْفَ أَجْرِهِ يُؤَدَّى إِلَيْهِ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam shunday deganlar: “Ayol kishi eri huzurida turgan paytida, erining iznisiz ro‘za tutishi halol emas. Faqat uning ruxsati bilangina ro‘za tutishi halol bo‘ladi. Shuningdek, ayol erining uyiga eridan izn olmasdan hech kimni kiritmaydi, faqat erining ruxsati bilangina bu ish joiz bo‘ladi. Ayol erining amrisiz har qanday nafaqani sarflasa, uning yarmi eriga savob bo‘lib yoziladi.”

Hadisning birinchi qismi haqida: Rosululloh sollollohu alayhi va sallam aytadilar — “Eri huzurida bo‘lgan holida, ayolning erining iznisiz ro‘za tutishi halol emas”. Agar er uyda bo‘lmasa, safarda bo‘lsa, ayol ro‘za tutish uchun ruxsat so‘rashi shart emas. Ruxsat so‘rashlikdan maqsad — er ayolini istab qolishi mumkinligini hisobga olgan holdir. Shunday holatda, ayolning nafl ro‘za tutishi erining haqqini to‘sib qo‘yishi mumkin bo‘lgani sababli, bu ro‘za harom bo‘ladi.

Buning foydasi shunda: agar er “xotinimning ro‘zasini buzmay qo‘yaqolay” desa ham, qalbida ozgina xohishi bo‘lsa, ro‘zaga sababli fikri buzilishi mumkin. Shuning oldini olish uchun ayol er huzurida bo‘lsa, nafl ro‘za tutmasin deyilmoqda. Bu hadis erning xohishi va haqqini inobatga olganini ko‘rsatadi. Shu bois boshqa hadislarda ham: “Agar er ayolini to‘shakka chaqirsa, ayoli bosh tortsa, farishtalar uni la’natlaydi” deb marhamat qilingani, er haqqining naqadar ulkan ahamiyatli ekaniga dalildir. Shuning uchun ayol nafl ro‘zalarni erining izni bilan tutishga buyurilgan. Ammo bu hukmlar nafl ibodatlarga taalluqlidir. Farz ibodatlarda esa erning ruxsati talab qilinmaydi, chunki farz amallar Alloh taoloning bevosita buyrug‘idir.

Hadisning ikkinchi qismi haqida: “Erning uyiga uning iznisiz biron kishini kiritmasin”. Ya’ni, ayol er yashayotgan xonadonga erining ruxsatisiz hech kimni — hatto ota-onasi, aka-uka yoki opa-singlisini ham — kiritmasligi kerak. Chunki erning uyi — uning harami hisoblanadi. Alloh taolo Ka’baga mushriklarning kirmasligini buyurgan. Sababi — u Allohning harami, unga faqat Alloh rozi bo‘lgan kishilar kiradi, norozilar kiritilmaydi.

Xuddi shunga o‘xshab, erning ham rozi bo‘lgan va rozi bo‘lmagan kishilari bor. Uy esa uning harami. U rozi bo‘lgan odamlar kirishi mumkin, rozi bo‘lmaganlari — kim bo‘lishidan qat’i nazar — kira olmaydi.

Bugungi kunda bu masala yanada kengaydi: nafaqat uyning o‘zi, balki telefon ham xonadonning bir qismi kabi bo‘lib qoldi. Shuning uchun ayol eridan ruxsat olib, er rozi bo‘lgan kishi bilan suhbatlashadi, er rozi bo‘lmaganlar bilan esa suhbatlashmaydi. Hadisning uchinchi qismi haqida: “Ayol uyidagi narsalardan eridan so‘ramasdan ehson qilsa, erkakka ham savob ado qilinadi”. Bu jumla — “yarim ajr bo‘ladi” degan ma’nodadir. Chunki uyning rizqi, oziq-ovqati aslida erning mehnati bilan topilgan bo‘ladi. Ayol esa uni pishirib, taomga aylantiradi. Shunday qilib, agar ayol eridan izn so‘ramay ehson qilsa, savob ikkisi o‘rtasida bo‘linadi: yarim ajr erga, yarim ajr ayolga yoziladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Erning haqqi — ayolning zimmasidagi Alloh haqqidan keyin eng buyuk huquqlardan hisoblanadi. Shu bois Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Agar odamga sajda qilish vojib bo‘lganida, ayol eriga sajda qilgan bo‘lur edi” deb marhamat qilganlar. Bu esa erning haqqi naqadar ulug‘ va buyuk ekaniga dalildir.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi nikohdan keyin mutlaq hurriyatga ega emas. U eriga taalluqli bo‘lgan masalalarda o‘zicha mustaqil qaror qabul qila olmaydi. Aslida erkak ham xuddi shunday — uning ham ba’zi ishlarda hurriyati cheklangan. Demak, er-xotin hayotida har ikkisining ham erkinligi ma’lum chegaralarga bo‘ysunadi. Ayolda ham to‘liq hurriyat yo‘q. Erkakka taalluqli masalalarda, nafl ibodatlarda, hatto dunyoviy ishlarda ham u erining roziligini ko‘zlashi kerak. Aslida, bu faqat ayolga xos holat emas, insonlar umuman bir-biridan ruxsat olib, chegaralar bilan yashashadi.

Uchinchi foyda: Ayol kishi eri huzurida bo‘lsa, eridan izn so‘ramay nafl ro‘za tutishi joiz emas. U albatta eridan xos (aniq) yoki umumiy ruxsat olishi lozim. Shu yo‘sinda u erining haqqini ado qilgan bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi uyiga er rozi bo‘lmagan kishilarni kiritmaydi. Chunki erning uyi — uning harami hisoblanadi, u yerga faqat er rozi bo‘lgan insonlargina kirishi mumkin.

Beshinchi foyda: Uydagi barcha mol-mulk erning mulkidir, madomiki u ayolga nafaqa qilib turgan bo‘lsa. Ayol esa er rozi bo‘ladigan darajada ulardan foydalanadi. Ammo bu “nafaqa qilsa” degan shart bilan bo‘ladi. Ba’zan ayolning o‘z puli hisobiga yashaydigan erkaklar ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatda ayol eridan o‘z mablag‘i haqida so‘ramaydi.

Oltinchi foyda: Ayol kishi uydagi pullarni saqlashga mas’ul etib qo‘yilgan. Ammo ularni o‘z xohishicha tasarruf qilmaydi. Hattoki sadaqa qilishda ham, faqat erining izni bilangina amal qiladi. Agar erining izni bilan qilsa, bu amal uchun savob erga ham, ayolga ham to‘liq tarzda yoziladi.

Yettinchi foyda: Ayol kishi erining molidan urf-odatga ko‘ra, erining iznisiz ham sadaqa qilishi shariatda joiz hisoblanadi. Lekin bu holatda ajr ikkovi o‘rtasida taqsimlanadi: yarim ajr erga, yarim ajr ayolga yoziladi.

44-hadis

Eng afzal amallarga haris bo'lish

Muallif shunday deydi: Alloh taologa eng yaqinlashtiradigan amallarning eng afzalini ado etishga haris bo‘lgin, chunki umr qisqadir!

Aslida har qanday insonning umri qisqa. Lekin bu so‘z ayollarga xos ravishda aytilmoqda. Zero, ayol hayotining ko‘p qismi hayz va nifos holatlarida, qolgan katta qismi esa farzand tarbiyasi bilan o‘tadi. Shu sababli umrining yarmi ibodatlardan to‘liq foydalanilmay qoladi. Amallar ko‘p bo‘lsa-da, ayol Allohga eng yaqinlashtiradigan amallarga intilishi, ularni ado etishda haris bo‘lishi kerak. Shu yo‘l bilan u qisqa umrini behuda o‘tkazmaydi.

عَنْ عَائِشَةَ أُمِّ الْمُؤْمِنِينَ رضي الله عنها أَنَّهَا قَالَتْ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، تَرَى الْجِهَادَ أَفْضَلَ الْعَمَلِ، أَفَلَا نُجَاهِدُ؟ قَالَ: «لَا، لَكُنَّ أَفْضَلُ الْجِهَادِ حَجٌّ مَبْرُورٌ»

Oisha roziyallohu anho Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘radilar: “Ey Rosulullоh, biz ko‘rib turibmizki, jihod amallarning eng afzali hisoblanadi. Biz ham jihod qilmaylikmi?” Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Yo‘q, sizlar uchun jihodning eng afzali — hajji mabrurdir.”

Oisha roziyallohu anho amallarning eng afzalini bilishga qiziqqanlari uchun yuqoridagi hadisga sarlavha qo‘yganlar. U zot ko‘p amal qilishlariga qaramay, eng afzal amalni izlaganlar. Shariatni ko‘zdan kechirib, uni jihod deb bilganlar va “Biz ham jihod qilmaylikmi?” deb so‘raganlar. Bu yerda ayollarni nazarda tutganlar. Ammo Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam rad javobini berdilar. Chunki qo‘lga qurol olib, dushman bilan yuzma-yuz jang qilish erkaklarning vazifasidir.

Ayollarning jihoddagi ishtiroki boshqa ko‘rinishda bo‘lgan. Ya’ni, urush ortida turib jarohatlanganlarga yordam berish, yaralarni bog‘lash, suv tashish kabi ishlarda qatnashganlar. Ayollar erkaklar safida jang qilishdan qaytarilgan. Lekin agar ayolning o‘ziga hujum qilinsa, o‘zini himoya qilish uchun jang qilishi mumkin. Masalan, Hunayn kuni Ummu Sulaym roziyallohu anho qo‘llariga katta xanjar olib chiqqanlari rivoyat qilinadi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam undan: “Buni nima qilasan?” deb so‘raganlarida, u zot: “Agar biron kofir oldimga kelsa, qornini yoraman”, deb javob berganlar.

Demak, hadisdagi qaytarish — ayollarning erkaklar bilan bir safda turib, dushmanlarga qarshi hujum qilishlariga taalluqli bo‘lgan. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytganlar: “Lekin jihoddan ham afzal amal — hajji mabrurdir.”

Mabrur so‘zi “birr” so‘zidan olingan bo‘lib, “yaxshilab ado qilingan, Alloh tomonidan qabul bo‘ladigan haj” deganidir. Nima uchun haj jihodga tenglashtirilgan? Chunki hajda ham qiyinchilik va mashaqqat ko‘p: jazirama issiqda sabr qilish, uzoq yurish, ochlik va chanqoqlikka chidash, odamlar orasidagi tiqilinch va mashaqqatlarga sabr qilish. Bu jihoddagi qiyinchiliklarga o‘xshab ketadi.

Shunga qaramay, haj faqat ado qilinishi bilan kifoya emas, balki mabrur, ya'ni qabul bo'ladigan tarzda, ixlos bilan, riyodan uzoq bo'lib ado etilishi shart. Chunki amallar insonlarning qarichi bilan emas, Alloh taoloning mezoni bilan o'lchanadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Alloh yo'lida jihod qilish amallarning eng afzallaridan biridir. Shu sababdan shayton bu amalni insonlarga yomon ko'rsatadi. Bugun ko'pchilik "jihod yo'q", "jihod bu — terrorchilik, ekstremizm" deya noto'g'ri ta'riflaydi. Aslida jihod eng afzal amal bo'lgani uchun mal'un shayton uni odamlar ko'zida xunuk ko'rsatishga harakat qiladi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishiga Alloh yo'lida jihod qilish mustahab emas. Chunki ular erkaklar safida turib, jang qilishdan qaytarilgan. Bu amal erkaklarga xos bo'lib, ayollarning vazifasi emas.

Uchinchi foyda: Ayollarning jihodi — hajji mabrurni ado qilishdir. Ya'ni, ular uchun jihodning o'rni haj ibodatida ko'rilgan.

To'rtinchi foyda: Haj — jihod sifatini oladi. Nega deganda, hajda ham jihodga o'xshash jihatlar bor: nafsni mashaqqat bilan tiyish, sabr qilish va sobit turish. Hajda Hojar onamizning jihodi yodga olinadi. U zot Alloh uchun sabr qilib, bepusht va tashna sahroda qolganlari, suv izlab yugurib mashaqqat chekkanlari bilan buyuk bir sabr ko'rsatganlar. Shu bois haj ayollarning jihodiga qiyos qilingan.

Beshinchi foyda: Hajni mabrur qilib ado etish — Alloh yo‘lida nafsni sinash va qudratni namoyon etishdir. Erkak kishi jihodda jonini Alloh uchun xatarga qo‘yib, sabr va mashaqqat bilan o‘zini tasdiqlasa, ayol kishi hajni mukammal ado etish orqali shu sifatni ko‘rsatadi. Hajda u ham Alloh uchun jonini qiynashga, sabr qilishga, hattoki hayoti tugashi mumkin bo‘lgan mashaqqatlarga ham rozi bo‘ladi. Shu bilan u Alloh uchun sobitligini isbotlaydi.

Oltinchi foyda: Ummul mo’minin Oisha onamiz Alloh nazdida ibodatlarning eng afzalini ado etishga haris bo‘lganlar. Shu sababdan Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan: “Nima qilay, jihod qilaymi?” deb so‘radilar. Bu u zotning ibodatga bo‘lgan yuqori rag‘batidan dalolat beradi.

Ma’lumki, ayol haj qilishi uchun mahram bilan borishi shart qilingan. Farz haj masalasida ayol eridan ruxsat so‘ramaydi, agar qodir bo‘lsa, boshqa mahramlari bilan ham haj ado etishi mumkin. Ammo hajning mabrur bo‘lishi uchun er yoki mahrami bilan ado etilishi lozim bo‘ladi. Nafl hajlarda esa ayolning eridan ruxsat so‘rashi shart qilingan. Xuddi shunday, boshqa nafl ibodatlarda ham ayol erining roziligini olishga majbur bo‘ladi.

45-hadis

Hatto ehromda (nomahramdan) yuzni yopish

Muallif shunday deydi: Ey ayol, senga ehrom paytida “niqob taqma” deb buyurilgan, ammo bu bilan “yuzingni nomahram erkaklar oldida ochib yur” deyilmagan.

Aslida tabiiy holatda ayol kishi niqobda yuradi. Faqat ehrom holatida erkaklarga o‘xshab boshqa a’zolarini ochib yurmasligi uchun, ramziy ma’noda yuziga niqob taqmasligi buyurilgan. Lekin bunda ham faqat “niqob taqma” deyiladi, xolos, ammo “yuzingni ochib yur” deb amr qilinmagan.

Demak, begona erkaklar oldida niqob taqmagan taqdirda ham, ayol yuzini yopishga harakat qilishi kerak. Hech bo‘lmaganda og‘zini berkitishga intiladi. Shunday qilib, “niqob taqma” buyrug‘i — “begonalar oldida yuzingni ko‘rsatib yuraver” degani emas. Aksincha, haj ibodatida ehromda bu ish mumkin emas ekan, bas, undan-da ortiq boshqa paytlarda yuzni ochib yurish joiz bo‘lmaydi.

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عُمَرَ رضي الله عنه قَالَ: قَامَ رَجُلٌ فَقَالَ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، مَاذَا تَأْمُرُنَا أَنْ نَلْبَسَ مِنَ الثِّيَابِ فِي الْإِحْرَامِ؟ فَقَالَ النَّبِيُّ ﷺ: «لَا تَلْبَسُوا الْقُمُصَ، وَلَا السَّرَاوِيلَاتِ، وَلَا الْعَمَائِمَ، وَلَا الْبَرَانِسَ، إِلَّا أَنْ يَكُونَ أَحَدٌ لَيْسَتْ لَهُ نَعْلَانِ فَلْيَلْبَسِ الْخُفَّيْنِ، وَلْيَقْطَعْهُمَا أَسْفَلَ مِنَ الْكَعْبَيْنِ، وَلَا تَلْبَسُوا شَيْئًا مَسَّهُ الزَّعْفَرَانُ وَلَا الْوَرْسُ، وَلْتَنْتَقِبِ الْمَرْأَةُ الْمُحْرِمَةُ، وَلَا تَلْبَسِ الْقُفَّازَيْنِ»

Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Bir kishi o‘rnidan turib: ‘Yo Rosulullоh, bizga ehromda qanday liboslarni kiyishni buyurasiz?’ deb so‘radi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Ko‘ylak kiymaysizlar, ishton kiymaysizlar, salla kiymaysizlar, boshni yopadigan kiyimlarni ham kiymaysizlar. Agar kimdir oyoq kiyim — shippak topolmasa, u holda mahsi kiysin va uni to‘pig‘idan pastroqqa qirqib olsin. Zafaron va va’rs surtilgan narsalarni ham kiymasin. Ayol kishi niqob taqmaydi va qo‘lqop ham taqmaydi.’”

Ayollarga taalluqli qismi shuki: erkak ham, ayol ham zafaron yoki va’rs tekkan kiyim kiymaydi. Zafaron va va’rs — o‘simlik bo‘lib, qadimda arablar uni bo‘yoq va hushbo‘ylik sifatida ishlatishgan. Demak, ehromda ikki jinsga ham hushbo‘ylik va rang-barang narsalarni kiyimga ham, badanga ham surtish mumkin emas. Ayollar uchun esa qo‘shimcha qoidalar bor: qosh bo‘yash, ko‘z bo‘yash, labga yoki yuzga suradigan narsalarni ishlatish — mutlaqo joiz emas. Ayol kishi ehromdaligida niqob taqmaydi, chunki ayolning ehromi — uning yuzi hisoblanadi. Shuningdek, qo‘lqop ham taqmaydi. Biroq qolgan barcha a’zolari yopiq bo‘lishi shart. Shunda ham, agar ayol erkaklar oldidan o‘tib qolsa, yuzini imkon qadar yopishga harakat qilishi kerak.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayollarning niqob va qo‘lqop taqishi islomning boshidan beri ma’lum bo‘lgan amaldir. Bugun johil kishilar aytayotganidek, bu “arablarning kiyimi” yoki “urf-odat” emas. Aksincha, bu diniy hukmdir. Chunki agar bunday narsa bo‘lmaganida edi, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam “ehromda taqmaydi” deb ta’kidlab aytmagan bo‘lardilar.

Qo‘lqop — ayolning ikki qo‘liga kiyiladigan libos, niqob esa — yuziga taqiladigan, faqat ko‘zlari ko‘rinishi uchun o‘sha joyini ochiq qoldiradigan kiyimdir. Demak, ularning mavjudligi va ishlatilishi shariatda tan olingan.

Ikkinchi foyda: Nabiy sollollohu alayhi va sallam ayollarni ehrom paytida niqob va qo‘lqop kiyishdan qaytardilar. Ehrom — haj yoki umraga borganida kiyiladigan maxsus libosdir.

Uchinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning ayollarni ehromda niqob taqish va qo‘lqop kiyishdan qaytarganliklari — ularni ehromdan oldin yoki ehromdan keyin taqilishi mumkinligiga dalildir. Agar aslida niqob va qo‘lqop bo‘lmaganida, u zot bunday qaytarish bilan amr qilmagan bo‘lar edilar.

To‘rtinchi foyda: Bu qaytarishdan maqsad — ayol kishi yuz va kaftga moslab bichilgan liboslarni ehromda kiyishini man qilishdir. Ammo bu degani “ayol begona erkaklar oldida yuzini va qo‘lini ochib yurishi kerak” degani emas. Ya’ni, “ayollar ehrom mahalida niqob taqmaydi, qo‘lqop kiymaydi” deyilgani — yuz va qo‘l shakliga moslab tikilgan narsalarni taqmasligi kerakligi, xolos. Ammo yuz va qo‘lni boshqa libos bilan, moslab tikilmagan narsalar bilan yopish mumkin. Masalan, ayol qo‘lini kiyimi bilan o‘rab olsa, yoki yuzini ro‘moli bilan to‘sib olsa — bu joiz, chunki ular maxsus tikilgan emas.

Muallif Ibn Qayyim rahimahullohning so‘zlarini keltiradi: “Quruq ray yoki qiyos bilan hukm qiladigan kishilar shariat dalillarini shariat ko‘tarmaydigan narsalarga yuklaydilar. Ray va qiyos degani — o‘z aqli bilan hukm chiqarishdir. Shunday qiladiganlar shariatni Alloh va Rosulullоh ko‘rsatganidek emas, balki o‘z aqliga ko‘ra tushunishga harakat qiladi. Bizda ham ‘bu arablarning urfi, shariatda yo‘q’ deydiganlar bor. Ular ham aslida shariatni o‘z aqli bilan tushunishga urinadi. Ular quruq lafzning zohiriga yopishib oladilar, maqsadini esa nuqsonli qilib tushunadilar.”

Yana bir misol: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Ayol niqob taqmaydi, qo‘lqop kiymaydi” dedilar. Demak, bu qaytariq qo‘l va yuzga moslab tikilgan narsaga xos bo‘lib, ularni kiyish man qilindi. Ammo “ayol yuzini yopmasin, qo‘lini yopmasin” deb buyurilgan emas. Shuningdek, “yuzini ochib yursin” deb ham aytilmagan.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bu masalalarni ummat ichida eng yaxshi biluvchiroqdirlar. U zot davrida ayollar yuzlarini yopar edilar. Agar ulovda erkaklar ro‘baro‘ kelib qolsa, ayollar yuzlarini yopib olganlar. Erkaklar o‘tib ketgach, yuzlarini ochib qo‘yganlar. Bu holat ehromda bo‘lgan. Demak, boshqa paytlarda bundan ham ko‘ra ko‘proq tarzda yuz va qo‘llarini yopib yurishgan.

46-hadis

Ibodatdan oldin fiqhini o‘rganish

Muallif shunday deydi: Ibodatni ado etishdan oldin uning fiqhini — ya’ni qoidalari va hukmlarini — o‘rganib olish, qiladigan amalingning ajrini ziyoda qiladi. Zero, fiqh bilan qilinadigan ibodat ongli, to‘g‘ri va mukammal bo‘ladi.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: دَخَلَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ عَلَى ضُبَاعَةَ بِنْتِ الزُّبَيْرِ فَقَالَ لَهَا: «لَعَلَّكِ أَرَدْتِ الْحَجَّ؟» قَالَتْ: وَاللَّهِ لَا أَجِدُنِي إِلَّا وَجِعَةً. فَقَالَ لَهَا: «حُجِّي وَاشْتَرِطِي وَقُولِي: اللَّهُمَّ مَحِلِّي حَيْثُ حَبَسْتَنِي». وَكَانَتْ تَحْتَ الْمِقْدَادِ بْنِ الْأَسْوَدِ

Oisha roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam Duboha bintu Zubayr degan ayolning oldilariga kirdilar. U zot unga: ‘Sen, ehtimol, haj qilishni istagan bo‘lsang kerak?’ dedilar.
Shunda u ayol: ‘Vallohi, men o‘zimni og‘rigan holda topyapman’, deb javob berdi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: ‘Sen haj qilaver va shart qilib olgin: “Allohim, meni qayerda ushlasang, o‘sha mening joyim bo‘lsin”, deb.’” Oisha roziyallohu anho aytdilar: “O‘sha ayol Miqdod ibn Asvadning xotini edi.”

U ayol kasal bo‘lgan edi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam uning oldiga kirib: “Sen, ehtimol, haj qilishni istading shekilli?” deb so‘radilar. Aslida Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ummatga ota kabi bo‘lganlari uchun, ularning uylariga kirib hol-ahvol so‘rashlarida gunoh yo‘q edi. Shu bois u zot ayolning oldiga kirib, uning ahvolidan xabar oldilar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi kasal bo‘lsa ham haj qilishi joizdir. Kasallik uning haj ibodatini ado etishiga to‘sqinlik qilmaydi.

Ikkinchi foyda: Hajda kasal ayol shart qo‘yishi mumkin. Ya’ni: “Allohim, meni qayerda ushlasang, o‘sha mening joyimdir” deb niyat qiladi. Agar u uzrli sabab bilan haj ibodatini to‘liq ado eta olmasa, ehromdan chiqib ketadi va unga hech narsa lozim bo‘lmaydi. Agar bunday shart qilmasa, keyinchalik ehromdan chiqqanidan so‘ng qurbonlik qilish yoki fidya berish vojib bo‘lib qoladi. Shartli niyat qilinsa, bunday mas’uliyat bo‘lmaydi.

Uchinchi foyda: Bu shart aslida kasal insonga taalluqlidir, hayz ko‘rgan ayolga emas. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam Oisha roziyallohu anhoga bunday ta’lim bermagan edilar. Holbuki, Oisha roziyallohu anho haj paytida hayz ko‘rib qolgan edilar va bu ularning ayrim ibodatlarini ado qilishlariga ta’sir qilgan edi. Demak, ushbu hadis hayz ko‘rganlarga emas, aynan kasal kishilarga tegishlidir.

To‘rtinchi foyda: Bunday shart qilish talbiya aytilgandan keyin bo‘ladi. Talbiya — “Labbaykallohumma hajjan” yoki “Labbaykallohumma umratan” degan niyat bilan birga, shartli niyat ham qo‘shib aytiladi.

Beshinchi foyda: Shart qilish, kelgusida biror hodisa yuz berib, hajni tugata olmaslikdan qo‘rqqan kishilarga joizdir. Masalan, safarda kasallik, yo‘l to‘siqlari yoki boshqa uzrli sabablar tufayli hajni tamomlay olmaslikdan xavotirlangan kishi shunday shartli niyat qiladi. Hozirgi zamonda bunga hujjat masalasi ham kiradi: ya’ni haj safariga kira oladimi yoki yo‘qmi, bundan bexabar bo‘lgan odam shart qo‘yib niyat qilsa, o‘zini mas’uliyatdan saqlagan bo‘ladi.

47-hadis

Haj va umra bozorlarni emas ka'bani aylanish

Muallif shunday deydi: Makkaga borganda eng katta g‘aming — Baytullohni tavof qilish bo‘lsin, bozorlarda aylanish emas.

Bu so‘z aslida insonlarga tanbehdir. Ya’ni, bozorlar atrofida emas, balki Ka’ba atrofida aylanib tavof qilish kerak. Rivoyat qilinishicha, bir kishi Ka’baga borganda tush ko‘rgan ekan. Tushida ikkita Ka’ba bor emish: biri katta, biri kichik. U kishi kichik Ka’baning oldiga borsa, u yerda yalang‘och ayollar turgan ekan. Keyin o‘ziga: “Bu Ka’ba emas” deb, katta Ka’baga borganida odamlarning aylanib, tavof qilayotganini ko‘ribdi.

Kichik Ka’badan murod — Ka’baning yonidagi bozorlardir. U yerda odamlar ham aylanib yurishadi, shuning uchun tashqi ko‘rinishda tavofga o‘xshab qoladi. Shu sababli insonlar ikki xil Ka’ba qilib olmasin: biri bozorlarda aylanish, ikkinchisi Baytullohda tavof qilish. Asl maqsad — Ka’bani tavof qilishdir, bozorni emas.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رضي الله عنه قَالَ: «أُمِرَ النَّاسُ أَنْ يَكُونَ آخِرُ عَهْدِهِمْ بِالْبَيْتِ، إِلَّا أَنَّهُ خُفِّفَ عَنِ الْمَرْأَةِ الْحَائِضِ»

Ibn Abbos roziyallohu anhu aytadilar: “Odamlarning oxirgi amallari Baytni (Ka’bani) tavof qilish bo‘lishi buyurilgan. Faqat hayz ko‘rgan ayollarga bundan yengillik berilgan.”

Insonlar Makkaga asosan Ka’ba uchun boradilar, uni tavof qiladilar va safarning oxirida qilinadigan amal ham tavof bo‘lishi lozim. Birinchi tavof “tavoful qudum” deyiladi. Oxirgisi esa “tavoful vido” — ya’ni Makkadan chiqishga taraddud ko‘rilayotganda bajariladigan so‘nggi tavofdir.

Demak, birinchi kelganida va ketishidan oldin qilinadigan eng asosiy ibodat tavof bo‘lib, shunga alohida urg‘u berilgan. Faqatgina hayz ko‘rgan ayol bundan istisno qilinib, unga yengillik berilgan.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Vidolashuv tavofi hayz ko‘rgan ayolga vojib emas. U bundan yengillikka ega bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Ayollarga ba’zi shar’iy hukmlarda sabablarini inobatga olgan holda yengillik berilgan. Masalan, ayrim ayollarga hijobda yurish mashaqqatli tuyulsa ham, boshqa masalalarda ularga yengil yo‘l tanlab berilgan. Bu ham shariatning rahmatidan dalolat qiladi.

Uchinchi foyda: Agar ayol ifoza tavofini (ya’ni qurbonlik kuni qilinadigan farz tavofni) ado etishdan oldin hayz ko‘rib qolsa, u holda Makkadan chiqib ketishi joiz bo‘lmaydi. Chunki ifoza tavofi farz amal hisoblanadi. Ayol hayzdan tozalguniga qadar kutib, so‘ng ifoza tavofini ado etishi shart. Vidolashuv tavofi esa sunnat amal bo‘lib, uni qilsa savob oladi, qilmasa gunohkor bo‘lmaydi. Ammo ifoza tavofini qilmay chiqib ketsa, bu katta gunoh bo‘ladi va hajni buzadi.

Shuning uchun ayol hajga borayotganida hayz sabab mashaqqatga qolmaslik uchun oldindan hayzni kechiktiradigan maxsus dorilarni ichib borishi eng afzal yo‘ldir. Agar ifoza tavofini umuman qilmasdan qaytib ketsa, haj vojibligi soqit bo‘lmaydi. Balki u kishi keyinchalik qaytadan haj qilishi lozim bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Vidolashuv tavofi haj ibodatida vojibdir. Faqat hayz ko‘rgan ayol uchun uni tark qilishga ruxsat berilgan. Shu bilan birga, vidolashuv tavofi faqat hajda vojib bo‘lib, umrada vojib hisoblanmaydi.

48-hadis

Tavofda erkaklarga qorishmaslik

Muallif shunday deydi: Agarchi Baytullohni tavof qilayotgan bo‘lsang ham, erkaklarga aralashma! Chunki Ka’ba atrofida eng buyuk ibodatni ado etayotgan bo‘lsang ham, nomahramlardan uzoq turish — hayo va taqvoning talabidir.

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: شَكَوْتُ إِلَى رَسُولِ اللَّهِ ﷺ أَنِّي أَشْتَكِي، فَقَالَ: «طُوفِي مِنْ وَرَاءِ النَّاسِ وَأَنْتِ رَاكِبَةٌ». فَطُفْتُ وَرَسُولُ اللَّهِ ﷺ يُصَلِّي إِلَى جَنْبِ الْبَيْتِ يَقْرَأُ ﴿وَالطُّورِ وَكِتَابٍ مَسْطُورٍ﴾

Ummu Salama roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Men Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga o‘zimning og‘rib turganimdan shikoyat qildim. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam menga: ‘Sen odamlarning ortidan, ulovga mingan holda tavof qil’, dedilar. Men shunday qildim va ulovimda tavof qildim. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam esa Baytning yonida namoz o‘qidilar va Tur surasidan oyatlarni tilovat qildilar.”

Bu hadisdan olinadigan hukm shuki: bugungi kunda ham qariyalar, ojiz kishilar yoki kasallar uchun maxsus aravalar yoki mashinalarda tavof qildirish joizdir. Kimlardir pul evaziga odamlarni aravaga o‘tqazib tavof qildirishsa ham, bu shariatda joiz hisoblanadi. Shuningdek, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam o‘zlari ham Hajjatul Vado’ kuni odamlar u zotni ko‘rib olishlari uchun ulovda tavof qilganlari rivoyat qilingan. Demak, zarurat bo‘lganida yoki manfaat bo‘lsa, tavofni ulovda yoki hozirgi zamonaviy vositalarda ado etish mumkin.

Ayollarga: “Odamlarning orqasidan turib tavof qilinglar” deyilishidan ikki foyda chiqadi:

Birinchisi: Ayollar erkaklarga aralashib ketmasliklari uchun.
Ikkinchisi: Ulov mingan kishi odamlarni bosib, ularga ozor bermasligi uchun.

Hozirgi kunda “orqadan yurish” amaliyoti qolmagan bo‘lsa-da, imkon qadar Ka’baga juda yaqin bo‘lmagan doirada tavof qilinishi kerak. Chunki qancha yaqinlashilsa, shuncha tirbandlik ortadi, erkak va ayolning badani bir-biriga tegib ketish xavfi kuchayadi. Bu esa ibodatning xushusiga putur yetkazadi.

Afsuski, bugungi kunda ko‘plab odamlar Hajarul Asvadni ushlash yoki suratga tushish uchun qattiq tirbandlikda qolishadi. Aslida, Hajarul Asvad yoki Yamaniy ruknni ushlash imkon bo‘lsa — joiz, lekin lozim emas. Chunki bundan keladigan fitna va zarar ibodatning ruhiga zarar yetkazishi mumkin.

Shuning uchun tavof qilayotganda ayollar erkaklarga aralashmasliklari lozim. Hatto boshqa joylarda ham ayol kishi erkaklar orasida aralashib yurmasligi kerak. Ayolning har joyda o‘zini tortib turishi, hayo va iffatini asrashi zarur.

Ummu Salama roziyallohu anho: “Men tavof qildim, Rosululloh esa Baytning yonida namoz o‘qidilar”, deganlar. Bundan yana bir foyda olinadiki, bir guruh odamlar tavofni tugatgach, namoz o‘qishgan. Shuningdek, Ka’ba atrofi biroz bo‘shagan paytda, ya’ni siyraklashganida tavof qilish afzalroq ekanligi kelib chiqadi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam tavof paytida Tur surasidan oyatlar o‘qiganlari rivoyat qilingan. Lekin bu aynan shu surani o‘qish shart, degani emas. Qur’onning istalgan oyatini tilovat qilib zikrda bo‘lish ham tavofda afzaldir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishiga biror muammo tug‘ilganda, avvalo eriga murojaat qiladi. Eri unga muammoni hal qilishda yordam beradi yoki maslahat beradi. Agar er bilmasa, bilimli kishilardan so‘rab, ayoliga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi hajda kasal bo‘lib qolsa ham, bu uni vojib bo‘lgan tavofni ado etishdan to‘xtatmaydi. Agar farz tavof bo‘lsa, ulovga minib bo‘lsa ham tavofini ado qilishi lozim.

Uchinchi foyda: Kasal ayol Baytullohni kursida yoki ko‘tarilgan holda tavof qilishi joiz. Masalan, kimdir onasini yelkada ko‘tarib tavof qilsa ham, bu shariatda joiz hisoblanadi.

To‘rtinchi foyda: Ayol tavof vaqtida ham erkaklarga aralashmaydi. Qodir bo‘lganicha ularning orqasidan yurib tavof qiladi. Tavofdan boshqa vaqtlarda ham imkon qadar erkaklar orasida aralashib yurmaslikka harakat qiladi.

Beshinchi foyda: Ayol kishi tavof uchun eng munosib vaqtni tanlashi lozim. Ya’ni odamlar kamroq bo‘ladigan paytni izlash kerak. Bu har xil bo‘lishi mumkin: masalan, jazirama issiqda peshin mahalida, yoki erkaklar soni kamaygan paytlarda.

Yoki erkaklar namoz bilan mashg‘ul bo‘lishganda, ayol ularning ibodatiga halaqit bermaydigan tarzda tavof qilishi mumkin. Agar erkaklar uchun alohida namoz joyi bo‘lsa, ayollar tavofda u joylarni to‘smasdan, bemalol ibodatlarini davom ettirishlari mumkin.

49-hadis

O‘rnida ruxsatni o‘rnida qat'iy hukmni olish

Muallif shunday deydi: O‘rni kelganda ruxsat bilan amal qilishing, o‘rni kelganda qat’iyat bilan amal qilishing — iymoning darajasiga dalildir!

Shariat bizning havoyi nafsimizga moslashadigan narsa emas. Aksincha, biz shariatning xohishiga moslashamiz. Shariat bir o‘rinda bir narsaga buyursa, uni bajarish lozim. Bu amal nafsimizga yoqmasa ham, ko‘zimizga og‘ir yoki qiyin ko‘rinsa ham, uni ado etishimiz farzdir.

Shariat buyurgan joyda ruxsatga amal qilinadi, zarur bo‘lgan joyda esa qat’iyat bilan amal qilinadi. Qat’iyat — ya’ni aziymat, og‘ir hukmni tanlab amal qilishdir. Ana shu amaliyot iymon darajasining asl belgisi hisoblanadi. Demak, iymon darajasi insonning xohish-istagida emas, balki shariat buyruqlariga itoatida namoyon bo‘ladi.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: «نَزَلَتِ الْمُوَازَلَةُ، فَاسْتَأْذَنَتِ النَّبِيَّ ﷺ سَوْدَةُ أَنْ تَدْفَعَ قَبْلَ حَطْمَةِ النَّاسِ، وَكَانَتِ امْرَأَةً ثَبِطَةً، فَأَذِنَ لَهَا، فَدَفَعَتْ قَبْلَ حَطْمَةِ النَّاسِ، وَأَقَمْنَا حَتَّى أَصْبَحْنَا ثُمَّ دَفَعْنَا بِدَفْعِهِ، وَلَأَنْ أَكُونَ اسْتَأْذَنْتُ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ كَمَا اسْتَأْذَنَتْ سَوْدَةُ، أَحَبُّ إِلَيَّ مِنْ مَفْرُوحٍ بِهِ»

Oisha roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Biz Muzdalifaga tushgan edik. O‘shanda Savda roziyallohu anho Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan odamlar to‘s-to‘polon qilib ketishlaridan oldin jo‘nab ketishga izn so‘radilar. Chunki u zot sekin yuradigan ayol edilar. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ularga ruxsat berdilar va ular odamlar kelmasidan oldin Muzdalifadan jo‘nab ketdilar. Biz esa tonggacha turdik va keyin Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bilan birga jo‘nadik. O‘sha paytda, agar men ham Rosulullohdan xuddi Savda roziyallohu anho so‘raganidek ruxsat so‘raganimda edi, bu men uchun barcha quvonchli narsalardan ham suyukli bo‘lgan bo‘lardi.”

Haj paytida Arafotdan Muzdalifaga tushiladi. O‘sha vaqtda Savda onamiz Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan: “Odamlar to‘s-to‘polon bo‘lib ketishidan oldin o‘zim jo‘nayveray” deb izn so‘radilar. Chunki ular gavdali va yirik bo‘lib, yurishlari sekin edi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ularga izn berdilar. Shunday qilib, Savda onamiz ertaroq jo‘nab ketdilar, qolganlar esa Rosulullоh bilan birga Muzdalifaga tushdilar.

Oisha roziyallohu anho yosh bo‘lganlari uchun “orqada qolmayman” deb o‘ylab, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bilan birga qolishni afzal bildilar va keyin birga tushdilar. Ammo tavof yo‘lida qiyinchilikka duch keldilar. Shunda o‘sha paytda izn so‘ramaganlariga pushaymon bo‘ldilar va dedilar: “Agar men ham o‘sha paytda izn so‘raganimda edi, bu men uchun dunyodagi barcha quvonchli narsalardan ham suyukli bo‘lar edi.”

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Zaif ayollar, bolalar va hatto zaif erkaklarning ham qurbonlik kechasida Muzdalifadan Minoga ertaroq tushib ketishlari va u yerda tunamasliklari joizdir. Chunki Arafatdan Muzdalifaga kelinadi, undan keyin tosh otishga boriladi. Bu yengillik faqat zaif kishilarga tegishli bo‘lib, qurbonlik kechasi haj amallaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hamda u zotning ayollari Muzdalifada tunab qolganlar. Bu hajning shiorlaridan biri sifatida qabul qilingan.

Uchinchi foyda: Erkak kishi safarda ham o‘z ahlining holatini e’tiborga olishi lozim. Ularning quvvati va imkoniyatini hisobga olib, qaror qiladi.
To‘rtinchi foyda: Ayol kishi safar masalasida ham, boshqa ishlarda ham eridan izn so‘rashi lozim. Bu hadisdan ayol eridan ruxsatsiz ish qilmasligi kerakligi hukmi chiqadi.

Beshinchi foyda: Ayol kishining azimatni, ya’ni og‘irroq va qiyinroq yo‘lni tanlashi joizdir. Oisha roziyallohu anho azimatni tanlab, qolishni ixtiyor qilganlar. Ammo aslida, ayol kishi izdihomga tushib qolmaslik uchun imkon qadar ertaroq yo‘lga chiqishi afzal sanaladi.

Oltinchi foyda: Zaiflarni kechqurun Minoga jo‘natishdan maqsad — ular keyin tosh otadigan joyga oson yetib borishlaridir. Ayollarni ertaroq jo‘natishning yana bir maqsadi — tosh otadigan joyda odamlar ko‘payib ketmasidan ibodatni ado etish imkonini yaratishdir. Shariat ayollarning izdihom va qiyinchilikka tushib qolmasliklariga katta e’tibor qaratgan.

50-hadis

Mahramsiz safar qilmaslik

Muallif shunday deydi: Mahramsiz safar qilma, agarchi Baytullohga bo‘lsa ham.

Ayol kishi mahramsiz hech qayerga safar qilmaydi. Hatto umra yoki hajga borishni istasa ham, albatta yonida mahrami bo‘lishi shart.

Mahram kim? Mahram — ayolga doimiy ravishda nikohlanishi harom bo‘lgan erkak qarindoshi. Masalan: eri, otasi, o‘g‘li, aka-ukasi, amakisi, tog‘asi, o‘g‘il nevarasi va shunga o‘xshash boshqa erkak qarindoshlari.

Nega mahram kerak?
Begona erkaklar unga ko‘z tikmasligi uchun. Ayol kishi uchun himoyachi va qo‘riqchi bo‘lishi uchun. Faqat qo‘riqlash emas, balki unga g‘amxo‘rlik qilish, xizmatini bajarish va nomusini asrash uchun. Yomon niyatli kishilarning zulmi va tegajoqligidan saqlash uchun.

Chunki safarda yolg‘iz ayol ko‘pincha “yonida hech kimi yo‘q” deb o‘ylanganidan, begona erkaklar unga yomon ko‘z bilan qarashlari yoki zarar yetkazishlari mumkin. Shu sababli mahram — ayol uchun shariat buyurgan ilohiy himoya vositasidir.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ النَّبِيُّ ﷺ: «لَا تُسَافِرِ الْمَرْأَةُ إِلَّا مَعَ ذِي مَحْرَمٍ، وَلَا يَدْخُلُ عَلَيْهَا رَجُلٌ إِلَّا وَمَعَهَا مَحْرَمٌ». فَقَالَ رَجُلٌ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، إِنِّي أُرِيدُ أَنْ أَخْرُجَ فِي جَيْشِ كَذَا وَكَذَا، وَامْرَأَتِي تُرِيدُ الْحَجَّ. فَقَالَ: «اخْرُجْ مَعَهَا»

Nabiy sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Ayol kishi mahramsiz safar qilmaydi. Uning oldiga begona erkak kirmaydi, illoki u ayol bilan birga mahrami bo‘lsa, kirishi mumkin.” Shunda bir kishi: “Yo Rosulullоh, men falon joyga jihodga chiqmoqchi edim, xotinim esa haj qilishni xohlamoqda”, dedi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam unga:
“Xotining bilan safarga chiq”, dedilar.

Demak, ayol kishi mahramsiz safar qilmaydi. Shuningdek, ayolning oldiga faqat mahrami bo‘lsa kiradi, mahrami bo‘lmasa kirmaydi. Ya’ni, bir ayol yolg‘iz, xoli (xilvat) joyda o‘tirgan bo‘lsa, uning oldiga begona erkak kirmasligi lozim.

Shunda bir kishi: “Men falon jihodga ketmoqchiman, lekin xotinim hajga ketmoqchi”, dedi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Xotining bilan safarga chiq. Jihod qilmasang ham mayli, ammo xotiningni yolg‘iz hajga yuborma”, dedilar.

Bu so‘z jihoddan qaytarish emas, balki: “Sen jihod qilmasang ham boshqalar boradi, ammo xotiningni mahramsiz hajga yuborish mumkin emas” degan ma’noda aytilgan.

Yana bir foyda shuki: Jihodning asl maqsadi — zaiflarni, ayollarni va oila a’zolarini himoya qilishdir. Agar erkak o‘z oila a’zolarini himoyasiz qoldirib, “men jihod qilaman” deb ketadigan bo‘lsa, bu katta xato bo‘ladi. Chunki eng yaqinidagi zaiflarni asrash uning zimmasidagi eng ulkan mas’uliyatdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi uchun haj ibodatida erkakka nisbatan qo‘shimcha shart qo‘yilgan. Ya’ni, ayol haj qilish uchun albatta mahram bilan bo‘lishi shart.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining mahramsiz safar qilishi joiz emas. Bu nafaqat haj va umra, balki boshqa barcha safarlarga ham taalluqlidir.

Uchinchi foyda: Payg‘ambarimiz sollollohu alayhi va sallamning bu qaytariqlari barcha safarlarni qamrab oladi. Hatto farz hajni ado qilishda ham, nafl haj va umra safarlarida ham, boshqa har qanday safarda ham ayol uchun mahram zarur bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Hadisda zikr qilingan mahram — bu ayolning eri yoki unga nikohi abadiy harom bo‘lgan erkak qarindoshi hisoblanadi.

Mahram turlari:
Abadiy harom bo‘lganlar: Ular bilan ayolga umr bo‘yi nikohlanish haromdir, ya’ni hech qachon uylanishi mumkin emas. Misollar: ota, o‘g‘il, aka-uka, amakilar, tog‘alar, jiyanlar (qiz tomondan).

Abadiy harom bo‘lmaganlar: Vaqtinchalik sabab tufayli nikohlanish harom bo‘lganlar. Masalan, pochcha (erining aka-ukasi). Agar ayol eridan ajralsa, pochcha uning singlisi yoki opasiga uylanishi mumkin. Shuning uchun u haqiqiy mahram hisoblanmaydi. Ayol ham xuddi shunday — qayni aka-ukalari bilan yolg‘iz qolishi yoki safar qilishi mumkin emas.

Muboh sababdan mahramlar: Shariy jihatdan halol sabab bilan mahram bo‘lganlardir. Masalan, emizikli aka-uka: ya’ni emizish orqali qarindoshlik bog‘langanlar. Ularning orasida nikoh joiz emas va shariat ularni mahram hisoblaydi.

Muboh bo‘lolmaydiganlar: Harom yo‘l bilan qarindoshlik bog‘langanlardir. Masalan, bir kishi zino orqali farzand ko‘rsa, bu bola shariatda nasab jihatidan uning farzandi sanalmaydi. U zino qilgan kishining shariy nikohidan bo‘lgan qiziga aka hisoblanmaydi. Ular o‘rtasida nikoh joiz bo‘lmasa ham, shariat ularni mahram deb hisoblamaydi. Chunki bunday nasab harom yo‘l orqali kelgan bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Erkak kishiga lozimki, ayolining farz hajini ado etishida unga hamroh bo‘lsin. Chunki ayollar uchun jihod — hajdir. Shuning uchun erkak jihodga borishni istasa ham, agar xotini farz hajni ado etmoqchi bo‘lsa, unga hamroh bo‘lishi jihod savobiga tengdir.

Farz haj deyilishining sababi shuki — nafl haj erkakka vojib emas. Ayol esa bir marta farz hajni ado qilsa, bu uning zimmasidan soqit bo‘ladi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam onalarimizga: “Mana shu hajdan keyin uyda o‘tirasizlar” deb marhamat qilganlar. Bu so‘z, boshqa nafl hajlarni qilish shart emasligini anglatadi.

Erkakka bu majburiyat qachon lozim bo‘ladi? Agar ayolni olib boradigan boshqa mahram bo‘lmasa. Agar boshqa mahram — masalan, otasi yoki o‘g‘li olib bora olsa, ham joizdir. Lekin agar boshqa mahram topilmasa, erning zimmasiga tushadi. Shart shuki, erkak bunga qodir bo‘lsin: sog‘lom bo‘lsa va hujjat masalalarida muammo bo‘lmasa, hajga olib borishi farz bo‘ladi. Agar qodir bo‘lmasa, boshqa mahramni topib berishi lozim bo‘ladi.

Oltinchi foyda: Islomdagi eng oliy amal — jihoddir. Jihod islomning eng sharafli va yuksak amali bo‘lib, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam uni “tuyaning o‘rkachi” — ya’ni eng yuqori cho‘qqisiga o‘xshatganlar. Ammo ayoliga farz hajda hamroh bo‘lish zarurati, hatto shu oliy amaldan ham ustun bo‘ladi. Erkak jihodga borishni bahona qilib, xotinining farz hajini ado etishiga halal berolmaydi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hatto jihodga ketmoqchi bo‘lgan kishiga ham ruxsat bermay, xotinini hajga olib borishni buyurganlar.

Yettinchi foyda: Ayol boshqa ayolga mahram bo‘la olmaydi. Ya’ni ikki ayol bir-biriga mahram hisoblanmaydi. Demak, ayollar birgalikda safar qilmoqchi bo‘lsalar ham, har biri uchun alohida mahram zarur bo‘ladi.

Sakkizinchi foyda: Agar ayolga mahram topilmasa, haj unga farz bo‘lmaydi. U holda ayol shariatga bo‘ysunib, sabr qiladi. Bizning vazifamiz — shariatga ergashish, o‘z fikrimizga emas. Alloh “qil” desa qilamiz, “qilma” desa qilmaymiz. Lekin agar ayolning qalbida haj niyati bo‘lsa, ammo imkon bo‘lmasa, niyatining samimiyligi sababli unga haj qilgandek ajr yoziladi.

To‘qqizinchi foyda: Begona erkak bilan hilvatda qolish — haromdir. Ayolning begona erkak bilan har qanday joyda yolg‘iz qolishi man etiladi. Bu hukm Makkada, hatto Baytulloh yaqinida ham o‘zgarmaydi.

O‘ninchi foyda: Ayolning oldiga mahramsiz erkakning kirishi joiz emas. Agar ayol yolg‘iz bo‘lsa, begona erkak uning oldiga kira olmaydi. Bu hukm o‘qish, ish, dars, bayon yoki boshqa faoliyatlarda ham amal qiladi. Shariatda ayolning yolg‘iz joyiga begona erkakni kiritish qat’iyan man qilingan.

O‘n birinchi foyda: Ayol kishi ehtiyotkor bo‘lishi lozim. U har qanday ishni qilayotganida diqqat bilan o‘ylab, shariat dalillariga zid bo‘lmaganini tekshirishi kerak. Shariatga teskari bo‘lgan ishlarni qilish aslo joiz emas.

O‘n ikkinchi foyda: Bugungi kunda hilvatning (yolg‘iz qolishning) yomon ko‘rinishlari keng tarqalgan. Ayollarning ish faoliyatida eng xavfli holatlardan biri — erkak bilan yolg‘iz qolib ketishidir. Masalan, mijozlar bo‘lmagan paytda boshliq xonasida sekretar ayolning yolg‘iz qolishi tez-tez uchraydi. Bu hol joiz emas. Shuningdek, ba’zi hamshiralarda, ayrim boshqa kasblarda ham shunday vaziyatlar kuzatiladi.

O‘n uchinchi foyda: Pulga muhtojlik harom ishlarga ruxsat bermaydi. Ayol kishi pul topish uchun Alloh taolo man qilgan ishlarga qo‘l urmasligi kerak. “Ishlashga majburman” degan bahona o‘tmaydi. Erkaklar uchun o‘g‘irlik halol bo‘lmagani kabi, ayollar uchun fohishalik ham pulga muhtojlik sababli halol bo‘lmaydi. Bu — sinovdir. Halol yo‘ldan pul izlash lozim. Alloh taolo aytadi: “Kim Allohdan qo‘rqsa (taqvo qilsa), U unga chiqish yo‘lini beradi va o‘ylamagan tomondan rizq beradi” (Taloq surasi, 2–3-oyatlar).

Inson o‘zicha hisob-kitob qiladi, lekin Alloh taolo unga kutilmagan tomondan rizq yetkazadi. Shuning uchun ayol kishi o‘z sha’niga putur yetkazadigan yoki unga xavf tug‘diradigan joylarda ishlamasligi lozim. Ko‘plab ayollarning fohishalik yo‘liga kirishiga aynan shunday nojoiz ish joylari sabab bo‘lgan.

Muallif shariy dalilni zikr qildilar, lekin istisno qilmadilar.

Ba’zilar: “Demak, ayol hech qaysi safar qilolmaydimi?” deb so‘raganida, haj safarini joiz deb aytishgan va dalil sifatida quyidagi hadisni keltirishgan:

Payg‘ambarimiz sollollohu alayhi va sallam aytdilar:
“Shunday bir zamon keladiki, ayol falon joydan falon joyga safar qiladi, Allohdan boshqa hech kimdan qo‘rqmaydi. Faqat qo‘ylarining cho‘ponidan qo‘rqadi.”

Ba’zi ulamolar bu hadisni dalil qilib, “Demak, ayol yolg‘iz safar qilsa ham bo‘ladi, agar qo‘rqmasa va hech qanday xavf bo‘lmasa”, degan fatvoni aytganlar.

Lekin savol tug‘iladi: Bu hadis haj yoki umrada amal qilinadimi? Haj va umra — ibodatdir. Har qanday ibodatning qabul bo‘lishi uchun uning shartlari to‘liq bo‘lishi shart. Shu bois, haj va umrada bu hadisga to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilinmaydi.

Hadisda bu holatning sodir bo‘lishi xabar qilingan, ammo “ayol shunday qilsin” degan buyruq yo‘q. Bu faqat xabar berishdir, xabardan esa hukm olinmaydi. Masalan, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Dajjol qiyomatdan oldin chiqadi” deganlar. Bu — Dajjol chiqsin degani emas, balki xabar berishdir.

Xuddi shunday, “ayol hech kimdan qo‘rqmay safar qiladi” deyilgani — safar qilishi kerak degani emas. Ayniqsa ibodat uchun bo‘lsa, uning shartlari to‘liq bo‘lishi kerak. Shu bois, ayol uchun mahramsiz safar qilmaslik afzal hisoblanadi.

Biroq ayrim holatlar bor: masalan, ayol allaqachon safarda bo‘lib, Madina yoki Makka shahrida turgan bo‘lsa, bunday vaziyatda hajni ado qilishi mumkin. Chunki u endi safarda qolib ketgan bo‘ladi.

Hijrat masalasi mahramsiz safar joizligiga dalil sifatida Ummu Kulsum roziyallohu anho voqeasi keltiriladi. U zot yolg‘iz holda Makkadan Madinaga hijrat qilganlar. Yo‘lda noma’lum bir kishi chiqib, yo‘l ko‘rsatib kelgan, hech qanday noma’qul ish sodir bo‘lmagan va bir og‘iz ham gapirmasdan olib kelgan. Qur’onda ham: “Mo‘minalar sizlarga hijrat qilib kelsa…” deb aytiladi, unda mahram zikr qilinmagan. Shu sababli joiz deyiladi.

Ibn Taymiyya va boshqa ulamolar esa “toat safarlari”ni ham shu hukmga qo‘shganlar. Masalan, ota-onasi o‘lim to‘shagida bo‘lsa, ularni ko‘rish uchun borish — toat safari hisoblanadi. Bu holda ham mahram bo‘lishi afzal. Lekin hozirgi kunda mahram topish qiyin bo‘lishi yoki yo‘l xarajati juda katta bo‘lishi mumkin. Shariat bunga majburlamaydi: zarurat bo‘lsa joiz, ammo zarurat bo‘lmasa, shart emas. Ilm safari ham toat safariga kiradi, biroq hozirda bu hol kam uchraydi. Chunki internet orqali uyda ham ilm olish imkoniyati mavjud.
Muhim eslatma:

“Mahramsiz safar qilmaydi” deganda faqat ibodat safarini tushunish noto‘g‘ri. Ba’zi ayollar doimiy ravishda ishga, o‘qishga yoki boshqa joylarga mahramsiz qatnab yuradilar. Shunday ayol ibodat safarida: “Mahramsiz bo‘lsa bo‘ladimi?” deb so‘rasa, unga ruxsat beriladi. Chunki u allaqachon doim mahramsiz safarda yuribdi. Boshqa vaqtlarda umuman mahramsiz safar qilmaydigan ayol bo‘lsa, u holda ibodat safarida ham mahram bilan chiqishi shart bo‘ladi.
Asosiy tamoyil:

Ayolning mahramsiz safardan qaytarilishining sababi — unga xavf (illat) bo‘lishidadir. Agar xavf kamaysa, ruxsat ham ortadi. Ba’zan bir joyda o‘tirishdan ko‘ra safarda xavf kamroq bo‘lishi ham mumkin.

Masalan, hijobiga yoki ibodatiga taqiq qo‘yilayotgan joyda yashayotgan ayol uchun, mahramsiz safar qilib diniga to‘liq amal qilish imkonini topishi afzal bo‘lishi mumkin. Umra yoki haj safarida odatda xavfsizlik ta’minlanadi, hilvat holati yuz bermaydi, yo‘ldoshlar ishonchli bo‘ladi, fasodga imkon qolmaydi. Ayniqsa, Makka va Madina — omonlik diyori.

Siyosiy sharoit o‘zgargan taqdirda ham, ayniqsa ayollarning mahramsiz yurishida xavfsizlik choralari kuchli bo‘lsa, haj va umrani mahramsiz qilishga ruxsat berilishi mumkin. Vallohu a’lam.

Xulosa: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam davrida ayollar oylar davomida mahramsiz safar qilganlar, yo‘llarda qaroqchilar bo‘lsa ham. Hozirgi kunda esa necha soatda xavfsiz tarzda manzilga yetish mumkin. Shuning uchun din masalalarida faqat bitta asosga suyanib qolmaslik kerak. Hadislar har bir zamonning holati va sharoitiga mos tushunilishi lozim.

51-hadis

Shariat qonunlari ayol ehtiyojiga munosibligi

Muallif shunday deydi: Islom o‘z qonunlarida sening barcha xususiyatlaring va ehtiyojlaringni inobatga olgan. Sen o‘sha xususiyat va ehtiyojlaringni Islomdan boshqa joydan izlama.

Islomda ayol kishi nimaga muhtoj bo‘lsa, qanday xususiyatlarga ega bo‘lsa — barchasiga rioya qilingan. Alloh hech kimga zulm qilmaydi. Shuning uchun Islomda ayolning barcha ehtiyojlari qondirilgan deb e’tiqod qilishi lozim. “Menga bu yerda haqqim berilmayapti” deb aytilmaydi va Islomdan tashqaridan izlanmaydi. Bunday izlanish insonni faqat va faqat zoye qiladi.

Dushmanlar “tenglik” da’vosi bilan musulmon ayollarni yo‘ldan urishga harakat qiladilar. Holbuki, tabiatda ham to‘liq tenglik yo‘q. Buni tushunish kerak. Masalan, o‘tirgan stulimizga qarasak, uning qismlari nimaga tayangan? Bolt va gayka bilan. Bolt buraladi, gayka esa uni ichiga kiradi. Agar ikkalasi ham faqat bolt bo‘lsa, stul yasash mumkin bo‘ladimi? Albatta, yo‘q.

Xuddi shunday, Islom ham barcha insonlarning xususiyatlarini inobatga olib qonunlar chiqargan. “Teng bo‘laman” deb Islomdan boshqa joydan izlanish — nafaqat foydasiz, balki zararli hamdir.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: «كُنَّا نَخْرُجُ مَعَ النَّبِيِّ ﷺ إِلَى مَكَّةَ فَنُضَمِّدُ جِبَاهَنَا بِالسُّكِّ الْمُطَيَّبِ عِنْدَ الْإِحْرَامِ، فَإِذَا عَرِقَتْ إِحْدَانَا سَالَ عَلَى وَجْهِهَا، فَيَرَاهُ النَّبِيُّ ﷺ فَلَا يَنْهَاهَا»

Oisha roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Biz Nabiy sollollohu alayhi va sallam bilan Makkaga chiqardik. Peshonamizga xushbo‘ylangan xushbo‘y surardik (ehrom paytida). Agar birimiz terlab ketsa, xushbo‘y uning yuzidan oqib tushar edi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam buni ko‘rar edilar va ayollarni bundan qaytarmas edilar.”

Oisha roziyallohu anho: “Makkaga chiqardik” deganlaridan maqsad — haj yoki umraga chiqishlari. Chunki boshqa sabab bilan chiqmaganlar. Ma’lumki, haj yoki umra uchun chiqilganda ehrom o‘raladi. Ehromga kirilgach, xushbo‘y surtish mumkin emas. Ammo ehromga kirishdan avval xushbo‘y surtib olish zarar qilmaydi.

Madinadan Makkaga yo‘lda “Miqot” deb ataladigan joy bo‘ladi. Ana o‘sha yerda ehromga niyat qilinadi. Agar ayollar uydan chiqishdan oldin xushbo‘ylanib olgan bo‘lsalar, bu joiz bo‘ladi. Hatto ehromga kirgach, xushbo‘y asorati tanada qolib tursa ham zarar qilmaydi. Oisha roziyallohu anho shuni aytmoqdalar: “Peshonamizga xushbo‘y surtardik. Birimiz terlasa, xushbo‘y uning yuzidan oqib tushardi”.

Demak, ehromda erining yonida yurganda terlab noxushlik tug‘dirmasligi uchun, ayollarga oldindan xushbo‘ylanib olishga ruxsat berilgan. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ularni bu holatda ko‘rib ham qaytarmaganlar. Hatto ehromga kirgandan keyin ham yuzidan atir oqib tushayotgan bo‘lsa, bunga to‘sqinlik qilmaganlar.

Bu shuni ko‘rsatadiki, Islom ayollarning xususiyatlarini va ehtiyojlarini inobatga olgan. Hatto ehromda odatda joiz bo‘lmagan narsalarda ham, ayollar ehtiyoji bois, oldindan ruxsat berilgan. Aslida bu faqat bir misol. Islomda ayollar ehtiyojlarini rioya qilgan ko‘plab o‘rinlar mavjud.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ehromda ayollar erkaklar kabi xushbo‘ylanishlari joizdir, ammo bu faqat ehromdan avval bo‘ladi. Bir narsani ta’kidlab o‘tish kerakki, xushbo‘y erkak ham, ayol ham badanga suriladi, kiyimga emas.

Ikkinchi foyda: Ehromdan keyin xushbo‘y asari qolib ketishi joiz. Agar terlash sababidan oqib tushsa ham, ayolga bu borada hech qanday gunoh yo‘q.

Uchinchi foyda: Hadisda zikr etilgan xushbo‘y oddiy, rangi bor, lekin hidi kuchli bo‘lmagan xushbo‘y edi. U erkaklarni o‘ziga jalb qiladigan darajada hid taratmaydi. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarni atir sepib ko‘chaga chiqishdan qaytarganlar va bunday qilgan ayolni “zoniya” deb ataganlar. Shuning uchun yuqoridagi hadisni noto‘g‘ri tushunib: “Oisha onamiz ham atir sepib ko‘chaga chiqgan ekanlar” degan xulosaga shoshilmaslik lozim. Hadisda aytilgan xushbo‘y — rangi bor, hidi faqat yaqinlashganda seziladigan, badandagi noxush hidni to‘sadigan xushbo‘y bo‘lgan. Bugungi kundagi ayrim makiyaj mahsulotlariga o‘xshaydi.

To‘rtinchi foyda: Hadisda zikr etilgan yuzga suriladigan xushbo‘ylarning sharti shuki — ular erkaklarning ko‘ziga tashlanib, fitnaga sabab bo‘lmasligi kerak. Chunki yuzga suriladigan xushbo‘y yoki makiyaj — ayolning ziynatidir. Shariat esa ayollarga ziynatlarini begona erkaklardan berkitishni buyurgan.

52-hadis

Erkak ayol tengligi da'vosiga aldanma

Muallif shunday deydi: Erkak-ayol o‘rtasidagi “tenglik” da’vosiga aldanib qolma. Chunki bu da’vo — zalolat ahlidan zohir bo‘layotgan da’vodir.

Bugungi kunda deyarli barcha davlatlarda “teng huquqlilik, ayollar huquqi erkaklar bilan tengligi” kabi da’volar ko‘tariladi. To‘g‘ri, Islomda ham ko‘plab masalalarda erkak va ayolning huquqlari tengdir. Lekin bu davlatlarning da’volarida aynan Islomga zid bo‘lgan joylarda tenglik nazarda tutiladi. Hatto ba’zan ayollarga ko‘proq vazifa yuklashga undashadi.

Islomda esa erkakning o‘z o‘rni bor, ayolning o‘z o‘rni bor. Shariat ularga mos va adolatli vazifalar yuklagan. Shuning uchun zalolat ahlining bu kabi chaqiriqlariga, “tenglik” degan shiorlariga ayollar aldanmasliklari lozim.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «لَيْسَ عَلَى النِّسَاءِ حَلْقٌ، إِنَّمَا عَلَى النِّسَاءِ التَّقْصِيرُ»

Rosululloh sollollohu alayhi va sallam aytadilar: “Ayollarga soch qirish yo‘q. Ularga faqat sochni kaltalatish bor.”

Bu kitob tahorat, namoz, ro‘za, zakot, haj va shunga o‘xshash ibodatlarni fiqhiy tartibda bayon qilib bormoqda. Hozirgi o‘rganayotgan mavzuimiz ham aynan haj bobiga tegishli qism hisoblanadi.

Ayollar ham, erkaklar ham ehromdan chiqishda bir amal qiladilar. Erkaklar uchun bu — sochni qirish, va afzali ham shudir. Ayollar uchun esa sochni qirish yo‘q, ularga faqat bir bo‘g‘im miqdorida sochni kaltalatish kifoya.

Bu hadis keltirilishidan maqsad — mavzuga dalil olishdir. Demak, erkak va ayol teng emas ekan, hatto oddiy soch kesish masalasida ham ular orasida farq bor. Haj yoki umrada ehromdan chiqayotganda erkak sochini qirishi lozim bo‘lsa, ayol esa bir bo‘g‘im miqdorida sochidan kesadi.

Aslida xilqatning o‘zida ham erkak va ayol teng emas. Mana, ayollar tabiatan sochlarini o‘stirib yuradilar. Hatto kofira ayollar ham shunday. Agar ular to‘la teng bo‘lishsa, nega sochlarini ham bir xil qilib yurmaydilar? Shu birgina savolning o‘ziyoq “tenglik” da’vosining xato ekanligini ko‘rsatadi.

Ayollarning sochini qirib tashlashi — erkaklarning soqolini qirib tashlashiga tengdir. Shuning uchun erkak soqolini qirmaydi, ayol esa sochini qirmaydi. Soch va soqol erkak va ayolga xos berilgan jamol belgilaridir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayollarga nisbat berilganda sochdan olish hukmi faqat qisqartirish bilan cheklanadi. Ya’ni ehromdan chiqishda ayollarga sochini qirish joiz emas, faqat qisqartirishga ruxsat berilgan. Ayol kishi sochini qirishga umuman haqli emas. Bu masalada ulamolar ijmo qilganlar.

Ayollarning ehromdan chiqishdagi yana bir xatolari shundaki, ular bir joyga to‘planib, albatta o‘sha yerning o‘zida sochlarini olishadi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi zarurat bo‘lmaganda sochini qirishi haromdir. Hadisda ehromdan chiqish paytida ayollarga sochni qirish emas, balki faqat qisqartirish buyurilgan. Agar zaruratsiz soch qirish muboh bo‘lganida, u holda ehromda ham ruxsat berilardi. Demak, ehromda qirish man qilingan bo‘lsa, boshqa paytlarda ham zaruratsiz qirish joiz emas.

Ayol kishi zaruratsiz sochini qirishi haromdir. Zarurat holatlariga misol: kasallik tufayli shifokor tavsiyasi bilan sochni olish yoki kuchli soch to‘kilishi kabi majburiy vaziyatlar.

Bugungi kunda ba’zi odamlar erkaklarning soqolini qirishga targ‘ib qiladilar. Agar shunday bo‘lsa, u holda ayollarga ham “sochingni qir” deyishlari kerak bo‘ladi. Chunki hukm jihatidan ikkalasi bir xil. Erkakka “soqoling jirkanch” deyayotgan kishi, ayolga ham “soching jirkanch” deb aytishi lozim bo‘ladi. Holbuki, hech kim bunday demaydi. Demak, erkakning soqoliga ham tegmaslik kerak.

Ayol kishi sochini qirib yurishi qanchalik xunuk bo‘lsa, erkakning soqolini qirib yurishi ham shunchalik xunukdir. Chunki bu ikkisida ham tabiiy xilqat, o‘ziga xos jamol belgilari mavjud.

Uchinchi foyda: Ayol kishi bir necha masalalarda erkaklardan farq qiladi.

Ehromdan chiqishda erkakning sochini qirishi, ayolning esa faqat bir qismini olishi hikmatli bir amaldir. Hajdagi barcha amallar aslida Ibrohim alayhissalom sunnatlaridan qolgan. Masalan, Ibrohim alayhissalom o‘g‘illari Ismoil alayhissalomni so‘yishlari kerak bo‘lgan paytda Alloh taolo uning o‘rniga qo‘yni tushirdi. U zot qo‘yni so‘ydilar va shu bilan farzandlari ozod qilindi.

Ibrohim alayhissalom Alloh uchun o‘g‘lining boshini berishga tayyor edilar. Bizdan esa Alloh na o‘zimizning, na farzandimizning boshini talab qildi. Faqatgina o‘sha buyuk ixtiyorga ozgina o‘xshashlik sifatida boshimizdagi tukni berishni talab qildi. Shu orqali biz Ibrohim alayhissalomga ergashishimiz ramziy bo‘ladi.

Erkak kishi to‘liq sochini qiradi, chunki sochsiz ham erkakligi ayon bo‘lib turadi. Ayol esa sochga muhtoj, jamoli va husni shunda bo‘lgani uchun undan faqat bir qismini olish talab qilindi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, ibodatni umuman bajara olmay qoldirishdan ko‘ra, hech bo‘lmasa uning oz bo‘lsa ham ado etilishi lozim.

Ayol kishi sochini mutlaq qirib tashlashi imkonsiz. Shu bois, ibodatdan butunlay quruq qolmasin deb, undan bir qismini olish buyurildi.

Shu sababdan fiqhda mashhur qoida mavjud: “Bir amalni to‘liq ado qilishning iloji bo‘lmasa, hech bo‘lmasa uning bir qismi ado qilinadi, butunlay tark qilinmaydi.” Ya’ni, “hammasini qila olmayapmanku” deb oz miqdorini ham tark etish joiz emas. Ozgina bo‘lsa ham ado qilinishi lozim. Ayolning sochidan ozgina qismini olishi ham shu qoidaga dalildir.
Boshqa fiqhiy hukmlarda ham shu qoida amal qiladi.

To‘rtinchi foyda: Shariati Islomiyya ayol kishining rioyasini qilgan. Ayolning sochi — uning ziynati bo‘lgani uchun shariat uni asrab, rioya qilib qo‘ygan. Shu sababdan ayolga sochni qirishni harom qildi va faqat bir bo‘g‘im miqdorida qisqartirishni kifoya qildi.

Mana shu joyda bir masalaga e’tibor qaratish kerak: Islom ayolni “erkakka teng emas” deb unga qiyinchilik yukladimi yoki yengillik olib keldimi? Erkakka “sochingni butunlay olasan” deyapti, ayolga esa “faqat bir bo‘g‘im olasan” deyapti. Bu albatta ayolga yengillik bo‘lib kelmoqda.

Demak, tushunish kerakki, Islom “erkak va ayol teng emas” deganida aslida ayolning haqqini yemagan, balki unga rahm qilib yengillik bergan. Masalan, 50 kg yukni erkak va ayolga teng qilib 25 kg dan taqsimlash tashqi ko‘rinishda tenglikdir. Lekin aslida bu ikkovini ham qiynashdir. Shariat esa ularga “erkak va ayol teng emas” deb, ayolning kuchi yetmagan joyda yengillatadi. Munofiqlar esa bu so‘zni noto‘g‘ri talqin qilib, “shariat ayolning haqqini yemoqda” deb targ‘ib qiladilar. Holbuki, aslida shariat ayolga tenglik bermay, unga rahm qiladi.

Sochni Alloh insonlarga o‘zi ato qilgan. Alloh xohlasa uni butunlay talab qilishga ham haqqi bor edi. Ammo bunday talab qilmadi. Endi qanday qilib shariatda ayolning haqqi poymol qilindi deyiladi? Hatto shariat oddiy tukni ham to‘liq talab qilmadi. Boshqa masalalarda esa bundan ham ulkan rioya va yengilliklar berilgan.

Beshinchi foyda: Ayol kishining hatto sochi haqida ham shariatda batafsil ahkomlar bor ekan. Demak, ayollar uchun shariat ahkomlarini bilib olish va tanib olish lozim bo‘ladi. Shariatda hech bir narsa chetda qolmagan: kerak bo‘lsa ayolning sochini qachon va qancha olishligi ham hukm qilib berilgan.

Hozir esa ba’zi odamlar katta masalalarda “shariatning daxli yo‘q” deydilar. Holbuki, oddiy sochni qachon, qanday va qancha qisqartirishni belgilagan shariat, albatta bundan ham kattaroq masalalarni batariqa a’lo bayon qilib qo‘ygan.

53-hadis

Islom ahkomlari hamma holatni qamraydi

Muallif shunday deydi: Islom ahkomlarining umumiyligi — bir ishda sening holating o‘zgarganligini ham rioya qilishida ko‘rinadi.

Islom ahkomlari umumiydir, ya’ni u butun hayot sohalarini qamrab olgan. Avvalgi mavzuda gaplashganimizdek, hatto sochni qachon va qanday kesish kerakligigacha hukmlar belgilangan. Ana shu — Islom ahkomlarining umumiyligi deganidir.

Buning dalili ayol kishining holatini rioya qilinishidadir. Shariat ayolning hayz yoki tozalik holatiga qarab hukmlarini o‘zgartiradi. Bu esa o‘tgan ummatlarda mavjud bo‘lmagan yengillikdir. Masalan, yahudiylarda ayol hayz ko‘rsa, uni odam o‘rnida ko‘rishmas edi: ularni uydan chiqarib qo‘yishar, birga yotishmas, hatto birga ovqat ham yemaganlar.

Islomda esa hayz holatiga ham rioya qilingan: ayol kishi uyidan chiqarilmaydi, uning qadr-qimmati saqlanadi. Bu ham Islom ahkomlarining umumiyligi va mukammalligiga bir dalildir.
Bunga yaqqol misol sifatida haj masalasidagi hukmlardan dalil olinadi. Zero, biz hozir haj bobiga oid masalalarni o‘rganish jarayonida edik.

عَنْ أَسْمَاءَ بِنْتِ عُمَيْسٍ رضي الله عنها: أَنَّهَا وَلَدَتْ مُحَمَّدَ بْنَ أَبِي بَكْرٍ الصِّدِّيقِ بِبَيْدَاءَ، فَذَكَرَ ذَلِكَ أَبُو بَكْرٍ لِرَسُولِ اللَّهِ ﷺ، فَقَالَ: «مُرْهَا فَلْتَغْتَسِلْ ثُمَّ لِتُهِلَّ»

Asmo bintu Umays roziyallohu anho — Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning ayollari. U zot Baydo degan joyda Muhammad ibn Abu Bakrni dunyoga keltirdilar.

Abu Bakr roziyallohu anhu bu xabarni Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga yetkazdilar. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Unga ayting, g‘usl qilsin-da, so‘ngra talbiya aytaveradi.”

Asmo bintu Umays roziyallohu anho — bu zot Oisha roziyallohu anhonining opalari Asmo bintu Abu Bakr emaslar. Shuningdek, Oisha onamizning onalari ham emaslar. Oisha onamizning onalari — Ummu Rumon roziyallohu anho. Bu zot esa Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning boshqa ayollari bo‘lgan Asmo bintu Umaysdir. Asmo bintu Umays Baydo degan joyda — ya’ni Makkadan Madinaga ketaverishdagi sahro hududida — Muhammad ibn Abu Bakrni dunyoga keltirdilar. Baydo — Qiyomatdan oldin Mahdiyga bay’at berilganda, askarlarni yer yutadigan joy sifatida ham zikr qilingan. Hullas, keng sahro makon edi. Abu Bakr roziyallohu anhu va ayollari hajga ketayotgan bo‘lganlar. Shu safarda Asmo bintu Umays tug‘ib, nifos ko‘rib qolganlar.

Abu Bakr roziyallohu anhu bu holni Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga zikr qildilar. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Xotiningga buyur, g‘usl qilsin-da, so‘ngra talbiya aytaversin.” To‘g‘ri, g‘usl qilish bilan nifos holatidan darrov tozalanib qolmaydi. Lekin baribir yengillik beradi. Har qanday ayol tug‘gach, cho‘miladi — bu namoz o‘qish yoki boshqa bir ibodat uchun emas, balki tug‘ruqdan keyingi poklanish maqsadida. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam Asmo bintu Umaysga shunday g‘usl qilib, talbiya aytishni buyurdilar.
Demak, nifos holatida ham ayol ehrom bog‘lashi mumkin ekan. Xuddi shuningdek, hayz holatida ham. Faqatgina hayz yoki nifos tugaguncha tavof qilmay turadi, boshqa ibodatlarni davom ettiraveradi. Bu hadis yuqoridagi mavzuga dalildir: Islom ayol kishining holatini rioya qilmoqda. Masalan, hajga ketayotgan bo‘lsa ham, “nifos sabab qaytib ketsin” demayapti, balki “boraversin” deyapti.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Nifos ko‘rgan ayolning haji sahih bo‘ladi. Umrasi ham shunday sahih hisoblanadi. Faqat umraning ma’lum vaqti yo‘q. Shu bois tug‘ish ehtimoli bo‘lsa, umra safarini kechiktirib turgan ma’qul. Chunki umra odatda 1 kunda yoki hatto 1 soatda bajarilib bitadigan amal.

Ikkinchi foyda: Nifos haj amallarini man qilmaydi, bundan faqat tavof mustasno.

Uchinchi foyda: Ehromga kirishda g‘usl qilishni nifos man qilmaydi. Hajga ham, umraga ham kirishda g‘usl qilish sunnatdir. Hattoki ayol nifos holida bo‘lsa ham. “Nima foydasi bor, baribir qon kelib turibdi-ku” deyilmaydi. Xuddi shunday hukm hayz holatiga ham taalluqlidir. Chunki bu g‘usl namoz uchun yoki junublikdan tozalanish uchun qilinmaydi, balki ehrom uchun maxsus sunnat g‘usldir.

To‘rtinchi foyda: Homilador ayol hajga borishi joizdir. Agarchi yo‘lda tug‘ib qo‘yish ehtimolini sezsa ham. Hozirgi zamonda esa bu holatda samolyotga chiqishda ayrim muammolar bo‘lishi tabiiy. Ammo qoida sifatida, agar imkon topilsa, homilador ayol ham haj qilishi mumkin.

Beshinchi foyda: Ayol kishi din ishlarida mushkulotga duch kelsa, eriga murojaat qiladi. Hadisdagi Asmo roziyallohu anho Abu Bakrdan so‘raganlari bunga dalildir. Eri esa ahli ilm bo‘lgani sababli Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘rab, javobni olib keladi.

Oltinchi foyda: Erkakning xotinini boshqarish koʻrinishlaridan biri — unga din ishlarida ta'lim berishidir.

Agar erning oʻzida ilm boʻlsa, u ayoliga oʻrgatadi. Agar ilmga ega boʻlmasa, ahli ilmdan soʻrab, javobini olib beradi. Demak, erning ayolini boshqarishi faqat hukmini oʻtkazish yoki farmon berish bilan emas, balki unga ilmda yordam berish bilan ham boʻlar ekan. Er ilmni man qilib, oʻzi ham oʻrgatmaslikka haqqi yoʻq.
Bu yerda bir narsaga tanbeh berish kerak: Asmo bintu Umays hajda tugʻib qoʻydilar. Bu oddiy haj emas, balki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bilan birga qilinayotgan haj edi. Bizning zamonda boʻlsa, shunday voqea yuz bersa, odamlar darrov faxrlanishni boshlashadi: "Bolam hajda tugʻildi, bolam ehromda tugʻildi" deb. Holbuki, insonning qayerda tugʻilishi unchalik ahamiyatli emas.

Bunga misol — shu hadisda zikr etilgan Asmo roziyallohu anhoning farzandlari Muhammad ibn Abu Bakr. U hajga ketilayotganda tugʻilgan edi. Lekin keyinchalik bu yigit Usmon roziyallohu anhuning qotillaridan boʻlganlarning safiga qoʻshilib qoldi. Misrdan namoyishchilar Usmon roziyallohu anhuni oʻldirish uchun kelganlarida, ularning orasida ham Muhammad ibn Abu Bakr boʻlgan. Hatto rivoyat qilinishicha, Usmon roziyallohu anhuning uyiga bostirib kirganlar orasida ham u bor edi. Usmon roziyallohu anhu unga qarab: "Otang bu holingni koʻrsa juda hafa boʻlardi" deganlar.

Bu voqeani aytishimizdan maqsad — kimnidir aybini kavlash emas. Balki shuni anglatishki: insonning qayerda yoki qachon tugʻilgani uni afzal qilmaydi. Inson amal bilan ustun boʻladi, tugʻilgan joyi yoki vaqti bilan emas.

54-hadis

Zohir jamolingni qancha tuzatsang ham faqat botin jamoling foyda beradi

Muallif aytadilar: Har qancha tashqi chiroyingni bezasang ham, senga foyda beradigani faqat botining solihligidir. Zero, eng muhim kunlaringda — qabrga kirganingda — sen muhtoj bo‘ladigan narsa ham ana shu botiniy jamolingdir.

Ayollarning dunyodagi umrining katta qismi tashqi ko‘rinishini tuzatish va bezash bilan o‘tadi. Odatda 15–20 yili shu tashvish bilan ketadi. Ayniqsa bugungi kunda yasama qosh, yasama kiprik, yasama lab, yasama soch, yasama qomat — hammasi yasama. Bunga ham qanoat qilmay, telefonda montaj qilingan bezanishlar bilan ovora bo‘ladilar. Ammo qancha tashqi jamolini isloh qilsa ham, Alloh huzurida bundan foyda yo‘q. Inson uchun haqiqiy jamol — qalbning tozaligi, botinning go‘zalligi va axloqning solihligidir.

“Muhtoj kunlari” deganda — inson qabrga kiradigan onlari nazarda tutiladi. O‘liklarni ko‘ring: dunyoning eng go‘zal malikasi bilan eng xunuk ayoli orasida farq qolmaydi. O‘lganidan bir yil o‘tib, ikkisini ham ajratib bo‘lmaydi: faqat suyaklar qoladi. Hatto erkak bilan ayolni ham ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun qabrda eng zarur narsa — qalbning go‘zalligi, ya’ni botiniy jamol ekan.

Agar odamlar oynaga qaraganchalik qalbini isloh qilishga vaqt ajratsa, ko‘p illatlar tuzalgan bo‘lardi. Yoki bugungi kunda telefonga qaraganchalik qalbini tozalashga intilsa, jamiyatning ko‘p dardlari ham tuzalib ketgan bo‘lardi.

عَنْ أُمِّ عَطِيَّةَ رضي الله عنها قَالَتْ: تُوُفِّيَتْ إِحْدَى بَنَاتِ النَّبِيِّ ﷺ فَأَتَانَا النَّبِيُّ ﷺ فَقَالَ: «اغْسِلْنَهَا بِالسِّدْرِ وِتْرًا ثَلَاثًا أَوْ خَمْسًا أَوْ أَكْثَرَ مِنْ ذَلِكِ إِنْ رَأَيْتُنَّ ذَلِكَ، وَاجْعَلْنَ فِي الْآخِرَةِ كَافُورًا أَوْ شَيْئًا مِنْ كَافُورٍ، فَإِذَا فَرَغْتُنَّ فَآذِنَّنِي». فَلَمَّا فَرَغْنَا آذَنَّاهُ فَأَلْقَى إِلَيْنَا حِقْوَهُ، فَقُلْنَا شَعَرَهَا ثَلَاثَةَ قُرُونٍ، وَأَلْقَيْنَاهَا خَلْفَهَا.

Ummu A’tiya roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Nabiy sollollohu alayhi va sallamning qizlaridan biri vafot etdi. Shunda Rosulullоh bizning oldimizga kelib dedilar: “Uni sidr bilan toq adadlik qilib yuvinglar: uch yoki besh marta, yoki undan ham ko‘p marta, agar zarurat deb bilsangiz. Oxirgisida esa kafur yoki kafurdan biror narsa solib yuvinglar. Agar yuvishni tugatsangizlar, keyin menga xabar beringlar.” Biz forig‘ bo‘lgach, Rosulullohga xabar berdik. Shunda Rosulullоh bizga o‘zlarining belbog‘larini tashladilar. Biz o‘sha belbog‘ni ishlatib, u zotning qizlarining sochlarini uch o‘rim qilib o‘rib, orqa tarafga tashladik.”

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning hayotlik chog‘larida Fotima roziyallohu anhodan boshqa barcha farzandlari vafot etib ketgan. Bir qizlari vafot etganida Nabiy sollollohu alayhi va sallam Ummu A’tiya roziyallohu anho oldilariga kelib, qanday yuvish kerakligini o‘rgatdilar.

Ummu A’tiya roziyallohu anho ayollarni yuvadigan ayol bo‘lgan. Aslida er xotinini yuvsa joiz. Lekin voyaga yetgan qizni otasining yuvishi joiz emas. Shu sababdan Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam qizlarini ayollar yuvishlarini buyurdilar.

Shuningdek, u zot qizlarini sidr bilan yuvishga amr qildilar. Sidr — qadimda arablar orasida sovun o‘rnida ishlatilgan tozalovchi o‘simlik.

Hozirgi zamonda sovun sidrning o‘rnini bosadi. Sidr aslida o‘simlik bo‘lib, qadimda sovun kabi ko‘pirib tozalash uchun ishlatilgan. O‘lik Alloh huzuriga pok holda jo‘natilishi uchun shunday yuviladi.

Yuvishda ham vitr — ya’ni toq raqamga amal qilish buyurilgan. Tahoratda bo‘lgani kabi 3, 5 yoki undan ham ko‘p martadan yuviladi. Har bir a’zo toq martadan yuvilishi kerak. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning “agar o‘ylasanglar” deganlari shunga ishora qiladiki, yuvish jarayonida qorin qismi ezilib, ichida qolib ketgan najosatlar chiqib ketishi mumkin. Shu sabab ularni chiqarib yuborish, keyin esa yana tahorat qildirib yuvish lozim. Agar najosat to‘xtamasdan chiqaversa, toza bo‘lguncha qayta-qayta yuvishga buyurilgan.

So‘ng Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Oxirgisida kafur qo‘shinglar” dedilar. Ya’ni jasad tozaligiga ishonch hosil qilingandan keyin suvga kafur qo‘shiladi. Kafur — xushbo‘ylik bo‘lib, suvga misk yoki boshqa atir aralashtirib yuvish ham mumkin.

Keyin: “Agar bo‘shasangizlar, menga bildiringlar” dedilar. Ya’ni yuvib bo‘lgandan so‘ng, kafanlab qo‘yishdan avval Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga xabar berish kerak edi. Chunki u zot qizlarini kafanlash uchun o‘zlarining izorlarini berishni istaganlar. Bu — qizlariga baraka, yengillik va fazl bo‘lishi uchun qilingan amal edi. Izor qizlarining badaniga bevosita tegadigan joyiga, ya’ni kafanliklarning ustidan emas, balki eng birinchi qatiga o‘ralgan.

Shundan so‘ng ayollar Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning qizlarining sochini uch o‘rim qilib o‘rib, orqa tomonga tashladilar. Chunki o‘likning sochi tarqab, tartibsiz yotib qolmasligi uchun uni o‘rib qo‘yish sunnatdir. Bu esa faqat ayollarga xos amaldir.

Sochlarini o‘rib orqasiga tashlashgan. Bu hadisdan ayni mavzuga tegishli jihati shuki: inson vafot etganida hamma bir xil kafanlanadi. Hech kim qoshi-ko‘zi bo‘yalgan, bo‘yanib-bezangan holda kafanlanmaydi. Xunuk ayol ham, chiroyli ayol ham bir xil kafanga o‘raladi. Demak, asl muhim narsa tashqi chiroy emas, Alloh huzuriga borganda qalbning pokligi va solihligidir.

Hijob kiymay yurgan ayollar ham oxiratda majburiy ravishda hijoblanadi, ya’ni kafan bilan o‘raladi. Lekin bu majburiy hijobning foydasi yo‘q. Tirikligida hijobga kirishi kerak edi. Shuning uchun ba’zi hijobsiz ayollar tushida o‘zini kafanlangan holda ko‘radi. Bu tush — “ixtiyoriy hijobga kiring, majburiy hijob kelishidan oldin hijobga rioya qiling” degan ogohlantirishdir. Chunki majburiy hijob — bu kafan. Undan oldin ixtiyoriy hijobni tanlab amal qilish kerak.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: O‘likni kafanlash va dafn qilishdan oldin yuvish vojibdir.

Ikkinchi foyda: O‘likni o‘ng tomonidan boshlash va tahorat a’zolaridan yuvishni boshlash mustahabdir. Ya’ni avval o‘ng qo‘l, so‘ngra boshqa a’zolar tahorat qilgandek yuviladi.

Uchinchi foyda: O‘likni sidr (bugungi zamonda sovun) bilan yuvish kerak ekan. Kafanlashdan oldin uni poklash shartdir.

To‘rtinchi foyda: O‘likni yuvishda vitr — ya’ni toq sonni ado qilish mustahabdir. Uch yoki besh marta yuvishlik ma’qul. Bu faqat o‘likning tahorati uchundir. Ammo tirik insonning tahoratida uch martadan ortiq qilish joiz emas. Chunki o‘lik inson o‘zini o‘zi ushlay olmaydi, uning ichidan najosatlar chiqib qolishi mumkin. Shu sababli tozaligiga ishonch hosil qilinmaguncha qayta-qayta, toq martalarda yuvilaveradi.

Beshinchi foyda: O‘likni oxirgi yuvishda kafur (xushbo‘ylik) bilan yuvish mustahabdir. Bu — marhumning badanini xushbo‘y qilib, oxiratga pok va hurmatli holda jo‘natish uchundir.

Oltinchi foyda: Ayolni yuvib bo‘lgandan keyin sochini uch o‘rim qilib o‘rib qo‘yish mustahabdir. Soch o‘ralgach, old tomoniga emas, balki orqa tomonga tashlab qo‘yiladi. Bu — sunnat amaldir.

Yettinchi foyda: Ta’lim berish yo‘llaridan biri — muallim boshchiligida amaliy tadbiq qilishdir. Demak, ta’lim faqat nazariya bilan cheklanib qolmay, amaliyot orqali ham berilishi lozim ekan. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam o‘likni qanday yuvishni amaliy tarzda o‘rgatdilar. Bu ta’limni u zot o‘likning ustida turib emas, balki eshik ortidan aytib turganlar. Chunki marhuma o‘z qizlari edi. Aslida Rosulullohning hayotidagi barcha voqealarda hikmat bor. Hatto qizlarining vafotida ham ummat uchun saboq va ta’lim yashiringan. Masalan, boshqa begona ayolning kafanlanishida u zot bevosita ishtirok etib o‘rgatmagan bo‘lardilar. Shuning uchun Alloh taolo qizlarining vafoti orqali bu amallarni ummatga o‘rgatish imkonini yaratdi.

55-hadis

Allohning hududlarida to‘xtash iymondan

Muallif aytadilar: Iymoning oliyligi va Allohning chegaralarida to‘xtay olishing — sening xursandliging yoki xafaliging bilan ta’sirlanmaydi.

Masalan, bir ayolning iymoni oliy bo‘lsa, u Allohning hududlarida to‘xtashni biladi. Uning iymoni xursandlikda ham, xafalikda ham mustahkam bo‘ladi. Agar bir ayol xursandchilik sabab iymonini va Allohning hududlarini unutib qo‘ysa, bu — iymonining zaifligidan dalolatdir. Masalan, to‘ylarda “ha, endi to‘y-da, xursandchilik-da” deb o‘ynab, qo‘shiq eshitib, raqsga tushib yurishi shunday zaiflikdandir.
Xuddi shuningdek, motamlarda ham odam o‘z xafaligidan ta’sirlanib Allohning chegaralaridan chiqib ketsa, bu ham iymonning zaifligiga dalildir. Masalan, yig‘lab dod solish, isyon qilish, “ey, hozir xafa bo‘lyapman-ku” deb nojoiz amallarni qilish — bular ham iymonning pastligini ko‘rsatadi.

Iymonning haqiqati xursandlik va xafalik paytida namoyon bo‘ladi. Alloh taolo “qilma” degan ishni, inson qanchalik xursand yoki xafa bo‘lmasin, qilavermasligi kerak. Ana shunda iymonning oliyligi zohir bo‘ladi.

عَنْ أُمِّ عَطِيَّةَ رضي الله عنها قَالَتْ: قَالَ لِي النَّبِيُّ ﷺ: «لَا يَحِلُّ لِامْرَأَةٍ تُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ أَنْ تُحِدَّ فَوْقَ ثَلَاثٍ إِلَّا عَلَى زَوْجٍ، فَإِنَّهَا لَا تَكْتَحِلُ وَلَا تَلْبَسُ ثَوْبًا مَصْبُوغًا إِلَّا ثَوْبَ عَصْبٍ»

Ummu A’tiya roziyallohu anho rivoyat qiladilar: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam menga dedilar: “Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan ayol uchun 3 kundan ortiq aza tutishi halol emas. Faqat eriga aza tutishi bundan mustasno. Albatta ayol bu davrda surma qo‘ymaydi, bo‘yalgan kiyim ham kiymaydi. Faqat asb kiyim bo’lsa mumkin.

Hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayol kishiga iymonni shart qilib qo‘ymoqdalar: “Allohga va Rosuliga iymon keltirgan ayol uchun halol emas, biror kishi vafot etsa, uch kundan ortiq aza tutishi. Faqat eriga aza tutishi bundan mustasno.”

Ya’ni agar otasi vafot etsa, onasi, farzandi, aka-uka yoki opa-singlisi vafot etsa, shariat ayolga uch kungacha aza tutishga ruxsat beradi. Bu — alamini, dardini chiqarib olish, sabrni topib olish uchun berilgan imkoniyatdir.

Aza tutish nimani anglatadi?
Aza — bu biz odat qilib olgan oq ro‘mol o‘rab yurish yoki qora kiyim kiyish emas. Shuningdek, 40 kunlab o‘zini chetga olib, odamlar orasida motam kiyimida yurish ham emas. Aza — bu uch kun davomida bo‘yanmaslik, yasanmaslik, to‘y-tomoshalarga bormaslik, ko‘ngil ochar joylardan, sayrlardan tiyilish demakdir.

Albatta, bu ham noshariy ishlar — dod solib yig‘lash, yuzni tirnash, baland ovozda nola qilish kabi amallarsiz bo‘lishi kerak.

Agar ayol uch kundan ortiq aza tutsa, bu mo‘minaning ishi emas. “Axir hafa bo‘lsachi?” degan bahona o‘tmaydi. Uch kundan ortig‘i — haddan oshishdir va shariatda qaytarilgan. Shariatning bu chegarasi “o‘lgan odamni esdan chiqarish” degani emas. Balki, bu — sabrni topish, hayotni davom ettirish, Allohning taqdirini qabul qilish demakdir.

Hadisda: “illoki eriga” — deb aytilgan.

Ya’ni, bir ayolning eri vafot etsa, unga uch kundan ortiq aza tutish vojib bo‘ladi. Bu muddat esa iddat hisoblanib, 4 oy-u 10 kun davom etadi. Bu hukmning o‘zi shuni ko‘rsatadiki, ayol erga tegib, nikoh rishtasi bilan bog‘langandan keyin erining hurmati ota-onasidan ham, bola-chaqasi yoki aka-opa-ukalaridan ham ulug‘roqdir. Chunki ota-onasi, farzandi yoki qarindoshi vafot etsa, ayol faqat uch kungacha aza tutishi mumkin. Ammo eri vafot etsa, to‘rt oy-u o‘n kun aza tutadi.

Er o‘lgandan keyingi azaning sifatlari ham bor: Shu muddat davomida ayol surma surmaydi, bezangan rang-barang kiyim kiymaydi, odatda joiz bo‘lmagan ko‘chadagi bezanishlardan tashqari, hatto mahramlari oldida ham bunday bezanishlardan tiyiladi.

Bu hukm hadisning asosiy ma’nosiga dalildir: ayolning iymoni oliy bo‘lsa, Alloh “to‘xta” degan joyda to‘xtashni biladi. Xursandchilikda ham, g‘amda ham iymonidan chekinmaydi.

Shuning uchun ham Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam vafotidan keyingi davrda u zotning ayollari ota-onalari vafot etganida, uch kundan o‘tib ataylab ko‘zlariga surma surishgan. Aslida Rosulullоh allaqachon vafot etgan edilar. Ular ko‘zlarini surmalab erlarini xushnud qilish uchun emas, balki odamlar ko‘rsin va bilsinlar deb, hadisdagi hukmni amalda ko‘rsatishni istaganlar. Ya’ni: “Erdan boshqasiga uch kundan ortiq aza tutish mumkin emas” — degan hukmni odamlar o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, bilib qo‘ysinlar deb shunday qilganlar.

Bu bilan ular hadisni amalda ko‘rsatish orqali ummatga saboq qoldirganlar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Aza tutish — ayol kishining ziynatni tark qilishi demakdir. Ya'ni libos bilan, xushbo'ylik bilan, bo'yanish bilan bezanishni aza vaqtida tark etadi. Shuningdek, manzilidan ham chiqmaydi, faqat zarurat bo'lsa chiqishi mumkin. Masalan, bozorligini qilib beradigan odam yo'q bo'lsa va o'zi chiqmasa och qolsa, yoki kasal bo'lib doktorga borishi lozim bo'lsa chiqadi. Ammo shunchaki "uyda siqilib ketdim" deb ko'chaga chiqish joiz emas. Mana shuning o'zi aza tutishning ma'nosidir.

Ikkinchi foyda: Shariat ayol kishiga eridan boshqasiga faqat uch kun aza tutishga ijozat bergan.

Uchinchi foyda: Ayol kishi mayyitga aza vaqtini uch kundan oshirishini harom qildi. Faqat eriga bo'lsa halol qilingan. Nega harom? Chunki ortiqcha xafalik insonni kasal qiladi, uning ruhiyati buziladi, ibodatlarga va boshqa amallarga bo'lgan qiziqishi so'nadi. Shuning uchun Qur'onda ham "mahzun bo'lma" va "xafa bo'lma" degan oyatlar kelgan. Chunki siqilish va xafalik insonni dunyoda ham, oxiratda ham orqaga tortadi. Shu sababli shariat uch kungina siqilib, ichidagini chiqarib olishga ijozat bergan, undan ortig'idan esa qaytargan. "Xohlasam yig'layman, xohlasam kulaman" degan gap ketmaydi. Shariat bizning yig'imizga ham, kulgimizga ham boshqaruvchidir.

To'rtinchi foyda: Ayol kishining mana shu hukmga bo'ysunishi uning Allohga va oxiratga iymonining quvvatini ko'rsatadi. Ya'ni Alloh "qilma" desa qilmaydimi? Agar qilmasa — demak iymoni bor ekan. Bu — iymonning kuchiga dalildir.

Rivoyat qilinishicha, bir ayol o‘g‘lining qabri oldida yig‘lab, dod solib o‘tirgan edi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam uning oldiga kelib: “Allohdan qo‘rq, unday dod solib yig‘lama” — dedilar. Ammo ayol Rosulullohga qaramadi ham, balki odobsizlik qilib: “Ey bor, sen o‘zi mening musibatim bilan musibatlanganmisan?!” — dedi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam esa indamay ketdilar. Keyinroq, ayol o‘ziga kelib, odamlar unga: “Sen kimga qapirib qo‘yganingni bildingmi? Bu Rosulullоh edi” — deyishgach, u nihoyatda pushaymon bo‘lib, Rosulullohning oldilariga borib kechirim so‘radi. “Meni kechiring, o‘sha paytda juda xafa edim” — dedi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Sabr — birinchi zarbada” — dedilar. Ya’ni sabr degani — uch kun, to‘rt kun o‘tib, hissiyotlar bosilgandan keyin emas, balki musibatning dastlabki zarbasida o‘zini tuta bilishdir. Haqiqiy iymon ham ana shunda ko‘rinadi.

Beshinchi foyda: Eri vafot etgan ayol eriga idda muddaticha aza tutadi. Idda muddati esa — to‘rt oy-u o‘n kun.

56-hadis

Musibatda o‘zini tuta bilish

Muallif shunday deydilar: Musibatlar bilan go‘zal muomala qilish — johiliyat fellaridan seni uzoqlashtiradi.

Inson hayotida musibat bo‘lishi tabiiy. Ammo musibat kelgan paytda unga qanday muomala qilishini bilish muhim. Musibatga chiroyli muomala qilishni bilgan kishi johiliyat odatlaridan saqlanadi.
Johiliyat fellari — islomga zid bo‘lgan ishlardir. Masalan, musibat vaqtida jahllanib sochlarini yulish, kiyimini yirtish, ovozini ko‘tarib dod solib yig‘lash, isyon qilish — bularning barchasi johiliyat amallaridan sanaladi. Go‘zal muomala esa sabr qilish, Allohning taqdiriga rozi bo‘lish va qalbni iymon bilan mahkam tutishdir.

عَنْ عَبْدِ اللهِ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ النَّبِيُّ ﷺ: «لَيْسَ مِنَّا مَنْ لَطَمَ الْخُدُودَ، وَشَقَّ الْجُيُوبَ، وَدَعَا بِدَعْوَى الْجَاهِلِيَّةِ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytadilar:
“Yuzlarini shapatlagan, yoqalarini yirtgan, johiliyat da’volari bilan da’vo qilgan kishi bizdan emas.”

Har qanday musibat vaqtida shaytonlab, nojo‘ya harakatlar qilgan inson “bizdan emas” deyiladi. “Bizdan emas” degani — bu odam musulmon emas degani emas. To‘g‘ri, bu bizga e’tiqodiy takfir berishga ijozat bermaydi. Lekin musulmon odam unday bo‘lmaydi.
Agar kim shu ishlarni qilayotgan bo‘lsa, bu — uning iymoni qalbiga singmaganidan dalolatdir. Chin iymonli inson musibat vaqtida sabr qiladi, o‘zini tiyadi, Allohning taqdiriga rozi bo‘ladi. Musibatni isyon va johiliyat bilan qarshi olgan kishi esa — iymoni zaifligidan shunday ishni qiladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Yuzlarni shapatlash va yoqalarni yirtish johiliyat amallaridan ekan. Bunday ishlarni qilgan inson johil hisoblanadi. Bu ikki holat faqat misol sifatida keltirilgan. Aslida musibat vaqtida jasadga yoki kiyimga zarar berishning har qanday turi ham shular jumlasiga kiradi va joiz emas.

Ikkinchi foyda: Yuzlarni shapatlash va yoqalarni yirtish — musibat vaqtida besabrlikning alomatidir. Sabrli ayol hech qachon musibat vaqtida bunday ishlarni qilmaydi.

Uchinchi foyda: Hadis musibat vaqtida insonni o‘z nafsini tiyishga undaydi. To‘g‘ri fe’llar qilish, to‘g‘ri gaplar gapirish kerak. Ba’zilar yaqinini yo‘qotganida isyon qilib: “suyangan bog‘im eding, ishingan tog‘im eding” deydi. Yoki: “joning o‘rniga meniki olinsa bo‘lmasmidi?” deya Alloh taologa shikoyat qiladi. Bunday so‘zlar sabrga zid hisoblanadi.

To‘rtinchi foyda: Hadisdagi tahdid zikr qilingan uch narsaga tegishlidir: yuzni urish, kiyimni yirtish va johiliyat da’vosini qilish. Lekin bu “faqat shu uchtasini qilsa gunoh bo‘ladi” degani emas. Ulardan bittasini qilgan odam ham gunohkor bo‘ladi. Masalan, kimdir yuzini urmaydi, kiyimini ham yirtmaydi, ammo noto‘g‘ri gapiradi. Yoki gapirmasa-da, kiyimini yirtadi. Har qanday shaklda bo‘lsa ham, bu ish gunohdir.

Beshinchi foyda: Har qanday fe’l johiliyat ishlari jumlasidan bo‘lsa yoki Nabiy sollollohu alayhi va sallam uni qiluvchisidan baroat e’lon qilgan bo‘lsalar, bu ish harom bo‘ladi. Yuqoridagi hadisda “bizdan emas” deganlarini ko‘rib, “faqat taqvodorlar safida bo‘lmay qoladi xolos” deb o‘ylash mumkin. Ammo bu shunchaki emas, balki bu ishlar harom ekanini bildiradi.

Oltinchi foyda: Hadisda kelgan “bizdan emas” lafzi juda kuchli tahdiddir. Bu lafz payg‘ambarimizning (sollollohu alayhi va sallam) qanchalik yomon xulq ekanini ochiq ko‘rsatishlari uchun ishlatilgan. Chunki Rosululloh oddiy ishga bunday demaydilar. “Bizdan emas” deyishlari — bu ishni qilgan kishi musulmonlar doirasidan chetlatilganini bildiruvchi og‘ir ogohlantirishdir.

Yettinchi foyda: Yuz insonning eng sharafli joyidir. Shu bois ayol kishi uni xorlashi yoki kamsitishi joiz emas. Masalan, qoshni terish ham yuzni xorlash hisoblanib qaytarilgan. Yuz shaklini o‘zgartirish uchun turli xarajatlar qilish ham joiz emas. Bu ham insonning Alloh bergan jamolini kamsitishdir.

Sakkizinchi foyda: Yuzni urish va kiyimni yirtish amallari Allohning qazo-qadariga iymon keltirmagan ayoldan sodir bo‘ladi. Agar ayolda qazo-qadarga iymon bo‘lsa, Allohga taslim bo‘ladi. Musibat kelganida vahima qilmaydi, balki sabr qiladi.

To‘qqizinchi foyda: “Kiyim yoqasini yirtish” deganda faqatgina yoqa emas, umuman kiyimlarni yirtish nazarda tutiladi. Bu misol tarzida aytilgan. Bunday amallar ayolning o‘ziga yetgan musibatlarga nisbatan noroziligini bildiradi. Bu nafaqat isrof, balki molga zarar yetkazishdir. Ko‘pincha bu holat filmlar va kinolardan ta’sirlangan ayollarda uchraydi. Chunki kino va filmlarda musibatga tushgan odamlar shunday ishlarni qilishadi.

O’ninchi foyda: Hadisdagi qaytariq ayolni musibat vaqtida raddi fe’l haqida fikr qilishga undayapti. Raddi fe’l — bu insonning reaksiya qilishi, ya’ni musibatga qanday javob qaytarishi. Ayol kishi musibat kelganida o‘zini chetdan ko‘rib, qanday reaksiya qilayotganini tahlil qilishi kerak.

Aslida musibatdan keyin dod-voy qilish, yuzni shapillash yoki kiyimni yirtish vaziyatni o‘zgartiradimi? Albatta, yo‘q! Bu faqatgina sabrsizlik alomati bo‘lib, na musibatni yengillashtiradi, na o‘likni qaytaradi. Shuning uchun hadis insonni musibat oldida o‘z reaksiyasini to‘g‘rilashga chaqiryapti.

57-hadis

Jazo qattiqligi zarar qattiqligidan

Muallif shunday deydilar: Qaysiki uqubat, ayol kishining ba’zi gunohlariga shiddat bilan belgilangan bo‘lsa, bu bejiz emas. Albatta, bu ayolning o‘zining diniga yoki boshqalarning diniga katta xatar tug‘dirishi uchundir.

Ba’zida oddiy tuyuladigan bir gunoh bor — odam uni arzimas deb o‘ylaydi. Lekin shariatda unga nisbatan qattiq jazo qo‘yilgan. Sababi, u ayolning o‘zini ham, boshqalarni ham yo‘ldan chiqarish xavfi juda buyuk bo‘lishidadir. Demak, Alloh taolo ayolning ba’zi amallarini alohida nazorat ostiga olgan. Chunki ayolning ta’siri jamiyatga, oilaga, erkaklarga va boshqa ayollarga ham kuchli ta’sir qilishi mumkin. Shu bois shariatda ayrim gunohlariga qarshi jazo kuchli qilingan.

عَنْ أَبِي مَالِكٍ الأَشْعَرِيِّ أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ قَالَ: «الأَرْبَعُ فِي أُمَّتِي مِنَ الْجَاهِلِيَّةِ لَا يَتْرُكُونَهُنَّ: الْفَخْرُ فِي الأَحْسَابِ، وَالطَّعْنُ فِي الأَنْسَابِ، وَالاسْتِسْقَاءُ بِالنُّجُومِ، وَالنَّائِحَةُ». وَقَالَ: «النَّائِحَةُ إِذَا لَمْ تَتُبْ قَبْلَ مَوْتِهَا تُقَامُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ وَعَلَيْهَا سِرْبَالٌ مِنْ قَطِرَانٍ وَدِرْعٌ مِنْ جَرَبٍ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar:
“Ummatimda to‘rtta ish borki, ular johiliyat ishlari va ular bu ishlardan butkul voz kechishmaydi: Obro‘-e’tibor bilan faxrlanish, nasabda ta’na qilish (ajdodlarini kamsitish yoki ustun qo‘yish), yulduzlarga qarab yomg‘ir kutish, dod solib yig‘lash.” So‘ngra dedilar: “Dod soluvchi ayol agar o‘limidan oldin tavba qilmasa, qiyomat kuni tiriltiriladi va uning ustida qatrondan bo‘lgan shalvar va qichitma o‘simlikdan yasalgan ko‘ylak bo‘ladi.”

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ummatlarida to‘rt amal qolishini ogohlantirib aytdilar. Bu amallar johiliyat ishlaridan bo‘lib, islom kelishidan avval ham mavjud edi. Islom ularni man qildi, biroq odamlar baribir ularni tark etmaydi. Rosulullohning bu so‘zlari — “qilmasinlar” degani emas, balki “qancha qaytarilsa ham, odamlar qilaveradi” degani.

Birinchi amal — obro‘ bilan faxrlanish.
Masalan: “Men falonchani bolasiman”, “biz eshonlardanmiz, xo‘jalardanmiz”, “biz falon urug‘danmiz, boshqasidan qiz olmaymiz” kabi gaplar. Bu johiliyatdagi odat edi. Islom kelib esa insonning faqat taqvo bilan ulug‘ligini ta’lim qildi. Chunki Alloh taolo: “Sizlarning eng ulug‘ingiz — taqvoda eng ko‘p bo‘lganingizdir” (Hujurot, 13),
— deb oyatda bayon qildi.

Ammo johillar haligacha obro‘ bilan faxrlanib kelmoqda. Arablar orasida bir maqol mashhur: “Xachirga bir ish buyurilsa, u: ‘Axir meni dadam ot’ der ekan.”

Xachir — ot va eshakdan hosil bo‘lgan. Onasi eshak, otasi esa ot. Unga ish buyurilganda u ishlashdan qochib: “Meni dadam ot edi”, deydi. Bu — obro‘ bilan faxrlanadigan kishining holiga o‘xshaydi. O‘zi biror ishni qoyillatib qilolmaydi, lekin ota-bobosi bilan maqtanadi. Otasining ot bo‘lgan tomoni bilan faxrlanadi, onasining eshakligini esa unutadi.

Demak, asl sharaf nasab bilan emas, amal va taqvo bilandir.

Ikkinchi amal — nasablarga ta’na qilish.
Bu yuqoridagini aksi. Ba’zilar o‘z nasabi bilan faxrlansa, boshqalar odamlarning nasabiga ta’na qiladi. Masalan: “Sen valadi zinosan, nasl-nasabangni tayini yo‘q” deb kamsitadi. Bu johillarning ishi. Aslida kimdir valadi zino bo‘lib tug‘ilsa ham, bu uning aybi emas. Chunki inson o‘z nasabini tanlamaydi. Shuning uchun hech kim boshqa bir odamning nasabiga ta’na qilishga haqqi yo‘q.

Uchinchi amal — yulduzlar bilan yomg‘ir kutish.
Bu munajjimlarning bashoratlariga o‘xshashdir. Avvalgi zamonda arablar suvga muhtoj bo‘lganlaridan yulduzlarga qarab hukm chiqarishardi. Osmonda ma’lum yulduzni ko‘rishsa: “Mana, falon yulduz chiqdi, endi yomg‘ir yog‘adi” der edilar. Yomg‘irni Allohdan emas, yulduzlardan kutishardi.

Bugungi kunda ham xuddi shunga o‘xshash ishlar bor. Kimdir o‘zini zamonaviy sanab, dinga e’tibor bermaydi. “Hozir 21-asr, odamlar Marsga uchyapti, sen esa hijob, soqol deb yuribsan” deydi. Ammo o‘zi munajjimlarning bashoratini o‘qib, folbinlarning gaplariga ishonib yuradi. Bu ish esa na din, na shariat, na hatto ilmiy asosga to‘g‘ri keladi. Chunki yulduzlarning odam hayotiga mutlaqo aloqasi yo‘q.

To‘rtinchi amal — dod solib yig‘lash.
Bu oddiy yig‘lash emas, balki musibat vaqtida dod-faryod solib, nolib, o‘likni ulug‘lab noshariy gaplar aytib yig‘lashdir. Oddiy ko‘z yosh to‘kish — joiz. Chunki Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ham farzandlari vafot etganda yig‘laganlar. Lekin bu hadisdagi qaytariq — dod solib, shikoyat qilib, “meni suyangan tog‘im eding”, “joning o‘rniga meni olsang bo‘lmasmidi” kabi Allohning taqdiriga norozilik bo‘lgan gaplarni aytib yig‘lashdir.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Dod soluvchi ayol, agar o‘limidan avval tavba qilmasa, qiyomat kuni tiriltiriladi. Unga qatrondan bo‘lgan shalvar kiygiziladi va qichitma ko‘ylak kiydiriladi.”

Qatron — yonuvchi saqichga o‘xshash modda. Uning shalvari kiydirilishi — jahannamda yanada qattiqroq yondirilishi uchun. Xuddi odam ko‘mirni tezroq yonishi uchun ustiga benzin quyib yuborgani kabi. Ustiga esa qichitma ko‘ylak kiydiriladi. Qichitma ko‘ylak tabiiyki badanini qattiq qichitadi. Ammo u ayolning badanida yonayotgan alangadan teri kuyib tushadi, u o‘zini tirnab go‘shtlarini tilka-poraga qiladi. Shu bilan ikki tomonlama azobga giriftor bo‘ladi.

Nega bu kabi qattiq jazo? Chunki u hayotida musibat vaqtida o‘zini ham, boshqalarni ham fitnaga soldi. Dod solib yig‘lash — oddiy gunoh emas. Unda riyokorlik va nifoq bor. Qadimda va bugun ham yollanma ayollar pulga yig‘lab berishadi. Bu odamlarning musibatidan tirikchilik qilish — parazitlikdir. Shuning uchun Alloh taolo bunday ayollarni qattiq azob bilan jazolaydi.

Johiliyat odatlaridan bo‘lgan bu ish ayolning o‘z diniga ham, boshqalarning diniga ham katta xatar tug‘diradi. Chunki u sabrni o‘rgatmaydi, balki isyonni, taqdirga norozilikni yoyadi. Mahzunlik hamisha Qur’onda qaytarilgan, chunki u insonni dunyoda ham, oxiratda ham orqaga tortadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Johiliyat xislatlarining ba’zisi musulmonlarning ayrimlarida ham qolib ketar ekan. Bu odatlar ba’zan tarqoq holda, ba’zan esa jamlangan holda uchraydi. Odamlarga Qur’onda johillar haqida kelgan oyatlarni aytsangiz, ko‘pincha ular qabul qilmaydi. “Bu oyatlar faqat Rosulullоh zamonidagi johillar uchun tushgan”, — deyishadi. Bu esa noto‘g‘ri tushuncha. Chunki hadisdan ma’lum bo‘lyaptiki, musulmonlar orasida ham hozirgi zamonda johiliyat odatlari qolib ketgan bo‘lar ekan. “Tarqoq holda ham, jamlangan holda ham” deyilgani, gohida jamiyatdagi ayrim insonlarda johiliyat alomatlari bo‘ladi, gohida esa butun bir jamiyatda johiliyat odati o‘rnashib qoladi.

Ikkinchi foyda: Bu johiliyat xislatlarining ayrimlari ko‘p jamiyatlarda uchrayverar ekan. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Ummatimda bu hislatlar hech qachon butunlay yo‘qolmaydi”, — deb aytganlar.

Uchinchi foyda: Jamiyatlarda bu hislatlarning mavjudligi bizni ogohlikka chaqiradi. Ya’ni bu xislatlar taslim bo‘lib yashayverish uchun emas, balki ogohlikni oshirib, o‘zimizni isloh qilishimiz uchun zikr qilingan.

To‘rtinchi foyda: Ota-bobo bilan faxrlanish, qabila yoki nasab bilan faxrlanish johiliyat odatlaridan hisoblanadi. Kimda bu xulq bo‘lsa, u ilmli bo‘ladimi, avliyo bo‘ladimi, taqvodor ko‘rinadimi — baribir, johil sanaladi.

Bir kuni Abu Zar roziyallohu anhu qullaridan birini “qora tanlining bolasi” deb so‘kib yubordilar. Qul esa bu holatdan ranjib, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam huzurlariga borib shikoyat qildi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam Abu Zarni chaqirib:
— “Sen johiliyat xislatlaridan birini o‘zida saqlagan odamsan”, — dedilar.
Aslida esa Abu Zar roziyallohu anhu juda katta sahobiy edilar. Ammo shuni ko‘ramizki, yuqorida zikr qilingan johiliyat xislatlari kimda bo‘lsa, u kim bo‘lishidan qat’i nazar — ilmli bo‘lsin, sahobiy bo‘lsin, hatto katta maqom egasi bo‘lsin — baribir, johiliyat xislatlari bor inson hisoblanadi.

Beshinchi foyda: Nasl-nasabni haqorat qilish, qabilalarni mensimaslik, boshqalarni ota-bobolarini kamsitish johiliyat sifatlaridan biridir. Bu sifat inson qalbida kibr borligidan dalolat qiladi. Masalan, bugungi kunda ayrim shaharliklar viloyatliklarni mensimay, ularni gohida ustidan kulishadi. Mana shu xatti-harakatlar ham ularning qalbida kibr borligidan kelib chiqadi.

Oltinchi foyda: Yulduzlardan yomg‘ir talab qilish yoki ularning yomg‘ir yog‘dirishiga ishonish islomda harom qilingan xislatlardan biridir. Bu inson e’tiqodida fasod borligidan darak beradi. Yuqorida aytganimizdek, munajjimlarning bashoratiga ishonish ham shular jumlasidandir.

Yettinchi foyda: Dod solib yig‘lash — ya’ni oddiygina ko‘z yosh to‘kish emas, balki ovozni baland qilib yig‘lash, o‘likni ortiqcha maqtab: “ishongan tog‘im eding, suyangan bog‘im eding”, — deb sanab o‘tish yoki “falondek inson edi, endi bunday odam qaytib dunyoga kelmaydi”, — deya mubolag‘a bilan ta’riflash johiliyat odatlaridan va islomda man qilingan ishlardandir. Aslida marhumning yaxshi xislatlarini eslash va zikr qilish yaxshi amal. Lekin yuqorida qoralangan narsa — uni ortiqcha maqtash, uni haddan tashqari ko‘kka ko‘tarishdir.

Sakkizinchi foyda: Dod solib yig‘lash kabira gunohlardandir. Bu shunday katta gunohki, undan tavba qilmagan ayolni jahannamga olib ketishi mumkin. Gunohlarning katta-kichikligi odamlarning o‘lchovi bilan emas, balki Alloh taolo belgilagan mezonlar bilan o‘lchanadi.

To‘qqizinchi foyda: Dod solib yig‘laydigan ayolning jazosi juda og‘ir bo‘ladi. Bu fe’lning jazosi qattiqligi, uning Alloh huzurida qanchalik yoqimsiz amal ekaniga dalildir.

O‘ninchi foyda: O‘limdan avval barcha gunohlarga tavba qilib olishning ahamiyati juda ulkan. Hadisda “tavba qilmay o‘lsa” deb ta’kidlangan. Bu esa inson tavbani ortga surmasligi, balki shoshilishi lozimligiga dalildir. Chunki u qachon o‘lishini bilmaydi. Shu bois, kechiktirmasdan, hoziroq tavba qilish zarur.

O‘n birinchi foyda: Bir ayolda ham yaxshilik, ham yomonlik xislatlari jam bo‘lishi mumkin. “Yaxshilik bor” degani, unda “yomonlik yo‘q” degani emas. “Yomonlik bor” degani ham, unda “yaxshilik topilmaydi” degani emas. Ko‘pchilik o‘zida taqvolilik xislatini ko‘rganida, o‘zidagi yomon odatlarni payqamaydi. Shuning uchun inson o‘zidagi yaxshi xislatlar bilan aldanib qolmasligi, yomonlikdan ham o‘zini poklashga intilishi kerak.

58-hadis

Ayollarga qaytariq ko‘pligi

Muallif shunday deydi: Ayol kishiga qaytariqlar ko‘pligi, uning nafs tabiatiga dalolat qiladi. Ya’ni ayolning nafsi izdan chiqishga moyilligi bor. Uni esa faqat Alloh taologa mustahkam bog‘lanishgina saqlab qoladi.

Nega ayolga ko‘pincha “unday qilma, bunday qilma” degan qaytariqlar ko‘p uchraydi? Chunki ayolning tabiati shundayki, u tez izdan chiqishni qabul qiladi. Shu boisdan ham ayolning safarida valiy shart qilingan. Yoki Qur’onda “ayollarga erkaklar boshliq qilindi” deb aytilgan. Yoki ularning qo‘liga istalgan miqdorda pulni to‘liq tutqazib qo‘yishdan qaytarilgani — bularning barchasi ayol o‘zi sezmagan holda tez izdan chiqib ketishidan dalolatdir. Shu sababli unga sherik, qo‘llab-quvvatlovchi va cheklovlar zarur.

Buni bir misol bilan yanada ravshan tushunsa bo‘ladi: masalan, hamir qorayotganingizda ozgina yumshab qolsa, bir cheti oqib ketsa, darrov boshqa tomoni ham oqib ketaveradi. Buning sababi — uning yumshoqligi. Ayolning tabiati ham xuddi shunday yumshoq va izdan chiqishga moyil bo‘ladi.

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ رضي الله عنها زَوْجِ النَّبِيِّ ﷺ عَنِ النَّبِيِّ ﷺ أَنَّهُ قَالَ: «الْمُتَوَفَّى عَنْهَا زَوْجُهَا لَا تَلْبَسُ الْمُصَبَّرَ مِنَ الثِّيَابِ، وَلَا الْمُمَشَّقَةَ، وَلَا الْحَلْيَ، وَلَا تَخْتَضِبُ، وَلَا تَكْتَحِلُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Eri vafot etgan ayol sariq rangga bo‘yalgan kiyimlarni kiymaydi. Nafis, jilvali va ko‘zni qamashtiruvchi kiyimlarni kiymaydi. Shuningdek, taqinchoqlar taqmaydi, bo‘yanmaydi va ko‘zlariga surma qo‘ymaydi.”

Eri vafot etgan ayolga qilingan qaytariqlarning sababi — uning nafsini jilovlab turish uchundir.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Sariq rang kiyimlarni kiymaydi”, — dedilar. Qadimda arablar sariq rangli kiyimlarni kiyishgan, xuddi hindlardagi kabi. Hadisdagi bu qaytariqning maqsadi — rang-barang, ko‘zga tashlanadigan kiyimlarni kiymaslik. Sariqmi, qizilmi, yashilmi — farqi yo‘q, barchasi man qilingan.

Shuningdek: “Mumashshaqa kiyimlarni ham kiymaydi”, — dedilar. Mumashshaqa — qum rangli kiyim degani. Qadim zamonda arablar kiyimlari tez kir bo‘lmasin deb, tuproq rangda kiyimlar tikib kiyishgan. Ana shunday kiyimlar “mumashshaqa” deb atalgan. Demak, hatto qum rang kiyimni kiyish ham joiz emas ekan. Buning ustiga taqinchoqlar taqish ham man qilingan. Bu sifatlarning barchasidan maqsad — ayol kishi bezanmasligi.

Bu hukmlarning barchasi eri vafot etib, idda o‘tirayotgan ayolga tegishli. Ammo taloq olgan ayol, xususan 1- yoki 2-taloq bilan ajrashgan bo‘lsa, aksincha, bo‘yanib yurishi mumkin. Chunki eriga qaytishi ehtimoli bor. Eri vafot etgan ayol esa yasan-tusan qilib, bo‘yanib olishi — go‘yo erining o‘limini kutayotgandek ma’noni berib qo‘yishi mumkin. Shu bois idda muddatida bezanmay o‘tirishi lozim.

Husayn roziyallohu anhuning qizining qissasi ham bu mavzuga yaqqol misol bo‘ladi. Uning eri vafotidan avval uni ogohlantirib: “Mening vafotimdan keyin janozamda falonchi sochini tarab keladi. Mendan keyin kimga tegsang tegaver, ammo faqat o‘shanga tegma”, — deb aytadi. Ayol esa eriga va’da beradi: “Men ersiz o‘taman, u odamga erga tegmayman”, — deydi. Ammo haqiqatdan ham erining janozasida o‘sha kishi sochini tarab keladi. Ayolning iddasi tugashi bilan esa aynan o‘sha erkakka turmushga chiqadi.

Mavzuyimizga tegishli joyi ham shunda: ayol kishi tez og‘ib ketuvchan bo‘lishi, qayerga tortilsa, o‘sha tomonga ketaverishligidir. Shu sababdan ham shariat ayolning jilovini ko‘plab masalalarda tortib turadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Idda o‘tirgan ayol idda muddatida kiyimlar bilan bezanmaydi.

Ikkinchi foyda: Idda o‘tirgan ayol idda muddatida xina ham qo‘ymaydi, surma ham qo‘ymaydi.

Uchinchi foyda: Erning haqqi uning vafoti bilan tugab qolmaydi. Erkak vafot etganidan keyin ham uning haqqi saqlanib qoladi. To‘rt oy-u o‘n kun idda saqlashning maqsadi — erning haqqini ado qilishdir. Shu sababdan iddadagi ayol uni nikohga undaydigan narsalardan butunlay tiyiladi. Iddadagi ayol umuman erga tegish haqida o‘ylamasligi lozim. Bularning barchasi erning haqqini ehtirom qilinayotganidan dalolat beradi. Agar u o‘likligida ehtirom qilinsa, tirikligida yanada ulug‘roq ehtirom qilinishi shubhasizdir.

To‘rtinchi foyda: Erning xotin ustidagi haqqi buyukdir. Shu bois ayol erining uyida go‘yoki “xibslangandek” bo‘ladi. Eri vafot etgach ham, ayol er-xotinlik uyida idda o‘tkazishga majbur qilinadi. Bularning barchasi erning haqqi ayol ustida naqadar ulkan ekaniga dalolat qiladi.

Beshinchi foyda: Ayol kishining nafsida turmush qurishga moyillik, ersiz o‘tirishga esa rag‘batsizlik mavjud. Shu sababli ayolning shoshilib erga tegishidan qaytaruvchi bir necha monelar qo‘yilgan. Birinchi mone — erining vafotidan so‘ng to‘rt oy-u o‘n kun idda o‘tirishi. Keyingilari esa — bezanish, ziynatlanish, yasanish kabi ishlardan qaytarilishidir, hatto u uyda yolg‘iz bo‘lsa ham. Chunki ko‘pchilik ayollar: “Men erga tegmoqchi emasman, shunchaki uyda bezanyapman”, — deb da’vo qilishi mumkin. Ammo shariat buni ham qaytargan. Zero, ayol bezangan ekan, ko‘ringisi keladi.

Yana ba’zi ayollar iddada bo‘lmagan bo‘lsa ham, bezanib ko‘chaga chiqishini “o‘zim uchun bezanyapman” deb oqlashga urinadi. Bu bekor gap. Chunki ayol bezandimi, baribir o‘zini ko‘z-ko‘z qilishga moyillik paydo bo‘ladi. Hatto avvalida niyatida bo‘lmagan taqdirda ham, bezangandan keyin ko‘ringisi kelib qoladi. Aslida “o‘zi uchun bezanish” degan narsa mavjud emas.

Bu tabiat insonlarda bo‘lgani kabi, boshqa mavjudotlarda ham bor. Masalan, gul nega ochiladi? O‘zi uchunmi? Yo‘q, albatta. Gul xashoratlarni jalb qilish uchun hid taratadi va shu bois ochiladi. Ayol ham huddi shunday — albatta kim uchundir bezanadi.

59-hadis

Qalb islohi bilan mashg‘ul bo'l, qalbni mashg‘ul qiladigan bilan emas

Muallif shunday deydi: Senga talab qilingan narsa — qalbingni va amalingni isloh qiladigan narsalar bilan shug‘ullanishdir. Qalbingni amaldan chalg‘itadigan narsalar bilan emas.

Erkak ham, ayol ham qalbini isloh qiladigan ishlar bilan shug‘ullanishi kerak. Shuningdek, amalini ham isloh qiladigan ishlarga berilishi lozim.

“Qalbingni amalingdan mashg‘ul qiladigan narsalar bilan emas”, — deyilgani, insonni o‘zidan talab qilingan amalidan chalg‘itadigan, qalbini band qilib qo‘yadigan narsalar nazarda tutilgan. Shariat esa ana shunday ishlardan qaytaradi.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رضي الله عنه قَالَ: «لَعَنَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ زَائِرَاتِ الْقُبُورِ، وَالْمُتَّخِذِينَ عَلَيْهَا الْمَسَاجِدَ وَالسُّرُجَ»

Rosululloh sollollohu alayhi va sallam qabrlarni ziyorat qiladigan ayollarga la’nat aytganlar. Shuningdek, qabrlardan masjid qilib oladiganlarni ham, qabrlarga chiroqlar o‘rnatadiganlarni ham la’natlaganlar.

Islomdan avval ayollar qabristonlarga borib dod-voy solib, yuzlariga urib, musibat chog‘ida nojo‘ya ishlarga qo‘l urishar edi. Shu sababdan dastlab ayollarga qabristonga borish butunlay man qilindi. Keyinchalik esa ijozat berildi. Faqat ayollarga qabristonga qayta-qayta, ko‘p marotaba borish qaytarilgan. Ba’zan oxiratni eslash uchun yoki qabrdagi kishiga duo qilish uchun borishlariga ijozat berilgan. Ammo ayollar noshariy ishlarga qo‘l ura boshlasa, taqiq yana kuchayadi.

Masalan, bizning yurtda ham ayollar ko‘pincha qabristonga borib noshariy ishlarga berilishadi: hijobsiz kirishadi, “qon chiqaraman” deydi, yig‘laydi. Shu sababdan imkon qadar ayollar ziyorati kamaytirilishi lozim.

Hadisning ikkinchi qismida esa qabristonni masjid qilib oladiganlar va chiroqlar o‘rnatadiganlar la’natlangani zikr qilinadi. Bu degani — qabr ustiga masjidga o‘xshash maqbara qurish, xuddi hozirgi so‘fiylarning amaliyotidagi kabi uni “tabarruk joy”ga aylantirish nazarda tutilgan. Aslida bu kabi ishlar shirkka olib boradigan yo‘ldir.

Qabrlarga chiroq yoqib olish esa zardushtiylardan qolgan odatdir. Ular o‘lganlarning qabrida chiroq yoqib o‘tirishar edi. Ba’zi kofirlar esa o‘lik ustida shag‘am yoqishadi. Bularning barchasi shu hukmga kiradi. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam bunday amallarni qilganlarni la’natlaganlar. Chunki bularning barchasi olovga sig‘inish e’tiqodining sarqitlaridir. O‘z navbatida, olovga sig‘inish shaytonga sig‘inishdir. Zero, shayton olovdan yaratilgan.

Mavzuda ayolga: “Sendan talab qilingan amallar bilan mashg‘ul bo‘l”, — deb ta’kidlandi. Hadis bilan bog‘liqligi shunda: ayolning qabristonga borib nima ishi bor?! Bu uning vazifasi emas. U o‘ziga yuklatilgan amallar bilan shug‘ullanishi kerak.

Erkaklar qabristonga borganda o‘zini bosib olib, oxiratni eslab, tafakkur qilib qaytishadi. Ayollar esa ko‘pincha o‘lgan yaqinini eslab, qalbini chalg‘itib qaytadilar. Demak, qalbni mashg‘ul qilib, amaldan chalg‘itadigan ishlar uchun bu hadis bir misoldir, xolos. Ayol ham, erkak ham qalbni chalg‘itadigan bunday ishlardan yiroq bo‘lishi lozim.

Masalan, o‘lik insonning rasmini ko‘rib qo‘yish ham shular jumlasidandir. Ba’zilar uyida vafot etgan otasi yoki onasining suratini devorga ilib qo‘yadi. Bu esa qalbni mashg‘ul qilib, amaldan chalg‘itadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi qabrlarni ziyorat qilishdan man qilingan. Chunki bu amal uchun ularga la’nat aytilgan va uqubat og‘ir qilinmoqda. La’nat esa kichik gunohlarga emas, kabira gunohlarga xosdir. Masalaning mohiyatini chuqur anglash kerak: nega bu amal bunchalik qattiq qoralanib, la’nat bilan zikr qilinyapti? Birinchidan, bu amal ayolning qalbini mashg‘ul qilib qo‘yadi. Ikkinchidan, shirk amallarga eshik ochib beradi. Uchinchidan, o‘likka ham ozor yetkazadi. Shu bois bu ishlar qattiq la’nat bilan qoralangan.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining bu amalidan qaytarilgani, uning sabrining kamligidan dalolat beradi. Odatda ayol kishi besabr bo‘lib, o‘zini tutib tura olmaydi. Yuqorida aytilgan holatlarda u sabrsizlik qilib qo‘yadi va shoshqaloqlik qiladi. Masalan, taloq masalasi ham ayol qo‘liga topshirilmagan. Agar shunday bo‘lganida, ayollar ko‘pincha sabrsizlik qilib, har kuni erini taloq qilib tashlashlari mumkin edi.

Uchinchi foyda: Ayollarning qabristonlarni ziyorat qilishi ko‘p fasodlarga sabab bo‘ladi. Ulardan biri — dod solib yig‘lashlikdir.

To‘rtinchi foyda: Ayollar avvaldan janozaga ergashishdan ham qaytarilgan. Demak, ayollar nafaqat qabrga borishdan, balki janoza marosimida erkaklar bilan birga yurishdan ham qaytarilgan. Chunki janozada tobutni erkaklar ko‘tarib borishadi. Ana shu jarayonga ayollarning qo‘shilishi shariatda man etilgan. Oisha onamiz — Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning xotinlari, Abu Bakr roziyallohu anhuning qizlari, ummatning eng afzal ayollaridan bo‘lishlariga qaramay, otalari jon berayotgan paytda: “Falondek shoir aytgandek bo‘ldi”, — deb she’r o‘qiy boshlaganlar. Buni ko‘rib g‘azablangan otalari Abu Bakr roziyallohu anhu: “Allohning aytgani bo‘ldi, desang bo‘lmaydimi?” — deb aytganlar. Demak, shunday taqvodor ayol bo‘lishlariga qaramay, hissiyot bosgan chog‘da o‘zlarini tiya olmay, she’r o‘qib, otalarini madh qilishga berilib ketganlar.

Beshinchi foyda: Ayollarning qabristonni ziyorat qilishi kabira gunohlardandir. Dalil shuki, bu amalni qilgan ayollar la’natlangan. Shunday ekan, bunga yengil qaralmasligi kerak. Bunda bir nozik ogohlantirish ham bor: shariat bunday ishni qilgan ayollarni la’natlaydi, ammo bu insonlarga ularni la’natlash huquqini bermaydi. Allohning la’nati — ogohlantirish uchun. Insonlarning la’nati esa hukm qo‘yish va hukm chiqarish ma’nosida bo‘ladi. Bu ikkisining o‘rtasida esa katta farq bor.

60-hadis

Qalb xotirjamligi qadarga iymonda

Muallif shunday deydi: Har qachon Alloh taolo senga taqdir qilgan narsaga yetishingga iymoning ziyoda bo‘lsa, qalbing shuncha xotirjam bo‘ladi. Nafsing rohat topadi va yuzingda ochiq chehralik namoyon bo‘ladi.

Kofirdan farqlarimizdan biri shuki — bizda qadarga iymon bor. Alloh taqdir qilgan bo‘lsa, albatta bo‘ladi, taqdir qilmagan bo‘lsa, hech qachon bo‘lmaydi. Ana shu iymon musulmonni vasvasaga tushib qolishdan saqlaydi va rozi bo‘lib yashashiga yordam beradi. Shuning uchun musulmon kelajakda nima bo‘lishidan ortiqcha qayg‘urib, qovoq solib, siqilib yurmaydi.

Tushlar ham bunga bir misol bo‘la oladi. Ba’zan odam bir tush ko‘rib g‘amga botib qoladi. “Nega bunday tush ko‘rdim, endi nima bo‘lar ekan?” — deb o‘zini siqadi. Ayniqsa, ayollar erini tushda boshqa ayolga uylanganini ko‘rsa, hovliqib qoladi. Lekin taqdirga iymon keltirgan ayol: “Alloh taolo nima desa, o‘sha bo‘ladi”, — deb qalbini tinchlantiradi. Shunda nafsi ham rohat topadi.

Musibat kelmasdan turib u bilan yashash kerak emas. Musibat kelganda unga sabr qilib yashasak — shu kifoya. Agar inson kelajakdagi musibatlarni o‘ylab yuraversa, bu musibat kelmasidan avval ham u bilan yashayapti degani. Holbuki, musibat kelganda Alloh uni yengillik bilan birga yuboradi. Alloh taolo musibatni hech qachon bekordan-bekorga bermaydi, albatta yonida yengillik ham beradi. Agar insonning iymoni shunga bo‘lsa, qalbi hotirjam bo‘ladi, yuzi yorishadi.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «لَا يَحِلُّ لِامْرَأَةٍ تَسْأَلُ طَلَاقَ أُخْتِهَا لِتَسْتَفْرِغَ صَحْفَتَهَا، فَإِنَّمَا لَهَا مَا قُدِّرَ لَهَا»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Biror ayol kishiga halol emas — u birodar ayolning tovoq (rizq va nasiba) sini bo‘shatishi uchun undan taloq so‘rash. Zero, unga baribir taqdir qilingan narsa bo’ladi xolos.

Masalan, bir ayolning eri boshqa ayolga uylanib olsa, u holda bu ayol kundoshidan talog‘ini so‘rashga undashi halol emas. Aksincha, agar kundoshini “kundoshim” deb emas, balki “opam” yoki “singlim” deb qabul qilsa, hayotlari tinch va totuv o‘tadi.

Ba’zi ayollar esa kundoshining talog‘ini so‘ramasa ham, o‘zining talog‘ini so‘rashga kirishadi (eri boshqa ayolga uylanganida). Bu hol ham kundoshidan talog‘ini so‘rash bilan bir xil hisoblanadi.

Hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Tovog‘ini bo‘shatishi uchun”, — dedilar. Ulamolar bu jumlani ikki xil tafsir qilganlar:

Birinchi tafsir: Ayol o‘zining tovog‘ini bo‘shatishi uchun. Ya’ni er — ayolning tovog‘i. U tovoqdan faqat o‘zi yeb, boshqa hech kimga bermaslikni istashi nazarda tutilgan. Masalan, eri kundosh olsa, ayol uni taloq so‘rashga undasa, go‘yoki tovoqdan faqat o‘zi yeb, ziqnalik qilgan bo‘ladi.

Ikkinchi tafsir: Kundoshning tovog‘ini bo‘shatish. Ya’ni kundoshini tovog‘idan mahrum qilish. Boshqacha qilib aytganda, kundoshni taloq qildirishga urinish orqali uni rizqidan va eridan mahrum qilishga intilish. Aslida har ikki tafsir ham bir ma’noga borib taqaladi: “Yo uni tanla, yo meni tanla”, — deya erni tanlov qilishga majburlash.

Hadisning so‘ngida esa: “Unga taqdir qilingan narsa bo‘ladi”, — deb aytildi. Demak, agar Alloh taolo bir ayol bilan muhabbatni, birga yashashni, to‘shakni bo‘lishishni taqdir qilgan bo‘lsa, u albatta sodir bo‘ladi. Bir ayol erining yagona xotini bo‘lib yashab, baraka topmasligi mumkin. Yana bir ayol esa eri uch yoki to‘rt xotinli bo‘lsa ham, rohatda yashashi mumkin. Bu — taqdirdir. Buni oddiy misol bilan ham tushunish mumkin. Masalan, bir ishxonada kim ko‘proq mehnat qiladi? Kostyum-shim kiyib hech bir og‘ir ish qilmay o‘tirgan boshqaruvchimi yoki qora mehnat qiladigan ishchilarmi? Albatta, qora ishchilar ko‘p ishlaydi. Lekin ular kam oylik olishadi. Hech ish qilmay o‘tirgan boshqaruvchi esa eng katta maoshni oladi. Bu — rizq. U mehnatga yoki odamlarning ko‘z o‘lchoviga qarab emas, qanday taqdir qilinganiga qarab bo‘linadi. Huddi shunday, erning bir xotini bo‘lishi ham, ikki yoki to‘rt xotini bo‘lishi ham ayolning taqdiriga bog‘liq.

Inson qalbi qanchalik hasad, ichi qoralik bilan to‘lsa, rizqdan shuncha mahrum bo‘ladi. Erdan olinadigan rizq ham xuddi shunday. Ayol qancha ichi qora bo‘lsa, shuncha mahrum bo‘ladi. Agar uning e’tiqodi: “Alloh taqdir qilgan narsa menga baribir yetadi”, — degan iymonga asoslangan bo‘lsa, qalbi xotirjam bo‘ladi.

Ko‘p ayollar erga tegib olgach, ilm va tafakkurdagi eng oxirgi nuqtasi — erining o‘zi bo‘lib qoladi. “Eri boshqa ayolga uylanib qo‘ymayaptimikan? Men keyin nima qilaman?” — degan xayollar bilan yashaydi. Bu esa qadarga iymonning zaifligidan dalolat beradi. Agar iymoni mustahkam bo‘lsa, ayol o‘z hayotidan rozi bo‘lib, xursand yashaydi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol bir erkakka turmushga chiqayotganda: “Agar boshqa xotin olsang yoki hozirgi xotining bo‘lsa, uni taloq qilasan”, — deb shart qo‘yishi haromdir. Agar erkak bu shartga rozi bo‘lsa ham, unga vafo qilinmaydi. Chunki bu botil shartdir. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Allohning Kitobiga to‘g‘ri kelmaydigan har qanday shart, yuzta bo‘lsa ham, botildir”, — deb aytganlar. Shuning uchun erkak “hop” degan taqdirda ham bu shartga amal qilmaydi.

Ikkinchi foyda: Ayolning bunday shart qo‘yishdan maqsadi — erkakning qalbida yolg‘iz o‘zi qolish, sevgini faqat o‘ziga qaratishdir. Lekin bu shart haromdir, chunki u boshqalarga zulm qilishni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi foyda: Ayolning bunday shartga qo‘l urishi, unda bir necha jihatdan zaiflik borligiga dalolat qiladi:

Birinchi zaiflik: Iymondagi zaiflik. Chunki Allohdan qo‘rqmay, birovning oilasini buzishga urinyapti.

Ikkinchi zaiflik: Qadarga bo‘lgan ishonchda zaiflik.

Uchinchi zaiflik: Erining qalbini kasb qilish ilmini bilmaslik. Masalan, bir ayolning eri uni yaxshi ko‘rmayotgan bo‘lsa yoki boshqa xotiniga moyil bo‘lib, unga ko‘proq e’tibor berayotgan bo‘lsa, bunday vaziyatda janjal qilib bo‘lmaydi.

Aslida bu ayolning o‘zi ustida ishlashi kerak bo‘lgan narsadir. Ayol erining qalbini kasb qila olishi lozim. Uning sir-sinoatlarini, qalbini zabt etish yo‘llarini o‘rganishi shart.

Buni bir misol bilan tushuntirish mumkin: tasavvur qiling, bozorda qator uch-to‘rt do‘kon turibdi. Hamma bir xil mahsulotni, bir xil narxda sotyapti. Ammo mijozlar doim birgina do‘kondan savdo qilishadi. Shunda qolgan do‘kon egalari mijozlarning yoqasidan olib janjal qilishsa yoki o‘sha ko‘p savdo qilayotgan do‘kon egasi bilan urishib ketsa, bu to‘g‘ri bo‘ladimi? Albatta, yo‘q. Aslida ular mijozlarning ko‘nglini zabt eta olmayapti, xolos.

Huddi shunday, ayollar ham erining e’tibori boshqa kundoshiga ketganida, kundoshini yoki erini ayblab janjal qilishi — behuda ish va axmoqlikdir. Aksincha, ayol o‘zidan ayb qidirishi, erining qalbini olish yo‘llarini izlab topishi kerak. Illo, kundosh erga bu ayol haqida yomon gaplar qilib, uni eridan uzoqlashtirishga harakat qilayotgan bo‘lsa — bu boshqa masala. Ammo bunday bo‘lmasa, muammo ayolning o‘zida. Erining qalbini kasb qilish ilmi unda zaif.

Muhabbat ham rizqdir. Rizq esa kasbga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, muhabbatni egallash uchun uning sabablarini kasb qilish kerak.

To‘rtinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hadisda kundoshni “birodar”, “opa” yoki “singil” deb ataganlari, ayolning bunday talabining naqadar xunukligini ko‘rsatadi. Masalan, inson o‘z opasining yoki o‘z singlisining eri bilan o‘rtasini buzib, o‘zi unga turmushga chiqishi mumkinmi? Yo‘q, albatta. Bunday ishni hech qaysi ayol qilmaydi. Illo, Hudo urgan, axloqsiz ayollar qilmasa, odatda bunday illatni hech kim qilmaydi. Dini bo‘lmagan ayol ham opasi yoki singlisining erini tortib olib, unga turmushga chiqishga botinmaydi.

Xuddi shunday, din nuqtayi nazaridan ham kundoshlar bir-birlariga opa-singildek hisoblanadilar. Shu sababdan ayolning kundoshini taloq qildirish talabi juda xunuk talab sanaladi.

Shuningdek, musulmon musulmonga uch kundan ortiq gina saqlashi joiz emas. Bu hukm kundosh ayollarga ham tegishli. Ular ham bir-birlari bilan iliq munosabatda bo‘lishlari lozim.

Beshinchi foyda: Ushbu hadis qadarga rozi bo‘lishlikda tarbiya uchun asosdir. Xususan, rizq masalasida qadarga iymon talab qilinadi.

Men bir ajoyib holatning guvohi bo‘ldim: erkaklarning ko‘chadagi hayotida birodarlari bilan rizqda qadarga iymoni qanchalik zaif bo‘lsa, ularning oilaviy hayotida ham xuddi shunday zaiflik namoyon bo‘ladi. Masalan: “Nega mening ishimni sen qilyapsan? Nega mening do‘konim yonidan do‘kon ochyapsan? Nega men olmoqchi bo‘lgan mahsulotni olib qo‘yding? Nega men sotmoqchi bo‘lgan odamga sen sotib yubording?” — kabi holatlar kuzatilsa, o‘sha insonning xotinlari o‘rtasida ham shunga o‘xshash adovat paydo bo‘ladi.

61-hadis

Nikohda qiz roziligi kafolatlangan huquq

Muallif shunday deydi: Erga muvofiq bo‘lish — bu sening haqqingdir. Islom esa senga bu huquqni kafolatlab qo‘ygan.

Qiz bola o‘zimiz aytganidek “polaxmon toshi” emas. Ya’ni qayerga otsa, o‘sha yerga tushaveradigan buyum emas. Ayniqsa, bizning o‘zbekchilikda shunday noto‘g‘ri qarash bor: ota-ona kimga uzatmoqchi bo‘lsa, qiz indamay erga tegib ketaveradi. Aslida esa qiz faqat erga muvofiq bo‘lgandagina nikoh sahih bo‘ladi. Bu ayolning haqqi, Islom esa bu huquqni kafolatlaydi.

Afsuski, bizning qizlar: “Nima ham deyman”, — deb rozi bo‘lmasa ham, nikoh vaqtida indamay o‘tiraveradi. Aslida esa bu — munofiqlik. Agar nikoh vaqtida qiz: “Men rozi emasman”, — desa, bunday nikoh sahih bo‘lmaydi. Shunday holatda hech kimning qizni majburlashga haqqi yo‘q.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ قَالَ: «لَا تُنْكِحُ الْأَيِّمُ حَتَّى تُسْتَأْمَرَ، وَلَا تُنْكِحُ الْبِكْرُ حَتَّى تُسْتَأْذَنَ». قَالُوا: يَا رَسُولَ اللهِ، وَكَيْفَ إِذْنُهَا؟ قَالَ: «أَنْ تَسْكُتَ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Juvon — undan amri (roziligi) so‘ralmaguncha nikoh qilinmaydi. Bokira qiz ham izni so‘ralmaguncha nikoh qilinmaydi.” Sahobalar so‘radilar: “Yo Rosulullоh, uning izni qanday bo‘ladi?” Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Sukut saqlashi bilan.”

Demak, hadisda kelmoqda: juvon ham, bokira qiz ham farqsiz — har ikkisi ham izni so‘ralishi lozim. Faqat oralarida farq bor. Juvon — ya’ni avval turmushga chiqib qaytgan ayol — hayo jihatidan bir oz erkinroq bo‘ladi. Shu sababli undan rozilik to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘raladi: “Ha”mi, “yo‘q”mi — aniq aytishi kerak. Agar u indamay o‘tirsa, nikoh qilingan hisoblanmaydi. Chunki unda sukut qiladigan hayo darajasi qolmagan, ammo baribir hayosi mavjud.

Bokira qizdan esa izni albatta so‘raladi. Agar undan so‘ralganda u indamasa, “sukut alomati rizo” hisoblanadi va nikoh o‘tkaziladi.
Avvalgi ayollar nikoh vaqtida gapirishga uyalganlari uchun sahobalar: “Qanday izn beradi?” — deb ajablanishgan. Bu esa dalilki, aslida qiz bolaning bunday o‘rinda ochiq gapirishidan ko‘ra sukut saqlashi hayoga muvofiqdir.

Ammo hozir zamonda hayo ko‘p hollarda so‘nib ketgan. Hatto ba’zi ayollar ijtimoiy tarmoqlarda ochiqchasiga: “Men erga tegsam, u bo‘lsin, bu bo‘lsin”, — deya gapirishadi. Aslida esa bunday gaplarni ommaviy maydonlarda aytish u yoqda tursin, qarindoshlari huzurida ham gapirishga uyalishi kerak edi.
Bizning millatimizda ham hayo qadriyat sifatida bor edi. Ammo ruslar bostirib kirganidan keyin yoki ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalganidan so‘ng, erga tegish haqidagi mavzularni ochiq gapirish oddiy holga aylanib qoldi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Roziligini sukut bilan bildirsin”, — deb marhamat qilganlar. Demak, bokira qiz nikohda “ha” demoqchi bo‘lsa, indamay o‘tirishi kifoya. “Yo‘q” demoqchi bo‘lsa, albatta aytishi kerak. O‘zimizdagi “sukut alomati rizo” degan maqol ana shu hadisdan chiqqan. Xullas, juvon ham, bokira qiz ham rozi bo‘lmasa, “yo‘q” deyishi shartligi hadisda aniq aytilgan.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Hayo — ayol kishining fitratidan ekan. Avvalgi mavzularda aytilganidek, ayol hayz ko‘rganda hayosining bir qismi ketadi. Turmushga chiqsa yana bir qismi kamayadi. Taloq olsa ham bir qismi yo‘qoladi. Shu tariqa hayo asta-sekin parchalanib ketaveradi. Aslida hayo ayolni gunoh va ma’siyatlardan to‘suvchi qalqon hisoblanadi.

Ikkinchi foyda: Shariat ayolning hayosini inobatga olgan. Ayolga xos hukmlarda “ayol uyaladi” deb, hatto uning uyalishini ham hisobga olib hukm qo‘yilgan. Insonlar esa g‘alati: shariat ayolning hatto hayosini e’tiborga oladi-yu, lekin ular: “Shariat ayolning huquqini inobatga olmaydi”, — deyishadi. Aslida shariat bokira qiz bilan juvonning hayosini ham hisobga olayotgan bir vaqtda, uning katta huquqlarini inobatga olmaydimi?!

Uchinchi foyda: Ba’zi masalalarda qiz bilan juvonning orasida hayo jihatidan farq bo‘lar ekan. “Nima qilibdi? U ham ayol, bu ham ayol”, — deb aytish to‘g‘ri emas. Ularning hayosi va unga oid hukmlar o‘zaro farqlanadi.

To‘rtinchi foyda: Qiz bola sovchi qo‘yilganida sukut saqlashi — rizoga alomat bo‘ladi. Lekin ichida norozilik bo‘lsa, buni albatta aytishi kerak. Indamay o‘tirish foyda bermaydi. Keyinchalik: “Men rozi emas edim”, — desa, bu gap o‘tmaydi. Chunki rozi bo‘lmasa, o‘sha paytda aytishi shart edi. Agar aytolmasa, hech bo‘lmasa yig‘lashi kerak, chunki yig‘lash ham norozilik alomati hisoblanadi.

Beshinchi foyda: Ayol kishining huquqlaridan biri — unga sovchi qilib kelayotgan kishiga rozilik bildirishidir. Uning roziligisiz nikoh sahih bo‘lmaydi. Valiyning huquqi bor, lekin u qizni zo‘rlab erga berib yubora olmaydi. Qizning roziligi shart.

Oltinchi foyda: Qiz bolaning muvofiqligini bildirish bir necha ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, rozi yoki noroziligini faqat so‘z bilan emas, turli ishoralar bilan ham bildiradi. Masalan, yig‘lashi — noroziligiga alomat, kulib qo‘yishi esa — roziligiga alomat.

Yettinchi foyda: Nikoh faqat valiyning ishtiroki bilan bo‘ladi. Valiy qizdan izn so‘raydi. Bizning odamlarda noto‘g‘ri tushuncha bor: “Nikohda qiz bolagagina valiy kerak, juvon esa o‘zini o‘zi nikohlab olaveradi”, — deyishadi. Aslida esa qizga ham, juvonga ham valiy kerak. Hadisda bunga ishora qilingan.

Faqat ayrim istisno holatlar bor. Masalan, valiysi fosiq yoki hatto kofir bo‘lsa, bunday paytda uning valiyligi inobatga olinmaydi. Bu holda boshqa solih qarindoshlar valiylikni zimmasiga oladi. Agar ular ham bo‘lmasa, begona solih musulmon kishi valiylik vazifasini bajaradi.

62-hadis

Tilla kumushdan-da qimmat bo’l

Muallif shunday deydi: Tilla va kumushdan-da qimmat bo‘lishga haris bo‘l.

Islomda ayolning qadri tilla va kumushdan qimmatroqdir. Ammo ko‘p ayollar o‘zlarini ulardan ham past ko‘rib qo‘yishadi. Shu sababdan hatto tilla-kumush uchun dinini ham, iffatini ham, ayollik sha’nini ham sotib yuboradiganlar chiqadi. Aslida esa Islomda ayolning qadri temir-tersakdan-da ustun, tilla va kumushdan-da qadrli.

عَنْ ثَوْبَانَ رضي الله عنه قَالَ: لَمَّا نَزَلَتْ: ﴿وَالَّذِينَ يَكْنِزُونَ الذَّهَبَ وَالْفِضَّةَ﴾ [التوبة: ٣٤] قَالَ: كُنَّا مَعَ النَّبِيِّ ﷺ فِي بَعْضِ أَسْفَارِهِ، فَقَالَ بَعْضُ أَصْحَابِهِ: أُنْزِلَ فِي الذَّهَبِ وَالْفِضَّةِ مَا أُنْزِلَ، لَوْ عَلِمْنَا أَيُّ الْمَالِ خَيْرٌ فَنَتَّخِذَهُ؟ فَقَالَ: «أَفْضَلُهُ لِسَانٌ ذَاكِرٌ، وَقَلْبٌ شَاكِرٌ، وَزَوْجَةٌ مُؤْمِنَةٌ تُعِينُهُ عَلَى إِيمَانِهِ»

Savbon roziyallohu anhu aytadilar: “Tilla va kumushni xazina qilib yotadiganlar haqida Tavba surasi, 34–35-oyatlar nozil bo‘lganda, biz Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bilan safarda edik. Ba’zi sahobalar dedilar: ‘Demak, bu hukm tilla va kumushga tushirildi. Agar bilsak edi, qaysi molni qo‘lga tutishimiz afzal ekanini…’ Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Eng afzal mol — zikr qiluvchi til, shukr qiluvchi qalb va erkakning iymoniga yordam beruvchi mo‘mina xotin.’”

Alloh taolo Tavba surasi 34–35-oyatlarda tilla va kumushni xazina qilib yotganlarni qattiq qoralagan. Haqiqatan ham ba’zi insonlar shunday: qo‘lga kirgan molini na oilasiga, na qarindoshlariga, hatto o‘ziga ham sarflamaydi. Topganini yig‘ib yotaveradi. O‘zimizdagi maqolda aytilganidek: “Yema, ichma — bo‘l baxil. Boy bo‘lmasang, men kafil.”

Alloh ana shunday odamlarni nazarda tutib: “Tilla va kumushni xazina qilib yig‘ib yotadigan va uni Alloh yo‘lida sarflamaydiganlar…” deb aytgan va: “Ularga alamli azobni bashorat qil!” degan. Qiyomat kuni ularning tilla-kumushlari jahannam olovida dazmoldek qizdiriladi va peshonalariga, orqalariga, yonboshlariga bosiladi. So‘ngra: “Mana shu — sizlar xazina qilib to‘plagan narsalaringiz! Endi o‘sha xazinangizning jazosini totinglar!” deyiladi.
Bu oyatdan saboq shuki, tilla-kumush ishlatish uchun berilgan: inson o‘z ehtiyoji uchun ishlatadi, ortganini esa Alloh yo‘lida ehson qiladi.

Sahobalar oyatni eshitib: “Endi tilla va kumushni ushlab turish yomon narsa ekan. Qaysi molni saqlash afzal?” — deb o‘ylashgan. Ba’zilari: “Balki boshqa pullarni yig‘sak bo‘larmikin?” degan gumonga ham borgan. Bugun ham oyatni eshitib ba’zi odamlar: “Ha, tilla va kumush yig‘ish taqiqlangan ekan, ammo biz dollar yoki elektron pullarni yig‘amiz”, — deya noto‘g‘ri tushunishlari mumkin.

Ammo Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytganlar: “Bu oyatda zikr qilingan narsalar misol, xolos. Har qanday pulni bosib yotish shu hukmga kiradi. Eng afzal xazina — zikr qiluvchi til, shukr qiluvchi qalb va erining iymoniga yordam beruvchi mo‘mina ayol.”

Bu hadisi sharif uch xazinani ko‘rsatmoqda:

Zikr qiluvchi til. Ya’ni Allohni eslab yashash, tavakkul va iymonga suyanish. Zikr qilgan til kelajakda xor bo‘lmaydi. Ba’zi johillar: “Hozir yuz marta subhanalloh desang, bir kilo go‘sht beradimi?” — deb istehzo qilishadi. Bu moddaparastona fikrlashdir. Musulmon faqat moddaga emas, Allohga tavakkul qiladi.

Shukr qiluvchi qalb. Qalbini shukrga o‘rgatmagan odam sandiq-sandiq moli bo‘lsa ham hech to‘ymaydi. Ammo shukrli qalb egasi qo‘lida hech narsa bo‘lmasa ham qanoat qilib, rozi bo‘lib yashaydi. Shukr qalbni boy qiladi.

Mo‘mina ayol. Erining iymoniga yordam beruvchi xotin — eng katta xazina. Chunki noshukr ayolga qancha tilla-kumush yoki dollar to‘plab berilsa ham, baribir to‘ymaydi. Erini ham, o‘zini ham azobga qo‘yadi. Oxirida er “xotinimni rozi qilaman” deb barcha narsasini yo‘qotadi — tilidagi zikrni ham, qalbidagi shukrni ham.

Johillar orasida hozir ham ko‘p uchraydi: yoshligidan yigirma-besh, hatto o‘ttiz yoshigacha ishlaydi, mehnat qiladi. Nega? Faqat bir noshukr ayolni boqish uchun. Er hamma topganini ayoliga beradi, ammo u yana so‘rayveradi. Bu esa Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning nasihatlariga amal qilmagandan kelib chiqadi.
Hadisda esa: “Mo‘mina ayol ol”, — deb buyurilgan. Chunki mo‘mina ayol eri olib kelgan ozgina daromadga ham qanoat qiladi, uni tejab ishlatadi, nolimaydi. Natijada er ham tongdan kechgacha dunyo izlab yugurishga majbur bo‘lmaydi, balki iymonini mustahkamlashga vaqt topadi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytganlar: “Eri iymoniga yordam beradigan mo‘mina ayol.” Bu qanday bo‘ladi? Avvalo, eridan ortiqcha narsalarni talab qilmaslik bilan. Shunda erkak butun umrini dunyo topishga emas, iymon va ibodatga bag‘ishlashi mumkin bo‘ladi. Ikkinchidan, ayol erini ibodatga undaydi: namozga chaqiradi, rizqni haloldan topishga undaydi, sabrga rag‘batlantiradi.

Shunday qilib, mo‘mina ayol — er uchun tilla va kumushdan ko‘ra afzal xazina bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Dunyo yaxshiliklarining eng afzali uch narsadir — zikr qiluvchi til, shukr qiluvchi qalb va eriga yordam beradigan xotin. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam boshqa bir hadisda: “Kimga Alloh soliha ayolni rizq qilib bersa, dinining yarmida unga yordam bergan bo‘ladi”, — deganlar.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining eriga rioya qilish ko‘rinishlaridan biri — erining dinida unga yordam berishdir. Yaxshiliklarni qilishga undab turishi, yomonliklardan qaytarishi ayolning eng buyuk vazifalaridan biridir.

Uchinchi foyda: Soliha ayol hosil qilish — tilla-kumush hosil qilishdan afzal ekan. Aslida bu ayolni tarbiyalash, soliha bo‘lishini ta’minlash insonning o‘z manfaatiga bo‘ladi. Ammo shunga qaramay, ko‘pchilik nafsi yo‘lida moddiyatni tanlaydi va unga ruju qo‘yadi.

To‘rtinchi foyda: Er-xotinning baxt va saodati taqvoda bir-biriga yordamchi bo‘lmaguncha ro‘yobga chiqmaydi. Er-xotin shunchaki bir-biriga indamay yashab yuravermaydi. Aksincha, ular bir-birini yaxshilikka chaqirib, taqvoni mustahkamlab yashashlari kerak. Ana shunda oilada haqiqiy baxt va saodat bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Erkak qilayotgan solih amallarga rozi bo‘lish — ayolning eriga qiladigan yordami turlaridan biridir. Erkak jaraq-jaraq pul topa olmagani bilan solih inson bo‘lsa, xotini unga rozi bo‘lishi — eriga ham, diniga ham eng katta yordamidir.

Ba’zi ayollar: “Biz qanday qilib dinga yordam bersak bo‘ladi?” — deb so‘rashadi. Aslida ayolning dinga eng katta yordami — indamay o‘tirishi, sabr va qanoat bilan yashashi. Ayniqsa, agar eri dinga xizmat qilayotgan bo‘lsa: mujohid bo‘lsa, tolibi-ilm bo‘lsa, muhojir bo‘lsa — ayolning haqiqiy xizmatidan biri eriga yuk bo‘lmasligi, uni ortiqcha talablar bilan qiynamasligi, balki har qanday vaziyatda sabr qilib, shukr qilib yashashidir. Ana shu uning eriga ham, diniga ham eng ulkan xizmati bo‘ladi.

63-hadis

Eringda din va xulq bo’lsa yetarli

Muallif shunday deydi: Agar sening zavjingda din va xulq jamlangan bo‘lsa, demak sen boshqa ayollarga nisbatan ustun bo‘libsan.

Chunki erning dini yaxshi bo‘lsa — bu uning Alloh taolo bilan munosabatining yaxshi ekaniga dalolat qiladi. Xulqi yaxshi bo‘lsa — bu uning odamlar bilan muomalasining chiroyli ekanidan darak beradi. Ayol uchun eridan bundan ortiq narsa kerak emas. Er tanlayotgan qiz bo‘lsa, aynan shu ikki sifatga qarab tanlashi kifoya qiladi.

Ammo hozirgi kunda qizlarning talablarida bu sifatlar ko‘pincha tilga ham olinmaydi. Aksariyat qizlar birinchi o‘rinda: “Yigit nima ish qiladi? Qancha topadi? Qayerda yashatadi?” — degan savollarni beradi. Aslida esa bu savollarning birortasi zarur savollar emas. Chunki bu narsalarning barchasi topiladigan narsalar. Odam mehnat qilsa, vaqt o‘tib ularning barchasiga ega bo‘lishi mumkin. Ammo topilishi eng qiyin bo‘lgan narsa — din va xulqdir.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «إِذَا خَطَبَ إِلَيْكُمْ مَنْ تَرْضَوْنَ دِينَهُ وَخُلُقَهُ فَزَوِّجُوهُ، إِلَّا تَفْعَلُوا تَكُنْ فِتْنَةٌ فِي الأَرْضِ وَفَسَادٌ عَرِيضٌ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Agar sizlarga diniga va xulqiga rozi bo‘lgan kishi sovchi bo‘lib kelsa, unga qizlaringizni nikohlab beringlar. Agar bunday qilmasangiz, yer yuzida fitna va keng fasod bo‘ladi.”

Hadisda “sizlarga” deb valiylar nazarda tutilmoqda. Ya’ni bir inson sovchi bo‘lib kelganda, uning dini va xulqi yaxshi bo‘lsa, bo‘ldi — uni nikohlash kerak. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam shart qilib qo‘ygan narsalar — din va xulq. U zot: “Uyi bormi? Qayerda ishlab qancha pul topadi?” — deb so‘ranglar, demaganlar.

Hadisda yana: “Aks holda, agar bunday qilmasangiz, yer yuzida fitna va keng fasod bo‘ladi”, — deb aytildi. Qanday fitna bo‘ladi?

Birinchidan, dini va xulqi yaxshi insonni hech kim kuyovlikka qabul qilmagandan keyin, u inson fitnaga tushadi. “Dinim ham, xulqim ham yaxshi bo‘lsa-da, hech kim meni qabul qilmayapti. Demak, pul topishim kerak ekan”, — degan o‘yga berilib ketadi. Natijada qanchadan-qancha erkaklar dinini ham, xulqini ham boy berib, dunyoga ruju qo‘yib ketishadi.

Ikkinchidan, bu yigitning holatini ko‘rgan boshqa dini va xulqi yaxshi yigitlar ham buziladi. “Dini ham bor, xulqi ham bor yigit xor bo‘lib yuribdi-ku”, — deb ular ham dinlarini va xulqlarini tashlab yuboradilar. Shu bilan butun jamiyatda dinsizlik va xulqsizlik keng tarqaladi.
Shuning uchun Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Bu faqat o‘sha oilaga fitna bo‘ladi”, demadilar. Aksincha: “Butun yer yuzida fitna va fasod bo‘ladi”, dedilar.

Qanday fasod yuz beradi?
Fasod — buzilish demakdir. Dini va xulqi uchun nikohlanmagan yigit-qizlar oxir-oqibat buzilib ketadi. Agar hech kim qizini bermasa yoki hech kim qizni olmayotgan bo‘lsa, ular halol nikohdan yuz o‘girib, harom munosabatlarga o‘tadilar. Shu tariqa o‘z xirslarini qondirishga urinadilar. Natijada jamiyatda fasod keng miqyosda tarqaladi.

Bunga sabab bo‘luvchi omillardan biri — mahrni haddan tashqari katta so‘rashdir. Yigitlar uylana olmay qoladilar, so‘ngra sabrsizlik qilib, fasod yo‘liga kirib ketadilar. Shu bois, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning ogohlantirishlari aynan jamiyatni ana shunday buzilishlardan asrab qolishga qaratilgan.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi valiysidan sovchi qilib so‘raladi. Hamma ishni eshigidan qilish kerak bo‘lgani kabi, xotin olishda ham qizning valiysidan so‘rab olinishi shart. Shariatda “ayolni olib qochib ketish” degan narsa yo‘q. Yoki faqat qizning roziligini olib, valiysidan yashirib ketish ham joiz emas.

Ikkinchi foyda: Valiydan talab qilingan asosiy vazifa — qo‘l ostidagi qizga g‘amxo‘r bo‘lishdir. Aksar valiylar qizga g‘amxo‘rlik qilishni “uni puldor oilaga kelin qilib berish” deb o‘ylashadi. Aslida esa bu ishni qizning o‘zi ham qila oladi. Qiz o‘zi qila olmaydigan, ammo valiy qila oladigan eng muhim ish — unga dindor va xulqi yaxshi kuyovni topib berishdir. Shu sababdan ayol uchun valiy shart qilingan.

Afsuski, hozirgi valiylarning ko‘pchiligi o‘z mas’uliyatini bajarishmaydi. Boy oiladan sovchi kelib qolsa, darrov qizni o‘sha yerga berishga oshiqib qolishadi. Holbuki, valiyning asl g‘amxo‘rligi — qo‘l ostidagi qizning dini va xulqi uchun kuyinishi, unga shu asosda er topib berishidir.

Uchinchi foyda: Erkaklarda talab qilingan sifatlarning eng muhimi — din va xulqdir. Har bir qiz, uni so‘rab kelgan yigitning avvalo shu ikki sifatiga qarashi kerak.

Din deganda ham insonlar orasida yuradigan “qarichdagi din” emas. Odamlarning o‘z qarichidagi dinga ko‘ra: “Hudoni tanir ekan, uyog‘ini qiz to‘g‘rilab oladi”, deb o‘ylashadi. Yoki “Namoz o‘qimas ekan”, deyilsa, “O‘zing o‘qitib olasan”, deb aytishadi. Aslida esa din Alloh oldidagi taqvo bilan o‘lchanadi.

Xulq ham xuddi shunday. Xulq — shariat o‘lchovi bilan baholanadi. Hozir odamlar dinida sobit turgan, har kimni do‘st tutmay, faqat Alloh yo‘lida do‘stlashadigan insonni “badxulq” deb hisoblashadi. Aksincha, hamma bilan opoq-chopoq bo‘lib ketaveradigan insonni “xulqli” deb bilishadi. Aslida esa xulqning o‘lchovi shariatdir.

Hasan Basriy rahmatullohi alayh aytadilar: “Qizingni dindor insonga ber. Agar uni yaxshi ko‘rsa, hurmat qiladi. Agar yomon ko‘rsa ham, unga zulm qilmaydi.” Demak, qizini dindor yigitga bergan inson hech narsa yo‘qotmaydi. Eng kamida, u eridan zulm ko‘rmaydi va haqqi ado qilinadi.

To‘rtinchi foyda: Obro‘ yoki pulni din va xulqdan buyuk sanash er-xotin hayotini buzadi.
Umar roziyallohu anhu aytganlar: “Ba’zingiz qizingizga katta mahr belgilaysiz. Keyin o‘sha erkak umr bo‘yi xotiniga mahrni yuziga solib o‘tadi.”

Ha, erkak qizga katta mahr to‘lash uchun qiynalib ishlaydi. Keyin esa: “Men senga faloncha mahr berganman”, deb doimo minnat qiladi. Bunga chidagan xotin sabr qilib yashaydi, chiday olmagan xotin esa ajrashib ketadi.

Ammo odamlar buning aksini o‘ylashadi. “Kattaroq mahr bersa, ajrashib ketishdan qo‘rqadi”, deyishadi. Aslida unday emas. Allohdan qo‘rqmagan erkak, mahrdan qo‘rqadimi?!

Beshinchi foyda: Ayol kishiga agar dindor va xulqli kishi sovchi bo‘lib kelsa, shariy oqlovchi sabab bo‘lmasa, uni rad qilishi joiz emas. Ayniqsa bu masala tolibi ilmlar uchun katta qiyinchilik tug‘diradi. Ko‘pincha biror oilaga sovchilikka borilganda: “Tayini yo‘q ekan, uylangandan keyin qayerga boradi? Hujjati joyida emas ekan” kabi bahonalar bilan din va xulqi yaxshi yigitlarni ham pisand qilmay rad etishadi. Aslida bu asosli sabablar emas.

Qanday shariy oqlovchi sabablar bo‘lsa, dindor va xulqli bo‘lsa ham rad qilish mumkin? Masalan, yigit kasal bo‘lsa, xususan yuqumli kasallikka chalingan bo‘lsa, bu holda rad etishga haqqi bor. Yoki uning qiyofasi bir qarashda jirkanch darajada xunuk bo‘lsa, bunday paytda ham: “Dini va xulqi yaxshi ekan”, deb qizni majburan berib yuborish qizga zulm bo‘ladi.

Oltinchi foyda: Qizni turmushga berishni tezlashtirish mustahabdir, agar sovchilikka kelgan kishi din va xulqda yaxshi bo‘lsa.
Bugungi kunda G‘arbdan kirib kelayotgan buzilgan g‘oyalar mavjud. Ularga ko‘ra: ayol erga tegishidan oldin albatta to‘rt yil universitetda o‘qishi kerak emish. O‘qib bo‘lgach, shu sohada ikki-uch yil ishlashi kerak emish. So‘ng mashina olib, imkoniyatlarini kengaytirib olish kerak emish. Nega? Kelajakda eriga qaram bo‘lmasligi uchun, agar eri tashlab ketsa, ko‘chada qolmasligi uchun, deyishadi.
Aslida bu — qadarga iymoni bo‘lmagan insonlarning fikridir. Musulmon esa qadarga iymon qiladi: rizqni ham, saodatni ham Alloh taolo beradi.

Ko‘pincha psixologlik qilib yurgan ayollar ham shu fikrlarni ilgari surishadi. Bu — kofirlarning qarashidir. Chunki ularda qadarga iymon yo‘q, doim kelajakdan qo‘rqib yashaydilar, Allohga tavakkul qilmaydilar.

Muslima ayolda esa qadarga iymon bor. Aslida bu kabi fikrlash “shumlanish” deyiladi. Nega ayol turmushga chiqayotib: “Ertaga erim boqmasa ham, o‘zimni o‘zim eplayman”, — degan niyatni qiladi? Insonning hayoti tilidan chiqqan so‘z bilan ketadi. Shunday fikr qilgan ayolga, shunday er yo‘liqadi.

Yoki: “Ertaga erga tegib ajrashib ketsam, ko‘chada qolmayman”, — deb o‘ylaydi. Nega ayol erga tegmasidan turib ajrashishning g‘amini qiladi?! Bunday shum niyatlar — shaytondan, qadarga iymonning yo‘qligidan kelib chiqadi.

Yettinchi foyda: Dinli va xulqli kishini (shariy sababsiz) rad qilish ko‘plab fasodlarni keltirib chiqaradi.

Fasod tarqalishining birinchi ko‘rinishi — zino tarqalishidir. Agar zino qilishga ham imkon bo‘lmasa, bundan-da battar holat yuzaga keladi: erkak bilan erkakning yoki ayol bilan ayolning nopok munosabatlari.

Nega ayrim arab davlatlarida bachavozlik ko‘payib ketmoqda? Hatto ba’zi hujralarda bunday illatlar kuzatilmoqda. Sababi — turli bahonalar bilan yigit-qizlarni turmushga bermay, ularni bekor olib o‘tirishdir.

Kufr yurtlarida bunga imkon bo‘lsa — zino ko‘payadi, musulmon yurtlarda esa — bachavozlik keng tarqaladi.

Fasod tarqalishining ikkinchi ko‘rinishi — qizlar nikohsiz qolib ketishi. Har qanday yigit o‘zidan keyingi avloddan xotin istaydi. Masalan, yigirma yoshli yigit uncha-muncha hollarda o‘zidan katta, yigirma to‘rt yoki yigirma besh yoshli qizga uylanishni istamaydi. Demak, qiz bolaning turmushi to‘rt-besh yil kechiktirilsa, u qolib ketadi deganidir.

Yoki qanday odamdan sovchi kelsa ham, rozi bo‘lishga majbur bo‘lib qoladi. Shuning uchun qizni vaqtida nikohlash zarur. Aks holda ayollar ersiz qolib ketadilar.

Fasod tarqalishining uchinchi ko‘rinishi — odamlar solihlik va iffatni yomon ko‘rib qolishlaridir. “Ko‘rdik, solih bo‘lsa ham hech kim unga qizini bermaydi ekan”, deb solihlik va iffatdan soviydilar. Shu orqali jamiyat o‘z-o‘zidan fasodga yuz tutadi. Bu holat bizning jamiyatimizda ham ko‘rinmoqda. Masalan, maktab va oliygohlarda yaxshi o‘qigan talabalar ko‘p hollarda yirik yutuqlarga erisha olmaydi. Aksincha, past bahoga o‘qigan, bezori yoki urishqoq bolalar sport ortidan chempion bo‘lib, katta muvaffaqiyatlarga erishishadi. Natijada xalqning o‘qishga ishtiyoqi so‘nib ketadi. “O‘qigan bilan nima bo‘lardi? Nari borsa o‘qituvchi bo‘ladi”, deb ilmga bo‘lgan rag‘batdan uzoqlashadilar.

Sakkizinchi foyda: Iffatli qiz fojir yigitga nikohlanmaydi. Shuningdek, iffatli yigit ham fojir qizga nikohlanmaydi.

To‘qqizinchi foyda: Ayol kishining soliha bo‘lishi — Alloh taoloning unga solih kishiga turmushga chiqishga tavfiq berishining sabablaridandir. Chunki jazo ham, mukofot ham amalning jinsidan bo‘ladi. Ya’ni, ayol solih kishiga turmush qurishni istasa, o‘zi ham soliha bo‘lishi lozim.

64-hadis

Turmush qarori mas’uliyati valiylarda

Muallif shunday deydi: Turmushga chiqish qaroringni oilaviy qaror qilgin. Bunda mas’uliyatni erkaklar ko‘taradigan bo‘lsin.
Ayol kishi ko‘ngli tusagan odamiga o‘zi xohladi, deb erga chiqib ketavermaydi. Turmush qurish qarori oilaviy qabul qilinadi. Shunda mas’uliyatni erkaklar zimmasiga oladi. Mas’uliyat esa — turmushdan keyingi hayotning barqarorligi.

Agar qiz o‘zicha, hech kimdan — xususan otasidan, akasidan yoki boshqa valiysidan so‘ramasdan bir yigitga turmushga chiqib ketsa, keyinchalik uyida janjal bo‘lsa uni kim himoya qiladi? Ota yoki aka norozi bo‘lib turmushga chiqqan qizning yonini olmaydi. Aksincha: “Battar bo‘l, o‘zing xohlab tegib olgansan”, — deyishadi. Shuning uchun nikohdan keyingi mas’uliyatni ko‘tara oladigan valiy roziligi shart.

Albatta, bu yerda erkaklarga ham dakki bor. Agar ular qizning turmush masalasiga beparvo bo‘lishsa, uning erga chiqishiga harakat qilmasalar, bunday odamlarni valiy deyish to‘g‘ri emas. Valiy — o‘z nomi bilan himoyachi. Agar qizning asl valiysi bu vazifani ado etmasa, ayol o‘z valiyligini boshqa uni himoya qila oladigan solih insonga topshiradi va ana shu inson uning valiysi hisoblanadi.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «لَا تُنْكِحُ الْمَرْأَةُ الْمَرْأَةَ، وَلَا تُنْكِحُ الْمَرْأَةُ نَفْسَهَا». قَالَ أَبُو هُرَيْرَةَ رضي الله عنه: كُنَّا نَعُدُّ الَّتِي تُنْكِحُ نَفْسَهَا هِيَ الزَّانِيَةَ

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytadilar: “ayol ayolni nikohlamaydi va ayol o’zini ham nikohlamaydi”. Abu Hurayra aytdilar: “biz o’zini nikohlaydigan ayolni zoniya sanar edik”

Hadisda aytilgan: “Ayol ayolni nikohlamaydi” — degani, masalan, biror qizning onasi, opasi yoki dugonasi qizni nikohlab, erga berib yubora olmaydi.

Xuddi shunday, “Ayol o‘zini ham nikohlamaydi” deyilganda, biror qiz o‘zini o‘zi nikohlab, erga chiqib keta olmaydi, degan ma’no ko‘zda tutiladi.

Bizning jamiyatlarda ham ko‘pincha nikoh noto‘g‘ri tarzda o‘tkaziladi. Bir domlani chaqirib, oldiga kuyov bilan kelinni o‘tqazib qo‘yib, ikkisidan rozilik so‘raladi. Aslida esa qizning valiysidan rozilik so‘ralishi kerak.

Abu Hurayra roziyallohu anhu: “Biz o‘zini nikohlaydigan ayolni zoniya (fahisha) deb bilar edik”, — deganlar. Sahobalar qachon “biz” deb gapirishsa, bu so‘z barcha sahobalar istisnosiz shu amalni qoralaganini anglatadi.

Hanafiy mazhabida ayolning o‘zini nikohlashi bor, ammo bunda ayolning aqlli bo‘lishi sharti qo‘yilgan. Lekin bu juda qaltis masala. Chunki qaysi ayol o‘zini “men aqlsizman” deydi?! Nafsiga to‘g‘ri kelgan hamma o‘zini aqlli hisoblaydi. Shuning uchun bu shart amalda topilmaydi. Aslida Hanafiylarning bu fatvosiga mustahkam dalil yo‘q. Shuning uchun yuqoridagi hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytgan va barcha sahobalar ittifoq qilgan yo‘l — ayolning o‘zini nikohlashi joiz emas.

Shu joyda savol tug‘iladi: “Biz valiysiz nikoh qilganmiz, o‘rtada bolalarimiz bor, demak shuncha yil zino qilib keldikmi? Men zoniya bo‘ldimmi?” — deydiganlar bo‘ladi. Ularga javob shuki: agar ota-onangiz nikohingizni bilgan bo‘lsa va “mayli” degan bo‘lsa, nikohingiz sahih hisoblanadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Er-xotinlik hayotini muvaffaqiyatsizlikdan himoya qilish juda muhimdir. Oila qurish — tajriba qilib ko‘rish emas. Agar qurilgan oila buzilib ketsa, bu oddiy xato emas, balki katta muvaffaqiyatsizlik hisoblanadi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi nafaqat o‘zini, balki boshqa ayollarni ham nikohlashga bosh-qosh bo‘lishi joiz emas. Ayol nikoh masalasida maslahat berishi mumkin, ammo nikohdagi rozilik jarayoniga aralasha olmaydi.

Uchinchi foyda: Qaysi ayol o‘zini o‘zi turmushga berayotgan bo‘lsa, u zinokor erkak va zinokor ayollar safidan sanaladi. Chunki bu kelishuv zinodagi kelishuvga o‘xshaydi. Zino qilmoqchi bo‘lgan erkak ayolga taklif qiladi, ayol esa uni qabul qiladi. Ayolning o‘zini o‘zi nikohlab olishi ham xuddi shunga o‘xshaydi.

To‘rtinchi foyda: Valiyning bo‘lishi — nikohning sahih bo‘lishi uchun shartlardan biridir.

65-hadis

To’ylarda haddan oshmaslik

Muallif shunday deydi: To‘ylardagi o‘yin-kulgi muhabbati seni Alloh taolo harom qilgan narsalarga tushib qolishga tortmasin. “Bu umrdagi bir kecha xolos”, deb uzr qidirmagin.

To‘y — motam emas. Xo‘mrayib, qovoq solib o‘tiradigan marosim ham emas. To‘yda albatta xursandchilik bo‘ladi, o‘yin-kulgi bo‘ladi. Lekin bu xursandchilik Alloh harom qilgan narsalarga kirib ketmasligi kerak.

Masalan, to‘yda qo‘shiq aytish, aroq ichish, raqsga tushish, rasm va videolarga olib ularni tarqatish — joiz emas. To‘y to‘ydek o‘tishi lozim: xursandchilik va o‘yin-kulgi bo‘lishi mumkin, ammo Alloh belgilab qo‘ygan halol va harom chegarasidan o‘tmagan holda.

Kelin ham “bu hayotimdagi birgina kun”, deb o‘ziga har narsani ruxsat berib yubormasligi kerak. Chunki bu birgina kun deb qo‘yilgan qadam oxiratga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها: أَنَّهَا زَوَّجَتِ امْرَأَةً إِلَى رَجُلٍ مِنَ الْأَنْصَارِ، فَقَالَ نَبِيُّ الله ﷺ: «يَا عَائِشَةُ، مَا كَانَ مَعَكُمْ لَهْوٌ؟ فَإِنَّ الْأَنْصَارَ يُعْجِبُهُمُ اللَّهْوُ»

Oisha roziyallohu anho ansorlardan bir kishiga bir ayolni uzatdilar. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Ey Oisha, sizlarda o‘yin-kulgi bo‘lmadi chog‘i? Albatta ansorlar o‘yin-kulgini yaxshi ko‘radilar.”

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning: “O‘yin-kulgi bo‘lmadi chog‘i?” — degan so‘zlari tabiiyki halol o‘yin-kulgiga ishora qiladi. Masalan, nasheedlar aytib, o‘zaro hazil-huzullar qilib, to‘yni chiroyli o‘tkazish.

U zotning “bo‘lmadi chog‘i?” deb so‘raganlari — aslida to‘ylarda bunday o‘yin-kulgi qilinmaganini anglatadi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, sahobalar to‘y bahonasida har narsani qilib yuborish kerak emasligini juda yaxshi bilishgan.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam esa ansorlarning o‘yin-kulgini yaxshi ko‘rishlarini inobatga olib, ularga rioya qilishni istadilar. Chunki agar odamlar o‘rgangan narsalari shariy me’yor bilan qondirilmasa, oxir-oqibat uni harom narsalar bilan qondirishga o‘tib ketishadi. Insonning tabiiy g‘arizasini halol yo‘l bilan qondirish esa shariatning hikmatlaridan biridir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: To‘ydagi o‘yin-kulgi joizdir. Albatta bunda harom ishlar bo‘lmasligi kerak.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi nikoh kechasida eriga uzatilganda, uni baxtli qiladigan narsalar bilan uzatilishi lozim. Orzu-havaslar shariy me’yor doirasida bo‘lib, to‘y ham shunga muvofiq o‘tkazilishi kerak.

Uchinchi foyda: To‘yda muboh o‘yin-kulgi qilishning qoidasi shariatga muvofiq bo‘lishidir. O‘yin-kulgi deb, xohlagan narsani qilib yuborish mumkin emas. Shariat chegaralarini buzmagan holda bo‘lishi shart. Afsuski, bugungi to‘ylarning aksari shariatga muvofiq emas: kelinni hammaning oldiga olib chiqib ko‘rsatish, olov atrofida aylantirish, kelin salom qildirish va hokazo. Sanab chiqilsa, juda ko‘p noshariy amallar to‘ylarda avj olgan.

To‘rtinchi foyda: To‘yda o‘yin-kulgidan maqsad — xursandchilik tarqatishdir. Shariatda hech narsa bejiz belgilanmagan. Nega to‘y o‘yin-kulgi bilan o‘tishi shariatda ko‘rsatib qo‘yilgan?

Birinchidan, zinodan farqi bo‘lishi uchun. Zino — maxfiy bo‘ladi, nikoh esa oshkora qilinadi. Ikkinchidan, odamlarni nikohga targ‘ib qilish uchun. Bir qiz yoki bir yigitning baxtli bo‘lib turmush qurayotganini ko‘rgan boshqa insonlarda o‘z-o‘zidan nikohga rag‘bat kuchayadi.

Beshinchi foyda: Bu o‘yin-kulgilar asosan ayollarga xos bo‘lishi kerak. Erkaklar ayollar bilan sherik bo‘lib o‘yin-kulgi qilmaydi. Erkak ayollarga o‘xshab bayramona xursandchiliklarda aralashib yurishi joiz emas.

Oltinchi foyda: Ayollarga to‘ylarda o‘yin-kulgi yoqadi. Bu ularning tabiatiga mos va shariat ham bunga ruxsat beradi.

Yettinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarga chiroyli muomala qilishda kenglik berishga intilar edilar. Ayolni siqmaslik, xususan quvonchli kunlarda — to‘y, hayit va boshqa bayramlarda — unga kenglik qilish shariatning hikmatlaridan biridir. Biroq bu kenglik ham shariatning halol-me’yor chegaralaridan chiqmasligi lozim.

Sakkizinchi foyda: Din ayol kishining hayotida xilma-xil holatlarga rioya qilgan. Uning solih amal qilishiga yordam beradigan usullar bilan uni qo‘llab-quvvatlagan. Shariatdagi bunday rioya ayolning hayotini yengillashtirish va unga savob yo‘lini ochib berish uchun belgilangan.

66-hadis

Er-xotinlik aloqalari najosat emas

Muallif shunday deydi: Er-xotinlik aloqalarida yuksaklikni taammul qil. Er-xotin o‘rtasidagi aloqada najosat yo‘qdir. Undan keyin esa poklanish buyurilgan.

“Er-xotin aloqalarida yuksaklik” degani — bu o‘sha aloqadagi madaniyat, odob va axloqdir.

Er-xotinlik aloqalarida najosat yo‘q. Hattoki, bu aloqa hojatxonaga kirishdan ham toza ish. Chunki uning ortidan inson paydo bo‘ladi. Inson esa najas emas, balki sharafli mavjudotdir.

Aslida hojatxonadagi ishlar najas bo‘lgani uchun, undan keyin tozalanish shunchaki kesak bilan yoki bugungi kunda hojatxona qog‘ozi bilan artinish bilan kifoya qiladi, g‘usl shart emas. Ammo er-xotinlik aloqalari pok bo‘lsa ham, undan keyin g‘usl qilish shart qilingan. Bu — islomdagi odob va ibodatdir. Buni inson aqliga qarab tushuntirish shart emas. Aksincha, ibodat deb bilib, Allohning amriga itoat etish kerak.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ قَالَ: «إِذَا جَلَسَ بَيْنَ شُعَبِهَا الأَرْبَعِ، ثُمَّ جَهَدَهَا، فَقَدْ وَجَبَ الْغُسْلُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Agar erkak ayolning to‘rt muchasi orasiga o‘tirsa va xatna qilingan a’zosi xatna qilingan a’zoga tegsa, batahqiq g‘usl vojib bo‘ladi.”

“To‘rt muchasi” — ya’ni ikki qo‘l va ikki oyoq. Hadisda: “To‘rt muchasi orasiga o‘tirib, xatna qilingan a’zoni xatna qilingan a’zoga tegizsa” deyilgani — jimo’ boshlanishiga ishora. Erkakning xatna qilinishi ma’lum. Ayollar ham avvalgi zamonlarda xatna qilingan. Erkak uchun bu vojib, ayol uchun esa sunnatdir.

Hadisdan shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, erkak va ayolning xatna qilingan a’zolari bir-biriga tegsa, ish oxiriga yetmagan taqdirda ham g‘usl vojib bo‘ladi. Erkak ham, ayol ham bo‘shanishidan qat’i nazar, bu amal boshlangach, g‘usl qilish shart bo‘ladi. Ba’zi odamlar noto‘g‘ri misol keltiradilar: “Bir qop sabzi ko‘tarib ketayotgan eding, bir donasi loyga tushib ketsa, butun qopni yuvmaysan-ku, faqat o‘sha bitta sabzini yuvib qo‘yasiz”, — deydilar. Bu misolni jimo’dagi g‘uslga qiyoslab, faqat aloqa qilgan a’zoni yuvish kifoya, deb aytishadi.

Aslida bu mutlaqo noo‘rin qiyosdir. Chunki shariatda g‘usl — ibodatdir. Er-xotinlik aloqasi ham ibodat bo‘lgani kabi, undan keyingi g‘usl ham ibodatdir. Shuning uchun bu masalada inson aqliga tayangan qiyos emas, balki shariatning o‘zi hukm chiqaradi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Er-xotin o‘rtasida g‘usl vojib bo‘lishi maniy hosil bo‘lishiga bog‘liq emas. Er-xotinlik aloqasi sodir bo‘lsa, bo‘shanish bo‘lmasa ham g‘usl vojib bo‘laveradi.

Ikkinchi foyda: Janobatdan g‘usl qilish erkakka ham, ayolga ham vojibdir. Qaysi biri bo‘shangani yoki bo‘shanmaganining farqi yo‘q. Har ikkisi uchun ham g‘usl vojib bo‘ladi.

Uchinchi foyda: Iffat — ayol kishining tahoratidir. Iffatli ayol hamma nazarda tahoratli, pok va munavvar bo‘lib ko‘rinadi. Uning hayo va iffatiga rioya qilishi — uni doimo pokiza saqlovchi vositadir.

67-hadis

Erni tinchlantir, tinchini buzma

Muallif shunday deydi: Ering hayotini loyqalatishdan o‘zingni saqla. Chunki buning oqibati juda xatarli bo‘ladi.

Alloh taolo xotinlarni erkakka sokinlik va xotirjamlik topishi uchun yaratgan. Masalan, erkak uyiga qaytganda tinchlik va osoyishtalik topishi kerak, tinchi buzilmasligi lozim. Bu — xotinning eng muhim vazifalaridan biridir.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «إِذَا دَعَا الرَّجُلُ امْرَأَتَهُ إِلَى فِرَاشِهِ فَأَبَتْ، فَبَاتَ غَضْبَانَ عَلَيْهَا، لَعَنَتْهَا الْمَلَائِكَةُ حَتَّى تُصْبِحَ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Agar erkak kishi xotinini to‘shagiga chaqirsa, xotin esa rozi bo‘lmay rad etsa, so‘ng erkak unga g‘azab qilib yotsa — tong otguniga qadar farishtalar o‘sha ayolni la’natlaydilar.”

Hadisda hech bir sabab istisno qilingan emas. Illo ba’zi shariy sabablar mavjud: masalan, ayol kasal bo‘lib zulm ko‘rib qolsa, hayz davrida yoki nifos vaqtida bo‘lsa, bu holatlar mustasno sanaladi. Ammo eriga noz qilib, arazlab, o‘chakishib yoki uni yoqtirmagani uchun rad qilsa — tong otguniga qadar farishtalar unga la’nat aytadilar.

La’nat esa hech qachon kichik gunohga kelmaydi. Demak, bu ish katta gunohlardan ekanki, farishtalar la’natlaydilar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishining zimmasidagi vojib huquqlardan biri — eriga javob berishdir. Har qachon er uni to‘shagiga chaqirsa, modomiki ayolni shar’iy mone’ narsa to‘sib turmagan bo‘lsa, javob berishi shart. Bu hukmda manzilning ahamiyati yo‘q. Masalan, er ish yoki o‘qish uchun xorijga ketgan bo‘lsa va ayolini ham o‘sha davlatga chaqirsa, ayol shariy mone’ bo‘lmasa borishi kerak. Agar u davlatda diniga amal qilib yashay olmasa yoki hijobiga to‘sqinlik qilinsa, bunday holat uzr sanaladi. Ammo dini bilan yashay oladigan joyga chaqirilayotgan bo‘lsa, ayolning borishi vojibdir.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi shariy uzrsiz erining chaqirig‘idan bosh tortsa, hadisda aytilgan tahdid unga tegishli bo‘ladi. Farishtalar o‘sha ayolni kechasi bilan, tong otguniga qadar la’natlaydilar. Hadisda “tundan tonggacha” deyilganidan, faqat tunda rad etish gunoh, kunduzda esa rad etish joiz degan ma’no chiqmaydi. Er-xotin aloqalari odatda tunda sodir bo‘lgani uchun hadisda tun zikr qilingan.

Bu masalani yana bir hadis mustahkamlaydi: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Eri xotinini xohlasa, u tandir ustida non yopayotgan bo‘lsa ham javob bersin, hatto egarning ustida bo‘lsa ham.” Non yopish yoki egarda yurish odatda kunduzda bo‘ladigan ishlar. Demak, kunduzi ham erning chaqirig‘iga “labbay” deb javob berish kerak.

Nega erning bir chaqirig‘ini rad qilish ayol uchun bu qadar og‘ir hukmga sabab bo‘lmoqda?

Birinchidan: bu — erga itoatsizlikdir.
Ikkinchidan: erkak shahvatini harom yo‘llar bilan qondirishga urinishi mumkin. Agar Allohdan qo‘rqmasa, zino qiladi yoki boshqa fahsh ishlarga qo‘l uradi.

Uchinchi foyda: Erining to‘shakka chaqirig‘ini rad qilgan ayolga farishtalar la’nat aytishidan tashqari, yana boshqa hukmlar ham mavjud:

- Bu amal og‘ir gunoh hisoblanadi.
- To‘shakda erning haqqi buyukdir.
- Erkak kishida joylangan shahvat qarshisida u zaif bo‘ladi.

Erkak kishi ikki holatda o‘zini o‘zi boshqara olmaydi:

1. Qattiq och qolganida.
2. Qattiq shahvati qo‘ziganida.

Shu haqiqatni tushungan ayol erining bu boradagi ehtiyojlarini qondirishga doimo haris bo‘lishi kerak.

Ayollar bu masalani yanada chuqurroq his qilishni istasalar, rashk qilgan paytlarini eslashlari kifoya. Chunki ayol rashk qilgan vaqtda o‘zini boshqara olmagani kabi, erkak ham yuqorida sanalgan vaziyatlarda o‘zini boshqara olmaydi. Erkakning shu ojiz holiga ayol sababchi bo‘lgani uchun ham u la’natlanadi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi eri chaqirganda bosh tortishidan bir necha gunohlar kelib chiqadi:

1. Erning haqqini man qilish bilan unga zulm qiladi. Bir insonni ishlatib, pulini bermaslik unga qanday zulm bo‘lsa, ayolning erini to‘shakka chaqirganda rad etishi ham shunday zulmdir.
2. Erning haqqini man qilish bilan Allohga osiy bo‘ladi.
3. Erning hayotini bulg‘aydi. Buning ortidan erini asabiy qilib qo‘yadi. Aslida ayol erining “sakinati” bo‘lishi kerak edi. Erkak uchun eng yaxshi sokinlik — to‘shakdir. Ayol esa uni shu sokinlikdan mahrum qilib, hayotini bulg‘aydi. Natijada erkak o‘z asabini bolalariga va ko‘chadagilarga sochishi mumkin.
4. Ayol kishi eriga yomon rafiqa bo‘ladi.
5. Erini fitnaga duchor qiladi. Uyda shahvati qondirilmagan erkak ko‘chada ko‘zini tiyishga qiynaladi. Marketing mutaxassislari odamlarni ko‘p xarajat qilib qo‘ymasliklari uchun qorinlarini to‘ydirib do‘konga kirishni maslahat berishadi. Huddi shunday, erkak ham ko‘chada ko‘zini tiya olishi uchun uyida shahvatdan to‘yib chiqishi kerak.

Beshinchi foyda: Erkakka itoat qilish — ayol uchun vojibdir, modomiki er uni ma’siyatga buyurmagan bo‘lsa.

Oltinchi foyda: Agar erning shahvatini qondirmagani uchun ayolga shunday og‘ir jazo bo‘lsa, endi u dinini tutishda va diniga bo‘y sunishda yengiltaklik qilsa, unga qanday jazo bo‘lishini tasavvur qilib ko‘rish kerak.

Erining haqqiga vafo qilmaganda jazo shu darajada og‘ir bo‘lar ekan, unda Alloh taoloning hukmlariga vafo qilinmaganda, bundan-da dahshatli jazo bo‘lishi tayindir. Chunki banda erining haqqini ado etmasa, bir insonning haqqiga xiyonat qilgan bo‘ladi. Ammo Allohning hukmiga bo‘y sunmasa, Parvardigorning o‘ziga itoatsizlik qilgan bo‘ladi. Bu esa batariqa a’lo, undan ham dahshatli jazoni talab qiladi.

68-hadis

Samo ahli qarg‘ishiga qolma

Muallif shunday deydi: Yomon fe’llaring sababli osmon ahlining seni duo-yomonlik bilan eslashidan ogoh bo‘l!

عَنْ مُعَاذِ بْنِ جَبَلٍ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «لَا تُؤْذِي امْرَأَةٌ زَوْجَهَا فِي الدُّنْيَا إِلَّا قَالَتْ زَوْجَتُهُ مِنَ الْحُورِ الْعِينِ: لَا تُؤْذِيهِ، قَاتَلَكِ اللهُ، فَإِنَّمَا هُوَ عِنْدَكِ دَخِيلٌ يُوشِكُ أَنْ يُفَارِقَكِ إِلَيْنَا»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Qaysiki ayol dunyoda eriga ozor bersa, albatta uning hurul-’iynlardan bo‘lgan xotini aytar: ‘Unga ozor berma, Alloh seni halok qilsin! U sening huzuringga faqat vaqtincha kirgan. Yaqinda u sendan ayrilib bizning oldimizga keladi.’”

Ayollarda erlariga eng ko‘p ozor beradigan xususiyatlardan biri — noo‘rin rashkdir. Rashkning Alloh yaxshi ko‘radigan turi ham bor, yomon ko‘radigan turi ham.

Alloh yaxshi ko‘radigan rashk — shubhaga o‘rinli vaziyatlarda rashk qilishdir. Masalan, erining boshqa ayol bilan gaplashayotgani ayon bo‘lsa, telefonda haddan ziyod vaqt o‘tkazib, xotiniga e’tibor bermasa va shunga o‘xshash hollarda rashk qilish ma’quldir.

Ammo Alloh yomon ko‘rgan rashk — hech bir sababsiz, asossiz rashkdir. Bunday o‘rinlarda ayolning erini noo‘rin rashk qilishi unga og‘ir ozor beradi, oilaviy hayotni ham chigallashtiradi.

Ba’zi ayollar erini boshqalarning eri bilan taqqoslaydilar: “Falonchining eri falon narsani olib beribdi, falon joylarga olib boribdi” va hokazo. Bu ham erga beriladigan ozorlardan biridir.

Aslida ayollar boshqa ayollarning erlari haqida faqat yaxshi sifatlarini eshitadilar. Har bir erkakning yaxshi va yomon tomonlari bor. Lekin boshqalardan faqat ijobiy jihatlarni eshitgani sababli o‘z erlari ularga yomonroq ko‘rinadi. Bir erkakda topilgan yaxshi sifat ikkinchisida bo‘lmasligi, ikkinchisidagi yaxshi sifat esa birinchisida bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun erlarni solishtirish noo‘rin bo‘lib, erga og‘ir ozor beradi.

Eriga ozor bergan ayolni erining Jannatdagi hurlari qarg‘aydilar. Bu esa dalolat qiladiki, Jannat ayni paytda mavjud va undagi hurlar ham mavjuddir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi eriga ozor berishi juda xatarli ekan. Chunki bu amal dunyoda ham, oxiratda ham yomon oqibatlarga olib keladi.

Ikkinchi foyda: Solih erni Jannatdagi hurlar himoya qiladilar. Ammo agar er fosiq bo‘lsa va uning ayoli uni to‘g‘ri yo‘lga chaqirsa, bunday paytda erning: “Menga ozor berding” deyishga haqqi yo‘q.

Uchinchi foyda: Hurlar dunyo ahlidan bo‘lgan erlarining baxtiga haris bo‘ladilar. Dunyodagi jannatiy ayolning sifati ham shunday: u ham erini baxtli qilishni istaydi, uni qiynalib, siqilib yurishini xohlamaydi.

To‘rtinchi foyda: Erkak xotinining oldiga vaqtincha kirar ekan. Ma’lum muddatdan keyin esa oxirat diyoriga ketadi. Shuning uchun ayol Jannat ahlidan bo‘lishga harakat qilishi lozim.

Agar ayol eri bilan oxiratda birga bo‘lishni istasa, Jannatga kirishga intilishi shart. Hurlar ham uni duo-yibot qilishdan qutulish uchun shunday sa’y-harakat qiladilar.

Beshinchi foyda: Musulmon xonadon Jannat hurlari tomonidan muroqaba qilinadi, ya’ni ular tomonidan kuzatilib turadi va xonadondagi vaziyatlarga munosabat bildiriladi.

69-hadis

Baxtli ayol - erining makonatini bilgan ayol

Muallif shunday deydi: Sening baxt-saodating — eringning senga nisbatan maqomini bilishing bilandir.

Qaysi ayol baxtli bo‘ladi? Faqat o‘z talablarini bajarishga majbur qiladigan ayolmi yoki dunyo bezaklariga sho‘ng‘ib ketadigan ayolmi? Yo‘q. Haqiqiy baxtli ayol — erining o‘ziga nisbatan o‘rnini bilgan va unga shunga qarab muomala qiladigan ayoldir. Ana shunday ayol baxtli bo‘ladi. Chunki inson o‘z o‘rnini bilsa, dunyoda ham, oxiratda ham muvaffaqiyatga erishadi.

Bunga dalil sifatida Uhud jangini eslaylik. Musulmonlar nima uchun mag‘lub bo‘lishgan? Chunki sahobalar “tur” deyilgan joyda turmadilar. Albatta ularga ham uzr bor edi: “Urush tugadi, g‘alaba qozondik, biz ham g‘animatlardan qolib ketmaylik,” deb o‘yladilar. Ammo buyruq joyida turmaganlari sabab mag‘lubiyat keldi.

Xuddi shunday, har bir ayol ham o‘z o‘rnini bilmasa, erini hurmat qilmaydi, oilasiga ham, ummatga ham foyda keltira olmaydi. Boshqalarga berilgan maqomni o‘ziga ravo ko‘rmaslik kerak. Ayol o‘z maqomini to‘g‘ri anglab yetganida, u baxt va saodat topadi.

عَنْ قَيْسِ بْنِ سَعْدٍ رضي الله عنه قَالَ: أَتَيْتُ الْحِيرَةَ فَرَأَيْتُهُمْ يَسْجُدُونَ لِمَرْزُبَانٍ لَهُمْ، فَقُلْتُ: رَسُولُ اللَّهِ ﷺ أَحَقُّ أَنْ يُسْجَدَ لَهُ، قَالَ: فَأَتَيْتُ النَّبِيَّ ﷺ فَقُلْتُ: إِنِّي أَتَيْتُ الْحِيرَةَ فَرَأَيْتُهُمْ يَسْجُدُونَ لِمَرْزُبَانٍ لَهُمْ، فَأَنْتَ يَا رَسُولَ اللَّهِ أَحَقُّ أَنْ نَسْجُدَ لَكَ.

قَالَ: «أَرَأَيْتَ لَوْ مَرَرْتَ بِقَبْرِي أَكُنْتَ تَسْجُدُ لَهُ؟» قَالَ: قُلْتُ: لاَ. قَالَ: «فَلاَ تَفْعَلُوا، لَوْ كُنْتُ آمِرًا أَحَدًا أَنْ يَسْجُدَ لِأَحَدٍ لأَمَرْتُ النِّسَاءَ أَنْ يَسْجُدْنَ لأَزْوَاجِهِنَّ، لِمَا جَعَلَ اللَّهُ لَهُمْ عَلَيْهِنَّ مِنَ الْحَقِّ»

Qays ibn Sa’d roziyallohu anhu aytadilar: “Men Hiyra degan joyga bordim. U yerda odamlarning o‘z marzubonlariga (hokimlariga) sajda qilayotganini ko‘rdim. Shunda ichimdan: “Bunday ehtiromga Rosululloh sollollohu alayhi va sallam haqliroqlardir” deb o‘yladim. So‘ng Rosululloh sollollohu alayhi va sallam huzurlariga borib bu holatni zikr qilib, sizga sajda qilishimizga ruxsat bormi, deb so‘radim.

Rosululloh sollollohu alayhi va sallam: “Agar mening qabrim oldidan o‘tsang, unga sajda qilarmiding? Unday qilmanglar. Agar men biror kishini boshqa kishiga sajda qilishga buyurgan bo‘lsam, ayollarning erlariga sajda qilishini buyurgan bo‘lardim. Chunki Alloh erkaklarga xotinlari ustidan buyuk huquq bergandir” dedilar.”

Marzuban — podshohdan keyingi lavozimda turadigan katta mansabdor kishi.

Ayolning haqiqiy saodati — uning eriga bo‘lgan munosabatida. Ya’ni ayolning baxti dunyo ziynatlarida, o‘z talablarini bajartirishda yoki moddiy narsalarda emas. Asl baxt — ayolning erining oiladagi maqomini tanib, unga qarab munosabatda bo‘lishidadir.

Kimki o‘z o‘rnini va erining oiladagi maqomini tanib yashasa — u haqiqiy baxtli ayoldir. Chunki inson maqomini bilmasa, oilada ham, oxiratda ham mag‘lub bo‘ladi. Bu holat Uhud jangida sahobalarning “tur” deyilgan joyda turmay, mag‘lubiyatga uchraganiga o‘xshaydi.

Fors diyori odatlaridan biri hokim — marzubonlarga sajda qilish edi. Sahobalardan ba’zilari buni ko‘rib, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga: “Siz bunga haqliroqsiz, sizga sajda qilsak bo‘ladimi?” — deb so‘rashdi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar:

“Agar men birovni birovga sajda qilishga buyursam, ayollarning erlariga sajda qilishini buyurardim. Chunki Alloh erkaklarga xotinlari ustidan buyuk huquq bergandir.”

Bu hadis erning haqqi naqadar ulug‘ ekanini ko‘rsatadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Erning haqqi buyukdir. Ayol kishi erining haqqini tan olib, uni ado qilishga doimo intilishi lozim.

Ikkinchi foyda: Erga yaxshiliklarda itoat qilish vojibdir. Ayol kishi eriga ma’ruf — ya’ni yaxshilik va shariatga muvofiq ishlarda itoat qilishi farzdir. Biroq gunoh ishda erning so‘ziga bo‘ysunilmaydi.

Uchinchi foyda: Ayol kishi erining bergan ne’matlariga shukr qilishda ko‘pincha ojiz bo‘lib qoladi. Chunki ayol ba’zan erining ne’matlarini unutadi. Shu bois u doimo shukrni yodda tutishi va eridan topgan rizq va rohatlarga minnatdor bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi foyda: Hadisdan keyin hech bir ayol eridan boshqasini ustun qo‘ymaydi. Ayol kishi eridan boshqa hech kimni, hatto ota-onasini ham ustun qo‘ymaydi. Chunki nikohdan keyin erga itoat qilish birinchi o‘ringa chiqadi.

Beshinchi foyda: Agar biror inson boshqa bir insonga sajda qilishi mumkin bo‘lganida, bu sharaf va imkoniyatga erkak o‘z xotinidan erishgan bo‘lar edi. Bu erning haqqining buyukligiga dalildir.

Oltinchi foyda: Allohdan boshqasiga ibodat sajdasi haromdir. Hatto ta’zim ma’nosidagi sajda ham bizning ummatimizda man qilingan. Shuning uchun erga sajda qilish amalda buyurilmagan, faqat erning haqqi naqadar ulug‘ ekanini ta’kidlash uchun shunday qiyosiy so‘z aytilgan.

70-hadis

Erga dinda yordamchi bo'l

Muallif shunday deydi: Eringga Allohning toatida yordamchi bo‘l.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «رَحِمَ اللَّهُ رَجُلًا قَامَ مِنَ اللَّيْلِ فَصَلَّى، وَأَيْقَظَ امْرَأَتَهُ، فَإِنْ أَبَتْ نَضَحَ فِي وَجْهِهَا الْمَاءَ، رَحِمَ اللَّهُ امْرَأَةً قَامَتْ مِنَ اللَّيْلِ فَصَلَّتْ، وَأَيْقَظَتْ زَوْجَهَا، فَإِنْ أَبَى نَضَحَتْ فِي وَجْهِهِ الْمَاءَ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Alloh bir kishiga rahm qilsin: u kechasi turib namoz o‘qisa va xotinini ham uyg‘otsa, agar u uyg‘onmasa yuziga suv sepadi. Alloh bir ayolga ham rahm qilsin: u kechasi turib namoz o‘qisa va erini uyg‘otsa, agar u uyg‘onmasa yuziga suv sepadi.”

Hadisdagi ma’no shuki, er-xotin ibodatda ham bir-biriga yordamchi bo‘lishlari kerak. Bu holat bizdagi “er-xotin qo‘shho‘kiz” degan iboraga o‘xshaydi: birga harakat qilinsa, yuk yengil bo‘ladi. Shuning uchun hadisda ikkala tomon ham zikr qilindi: er xotinini uyg‘otsa ham savob, xotin erini uyg‘otsa ham savob.

Oyisha onamiz roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam kechalari meni vitr namoziga uyg‘otar edilar. Lekin u zotning tabiati boshqalarni majburlash emas, balki muloyimlik bilan uyg‘otish edi.”

Demak, bu yerda gap farz emas, balki nafl namoz haqida ketmoqda.

Qur’onda aytilgan: “Ahlingni namozga buyur va bu ishda sabr qil” (Toho, 132). Demak, bu bir-ikki marta aytib qo‘yish bilan kifoyalanmaydi, balki doimiy sabr va davomiylikni talab qiladi. Er xotinini, xotin erini, ota-onalar farzandlarini doimiy ravishda namozga chorlab turishlari lozim.

Hadisda zikr qilingan “yuziga suv sepish” majburlash emas, balki muloyimlik bilan uyqudan uyg‘otishdir. Ayniqsa issiq o‘lkalar uchun mos bo‘lsa, sovuq hududlarda zararli bo‘lishi mumkin. Demak, bu yerda maqsad suv emas, balki uyg‘otishdir. Bu amal hazil, muloyimlik va mehribonlik ruhida bo‘lishi kerak.

Agar er-xotin o‘rtasida yaxshi aloqa, hazil-mutoyiba mavjud bo‘lsa, bunday ishlar mehrni yanada kuchaytiradi. Ammo orada sovuqlik bo‘lsa, majburlash yoki keskinlik yomon oqibatlarga, hatto taloqqa olib kelishi mumkin. Shuning uchun hadisni holatlarga qarab tushunish lozim.

Ayol kishi o‘zining muloyimligi va aql-zakovati bilan erini solih amallarga yo‘naltira oladi. Hatto tarixda Fir’avnning xotini Osiyoning o‘rni bunga dalil bo‘ladi: u eng qaysar va zolim odamni ham yumshatib, to‘g‘ri qarorga yo‘naltira olgan. Demak, ayolning erini ibodatga rag‘batlantirishi katta savobdir.

Oilada kimdir bir amal qilsa, boshqasi unga ergashadi. Er qilsa, xotin ergashadi; xotin qilsa, er ergashadi. Bu esa oilada ibodatlarni kengaytiradi. Farzandlar ham ota-onasiga qarab o‘rganadilar. Shu tarzda yaxshilik oilada ildiz otadi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Er-xotin o‘zaro yordamchi bo‘lishlari lozim. Ibodatda bir-birini qo‘llab-quvvatlash buyuk mustahab amaldir. Chunki oilaning barqarorligi faqat moddiyat bilan emas, balki birgalikda Allohning roziligi sari intilish bilan mustahkamlanadi.

Ikkinchi foyda: Namozning oiladagi o‘rni ulug‘dir. Namoz — qalblarni birlashtiruvchi, uyni baraka bilan to‘ldiruvchi, oilaning haqiqiy baxtining asosiy omilidir. Namozsiz xonadonda qanchalik mol-dunyo bo‘lmasin, qalblar xotirjamligi yo‘qoladi.

Uchinchi foyda: Er-xotinning birgalikda qiyomullayl ado etishlari taqvoni mustahkamlaydi va oilaviy totuvlikni ziyoda qiladi. Chunki tunning sokin paytida yonma-yon ibodat qilgan qalblar kunduzgi hayotda ham yanada yaqinlashadi, bir-biriga mehr qo‘yadi.

To‘rtinchi foyda: Uyg‘otishda muloyimlik lozim. Er-xotin bir-birini ibodatga undashda yumshoqlik, hazil-mutoyiba ishlatishlari kerak. Majburlash emas, rag‘batlantirish muhim. Bu ham yashayotgan diyor va urf-odatga qarab bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Bir-birining ibodatga chaqirig‘iga ijobat qilish kerak. Erkak yoki ayol — farqi yo‘q, kim yaxshilikka chaqirsa, javob berish vojibdir. Uni kibr bilan inkor qilmaslik kerak. Er-xotin sadaqa, ro‘za, namoz kabi ibodatlarda hamkor bo‘lsalar, bu oilaning ma’naviy mustahkamligiga xizmat qiladi.

Oltinchi foyda: Suv sepishning hikmati mehribonlikdadir. Bu majburlash emas, balki yumshoqlik bilan uyg‘otishdir. Suvni jahl bilan, qo‘pollik bilan yoki jo‘rttaga to‘kib yuborish emas, balki yengilgina sepish nazarda tutilgan.

Yettinchi foyda: Ayol kishi erini solih amallarga yo‘naltirish qudratiga molikdir. Chunki ayolning tabiiy muloyimligi va latofati erkakning qalbini yumshatadi, uni ibodat va taqvoga chorlaydi. Tarixda Fir’avnning xotini Osiyo bunga yorqin misoldir — eng zolim odamni ham iymonga da’vat qilishga harakat qilgan. Shunday ekan, ayol o‘zining sabri, yumshoqligi va zakovati bilan erini solih amallarga undashi mumkin.

Sakkizinchi foyda: Er-xotin o‘zaro o‘rnak bo‘lishlari lozim. Birining ibodatdagi sobitligi ikkinchisiga kuch beradi. Bu nafaqat o‘zaro isloh bo‘lishga, balki farzandlar tarbiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onasining qiyomullayl yoki namozini ko‘rgan farzand, tabiiy ravishda solihlikka moyil bo‘lib ulg‘ayadi. Demak, oilada har bir solih amal — butun avlodga o‘rnak bo‘lib yoziladi.

71-hadis

Erga begona ayollarni gapirmaslik

Muallif shunday deydilar: Ering bilan qiladigan ishlaringda e’tiborli bo‘l. Chunki ba’zi amallar senga halokatni yetaklashi mumkin.

Ayol kishi eriga har qanday muomalani qilavermaydi. Ayrim ishlar tashqaridan arzimas ko‘rinsa ham, oqibatda uning boshiga balo va pushaymonlik keltirishi mumkin.

عَنْ عَبْدِ اللهِ بْنِ مَسْعُودٍ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ النَّبِيُّ ﷺ: «لَا يُبَاشِرُ الْمَرْأَةَ الْمَرْأَةَ فَتَنْعَتَهَا لِزَوْجِهَا كَأَنَّهُ يَنْظُرُ إِلَيْهَا»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Bir ayol boshqa bir ayol bilan muosharot qilib, so‘ng uni eriga tasvirlab bermasin. Go‘yoki eri uni ko‘rib turgandek bo‘lib qolmasin.”

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Bir ayol boshqa bir ayolga diqqat bilan qarab, keyin uni eriga batafsil sifatlab berishi haromdir. Chunki er o‘sha ayolni ko‘rmagan bo‘lsa ham, aytilgan sifatlardan uni go‘yoki ko‘z oldida turgandek tasavvur qilib oladi.”

Demak, ba’zi gaplar bor — ular nafaqat ayolning o‘ziga, balki eriga ham balo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ayol og‘zidan chiqadigan har bir so‘zini o‘ylab gapirishi lozim.

Bunda balo ikki xil bo‘ladi:

Dunyo balosi — erning qalbida boshqa ayolga havas uyg‘onadi, oilaning tinchi buziladi.

Oxirat balosi — erni gunohga, hatto zino kabi katta gunohlarga boshlashi mumkin.

Bugungi kunda bu masalaning ko‘rinishlari juda ko‘p:

- Ayollar bir-birlariga surat va videolar yuboradi, keyin ular erining ko‘ziga tushib qoladi.
- Ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram, TikTok va boshqalarda) surat qo‘yish, yolg‘oncha bezatilgan rasmlar ishlatish — hadisda qaytarilgan narsaning zamonaviy ko‘rinishidir.
- Ayolning vazni, bo‘yi, kiyim razmeri haqida gapirish ham begona erkak uchun uni tasvirlashga teng bo‘ladi.
- Sport zallariga borishini oshkora qilib, o‘zini ko‘rsatish ham fitnaga sabab bo‘ladi.

Shoirlar orasida ayollar haqida she’rlar, qo‘shiqlar aytish odat bo‘lgan. Bu ham erkaklarga xayolda bo‘lsa-da, ayolni tasvirlab berishga o‘xshaydi. Shariat esa fitna sababli bunday yo‘llarni ham man qildi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Yomonlikka eltuvchi vositalarni to‘sish. Yuqoridagi hadisning asl maqsadi — “sadd az-zaroya”, ya’ni fitnaga olib boradigan yo‘llarni yopishdir. Chunki insonni ortiqcha ta’riflash oxir-oqibat shahvoniy tasavvurlarni uyg‘otadi.

Bugungi kunda texnologiya shunday rivojlanganki, oddiygina ta’rif asosida kompyuter dasturlari odamning qiyofasini chizib bera oladi.

Agar bir temir-tersakka qiyofa tasvirlasangiz ham uni kompyuter tasvirlab chiqadi. Endi shahvatparast insonlar bunday ta'riflardan batariqa a'lo darajada foydalanib, begona ayolning qiyofasini tasavvur qilib oladi. Shuning uchun shariat bunday yo'lni boshidan yopib qo'ygan.

Ikkinchi foyda: Erkakning ayolga qarashi haromdir. Shuning uchun ayol haqida gapirish, uni tasvirlab berish yoki suratini ko'rsatish ham erkakning nazariga sabab bo'lib, harom bo'ladi.

Uchinchi foyda: Ayolning boshqa bir ayolni sifatlab eriga ta'riflab berishi ham haromdir. Faqat sovchilik niyatida — masalan, onasi yoki opasi qisqa ta'rif berishi joiz, ammo undan ortiqcha ta'riflash mumkin emas.

To'rtinchi foyda: Fitna so'z orqali ham sodir bo'ladi. Hatto erkak ko'rmasdan turib, faqat ta'rifni eshitishi bilan ham qalbida xohish uyg'onishi mumkin. Shu bois ayollarni ta'riflab yozilgan she'r va qo'shiqlar shariatda taqiqlangan.

Beshinchi foyda: Ayollar davrasida gapirilgan narsalarni tashqariga chiqarish ham fitna sababidir. To'y va majlislarda ayollar orasida bo'lgan gaplarni erkaklarga yetkazish, video yoki rasm tarqatish joiz emas. Erkaklar kirmasligi kerak bo'lgan davralar haqida so'zlash ham fitna eshiklarini ochadi.

Oltinchi foyda: Agar ayolni sifatlab gapirish harom bo'lsa va bu erkakni fitnalasa, hijobsiz holda yurish bundan ham kattaroq fitnaga sabab bo'ladi. Ba'zilar "yarim hijob" yoki ozgina yopiq kiyim bilan "erkaklarni fitnalamayman" deb o'ylaydi. Aslida esa, ko'rish bir tomonga, oddiy eshitishning o'zi erkakni fitnaga solishi mumkin ekan. Endi uni ko'rish orqali fitnaga tushishi bat-ta'riqa a'lo bo'ladi.

Yettinchi foyda: Shariy libos kiyishda ayol fitna keltiradigan o‘rinlarini yashirishga e’tiborli bo‘lishi lozim. Libos nafaqat avratni yopishi, balki fitnali joylarni ham zohir qilmasligi kerak.

Sakkizinchi foyda: Erkak kishining ayol bilan fitnalanishining boshlanishi ko‘z bilan qarashdan boshlanadi. Bu qarash haqiqiy bo‘lishi ham, hayoliy bo‘lishi ham mumkin. Shariat ikkala holatdan ham qaytargan.

To‘qqizinchi foyda: Agar bir ayol boshqa ayolni sifatlab berishi erkakni fitnaga solishi harom bo‘lsa, ayolning o‘zini o‘zi sifatlab qo‘yishi bundan ham ko‘proq harom bo‘ladi. Masalan, vaznini, bo‘yini aytish yoki boshqa jismoniy sifatlarini oshkora bayon qilish. Erkak uchun bu ma’lumotning o‘zi yetarli bo‘lib, xayolida uni tasvirlab olishi mumkin.

Bundan tashqari, ayollarning savdo paytida ichki kiyimlarining o‘lchamlarini erkaklarga aytishi ham joiz emas. Hatto ayollarning o‘zaro ham bunday narsalarni oshkora so‘zlashmasligi tavsiya qilingan. Chunki bu gap baribir erkaklarga yetib borishi ehtimoli bor. Taqvo qiladigan ayol shu kabi nozik masalalarda hushyor bo‘lishi lozim.

Ayollarning o‘zini o‘zi sifatlab qo‘yishining bir necha ko‘rinishlari bor:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda surat va video qo‘yish.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam “ikki marta yolg‘on libos kiygan ayollar” haqida ogohlantirganlar. Bunga ikki toifa kiradi:

- O‘zida bo‘lmagan narsasi bilan maqtanadigan ayollar.
- O‘zini boshqa ko‘rinishda ko‘rsatadigan ayollar.

Masalan, profilida aslida o‘ziniki bo‘lmagan chiroyli surat qo‘yish yoki yoshlikni o‘zgartirib ko‘rsatish. Bu erkaklarni jalb qilish uchun yo‘l ochadi.

2. Jasadni sifatlab turadigan liboslar kiyish.
Yelkaga yopishib turadigan, belni tortib turadigan yoki juda yupqa liboslar shular jumlasidan.

3. Ochiq-sochiqlik va o‘zini ko‘rsatish.
Bugungi kunda ba’zi ayollar sport zaliga borishini oshkora qilib, videolarini chiqaradi. Bu ochiqchasiga o‘zini ko‘rsatishdir. Uni ko‘rgan erkak tabiiy ravishda qiziqadi va fitnaga tushadi. Ayollar esa bu masalada ogoh bo‘lishlari kerak.

72-hadis

Shaytonga yordamchi bo‘lma

Muallif shunday deydilar: “Sen o‘z nafsingga qarshi ham, eringga qarshi ham shaytonga yordamchi bo‘lma.”

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «مَلْعُونٌ مَنْ أَتَى امْرَأَةً فِي دُبُرِهَا»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytadilar: “Kimki ayolning orqa tomonidan yaqinlik qilsa, u la’natlangandir.”

Hadisda nazarda tutilgan narsa — erkakning ayolning orqa avratiga yaqinlik qilishi. Bu ish qattiq la’natlangan. Bunday qabih amallar faqat erkak tomonidan bo‘lmaydi. Agar ayol rozi bo‘lsa, u ham o‘z nafsiga qarshi, eriga qarshi va shaytonga yordamchi bo‘lgan bo‘ladi. Chunki erkak yolg‘iz o‘zi bunday ishni qila olmaydi.

Har qanday ma’siyatda ayol sherik bo‘lsa, u ham shaytonga sherik bo‘ladi. Masalan:

1. Hayz vaqtida yaqinlikka rozi bo‘lish.
2. Erini harom narsalarni ko‘rishga sherik bo‘lish — masalan, er “men bilan ko‘r” deb ayolni majburlasa.

Bu kabi hollarning barchasi nafsga va shaytonga yordam berishdir.

Alloh taolo aytadi: “Yaxshilik va taqvoda yordamchi bo‘linglar, gunoh va adovatda yordamchi bo‘lmanglar” (Moida 2).

Demak, er-xotin ham bir-biriga faqat halolda sherik bo‘lishlari, gunohda esa hech qachon yordamchi bo‘lmasliklari kerak.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayolning orqa avratiga yaqinlik qilish haromdir.

Ikkinchi foyda: Bu amal kabira gunohlardandir. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam faqat katta gunoh egalari haqida la’nat aytganlar. Bu ishda la’nat kelishi uning naqadar og‘irligini ko‘rsatadi. Qolaversa, bu Lut qavminining amali bo‘lib, avval ayollar bilan boshlangan, keyin erkaklar orasida ham yoyilgan.

Uchinchi foyda: Nikohning maqsadi — nasl qoldirishdir. Ayolning orqa tomonidan yaqinlik qilish esa nikohning asl maqsadini buzadi. Bu ish naslni to‘xtatadi, ayolga foyda bermaydi, faqat ozor keltiradi.

To‘rtinchi foyda: Orqa avratga yaqinlik qilish ayolning iffatini joyiga qo‘yishni man qiladi. Holbuki, nikohning maqsadlaridan biri — ayolning iffati va sharafini saqlashdir. Bu ish esa ayolga rohat emas, balki og‘riq va zahmat bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Bu ishga ayolning rozi bo‘lishi ham joiz emas. Erga itoat qilishda chegaralar bor.

Gunoh ishlarda itoat qilinmaydi. Agar er talab qilsa, ayol uni ogohlantirishi kerak: “Shu ishni qilsangiz, hammaga aytaman” deb. Hatto shunday talabda qat’iyat bo‘lsa, ayol ajralishi ham mumkin. Chunki bunday hayotda baraka bo‘lmaydi.

Oltinchi foyda: Agar er bu ishni talab qilsa, ayol qoziga murojaat qiladi. Bunda ikki guvoh shart emas, ayolning o‘zi guvohlik qilishi kifoya. Chunki bu masalada ayol yolg‘on gapirmaydi. Agar dalil sifatida ovoz yozuvi mavjud bo‘lsa, qozi uni eshitib hukm chiqarishi mumkin. Natijada nikoh ajratiladi.

73-hadis

Er muhabbatini qozonish

Muallif aytadilar: Alloh taolo erkakning qalbiga ayolga muhabbatni joylagan. Shuning uchun, ey ayol, sendan boshqadan avval bu ne’matdan foydalanishni bilgin.

Alloh erkakning tabiatida ayolni sevish xususiyatini yaratib qo‘ygan. Bu muhabbat erkakning ko‘nglida ayolning go‘zalligidan qat’i nazar mavjud bo‘ladi.

Ayol eriga Alloh bergan muhabbatni noto‘g‘ri ishlatib yubormasligi lozim. Chunki muhabbatni istismar qilish — uni faqat dunyoviy manfaat uchun ishlatish emas, balki shariat doirasida itoat, hurmat va yaxshi muomala bilan foydalana bilishdir.

Bu holat xuddi investitsiyaga o‘xshaydi: ayol ozgina muhabbat, itoat va e’tibor bersa, undan ko‘p baraka va mehr qaytadi. Agar ayol erining sevadigan ishlarini qilib, unga itoat qilsa, erkakning muhabbati yanada ziyoda bo‘ladi.

عَنْ أَنَسٍ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «حُبِّبَ إِلَيَّ مِنَ الدُّنْيَا النِّسَاءُ وَالطِّيبُ، وَجُعِلَ قُرَّةُ عَيْنِي فِي الصَّلَاةِ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Dunyodan menga ayollar va xushbo‘y narsalar suyukli qilindi. Ko‘zimning quvonchi esa namozda qilindi.”

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam insoniyatning eng komil zotlari bo‘lsalar-da, ayol va xushbo‘ylikka bo‘lgan muhabbatlarini yashirmaganlar. Bu u zot uchun nuqson emas, balki Alloh taolo tomonidan inson tabiatiga joylab qo‘yilgan tabiiy bir xislatdir.

Ammo shuni ham ko‘ramizki, ayol va xushbo‘ylik suyukli qilingan bo‘lsa-da, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam uchun eng oliy darajadagi quvonch manbai — namoz bo‘lgan. Namoz u zotning qalblarini sokin qilgan, tashvishlarini ketkazgan, dardlariga davo bo‘lgan. Qur’onda mo‘minlarning duosida ham shunday deyilgan: “Robbimiz, bizga juftlarimiz va zurriyotlarimizdan ko‘zimiz quvonchini ato qil” (Furqon 74).

Demak, ayol ham, farzandlar ham ko‘z quvonchi bo‘lishi mumkin. Lekin eng ulug‘ ko‘z quvonchi — namozdir. Chunki unda Alloh bilan suhbat, qalbning taskini, ruhning oziqlanishi mujassamdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol va xushbo‘y narsalar dunyoning ziynatidir. Alloh erkak qalbiga ayol muhabbatini tabiatan joylagan, bu inson fitratining bir qismidir.

Ikkinchi foyda: Ayolni yaxshi ko‘rish ayb emas. Erkakning qadrini ham, taqvosini ham tushirmaydi. Aksincha, bu Alloh yaratgan tabiiy fazilatdir. Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning o‘zlari ham bu muhabbatni yashirmasdan aytganlari bunga dalildir.

Uchinchi foyda: Yaxshi ko‘riladigan ayol — soliha ayoldir. “Suyukli qilingan” deb har qanday ayolga berilib ketilmaydi. Qur’onda ham ayollar va zurriyotlarning “ko‘z quvonchi” bo‘lishi zikr qilingan (Furqon 74). Demak, haqiqatda muhabbatga loyiq ayol — soliha, taqvodor ayoldir.

To‘rtinchi foyda: Agar ayol erining qalbida Alloh bergan muhabbatni o‘zi uchun ishlatib, undan to‘g‘ri foydalanishni bilmasa, erkakning nafsi boshqa tomonga og‘ishi mumkin. Biroq bu bilan umumiy xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Masalan, bir erkak ikkinchi xotin olishni istasa, darrov “birinchi xotin erining muhabbatini qozona olmabdi” degan xulosaga kelinmaydi.

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning bir necha ayollari bo‘lgan bo‘lsa-da, Oyisha onamiz roziyallohu anho bilan bo‘lgan muhabbatlari ochiq namoyon bo‘lgan. Bu esa ayolning er muhabbatini qozonishi mumkinligiga dalildir.

74-hadis

Erni rozi qilish haromni muboh qilmaydi

Muallif shunday deydilar: Erning qalbini zabt etishga musobaqalashishing senga harom narsalarni muboh qilib bermaydi.

Ayolning er qalbini qozonishga intilishi tabiiydir. Ammo bu intilish yo‘lida harom narsalarga qo‘l urish mumkin emas. Erini rozi qilaman, muhabbatini oshiraman degan niyatda qoshini oldirish, badaniga naqsh chizdirish, sochini kuydirish yoki tibbiy zaruratsiz a’zolarini o‘zgartirish kabi amallar shariatda man qilingan.

Muhabbat qozonish niyati — haromni halol qilib bermaydi.

عَنْ أَسْمَاءَ رضي الله عنها: أَنَّ امْرَأَةً قَالَتْ: يَا رَسُولَ الله، إِنَّ لِي ضَرَّةً، فَهَلْ عَلَيَّ جُنَاحٌ إِنْ تَشَبَّعْتُ مِنْ زَوْجِي غَيْرَ الَّذِي يُعْطِينِي؟ فَقَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «المُتَشَبِّعُ بِمَا لَمْ يُعْطَ كَلَابِسِ ثَوْبَيْ زُورٍ»

Bir ayol Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so‘radi: “Ey Allohning Rasuli, mening kundoshim bor. Agar men erim menga bermagan narsani berdi, mehr ko‘rsatmagan narsani ko‘rsatdi deb, o‘zimni unga to‘yingan qilib ko‘rsatsam, menga gunoh bormi?” Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “O‘ziga berilmagan narsa bilan o‘zini to‘yingan qilib ko‘rsatayotgan ayol — ikkita yolg‘on libos kiygan kishiga o‘xshaydi.”

Savol so‘ragan ayol eridan olmagan narsasini olgandek qilib ko‘rsatish haqida so‘ragan. Masalan, er bermagan sovg‘ani “menga berdi” deb aytish yoki erning mehrini mubolag‘a qilib ko‘rsatish. Bu ish kundoshni rashk qildirish uchun qilinadi.

Bugungi kunda ham shunga o‘xshash holatlar bor: ayol o‘zini ijtimoiy tarmoqlarda “baxtliman, dunyoda mendan baxtli ayol yo‘q” deb ko‘rsatadi. Aslida esa, yig‘lab o‘tirgan bo‘lsa ham, boshqalarga ko‘rinmas tarafini yashiradi. Maqsad – boshqalarning, xususan kundoshning qalbini kuydirish.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bu ishni “ikkita yolg‘on libos kiyish”ga o‘xshatdilar.

Birinchisi: Er bermagan narsani berdi deb da’vo qilish yomon xislatdir.
Ikkinchisi: Bo‘lmagan narsani boshqalarga maqtanib, ularni xafa qilish ham katta gunohdir.

Yolg‘on libos kiyish – insonni ko‘zni aldash uchun kiyim bilan chiroyli qilib ko‘rsatishga o‘xshaydi. Aslida yo‘q narsani bor qilib ko‘rsatish ana shunday illatdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Go‘zal xulqning ahamiyati juda ulkan. Ayol kishining kundoshi bo‘lsa ham, u bilan go‘zal muomalada bo‘lishi lozim. Uni rashk qildirish, qalbini kuydirish uchun yolg‘on narsalarni aytishi esa haromdir.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi yolg‘on bilan maqtanishi ham haromdir. Eri bergan narsasini haddan ziyod maqtanish joiz emas. Lekin, ayniqsa, er bermagan narsani maqtanish ikki karra gunoh sanaladi.

Uchinchi foyda: Eri bilan kundosh o‘rtasini buzish haromdir. Ayol eridan ko‘proq mehr ko‘rganini da’vo qilib, kundoshini rashk qildirishga urinishi fitnaga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Ba’zida ayol kishi rashk sabab katta gunohlarga tushib qolishi mumkin. Rashk tabiiy tuyg‘u bo‘lsa-da, ko‘p hollarda u katta gunohlarga eltadi. Shu bois rashkni halol yo‘lda, shariat doirasida qo‘llash lozim. Qobil va Hobilning o‘rtasini nima buzdi? – Rashk. Yusuf alayhissalom va akalarining o‘rtasini nima buzdi? – Rashk.

Beshinchi foyda: Rashk – ayollar o‘rtasida fitratdan keladigan bir sifatdir.

Oltinchi foyda: Ayolning ahmoqligining alomatlaridan biri – rashk sababli o‘ziga qarshi erining ko‘nglini g‘ash qilishidir. Rashk sabab erini o‘ziga qarshi sovutishi va o‘z o‘rnini yo‘qotishi ayol uchun katta ahmoqlikdir. Kundoshlar orasidagi fitna shaytonning vasvasasidan kelib chiqadi. Ammo inson “shayton qildi” deb uzr qila olmaydi, chunki oxir-oqibat o‘zi ham javobgar bo‘ladi.

Yettinchi foyda: Halol rashk – ayolning erini muhabbatda o‘ziga rag‘batlantirishi mumkin. Lekin bu yo‘l janjal, yolg‘on yoki kundoshini kuydirish orqali emas, balki ayollarga xos nozik makr va zarar bermaydigan hiyla bilan bo‘lishi lozim.

75-hadis

Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi

Muallif shunday deydi: Alloh taolo ba’zida inson hayotida shunday alomatlar ko‘rsatadiki, bu alomatlar uning axloqi, xulqi va ruhiy darajasiga dalil bo‘ladi. Shu sababdan har bir mo‘min banda o‘zini ehtiyot qilishi, Allohning makridan omon deb bilmasligi lozim.

Ba’zi odamlar bor – odamlardan uyaladi, ammo Allohdan uyalmaydi. Odamlardan qo‘rqadi, lekin Allohdan qo‘rqmaydi. Ana shunday holatda Alloh taolo oxir-oqibat uning aybini ochib qo‘yadi. Ayniqsa, bir gunohni qayta-qayta qilishda davom etsa, bu Allohning satr sifatiga xiyonat bo‘ladi. Natijada Alloh banda gunohini yashirmay, uni fosh qiladi.

عَنْ سَهْلِ بْنِ سَعْدٍ رضي الله عنه: أَنَّ عُوَيْمِرًا أَتَى عَاصِمَ بْنَ عَدِيٍّ، وَكَانَ سَيِّدًا فِي بَنِي عَجْلَانَ، فَقَالَ: كَيْفَ تَقُولُونَ فِي رَجُلٍ وَجَدَ مَعَ امْرَأَتِهِ رَجُلاً، أَيَقْتُلُهُ فَتَقْتُلُونَهُ، أَمْ كَيْفَ يَصْنَعُ؟ سَلْ لِي يَا عَاصِمُ رَسُولَ الله ﷺ، فَسَأَلَ عَاصِمٌ رَسُولَ الله ﷺ، فَكَرِهَ رَسُولُ الله ﷺ الْمَسَائِلَ وَعَابَهَا، فَكَبُرَ عَلَى عَاصِمٍ مَا سَمِعَ مِنْ رَسُولِ الله ﷺ، فَرَجَعَ إِلَى قَوْمِهِ، فَجَاءَهُ عُوَيْمِرٌ فَقَالَ: مَاذَا قَالَ لَكَ رَسُولُ الله ﷺ؟ فَقَالَ عَاصِمٌ لِعُوَيْمِرٍ: لَمْ تَأْتِنِي بِخَيْرٍ، قَدْ كَرِهَ رَسُولُ الله ﷺ الْمَسْأَلَةَ الَّتِي سَأَلْتُهُ عَنْهَا، فَقَالَ عُوَيْمِرٌ: وَاللهِ لاَ أَنْتَهِي حَتَّى أَسْأَلَ عَنْهَا رَسُولَ الله ﷺ، فَجَاءَ عُوَيْمِرٌ، وَقَدِ اجْتَمَعَ النَّاسُ، فَقَالَ: يَا رَسُولَ الله، أَرَأَيْتَ رَجُلاً وَجَدَ مَعَ امْرَأَتِهِ رَجُلاً، أَيَقْتُلُهُ فَتَقْتُلُونَهُ، أَمْ كَيْفَ يَفْعَلُ؟ فَقَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «قَدْ أَنْزَلَ الله الْقُرْآنَ فِيكَ وَفِي صَاحِبَتِكَ، فَاذْهَبْ فَأْتِ بِهَا» قَالَ سَهْلٌ: فَتَلاعَنَا، وَأَنَا مَعَ

النَّاسِ عِنْدَ رَسُولِ الله ﷺ، فَلَمَّا فَرَغَا قَالَ عُوَيْمِرٌ: كَذَبْتُ عَلَيَّ يَا رَسُولَ الله، إِنْ أَمْسَكْتُهَا، فَطَلَّقَهَا ثَلاَثًا قَبْلَ أَنْ يَأْمُرَهُ رَسُولُ الله ﷺ .قَالَ: فَكَانَتْ سُنَّةً لِمَنْ كَانَ بَعْدَهُمَا فِي الْمُتَلاعِنَيْنِ، ثُمَّ قَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «انْظُرُوا، فَإِنْ جَاءَتْ بِهِ أَصْحَمَ أَدْعَجَ الْعَيْنَيْنِ، عَظِيمَ الأَلْيَتَيْنِ، خَدَلَّجَ السَّاقَيْنِ، فَلاَ أَحْسِبُ عُوَيْمِرًا إِلاَّ قَدْ صَدَقَ عَلَيْهَا، وَإِنْ جَاءَتْ بِهِ أَحْمَرَ كَالْوَرْقَةِ، فَلاَ أَحْسِبُ عُوَيْمِرًا إِلاَّ قَدْ كَذَبَ عَلَيْهَا». قَالَ: فَجَاءَتْ بِهِ عَلَى النَّعْتِ الَّذِي نَعَتَ رَسُولُ الله ﷺ مِنَ الْمُبَايَنَةِ.

Uvaymir ismli sahobiy qabilasining boshlig‘i Osim ibn Adiyning oldiga kelib dedi: “Bir kishi xotinini begona erkak bilan ko‘rib qolsa, nima qilishi kerak? Uni o‘ldiradimi? Keyin sizlar ham uni o‘ldirasizlarmi? Unda nima qilish kerak? Sen menga shu haqida Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘rab ber.”

Shunda Osim ibn Adiy Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning huzurlariga kirib, shu savolni berdilar. Ammo Rosulullоh bunday savollarni yoqtirmadilar.

Keyin Uvaymir Osimdan nima bo‘lganini so‘rab bilganida, Osim unga: “Bu savol Rosulullohga yoqmadi”, dedi. Uvaymir esa: “Vallohi, men to‘xtamayman, hattoki o‘zim shu savolni Rosulullohdan so‘rayman”, dedi.

Shundan so‘ng Uvaymirning o‘zi Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning huzurlariga kirib shu savolni so‘raganida, Rosulullоh aytdilar: “Alloh sen va sening sohibang haqida oyat tushirdi.”
So‘ng Rosulullоh bu ikki kishiga o‘zaro la’natlashishni buyurdilar. Shunda Uvaymir xotini bilan la’natlashdi.

Uvaymir Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga: “Shunda ham bu ayolni ushlab tursam, unga zulm qilgan bo‘laman-ku”, dedi va xotinini taloq qilib yubordi. Shu ishidan keyin la’natlashuv amalini qilgan kishilarga bu sunnat bo‘lib qoldi.

So‘ng Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Agar bola qoracha, ko‘zlari qop-qora, kipriklari uzun, boldirlari to‘la bo‘lsa – demak Uvaymir u (ayol)ga ayblovida rost aytgan bo’ladi. Agar bola oppoq nozik bo’lsa demak Uvaymir u (ayol)ga yolg’on (tuhmat) aytgan bo’ladi.

Keyin xotin Rosulullоh ta’riflagandek, Uvaymirning so’zini tasdiqlagan sifatda bola tug‘di. Shundan so‘ng bola onaga nisbat qilindi.

Avvaliga bu savol Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga og‘ir botdi. Chunki bunday faraziy savollar – bo‘lmagan narsani o‘ylab, gumon qilib so‘rash – Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga yoqmas edi. Ammo Uvaymir ismli sahoba bu savolni qat’iyat bilan qayta bergani uchun Alloh taolo Nur surasining 6–9-oyatlarini nozil qildi. Bu oyatlar li‘on (la’natlashish) hukmini bayon qildi.

Bu hukmga ko‘ra, agar er xotinini zino qilishda ayblasa, lekin 4 ta guvoh topa olmasa, unda er quyidagicha qasam ichadi:

- To‘rt marta Alloh nomi bilan: “Men rost gapiryapman” deb qasam ichadi.
- Beshinchi martasida: “Agar yolg‘on gapirsam, Allohning la’nati menga bo‘lsin” deydi.

Ayol ham javoban qasam ichadi:

- To‘rt marta: “Erim yolg‘on gapiryapti, men pokman” deb Alloh nomi bilan qasam ichadi.
- Beshinchi martasida: “Agar erim rost bo‘lsa, Allohning g‘azabi menga bo‘lsin” deydi.

Haqiqatda erkak rost gapirgan ekan. Ayol bir o‘ynash topib olib u bilan zino qilib yurgan ekan. Alloh taolo ana shu insonni sharmanda qilib qo‘ydi. Aslida Alloh insonning gunohlarini berkitadi. Ammo inson u gunohni takror-takror qilaveradigan bo‘lsa, oxir-oqibat Alloh uni fosh qiladi. Shu sababdan modomiki Alloh sizning gunohlaringizni berkitayotgan bo‘lsa, vaqtida tavba qiling, gunohdan tiyiling. Aks holda takrorlangan gunoh bir kun kelib sharmandalikka sabab bo‘lishi mumkin.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam vaziyatni ayon qilish uchun tug‘ilajak farzandning qiyofasiga qarashga buyurdilar. Birinchi sifatlar – zinoda gumon qilingan erkakning sifatlariga mos keldi. Ikkinchi sifatlar esa erining sifatlariga mos edi. Natijada, farzand zinoda gumon qilingan erkakka o‘xshab tug‘ildi va haqiqatda zino bo‘lgani ayon bo‘ldi.

Keyin savol tug‘iladi: nega u farzand onasiga nisbat berildi? Chunki shariatda zinodan tug‘ilgan farzand otasiga nisbat qilinmaydi. Bu Allohning hukmidir.
Hozirgi kunda qozixonalar yo‘qligi uchun bunday vaziyatda la’natlashish (li‘on) qilinishi mumkin bo‘lmasa, erkak shunchaki ayolni taloq qilib yuboradi. Ba’zilar esa “uni videoga olib, tarqatib sharmanda qilaman” deydi. Bu esa mutlaqo islomda yo‘q bo‘lgan ishdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Zino – buyuk fahsh ishlardandir. U nafaqat katta gunoh, balki oilaning buzilishiga, nasabning aralashib ketishiga ham sabab bo‘ladi. Zino tufayli pok oila barbod bo‘ladi, insonning or-nomusi va hayosi yo‘qoladi.

Ikkinchi foyda: Kimda shunday voqea sodir bo‘lsa, shar’iy hukmga qaytishi kerak. O‘zi bilgancha xohlagan hukmni qo‘yib, xohlagan jazosini qo‘llashi mumkin emas. Alloh Qur’onda aytib qo‘ygan hukmni amalga oshirish lozim. La’natlashish hukmi – Allohning rahmatidir. Chunki guvoh topilmasa ham, erga o‘zini oqlash huquqi, ayolga esa o‘zini himoya qilish huquqi berilgan.

Uchinchi foyda: Kim bir jonni nohaqdan o‘ldirsa, u ham o‘ldiriladi. Agar bu qoida bo‘lmaganida, insonlar xotinini o‘ldirib, “zinoda ushlab qolgan edim” deb qutilib ketaverar edi. Shuning uchun qotillik eshigini yopish uchun qotil ham o‘ldiriladi.

To‘rtinchi foyda: Er na xotinini, na begona erkakni o‘ldira olmaydi. Bu ishni faqat qoziga havola qilish lozim. Chunki dunyo hukm diyori emas, asl hukm oxiratdadir.

Beshinchi foyda: Faraziy savollar makruhdir. Xususan, hali voqe bo‘lmagan narsalar haqida “agar shunday bo‘lsa-chi” qabilida savol berish – bekorchi gumonlardan sanaladi.

Oltinchi foyda: Muslimalarning satrini fosh qiladigan savollar berish joiz emas. Ayolning aybini internetga chiqarish, uni sharmanda qilish katta gunohdir. Masalan: “Falon ayol shunday qilar ekan, bu joizmi?” – degan qabilidagi savollar yaramaydi. Xususan, muayyan shayx yoki biror shaxsni sharmanda qiladigan savollar berish ham man qilingan.

Yettinchi foyda: Erkak xotinini zino qilayotgan holda ko‘rib qolsa, uning qalbiga shunday bir g‘am tushadiki, bu og‘ir iztirobni endi faqat Allohning hukmi bilan daf qilish mumkin.

Sakkizinchi foyda: Erkak bilan ayol o‘rtasida la’natlashishning sababi – erkak xotinini zinoda ayblashidir. Bundan boshqa vaziyatlarda la’natlashish joiz emas.

To‘qqizinchi foyda: Er-xotin o‘rtasidagi la’natlashish faqat qozining hukmi bilangina va uning huzurida amalga oshiriladi. Chunki la’natlashishda og‘ir hukmlar bor, bu o‘zboshimchalik bilan qilinadigan ish emas.

O‘ninchi foyda: Er-xotin o‘rtasidagi la’natlashish – er uchun chiqish yo‘li va yechimdir. Ya’ni, vaziyatdan to‘g‘ri chiqishning eng to‘g‘ri yo‘li shu bo‘ladi.

O‘n birinchi foyda: La’natlashish faqat ayol zinoni inkor qilgan taqdirda sodir bo‘ladi. Boshqa vaziyatlarda la’natlashish amalga oshirilmaydi.

O‘n ikkinchi foyda: Er-xotin o‘rtasidagi la’natlashish ularning birining da’vosida yolg‘onchi ekanligiga dalolat qiladi. Hech qachon ikkalasi ham rost gapirib la’natlashmaydi. Albatta, ulardan biri yolg‘onchidir.

O‘n uchinchi foyda: Er-xotin o‘rtasida la’natlashish sodir bo‘lsa, bu ularning majburiy ajralishiga olib keladi. Agar ayol homilador bo‘lsa, gumonlangan davrdagi bola erga nisbat qilinmaydi. Ammo avvalgi farzandlariga bu hukm taalluqli emas.

O‘n to‘rtinchi foyda: La’natlashgandan keyin ayolni zinoda ayblash mumkin emas. Shuningdek, farzandini ham “valadi zino” deb atash joiz emas. Chunki bu masalaning hukmi Allohga qoldiriladi.

O‘n beshinchi foyda: Er-xotin o‘rtasidagi la’natlashish – erning xotinini zinoda ayblashi bilan vojib bo‘ladi. Masalan, erkak ochiqchasiga “men uni zinoda ushladim” demasa ham, “bu ayolning o‘ynashi bor, zino qilib yuribdi” desa, la’natlashish vojib bo‘ladi.

O‘n oltinchi foyda: La’natlashish – erkakdan tuhmat jazosini soqit qiladi va xotindan zino jazosini soqit qiladi. Biroq bu faqat dunyoda soqit bo‘ladi. Oxiratda esa, albatta, ikkovlari ham qilgan ishlariga javob beradilar.

O‘n yettinchi foyda: Erkak kishining obro‘siga tushgan rashk va gumon uni og‘ir ishlarga, hatto qotillikka olib borishi mumkin. Ammo Allohning hukmi uni bunday yomon ishlardan qaytaradi va saqlaydi.

O‘n sakkizinchi foyda: Olim kishi savolni yoqtirmasa, uni rad etishi yoki o‘zini tortib qolishi mumkin. Agar sabab bo‘lsa, olim inson har bir savolga ham javob berishi shart emas.

O‘n to‘qqizinchi foyda: La’natlashgandan keyin tug‘ilgan bolaning sifatlari er yoki ayolning yolg‘on gapirganiga alomat bo‘lishi mumkin. Lekin bu alomat odamlarni hukm qilish huquqini bermaydi. Hukm – faqat Allohnikidir.

Yigirmanchi foyda: Zino bilan ayblash – halok qiluvchi yetti kabira gunohlardan biridir. Ammo bu holatda erkakka ijozat beriladi, qachonki ayolning zinoda ayblanishiga qat’iy ishonchi komil bo‘lsa. Bu esa boshqaning bolasini erning nasabiga qo‘shilib ketishidan saqlash uchundir.

76-hadis

Haqni talab qilishdan oldin haqni ber

Muallif shunday deydi: Sen huquqlaringni talab qilishingdan oldin, zimmangdagi burchlaringni ado qilganingni ta’kidlab ol.

Inson o‘z haqqini talab qilishdan oldin zimmasidagi burchlarni ado etishni unutmasligi lozim. Hamma “ber” deyishni biladi, ammo hamma ham “beraman, ol” deyishni bilmaydi. Xususan, ayolning eridagi, erning xotinidagi, qarindoshlarning bir-biridagi huquqlari bor. Haq talab qiluvchi kishi avvalo o‘z zimmasidagi burchni ado qilishi shart.

Bir hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Alloh sizlardan uch narsani yomon ko‘radi: keraksiz bahs-munozara qilishni, molni isrof qilishni va birovning haqqini ado etmasdan o‘z haqqini talab qilishni.”

عَنْ سُلَيْمَانَ بْنِ عُمَرَ بْنِ الْأَحْوَصِ، عَنْ أَبِيهِ، قَالَ: حَجَجْتُ مَعَ أَبِي، فَشَهِدْتُ حَجَّةَ الْوَدَاعِ مَعَ رَسُولِ اللَّهِ ﷺ فَحَمِدَ اللَّهَ وَأَثْنَى عَلَيْهِ وَذَكَّرَ وَوَعَظَ، فَذَكَرَ فِي الْخُطْبَةِ، فَقَالَ: «أَلَا وَاسْتَوْصُوا بِالنِّسَاءِ خَيْرًا، فَإِنَّمَا هُنَّ عَوَانٍ عِنْدَكُمْ، لَيْسَ تَمْلِكُونَ مِنْهُنَّ شَيْئًا غَيْرَ ذَلِكَ، إِلَّا أَنْ يَأْتِينَ بِفَاحِشَةٍ مُبَيِّنَةٍ، فَإِنْ فَعَلْنَ فَاهْجُرُوهُنَّ فِي الْمَضَاجِعِ، وَاضْرِبُوهُنَّ ضَرْبًا غَيْرَ مُبَرِّحٍ، فَإِنْ أَطَعْنَكُمْ فَلَا تَبْغُوا عَلَيْهِنَّ سَبِيلًا. أَلَا إِنَّ لَكُمْ عَلَى نِسَائِكُمْ حَقًّا، وَلِنِسَائِكُمْ عَلَيْكُمْ حَقًّا، فَأَمَّا حَقُّكُمْ عَلَى نِسَائِكُمْ فَلَا يُوطِئْنَ فُرُشَكُمْ مَنْ تَكْرَهُونَ، وَلَا يَأْذَنَّ فِي بُيُوتِكُمْ لِمَنْ تَكْرَهُونَ»

«أَلَا وَحَقُّهُنَّ عَلَيْكُمْ أَنْ تُحْسِنُوا إِلَيْهِنَّ فِي كِسْوَتِهِنَّ وَطَعَامِهِنَّ»

Sulaymon ibn Amr ibn Ahvas aytadilar: “Menga otam aytib bergan edi. U kishi Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bilan Hajjatul-Vadoda ishtirok etgan ekanlar. Rosulullоh u yerda Allohga hamdu sanolar aytdilar, zikrlar qildilar, mav’izalar berdilar va keyin dedilar: “Ogoh bo‘linglar! Ayollarga yaxshi munosabatda bo‘linglar. Chunki ular sizlarning huzurlaringizda vaqtinchalik omonatdir. Sizlar ulardan bundan boshqa biror narsaga molik emassizlar. Illo ular ochiq-oydin isbot bo‘luvchi fahsh ishni qilsalar, boshqa gap. Agar shunday ish sodir bo‘lsa, avval ularni to‘shaklarda hajr qilinglar, so‘ng ularni qattiq bo‘lmagan ko‘rinishda uringlar. Agar sizlarga itoat qilsalar, ularga boshqa yo‘l qidirmanglar. Bilinglarki, sizlarning xotinlaringiz ustida haqlaringiz bor va xotinlaringizning sizlarning ustingizda ham haqlari bor. Xotinlaringiz ustidagi haqlaringiz shuki: ular sizlarning to‘shaklaringizga sizlar yoqtirmagan kishini o’tirgizmasligi va sizlarning uyingizga siz yomon ko‘rgan kishiga izn bermasliklari lozim.

Bilinglarki, xotinlaringizning sizlarning ustingizdagi haqlari esa – sizlar ularga kiyim-kechak va taomda yaxshilik qilishliginglardir.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning Hajjatul-Vado xutbalarida eng ko‘p odamlar yig‘ilgan joyda ayollar huquqlari alohida ta’kidlab o‘tildi. Bu esa shundan dalolat qiladiki, islomda ayol huquqi toptalmagan, balki eng yuqori darajada kafolatlangan.

Ochiq fahsh” deganda ulamolar ikki ma’noni tushuntirganlar:

Birinchisi: Haqiqiy zino va unga olib boradigan harakatlar.
Ikkinchisi: Og‘izdan chiqadigan fahsh – so‘kish, qarg‘ish, la’natlash va yomon so‘zlar.

Ayol bunday ish qilsa, erning u bilan muomalasi og‘irlashadi. Ammo urish ham qattiq azob bermaslik, tanada iz qoldirmaslik sharti bilan, faqat tarbiya maqsadida joizdir.

Shuningdek, er yoki xotinning zimmasidagi vazifalarni ado etishi ham uning imkoniyatiga qarab baholanadi. Erkak o‘zining kuchi, sharoiti va jamiyatdagi imkoniyatiga qarab oilasini ta’minlaydi. Boshqalarning holatini o‘lchov qilib bo‘lmaydi.

Erkakning ayol ustidagi huquqlari:

1. Ayol erining to‘shagiga er yoqtirmagan kishini kiritmasligi lozim.
2. Unga yoqmagan kishini, hatto qarindosh bo‘lsa ham, erning uyiga iznsiz kiritmasligi kerak.
3. Ayol erining nomusiga zid ishlardan va ochiq fahshdan o‘zini tiyishi lozim.

Ayolning er ustidagi huquqlari:

1. Er uni taom va kiyimda yaxshi muomala bilan ta’minlashi shart.
2. Er uni hurmat bilan tutishi va yaxshi muomalada bo‘lishi kerak.
3. Tarbiya va nasihatda bosqichma-bosqich yondashishi lozim: avval nasihat qilish, so‘ng yotoqda uzoqlashish, keyin esa qattiq azob bermaydigan, iz qoldirmaydigan yengil urish.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarga yaxshi qarashni vasiyat qilgan ekanlar. Bu vasiyat islomda ayolning qadr-qimmati naqadar ulug‘ ekaniga dalolat qiladi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi erkaklarning oldida go‘yo asiraga o‘xshaydi. Ya’ni nikoh sabab ayol erining qo‘lida, uning iznisiz ish qilmaydi. Mahbus qanday zobitining iznisiz harakat qilmasa, ayol ham erining roziligisiz xohlagan ishini qilishi mumkin emas.

Uchinchi foyda: Ayol kishi shariatga muxolif ish qilgandagina odob beriladi. Bu holatda ayolga hech bir uzr qolmaydi. Ba’zi erkaklar esa ayolini yomon ko‘rib, sabab bo‘lmasa ham uraveradilar. Bu esa mutlaqo mumkin emas. Faqat shariatga ochiq qarshi kelganida, ta’lim va tarbiya uchun, ozor bermaydigan ko‘rinishda urish joizdir.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishiga odob berish bir necha bosqichlardan iborat:

- Birinchi bosqich: nasihat qilish.
- Ikkinchi bosqich: yotoqda uzoqlashish.
- Uchinchi bosqich: qattiq azob bermaydigan, iz qoldirmaydigan yengil urish.

Beshinchi foyda: Urish – ayolga odob berish vositalaridan biri ekan. Bu Qur’onda kelgan va Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam tomonidan nabaviy ko‘rinishda tushuntirilgan usuldir.

Oltinchi foyda: Ayol kishiga odob berish holatida urish unga zarar berish hisoblanmaydi. Shu bois bu holatda ayol “zarar ko‘rdim” deb taloq so‘rashga haqli emas.

Yettinchi foyda: Ayol kishi haqqa bo‘ysunib javob qilishi, botilda davom etishidan yaxshidir. Chunki haqiqatni qabul qilish insonni najotga eltadi, botilda turib olish esa faqat zarar keltiradi.

Sakkizinchi foyda: Xunuk kalomlar – odob berish vositalaridan hisoblanmaydi. Xususan, ayolning hilqatini yomonlash – noto‘g‘ri. Ba’zi erkaklar ayolining ko‘rinishini tanqid qilib, uni odob bermoqchi bo‘ladilar. Bu xato yondashuvdir. Odatta odob berish vositasi – istak va irodaga bog‘liq, to‘g‘irlash mumkin bo‘lgan narsalar bilan bo‘ladi. Hilqat esa inson ixtiyorida emas, uni o‘zgartirish imkoni yo‘q.

To‘qqizinchi foyda: Er-xotinlik hayotida huquqlar ikki taraf zimmasida ham bo‘ladi. Faqat erning zimmasida emas yoki faqat ayolning zimmasida emas. Har ikkisi bir-birining haq-huquqlarini ado etishi lozim.

O‘ninchi foyda: Ayol kishi uyiga erining roziligisiz hech bir insonni kiritishga haqli emas. U odam hatto yaqin qarindosh bo‘lsa ham, er rozi bo‘lmasa kiritilmaydi.

O‘n birinchi foyda: Erning zimmasida xotinini nafaqa bilan ta’minlash vojibdir. Albatta, bu uning imkoniyatidan kelib chiqib belgilanadi.

O‘n ikkinchi foyda: Er-xotinlik hayotida ayol kishiga yaxshilik qilish – islom xotinlarga kafolat bergan haqqidir. Islom hech qachon ayolni xorlatib qo‘ymaydi, balki uning qadr-qimmatini ulug‘laydi.

77-hadis

Barcha uylar muhabbat ustiga qoim bo‘lavermaydi

Muallif shunday deydi: Hamma xonadonlar ham muhabbat ustiga qoim bo‘lavermaydi. Ba’zan esa halol yolg‘on ustiga ham qoim bo‘ladi.

Hayot kino, film yoki serial emas. Har doim ham romantik tarzda o‘tavermaydi. Har bir oila muhabbat ustiga qurilmaydi. Muhabbat – vaqtinchalik, o‘tkinchi narsa. U bora-bora kamayadi yoki rahm-shafqatga aylanadi. Shuning uchun oilada faqat muhabbat bo‘lsa yashaydi, muhabbat yo‘qolsa ajrashadi, deyish – noto‘g‘ri.

Aslida oila zimma, mas’uliyat va halollik ustiga quriladi. Bir-biriga berilgan va’dalar, mas’uliyatni ado etish, farzandlarni tarbiyalash – oilaning haqiqiy ma’nosidir.

Avvalda muhabbat “mavadda” sifatida bo‘ladi. Keyinchalik esa u “rahmat”ga aylanadi. Ya’ni bir-biriga hurmat, shafqat, rahm qilish tarzida davom etadi.

Shu sababli faqat “muhabbat yo‘qoldi” deb ajrashish shariatda ma’qullanmagan.

Rosululloh sollollohu alayhi va sallam aytganlar: “Yolg‘on uch narsada joizdir: jangda hiyla ishlatishda, odamlarni isloh qilishda va er-xotinning muhabbat so‘zlarida.”

Er-xotin orasida muhabbat so‘zlari – masalan, erning xotiniga “men seni yaxshi ko‘raman” deyishi, hatto unda kuchli hissiyot bo‘lmasa ham, yolg‘on hisoblanmaydi. Bu, aksincha, oilani mustahkamlash uchun mubohdir.

Demak, er-xotin orasida muhabbat susayganida ham bir-biriga yaxshi so‘z aytish, mehribonlik ko‘rsatish orqali oilani saqlash mumkin. Bu holat “halol yolg‘on” deb ataladi.
Alloh taolo Qur’onda marhamat qiladi: “Ularni (xotinlaringizni) yoqtirmasangiz ham, ehtimol siz yoqtirmagan narsada Alloh ko‘p yaxshiliklar qilgan bo‘lur.” (Niso surasi 19-oyat)

Yana boshqa bir oyatda shunday deyiladi: “Agar bir ayol erining o‘zidan yuz o‘girishidan yoki sovuqlik ko‘rsatishidan qo‘rqsa, ular o‘zaro sulh qilsalar – bu yaxshidir.” (Niso surasi 128-oyat)

Ya’ni, agar er xotinidan yuz o‘girsa yoki ayol erini yoqtirmay qolsa, Qur’on ajrashishni emas, sulhni – kelishib yashashni buyuradi. Chunki oilaning davom etishi ko‘plab yaxshiliklarga sabab bo‘ladi. Xususan, farzandlarning to‘g‘ri tarbiyasi, jamiyatning barqarorligi va er-xotinning bir-biriga suyanchiq bo‘lishi shular jumlasidandir.

Rivoyat qilinishicha, bir ayol Umar roziyallohu anhuning huzurlariga kelib: “Eram meni yaxshi ko‘rmaydi, men ham uni yoqtirmayman. Ajrashsak bo‘ladimi?” – deb so‘raganida, Umar roziyallohu anhu: “Har bir oila muhabbat ustiga qurilavermaydi. Mas’uliyatni saqlab yashash ham zarurdir”, – deb nasihat qilganlar.

Shuningdek, ba’zi erkaklar ham “xotinimni yoqtirmayapman, taloq qilsam bo‘ladimi?” deb kelganlarida, ularga ham: “Oila faqat muhabbat bilan emas, zimma va rioya bilan davom etadi”, – deb maslahat berganlar.

عَنْ أُمِّ كُلْثُومٍ بِنْتِ عُقْبَةَ رَضِيَ اللهُ عَنْهَا قَالَتْ:

مَا سَمِعْتُ رَسُولَ اللهِ ﷺ يُرَخِّصُ فِي شَيْءٍ مِنَ الْكَذِبِ إِلَّا فِي ثَلَاثٍ:

كَانَ رَسُولُ اللهِ ﷺ يَقُولُ: «لَا أَعُدُّهُ كَاذِبًا الرَّجُلُ يُصْلِحُ بَيْنَ النَّاسِ، يَقُولُ الْقَوْلَ وَلَا يُرِيدُ بِهِ إِلَّا الْإِصْلَاحَ، وَالرَّجُلُ يَقُولُ فِي الْحَرْبِ، وَالرَّجُلُ يُحَدِّثُ امْرَأَتَهُ وَالْمَرْأَةُ تُحَدِّثُ زَوْجَهَا»

Ummu Kulsum roziyallohu anho shunday deydilar: “Men Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning yolg‘on gapirishga hech qachon ruxsat berganlarini eshitmagan edim. Faqat uch narsada yolg‘on gapirishga ruxsat berdilar.”

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Kimki odamlar orasini isloh qilish uchun bir gap aytsa va niyati faqat isloh bo‘lsa, men uni yolg‘onchi deb hisoblamayman. Yana kimki jangda yolg‘on gapirsa ham gunoh qilmaydi. Shuningdek, er-xotin bir-biriga muhabbatni mustahkamlash uchun yolg‘on gapirsa ham bu joizdir.”

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Odamlar o‘rtasida yolg‘on gapirish haromdir. Ammo bundan mustasno qilingan ayrim o‘rinlar mavjud.

Ikkinchi foyda: Yolg‘on gapirish faqat uch holatda ruxsat etilgan. Bular hadisda zikr qilingan holatlardir.

Uchinchi foyda: Yolg‘onni muboh qilishdan maqsad – odamlar orasini isloh qilishdir. Bu ruxsat faqat yaxshilik va totuvlikni ta’minlash uchun berilgan.

To‘rtinchi foyda: Er-xotin orasidagi halol yolg‘on ularning bir-birining haqqini olib qo‘yishiga sabab bo‘lmasligi kerak. Ba’zi kimsalar hiyla qilib, yolg‘on orqali o‘z manfaatini ko‘zlashlari mumkin. Ammo hiyla aslo joiz emas.

Beshinchi foyda: Er-xotin orasidagi yolg‘on – orzu-umidlar va muhabbatni izhor qilish bobiga kiradi. Bu gaplar mehrni mustahkamlash, qalblarni bir-biriga yaqinlashtirish uchun aytiladi.

Oltinchi foyda: Ayol kishiga zarurat paytida bu imkoniyatdan foydalanish lozim bo‘ladi. Ya’ni er-xotin munosabatini davom ettirish uchun, uyat bo‘lsa ham, bu masala dolzarbdir. Ba’zi erkaklar shikoyat qilib aytadilar: “Jimo vaqtida ayolim sovuq munosabatda bo‘ladi, o‘zini meni istamagandek tutadi”. Bunday paytda ayol eridan lazzatlanmasa ham, erini yoqtirmasa ham, o‘zini yoqtirgandek, lazzatlanayotgandek tutishi lozim. Bu erning qalbini rohatlantirish va oilaning mustahkamligi uchun zarurdir.

Yettinchi foyda: Ayol kishi yolg‘onda ham o‘ziga muboh qilingan narsaga cheklanishi kerak. Uni kengaytirib, haddan oshib ketadigan yolg‘onlarga burkab yubormasligi lozim. Chunki har narsada me’yor muhimdir.

Sakkizinchi foyda: Hamma xonadonlar ham muhabbat ustiga qoim bo‘lavermaydi. Oilaning davomiyligi ko‘pincha mas’uliyat, zimma va bir-biriga rioya qilish bilan ta’minlanadi.

78-hadis

Erdan ayrilishdan emas iymondan ayrilishdan qo‘rq

Muallif shunday deydi: Iymoningga harisliging eringga harisligingdan kattaroq bo‘lsin.

Ba’zi ayollar “erimdan ayrilib qolmay” deb iymondan chetga chiqib ketadilar. Masalan, hijobni tashlab qo‘yadilar, namozni tark etadilar, erining gapiga kirib harom ishlarga rozi bo‘ladilar. Bu esa iymonga xiyonatdir.

Shariatda ayol eriga itoat qilishga chaqiriladi. Lekin iymon va din – erga bo‘lgan itoatdan ham yuqorida turadi. Chunki haqiqiy itoat Allohning amriga bo‘ysunishdadir.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رَضِيَ اللهُ عَنْهُ أَنَّ امْرَأَةَ ثَابِتِ بْنِ قَيْسٍ أَتَتِ النَّبِيَّ ﷺ فَقَالَتْ: يَا رَسُولَ اللهِ، ثَابِتُ بْنُ قَيْسٍ مَا أَعْتِبُ عَلَيْهِ فِي خُلُقٍ وَلَا دِينٍ، وَلَكِنِّي أَكْرَهُ الْكُفْرَ فِي الْإِسْلَامِ. فَقَالَ رَسُولُ اللهِ ﷺ: «أَتَرُدِّينَ عَلَيْهِ حَدِيقَتَهُ؟» قَالَتْ: نَعَمْ. قَالَ رَسُولُ اللهِ ﷺ: «اقْبَلِ الْحَدِيقَةَ وَطَلِّقْهَا تَطْلِيقَةً»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam huzurlariga Sobit ibn Qays roziyallohu anhuning xotini kelib dedi: “Men erimning xulqida ham, dinida ham hech qanday ayb topmayman. Ammo u bilan birga yashashga toqatim yo‘q. Kufrga – ya’ni noshukrlikka tushib qolishdan qo‘rqaman.” Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam unga aytdilar: “Bog’ni qabul qil, va uni bir taloq qil”

Demak, erning xulqi va dini yaxshi bo‘lsa ham, agar ayolning iymoniga zarar yetkazadigan holat yuzaga kelsa – ayol ajrashishga haqqi bor.

Ajralishga sabab bo‘ladigan holatlar:
Diniga amal qilmaydigan er – masalan, namoz o‘qimasa, aroq ichsa yoki zino qilsa.

Xulqi yomon er – doimiy zulm qilsa, xotinining haqqini bermasa.

Xilqat sababli – ayol toqat qilolmaydigan nuqsonlar mavjud bo‘lsa (masalan, yuqumli kasallik yoki jirkanch odatlar).

Qaynona-qaynota muammolari – haddan ortiq zulm qilsa yoki ayolning diniga amal qilishiga yo‘l qo‘ymasalar.

Alloh taolo Qur’onda marhamat qiladi: “Ularni (xotinlaringizni) yaxshilik bilan ushlab turing yoki yaxshilik bilan qo‘yib yuboring.” (Baqara surasi, 229-oyat)

Agar ayol ajrashmoqchi bo‘lsa, hulu taklif qiladi. Ya’ni ajralish ayol tomonidan so‘raladi va bu holda ayol eriga mehrini qaytarib beradi. Bu Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning sunnatlaridan biridir. Ulamolar ijmo qilgan: hulu – shariatda ochiq eshik, ayol uchun halol yo‘l.

Ba’zi zaif hadislarda: “Erdan hulu talab qilgan ayol munofiqlardandir”, – degan xabarlar kelgan. Ammo ulamolar bu so‘zlar faqat nohaq, sababsiz talab qilganlarga taalluqli, deb izoh berishgan.

Shunday ekan, agar ayol uzrsiz, dunyoparastlik yoki isyon uchun hulu so‘rasa – gunohkor bo‘ladi. Ammo iymonini va dinini saqlash uchun yoki toqat qilib bo‘lmaydigan bir sabab tufayli hulu talab qilsa – bu joiz bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Huluning ma’nosi – xotin eridan ajralishi, bunda erkak xotinga sarflagan narsalarini qaytarib oladi. Shuning uchun mahr joriy qilingan.

Ikkinchi foyda: Huluning shar’iy amal ekanligiga ulamolar ijmo qilganlar. Demak, agar u o‘z o‘rnida va haqli bo‘lsa, yomon amal hisoblanmaydi.

Uchinchi foyda: Hulu – ayol kishiga, toqat qilib bo‘lmaydigan nikohdan chiqish uchun ochilgan shariy eshikdir. Ammo ayollar har bir urush-janjaldan keyin huluga shoshilmasliklari lozim. Bu amal faqat shariy sabab bilangina sobit bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi hulu talab qilishiga turli sabablar bo‘lishi mumkin. Jumladan, erini yomon ko‘rib qolishi. Agar toqat qilib bo‘lmaydigan darajada yoqtirmasa, hulu qilishga haqqi bor. Ammo avvalgi mavzuda ta’kidlaganimizdek, shunchaki yoqtirmaslik huluga asos bo‘la olmaydi. Bu faqat jiddiy sabab bilangina joiz bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Ayol kishi yoqtirmaydigan kishi bilan hayotini davom ettirsa, bu uni bir qancha gunohlarga olib kirishi mumkin. Chunki yoqtirmaganidan keyin itoat qilmaydi, ovqat pishirmaydi, kirini yuvmaydi, xizmatini qilmaydi. Natijada gunoh va ma’siyatlar ortib ketaveradi.

Oltinchi foyda: Oqila ayol dinini muhofaza qilishni, er-xotinlik hayotini muhofaza qilishdan ustun qo‘yadi. Chunki dinni asrash – hamma narsadan muqaddamdir.

Yettinchi foyda: Erkak kishining xotiniga bergan narsadan biror narsani nohaq qaytarib olishi haromdir. Aslida erkak pastkashlik qilib, xotiniga hadya qilgan narsasini qaytarib olishi man qilingan va bu gunoh hisoblanadi.

79-hadis

Talabchanlikni to'g'ri yo'naltirish

Muallif shunday deydi: Yopishqoqlik – sening fitratingda yaratilgan xulqdir. Sen undan foydalanishni yaxshi bilgin.

Islomda ayol zotiga Alloh taolo tomonidan tabiiy bir xulq qo‘yilgan – bu ilhoq, ya’ni yopishqoqlikdir. Ayol tabiatan bir kishiga suyanganini, uning yonida bo‘lishni va unga bog‘lanishni istaydi. Bu xususiyat ayollarda fitratan mavjud. Chunki ayol erkakning qovurg‘asidan yaratilgan. Shu bois tabiatan erkakka suyanadi, undan tinchlik va taskin topadi.

Ammo bu hisni to‘g‘ri yo‘nalishda ishlatish zarur. Chunki me’yoridan oshib ketadigan yopishqoqlik zarar ham keltirishi mumkin. Masalan, farzandiga haddan ziyod yopishib olish, eriga yoki boshqa yaqinlariga ortiqcha qaram bo‘lib qolish ba’zan salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun bu xulqni halol va foydali joylarda ishlatish buyurilgan.

عَنْ أُسَامَةَ بْنِ زَيْدٍ رَضِيَ اللهُ عَنْهُ قَالَ: أَرْسَلَتِ ابْنَةُ النَّبِيِّ ﷺ إِلَيْهِ: إِنَّ ابْنِي قَدْ قُبِضَ فَأْتِنَا، فَأَرْسَلَ يُقْرِئُ السَّلَامَ وَيَقُولُ: «إِنَّ لِلَّهِ مَا أَخَذَ، وَلَهُ مَا أَعْطَى، وَكُلُّ شَيْءٍ عِنْدَهُ بِأَجَلٍ مُسَمًّى، فَلْتَصْبِرْ وَلْتَحْتَسِبْ». فَأَرْسَلَتْ إِلَيْهِ تُقْسِمُ عَلَيْهِ لَيَأْتِيَنَّهَا، فَقَامَ رَسُولُ اللهِ ﷺ وَمَعَهُ سَعْدُ بْنُ عُبَادَةَ، وَمُعَاذُ بْنُ جَبَلٍ، وَأُبَيُّ بْنُ كَعْبٍ، وَزَيْدُ بْنُ ثَابِتٍ، وَرِجَالٌ، فَرُفِعَ إِلَى رَسُولِ اللهِ ﷺ الصَّبِيُّ وَنَفْسُهُ تَتَقَعْقَعُ، فَفَاضَتْ عَيْنَاهُ، فَقَالَ سَعْدٌ: مَا هَذَا يَا رَسُولَ اللهِ؟ قَالَ:

«هَذِهِ رَحْمَةٌ جَعَلَهَا اللهُ فِي قُلُوبِ عِبَادِهِ، وَإِنَّمَا يَرْحَمُ اللهُ مِنْ عِبَادِهِ الرُّحَمَاءَ»

Usoba ibn Zayd roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning qizlaridan biri (ba’zi rivoyatlarda Zaynab roziyallohu anho deyiladi) bir o‘g‘li jon berayotganida Rosulullohni chaqirish uchun odam yubordi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam avval aytdilar: ‘Albatta olgan ham Alloh, bergan ham Allohdir. Har bir narsaning Alloh huzurida belgilangan ajal muddati bor. Sabr qilsin va ajrni Allohdan so‘rasin.’ Qizlari yana odam yuborib, qasam ichib: ‘Albatta kelasiz’, – deb qasd qildi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam qasamni ado etish uchun turdilar va Sa’d ibn Uboda, Muoz ibn Jabal, Ubay ibn Ka’b hamda Zayd ibn Sobit roziyallohu anhumlarni ham olib bordilar. Bolani huzurlariga keltirishdi. Bola jon talvasasida “hiqillab” nafas olayotgan edi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning ko‘zlaridan yosh oqib chiqdi. Shunda Sa’d roziyallohu anhu so‘radilar: “Yo Rosulullоh, bu nima?” Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Bu – rahmatdir. Alloh uni O‘z bandalarining qalbiga joylashtirgan. Alloh taolo faqat rahmlilarga rahm qiladi.”

Bu voqea ayol fitratidagi ilhoq – ya’ni yopishqoqlikka yaqqol bir misoldir. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning qizlari otalaridan sabrga undovchi nasihat va duo so‘rab, hatto qasam ichib ularni chaqirdilar.

Bu holat ayolning tabiiy ravishda suyanishi, iltijo qilishi va yaqin kishisiga yopishqoqligi fitratidan dalolat beradi. Alloh taolo ayol qalbiga shunday mayl va yumshoqlikni qo‘ygan. Shu sababli ayolning qalbi ko‘proq suyanchiq izlaydi, tasalli topishni istaydi va bu uning fitriy xususiyatidir.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam avval qizlarini sabrga undadilar, chunki haqiqiy tasalli faqat Allohdan bo‘ladi. Keyin qizlari qasam ichganlari sababli bordilar, chunki mo‘minning qasamini ado etishi vojibdir – agar u gunoh ish bo‘lmasa. Bola jon berayotganini ko‘rib, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning ko‘zlaridan yosh oqdi. Bu yig‘i sabrsizlik emas, balki qalbdagi rahm-shafqatning belgisi edi.
Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Bu – rahmatdir. Alloh taolo bandalardan rahmlilarga rahm qiladi.”

Demak, yig‘lashning ikki turi bor:

1. **Sabrga zid bo‘lgan yig‘i** – qichqirish, faryod qilish, yuzni tirnash, ovoz chiqarib nolish. Bu man qilingan.
2. **Rahmdan keladigan yig‘i** – ko‘zdan yosh oqishi va qalbdagi yumshoqlik. Bu esa sunnatdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ota qizini turmushga bergandan keyin ham unga e’tiborini davom ettiradi. Qiz turmushga chiqqach, ota uni butkul tashlab qo‘ymaydi. Aksincha, zarurat paytida maslahat berish, tarbiya qilish va sabrga chaqirish orqali unga yordam beradi.

Ikkinchi foyda: Ayolni sabrga tarbiyalash kerak ekan. Bola yoki boshqa yaqin kishi vafot etganda eng avvalo qilinadigan amal – sabr qilish va ajrni Allohdan so‘rashdir.

Uchinchi foyda: Sabrga zid keladigan yig‘i – faryod va ovoz chiqarib yig‘lashdir. Ovoz bilan faryod solib yig‘lash harom qilingan.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi yaxshilik va fazilat talabida ilhoq qilishi maqtalgan ishdir. Ya’ni ayolning savobli amallarga ilhomlanib, qayta-qayta eridan so‘rashi fazilat sanaladi. Masalan, eridan hajga borishni, sadaqa qilishni yoki boshqa savobli ishlarni talab qilishi uning ilhoqi bilan bo‘ladi va bu ham maqtovga loyiqdir.

Beshinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam shu bobda sabr qilgan kishilarga rahmat tilab duo qildilar. U zotning “Alloh rahmlilarga rahm qiladi” degan so‘zlari aslida bir duo sanaladi. Demak, kim rahmli bo‘lsa, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning duosiga sherik bo‘ladi.

80-hadis

Uyning mas'uliyatini zoyi qilmaslik

Muallif shunday deydi: Alloh uyning ichidagi kishilarning mas’uliyatini senga yuklagan. Sen uydan chiqish bilan ularni zoye qilma.

Alloh taolo har bir insonni qo‘l ostidagi kishilardan mas’ul qilib yaratgan. Ayol kishi ham erining uyida boshqaruvchi qilib qo‘yilgan va uydagi barcha mas’uliyat – farzandlar, yetimlar, xizmatkorlar, hatto uy ichidagi hayvonlargacha – unga topshirilgan.

Agar ayol uydan chiqib ketib, ularni qarovsiz qoldirsa, ular zoye bo‘ladi: farzandlarning tarbiyasi buziladi, rizqlari ham yo‘qoladi, uy tartibsiz qoladi. Shuning uchun ayolga uyda o‘tirish, uyni boshqarish va zimmasiga yuklangan mas’uliyatni ado etish buyurilgan.

عَنْ ابْنِ عُمَرَ رَضِيَ اللهُ عَنْهُ قَالَ: سَمِعْتُ رَسُولَ اللهِ ﷺ يَقُولُ: «كُلُّكُمْ رَاعٍ وَكُلُّكُمْ مَسْؤُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، الْإِمَامُ رَاعٍ وَمَسْؤُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالرَّجُلُ رَاعٍ فِي أَهْلِهِ وَهُوَ مَسْؤُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، وَالْمَرْأَةُ رَاعِيَةٌ فِي بَيْتِ زَوْجِهَا وَمَسْؤُولَةٌ عَنْ رَعِيَّتِهَا، وَالْخَادِمُ رَاعٍ فِي مَالِ سَيِّدِهِ وَمَسْؤُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ». قَالَ: وَحَسِبْتُ أَنْ قَدْ قَالَ: «وَالرَّجُلُ رَاعٍ فِي مَالِ أَبِيهِ وَمَسْؤُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ، فَكُلُّكُمْ رَاعٍ وَكُلُّكُمْ مَسْؤُولٌ عَنْ رَعِيَّتِهِ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Hammalaringiz boshqaruvchisizlar va hammalaringiz qo‘l ostidagilardan mas’ulsizlar. Imom – davlat boshlig‘i boshqaruvchidir va boshqarayotganlaridan mas’uldir.

Erkak kishi ahli – oilasi ustida boshqaruvchidir va boshqarayotganlaridan mas'uldir. Ayol kishi erining uyida boshqaruvchidir va boshqarayotganlaridan mas'uldir. Xizmatkor xo'jayinining molida boshqaruvchidir va boshqarayotganlaridan mas'uldir. Sizlarning barchalaringiz boshqaruvchisizlar va hammalaringiz qo'l ostidagilardan mas'ulsizlar."

Bu hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam mas'uliyatning keng qamrovini ko'rsatdilar.

Imom (davlat boshlig'i) – butun xalqdan mas'uldir. Qancha xalq ko'paysa, mas'uliyati ham shuncha og'ir bo'ladi. Umar ibn Abdulaziz rahimahulloh xalifalik mas'uliyatidan qo'rqib yashaganlari ham shundan edi.

Erkak – ahli va uyidan mas'uldir. U oilasini ta'minlash, tarbiya qilish, halol rizq topish, xotin va farzandlariga Allohning amrlarini o'rgatish bilan javobgardir.

Ayol – erining uyida boshqaruvchidir. U farzandlarning tarbiyasi, ovqat, kiyim-kechak, uy ishlarini tartibga solish bilan mas'uldir. Agar ayol uyini tashlab ketib, o'z mas'uliyatini xizmatkor, bog'cha yoki maktabga topshirsa ham, baribir Alloh oldida bu mas'uliyatdan so'raladi.

Xizmatkor va ustozlar – ularga ishonib topshirilgan mol, tarbiya va vazifalardan mas'uldirlar. Hozirgi kunda bunga o'qituvchilar, tarbiyachilar va tarbiyaviy ishni o'z zimmasiga olgan barcha kishilar kiradi.

Demak, Islomda hech kim “men erkinman, mendan hech narsa so‘ralmaydi” deya olmaydi. Har bir kishi o‘z qo‘l ostidagilardan qiyomat kuni javob beradi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Boshqaruvchi – muhofaza qiluvchi demakdir. Boshqaruvchilik ustunlik yoki zo‘rlik emas, balki Alloh topshirgan vazifani asrab-avaylashdir. Agar kimdir xiyonat qilsa, ya’ni qo‘l ostidagilarni zoye qilsa – bu boshqaruvchilikka xiyonat bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Erkak kishi boshqaruvchi bo‘lgani kabi, ayol kishi ham tor doirada boshqaruvchidir. Erkak – tashqi ta’minotdan, ayol esa – ichki boshqaruvdan so‘raladi. Er ham, ayol ham, ustoz ham, davlat boshlig‘i ham o‘z mas’uliyatidan qochmasligi kerak. Agar har kim o‘z mas’uliyatini ado etsa, jamiyatda zulm bo‘lmaydi, yetimlar zoye bo‘lmaydi, bolalar tarbiyasiz qolmaydi.

Uchinchi foyda: Ayol kishi erining uyini boshqarishi – erga e’tibor berish, farzandlarga qarash, uy ishlarini chiroyli bajarish, mehmonni izzat qilishni o‘z ichiga oladi. Bu xizmatkorlik emas, balki oliyjanob rioya – g‘amxo‘rlikdir. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam ayollarni “rioya qiluvchi” deb ataganlari ham shunga ishora.

To‘rtinchi foyda: Ayolning erining rioyasini qilishi – uning zimmasidagi vojib ishdir. Xuddi shuningdek, erning ham xotiniga rioya qilishi – er zimmasidagi vojibdir. Shu o‘zaro rioya bilan oila barqaror va mustahkam bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarni “rioya qiluvchi” deb ataganlari juda nozik va daqiq ta’birdir. Ya’ni u zot ayollarni jahiliyat davridagidek “xizmatkor” deb atamadilar. Shuning uchun “erimga xizmat qilishga majbur ekanligim haqida shariatda dalil yo‘q” deb jar soluvchi ayollar aslida shu rioyaning mohiyatini tushunishlari kerak.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarni “rioya qiluvchi” deb chiroyli ta’riflaganlar, “xizmatkor” deb emas. Bu rioya – oilani asrash, farzandlarga, erga va uyga g‘amxo‘rlik qilishdir. Uni qadrlamaslik, qadrsiz ko‘rish yoki suv iste’mol qilmay qo‘ygandek mensimaslik mumkin emas. Aksincha, rioya – ayolning sharafini ko‘rsatuvchi ulug‘ sifatdir.

81-hadis

Zikrdan kuch olish

Muallif shunday deydi: Mas’uliyatlaringni bajarishda Allohning zikridan foydalan.

Ayol kishi uydagi barcha mas’uliyatlarga – farzandlarga, eriga, uy hayvonlariga, xizmatga – mas’ul qilib qo‘yilgan. Bu mas’uliyatni ado etishda eng katta kuch beradigan narsa Allohning zikridir. Chunki zikr faqat ayollar uchun emas, erkaklarga ham quvvat beradi.

Sahobalar zikr ila jihod qilganlar, farishtalar ham zikr ila oziqlanadi. Demak, zikr – haqiqiy kuch va ruhiy quvvat manbaidir.

عَنْ عَلِيٍّ رَضِيَ اللهُ عَنْهُ: أَنَّ فَاطِمَةَ رَضِيَ اللهُ عَنْهَا اشْتَكَتْ مَا تَلْقَى مِنْ أَثَرِ الرَّحَى، فَأَتَتْ النَّبِيَّ ﷺ تَسْأَلُهُ خَادِمًا فَلَمْ تَجِدْهُ، فَذَكَرَتْ ذَلِكَ لِعَائِشَةَ، فَلَمَّا جَاءَ النَّبِيُّ ﷺ ذَكَرَتْ ذَلِكَ لَهُ عَائِشَةُ، فَجَاءَنَا وَقَدْ أَخَذْنَا مَضَاجِعَنَا، فَذَهَبْتُ لِأَقُومَ فَقَالَ: «عَلَى مَكَانِكُمَا»، فَجَلَسَ بَيْنَنَا، حَتَّى وَجَدْتُ بَرْدَ قَدَمَيْهِ عَلَى صَدْرِي، فَقَالَ: «أَلَا أَدُلُّكُمَا عَلَى خَيْرٍ مِمَّا سَأَلْتُمَاهُ؟ إِذَا أَخَذْتُمَا مَضَاجِعَكُمَا فَكَبِّرَا اللهَ أَرْبَعًا وَثَلَاثِينَ، وَاحْمَدَاهُ ثَلَاثًا وَثَلَاثِينَ، وَسَبِّحَاهُ ثَلَاثًا وَثَلَاثِينَ، فَإِنَّ ذَلِكَ خَيْرٌ لَكُمَا مِمَّا سَأَلْتُمَاهُ»

Fatima roziyallohu anho tegirmon toshini aylantirib ishlashdan qo‘llari qavarib ketganidan, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga shikoyat qilib keldilar. Shunda u kishiga (Fotimaga) xabar yetdiki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga asirlar keltirilgan ekan. Fotima Rosulullohning oldilariga xizmatkor so’rab keldi, ammo u kishini topa olmadilar.

Oisha onamizga aytib ketdilar. Shunda Naboy sollollohu alayhi va sallam keldilar, Oisha buni Rosulullohga zikr qildi. Shunda Rosululloh bizning oldimizga keldilar. Biz to'shaklarimizga yotgan edik. Turmoqchi bo'ldik, Rosululloh: "Joyinglarda turinglar" dedilar. Hatto men ko'ksimda ikki oyoqlarining sovuqligini topdim. Shunda Rosululloh aytdilar: "Men sizlarni so'raganinglardan yaxshi narsaga yo'llab qo'yaymi? Agar to'shaginglarni olsanglar Allohga 34 marta takbir, 33 marta alhamdulillah, 33 marta subhanalloh denglar. Ana shu sizlar so'ragan narsadan yaxshidir.

Fotima roziyallohu anho uydagi og'ir mehnatdan qo'llari qavarib ketganida xizmatkor so'radilar. Bu tabiiy talab edi, chunki o'sha davrda barcha og'ir ishlar qo'lda bajarilardi. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam esa ularni sabrga, zikrga va oxiratga yo'naltirdilar.

Xizmatkor emas, zikr. Xizmatkor dunyoda ozgina yengillik berishi mumkin, lekin zikr dunyoda ham, oxiratda ham foyda keltiradi.

Rosulullohning tarbiyasi. U zot hatto o'z qizlariga ham dunyo hashamatini bermadilar, balki zikrni afzal ko'rdilar. Bu bilan haqiqiy boylik zikr va oxirat ne'matlarida ekanini ko'rsatdilar.

Uyqudan oldingi zikr. Inson uyquda jismoniy quvvatini yangilaydi. Agar zikr bilan yotsa, qalban va ruhan ham quvvatlanadi.

Xulosa: Bu hadisda zikrning amaliy hayotdagi foydasi ko'rsatilmoqda. U mehnatga ham, ibodatga ham, sabrga ham yordam beradi. Shu sababli zikr – dunyo va oxirat uchun eng buyuk kuch manbaidir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishini zikrga tarbiyalash kerak. Chunki zikr – haqiqiy quvvat manbaidir. U faqat ruhiy emas, balki amaliy ishlarni ado etishda ham insonni mustahkamlaydi. Zikr faqat joynamoz ustida cheklangan emas, istalgan vaqtda, istalgan joyda zikr qilib yurish mumkin.

Ikkinchi foyda: Otaning tarbiyadagi davri qizini erga berish bilan tugamaydi. Ota-ona farzandini erga bergandan keyin ham uni tarbiyalashdan voz kechmaydi. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam ham Fotima onamizni keyinchalik ham tarbiyalab, nasihat qilib turganlar.

Uchinchi foyda: Ayolning uyida xizmat qilishi uning qadrini kamaytirmaydi. Aksincha, eriga xizmat qilishi ayolning ulug‘ligi va rioyasidir. Fotima roziyallohu anho – jannat ayollarining sayyidasi bo‘lsalar-da, xizmat qilganlar. Bu – xizmat qilishning ayolni pastlatmasdan, balki sharafini ko‘rsatishiga dalildir.

To‘rtinchi foyda: Ayolning eriga xizmat qilishi – uning rioyasining bir qismidir. Qiyomat kuni ayol bundan ham so‘raladi. Chunki bu zimmasidagi mas’uliyatlardan biridir.
Beshinchi foyda: Ayol agar muhtoj bo‘lsa, uyida xizmatkor talab qilishi joizdir. Avvalgi davrlarda bu odatiy hol bo‘lgan – xuddi bizning diyorlarda mol-qo‘y boqish odatiy bo‘lgani kabi.

Lekin hozirgi zamonda xizmatkor olish shart emas, chunki ko‘p ishlarni texnika yengillashtirgan: kir yuvadigan mashinalar, gaz plitalari va boshqa qulayliklar mavjud. Shunga qaramay, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam xizmatkordan ko‘ra zikrni afzal ko‘rganlar. Bu – zikrning ulug‘ligini va hayotiy kuch manbai ekanini ko‘rsatadi.

Oltinchi foyda: Nabiy sollollohu alayhi va sallam qizlari Fotimaga erlari Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhudan xizmatkor olib kelishni buyurmadi. Chunki bu erning zimmasidagi vojib emas edi. Shuningdek, qaynota kuyovdan unga vojib bo‘lmagan narsalarni talab qilmasligi kerak. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ham Aliga “nega qizimni qiynayapsan?” demadilar, balki uni eng yaxshi yo‘lga yo‘naltirdilar.

Yettinchi foyda: Nabiy sollollohu alayhi va sallam Aliga “Fotimaning xizmati vojib emas” deb aytmadilar. Balki Fotima roziyallohu anho uchun bundan ham yaxshiroq narsani – zikrni ko‘rsatdilar. Bu dalildirki, ayolning eriga xizmat qilishi vojibdir. Agar xotin eriga xizmat qilishi vojib bo‘lmaganida, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam albatta qaytarar edilar. Ammo qaytarmadilar. Bu masalada ulamolar orasida ixtilof bo‘lsa-da, Rosulullohning amaliyoti – ayolning eriga rioya qilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Sakkizinchi foyda: Ayol kishi zikrlarni muhofaza qilishi uni Xoliqiga bog‘laydi. Zikr uning iymonini ziyoda qiladi va hayotida yo‘nalishini to‘g‘rilaydi. Ayol zikr bilan mashg‘ul bo‘lsa, qalbi poklanadi, iymoni ziyoda bo‘ladi, tilini yomon so‘zlardan saqlaydi, hayotida baraka bo‘ladi. Chunki til – agar yaxshi gap gapirmasa, yomon gap gapiradi. Zikr esa tilni ham, qalbni ham tozalaydi.

82-hadis

Sunnatga kifoyalanib bid'atlardan chetlanish

Muallif shunday deydi: Allohning zikriga Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam yo‘li bilan haris bo‘lgin. Bid’atlardan saqlangin.

Allohni zikr qilish mo‘min hayotining markaziy amallaridan biridir. Lekin zikr ham shariatda kelgan ko‘rinishda, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ko‘rsatganidek bo‘lishi lozim. Chunki haqiqiy zikr – Allohni O‘zi xohlaganidek zikr qilishdir, odamlarning o‘zlari to‘qib olgancha emas.

Bid’atlarga kiradigan ba’zi shakllar: majburan ming martalab sanash, maxsus ixtiro qilingan tasbehlar, pirlar belgilab qo‘ygan raqamlar bilan zikr qilish va shariatda kelmagan usullar. Bularning barchasi Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam yo‘llaridan tashqaridir.

عَنْ بَسِيرَةَ رَضِيَ اللهُ عَنْهَا، وَكَانَتْ مِنَ الْمُهَاجِرَاتِ قَالَتْ: قَالَ لَنَا رَسُولُ اللهِ ﷺ: «عَلَيْكُنَّ بِالتَّسْبِيحِ وَالتَّهْلِيلِ وَالتَّقْدِيسِ، وَلَا تَغْفُلْنَ فَتَنْسَيْنَ الرَّحْمَةَ، وَاعْقِدْنَ بِالْأَنَامِلِ فَإِنَّهُنَّ مَسْئُولَاتٌ مُسْتَنْطَقَاتٌ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarga marhamat qilib aytdilar: “Tasbehni, tahlilni va taqdisni lozim tutinglar. Ularni barmoqlar bilan sananglar. Chunki barmoqlar va bo‘g‘imlar mas’uldirlar (ya’ni so’raladilar) va qiyomatda gapirtiriladilar. G’aflatda qolmanglar rahmatni unutib qo’yasizlar.

Tasbeh – Subhanalloh (Allohni poklash).
Tahlil – La ilaha illalloh (tavhid kalimasi).
Taqdis – Allohni ulug‘lash, muqaddaslash.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayollarga zikrni ko‘p qilishni buyurdilar va barmoqlar bilan sanashni targ‘ib qildilar. Chunki qiyomat kuni har bir bo‘g‘im so‘zlaydi va inson qilgan amallarga guvohlik beradi.

Shu bois eng afzal zikr – qo‘l bilan sanashdir. Chunki barcha bo‘g‘imlar zikrda ishtirok etadi va ertaga guvoh bo‘ladi. Ammo qodir bo‘lmagan yoki tez chalg‘iydigan kishi uchun tasbeh (hatto elektron tasbeh) ishlatish joiz, biroq afzali qo‘l bilan zikr qilishdir.

Odamlar o‘zlari to‘qib olgan raqamlar – “ming marta shuni ayt, falon vazifa bo‘ladi” kabi gaplar – shariatda asosi yo‘q narsalardir. Shuningdek, maxsus ulkan tasbehlar yoki “pirdan vazifa oldim” deya qilinadigan majburiy sanashlar ham bid’at hisoblanadi.

Aslida zikr ko‘p, oddiy va ixlos bilan bo‘lishi kerak. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Mufarridlar o‘zib ketdilar.” Sahobalar so‘radilar: “Kim ular, ey Rosulullоh?” Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Allohni ko‘p zikr qiladigan erkaklar va ayollar.”

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi tasbeh, tahlil va taqdisga undaldi. Ya’ni Allohni poklash (Subhanalloh), tavhidni tasdiqlash (La ilaha illalloh) va Allohni ulug‘lash, muqaddaslash iboralari ayol uchun ham buyurilgan zikr amallaridandir.

Ikkinchi foyda: Ayollar barmoqlar va bo‘g‘imlar bilan tasbeh sanashga targ‘ib qilindilar va bundan boshqasini tark qilishga chaqirildilar. Demak, targ‘ib bor, qaytarish esa yo‘q.

Uchinchi foyda: Qiyomatda insonning barmoqlari va bo‘g‘imlari qilgan amallari haqida guvohlik beradi. Shu sababli a’zolarni yaxshilik yo‘lida ishlatish lozim. Bugungi kunda jinoyatchilar barmoq izlari orqali aniqlangani kabi, qiyomatda ham insonning a’zolari uning amallari haqida guvohlik beradi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi zikrdan g‘aflatda qolsa, ko‘p yaxshiliklardan mahrum bo‘ladi. Allohni ko‘p zikr qilgan kishi esa jihod qilgandan ham yuqori darajalarga erishadi.

Beshinchi foyda: Ayol kishini afzal vositalarda ishlatish bilan zikrga tarbiyalash zarur. Zikrni tark qilgan inson esa Allohning rahmatidan uzoqlashadi.

83-hadis

Islom huquqlarni saqlaydi

Muallif shunday deydi: Islomdek senga huquqlaringni saqlaydigan, holatingning o‘zgarishiga rioya qiladigan va barcha holatlarda senga munosib bo‘ladigan biror tuzumni topa olmaysan.

Islom ayolning haqqini boshqa hech bir tuzum bera olmagan darajada muhofaza qiladi. Hattoki erkakning ham, hatto hayvonning ham huquqlari shariatda belgilangan. Lekin ayolning haqqini va holatini rioya qilishda Islom eng go‘zal taqsimotlarni joriy qilgan.

Bugungi kunda “ayol huquqlari” degan shior ostida ko‘plab bid’at va g‘arbona qarashlar yoyilmoqda. Ularning ko‘pchiligi ayolni haqiqiy himoya qilish emas, balki uning dinini, dunyosini va oxiratini zoya qilishdir.

Rosululloh sollollohu alayhi va sallamning hukmlari esa adolatli, hayotiy va hikmatli bo‘lib, ayolga haqiqiy huquqni beradi.

عَنْ عَمْرِو بْنِ شُعَيْبٍ، عَنْ أَبِيهِ، عَنْ جَدِّهِ عَبْدِ اللهِ بْنِ عَمْرٍو، أَنَّ امْرَأَةً قَالَتْ: يَا رَسُولَ اللهِ، إِنَّ ابْنِي هَذَا كَانَ بَطْنِي لَهُ وِعَاءً، وَثَدْيِي لَهُ سِقَاءً، وَحِجْرِي لَهُ حِوَاءً، وَإِنَّ أَبَاهُ طَلَّقَنِي، وَأَرَادَ أَنْ يَنْتَزِعَهُ مِنِّي، فَقَالَ لَهَا رَسُولُ اللهِ ﷺ: «أَنْتِ أَحَقُّ بِهِ مَا لَمْ تَنْكِحِي»

Bir ayol Rosulullоh sallallohu alayhi va sallamga kelib dedi: “ey Rosulullоh, bu bola mening qornim unga idish bo‘ldi, ko‘kragim unga sug‘oruvchi bo‘ldi, bag‘rim unga panoh bo‘ldi. Endi otasi meni taloq qilib, bolani mendan tortib olmoqchi.” Shunda Rosulullоh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “sen bu bolaga haqliroqsan, modomiki turmushga chiqmaguningcha.”

Onaning uch buyuk fazilati bor: homiladorlikda qornida ko‘tarishi, emizishi va mehr bilan tarbiya qilib katta qilishi. Shu sababdan onaga uch marta ustunlik berilgan.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Onang, onang, onang, keyin otang” deganlarining siri ham aynan shunda.

Bu hadisdan ko‘rinadiki, ona bola tarbiyasida otadan ham haqliroqdadir, qachonki u boshqa erga turmushga chiqmagan bo‘lsa. Chunki yangi erning oilaviy mas’uliyatlari bolaga zarar keltirishi mumkin.

Agar ona turmushga chiqsa, bola otaga o‘tadi. Ammo bunda ham shariat bolaning manfaatini ko‘zlaydi: agar ota solih bo‘lmasa yoki bola zoye bo‘lish xavfi tug‘ilsa, qozining hukmiga ko‘ra bola boshqa qarindoshlarga berilishi mumkin.

Tarbiya va emizish – onaga muqaddam qilingan, chunki ona tabiatan mehribonroq va sabrliroqdir. Shu bois bola uchun eng ishonchli tarbiyachi avvalo onadir.

Moliyaviy ta’minot va nikoh masalalari – otaga topshirilgan, chunki ota bu borada qodirroq va mas’uliyatliroqdir.

Turmushga chiqmagan ona – bolaning birinchi huquqiy tarbiyachisi hisoblanadi. Chunki u mehr, tarbiya va g‘amxo‘rlikda eng ustun huquqqa ega.

Turmushga chiqqan ona – bola otaga o‘tadi. Ammo bunda ham bolaning manfaatiga zarar yetmasligi shart. Agar otaning qo‘lida bola zoye bo‘lishi xavfi bo‘lsa, bu masala qozining hukmiga ko‘ra hal qilinadi.

Ota ham, ona ham qodir bo‘lmasa – navbat bu vazifaga qarindoshlarga o‘tadi: avvalo onasining onasi, keyin otasining onasi va shunga o‘xshash tartibda qarindoshlarga. Shariat bolaning haqqini himoya qilishda eng adolatli taqsimotni belgilagan.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Hadisda ayolning faqihligi ko‘rinmoqda. Chunki u o‘z masalasini shunchalik ravshan qo‘ndalang qo‘yyaptiki, bolaga tarbiyani talab qilishda dalillarni ham keltira olyapti. Inson o‘z haqqini talab qila olishi lozim. Hadisdagi ayol ham onalik haqlarini sanab, ularni dalil sifatida ko‘rsatib bera oldi.

Ikkinchi foyda: Aslida ona bolaga haqliroqdadir – modomiki u turmushga chiqmagan bo‘lsa. Agar turmushga chiqsa, bolani o‘z qaramog‘ida olib qolishga haqqi qolmaydi. U xohlagan vaqtda bola bilan ko‘rishishi mumkin, ammo muntazam qaramog‘ida tarbiya qilish huquqi yo‘q.

Uchinchi foyda: Ba’zida onada shariy monelik bo‘lishi bolani qaramog‘iga olish haqqini man qiladi. Aslida ajrashilgandan keyin bolaga ona haqli, qachonki unda shariy monelik bo‘lmasa. Shariy monelik bo‘lgan onaga misol: fosiqa ona, dinsiz ona, iffatsiz ona. Agar ona fosiqa bo‘lsa yoki bolaga zarar yetkazadigan ahvolda bo‘lsa, tarbiya haqqi undan olinadi.

Bola tarbiyasi bir tarafga to‘liq yuklanmaydi. Shariat bu masalada adolatni ta’minlab, ota va onaning zimmasiga mos mas’uliyat yuklaydi. Ota zimmasiga moliyaviy ta’minot va nikoh mas’uliyati yuklangan bo‘lsa, onaning zimmasiga tarbiya va emizish mas’uliyati yuklangan. Shu tariqa, shariat ota-onaning vazifalarini adolat bilan taqsimlagan.

84-hadis

Farzand so‘zing bilan emas feling bilan tarbiyalanadi

Muallif shunday deydi: Farzandlaring seni so‘zlaringdan oldin chiroyli fe’llaring bilan tarbiya topadi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytganlaridek: “Bola avvalo ota-onasining so‘zidan emas, amalidan tarbiya oladi.” Bu hikmatli so‘z bizning tilimizdagi ibora bilan ham uyg‘un: “Qush uyasida ko‘rganni qiladi.”

Ya’ni, ota-ona qanday yashasa, bola ham shuni ko‘radi va shuni qiladi. Ota-onaning harakati, xulqi va odati – bolaga eng birinchi va eng kuchli darsdir.

عَنْ عَبْدِ اللهِ بْنِ عَامِرٍ، أَنَّهُ قَالَ: دَعَتْنِي أُمِّي يَوْمًا وَرَسُولُ اللهِ ﷺ قَاعِدٌ فِي بَيْتِنَا، فَقَالَتْ: هَا تَعَالَ أُعْطِيكَ. فَقَالَ لَهَا رَسُولُ اللهِ ﷺ: «وَمَا أَرَدْتِ أَنْ تُعْطِيَهُ؟» قَالَتْ: أُعْطِيهِ تَمْرًا. فَقَالَ لَهَا رَسُولُ اللهِ ﷺ: «أَمَا إِنَّكِ لَوْ لَمْ تُعْطِهِ شَيْئًا كُتِبَتْ عَلَيْكِ كَذِبَةٌ»

Abdulloh ibn Amr ibn Os roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bizning uyimizda o‘tirgan edilar. Onam meni chaqirib: ‘Kel, bir narsa beraman’ dedi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam onamdan so‘radilar: ‘Unga nima bermoqchi eding?’ Onam: ‘Xurmo bermoqchi edim’, – dedi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: ‘Agar unga hech narsa bermagan bo‘lsang, sening zimmangga yolg‘on yozilar edi.’”

Bola ota-onasidan gapdan ko‘ra amalda tarbiya oladi. Agar ona “kel, beraman” deb chaqirib, ammo bermasa, bola ota-onasidan yolg‘on ko‘rgan bo‘ladi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hattoki bolaning e’tiborini tortish uchun ham yolg‘on gapirishni man qildilar. Chunki bola buni “halol” deb o‘ylab qolishi mumkin.

Shunga o‘xshash bir misol: Imom Buxoriy rahimahulloh bir odamni tuyasini qo‘lida narsa bor kabi aldab chaqirayotganini ko‘rib, undan hadis olishdan qaytdilar. Chunki u hatto hayvonga ham yolg‘on gapirgan edi.

Demak, bola tarbiyasi eng avvalo ota-onaning amali bilan bo‘ladi, so‘z bilan emas.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Farzandlarni tarbiyalashda va ular bilan muomala qilishda maqtalgan xulqlarga rioya qilish kerakligi ayon bo‘lmoqda. Farzandlarimizni uzun ma’ruza va nasihatlar bilan emas, balki chiroyli xulq va odob bilan tarbiyalashimiz lozim. Bu novdani qolipga solish misoliga o‘xshaydi – qanday shaklda tarbiya qilsak, bola ham shunday shaklda ulg‘ayadi.

Ikkinchi foyda: Bolalarni tarbiyalashda o‘rnak bo‘lish juda muhim. Bola uchun maktab yoki universitetdan ham muhimroq narsa – o‘z ota-onasining o‘rnak bo‘lishidir. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ham, sahobalar ham farzandlarini avvalo amaliy hayot va chiroyli xulq bilan tarbiyalaganlar. Shu bois eng katta maktab – ota-onaning o‘zidir.

Uchinchi foyda: Ayollar bolalarga yolg‘on gapirishdan ogohlantirilishi kerak ekan. Bolaga yolg‘on gapirish joiz emas, hatto “kel, beraman” deb hech narsa bermaslik ham yolg‘on hisoblanadi. Bu bola qalbida yolg‘onning “halolligi”ni singdirib, uni ham yolg‘onchi qilib qo‘yadi. Qo‘rqitishda ham yolg‘on joiz emas. Ba’zilarning “yalmog‘iz keladi”, “bo‘ri olib ketadi” kabi gaplari ham yolg‘on bo‘lib, bolani yolg‘on bilan tarbiyalaydi.

To‘rtinchi foyda: Bolalarga tarbiya berishda shariatga xilof o‘rinlarda ota-onaga yoki murabbiyga ergashish joiz emas, balki inkor qilish kerak. Murabbiy ham avvalo o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi lozim. Ba’zan o‘qituvchi yoki ota-ona ilmiy diplomi bo‘lsa-da, o‘zi tarbiyalanmagan bo‘ladi. Shuning uchun bola undan haqiqiy tarbiya olmaydi. Avval o‘zini to‘g‘rilash, so‘ng boshqaga tarbiya berish kerak.

Beshinchi foyda: Bolalarga kichikligida berilgan tarbiyaning ahamiyati juda katta bo‘lib, bu ulg‘aygandagi hayotiga ta’sir qiladi. Yoshligida berilgan tarbiya umr bo‘yi iz qoldiradi. Xuddi kichikligida shakl berilgan tarvuz ulg‘ayganda ham o‘sha shaklini saqlab qolganidek, bola ham yoshlik tarbiyasi bilan shakllanadi.

85-hadis

Zurriyoting dunyo va oxiratda rizq va ajr masdari

Muallif shunday deydi: Zurriyotlaring senga ajr va yaxshilik manbaidir – ular tirikligida ham, o‘lganlarida ham.

Islomda farzandlar ota-onaning faqatgina mas’uliyati emas, balki ularga dunyoda rizq, oxiratda esa ajr manbai bo‘lishi haqida Qur’on va hadislar bilan dalillar kelgan. Shuning uchun “farzand ko‘rsam, ularni kim boqadi?” deb g‘am qilmaslik kerak.

Alloh taolo marhamat qiladi: “Biz sizlarni va zurriyotlaringizni rizq bilan ta’minlaymiz.” (Isro 31)

Bu oyatdan ayon bo‘ladiki, farzandlarning rizqini Alloh beradi, ota-onaning qo‘liga esa sabab qilib qo‘yadi.

Hadisda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: “Sizlar zaiflaringiz sababli rizqlanasizlar va yordam ko‘rasizlar.”

Demak, farzand – ota-onaga mas’uliyat bo‘lish bilan birga, ularga rizq va baraka sababidir, oxiratda esa ularga ajr va savob manbai bo‘ladi.

عَنْ مُعَاذِ بْنِ جَبَلٍ عَنْ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «الْوَالِي نَصَبَ نَفْسَهُ لِلنَّاسِ، إِنَّ السِّقْطَ لَيَجُرُّ أُمَّهُ بِسُرَّتِهِ إِلَى الْجَنَّةِ إِذَا احْتَسَبَتْهُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Nafsim qo‘lida bo‘lgan Zotga qasamki, homila bo‘lib tushgan chaqaloq ham, agar onasi sabr qilib ajrini Allohdan istasa, o’zining kindigi bilan onasini jannatga tortadi.”

Hadisda aytilgan farzand – hali tug‘ilmagan, embrion holatida bo‘lsa ham – onasini jannatga yetaklar ekan. Demak, ona sabr qilib, ajrini Allohdan istasa, hatto homila holida tushgan farzand ham ona uchun najot sababchisiga aylanadi. Endi tirik tug‘ilib, keyin vafot etgan farzand esa – bundan ham yuqori darajada ota-onasini jannatga yetaklaydi. Ammo sharti – ota-onasi sabr qilib, ajrni Allohdan so‘ragan bo‘lishi kerak.

Agar farzand yoshligida vafot etsa va ota-onasi sabr qilsa, u bola ular uchun shafoatchi bo‘ladi. Agar farzand ulg‘ayib, solih hayot kechirsa, uning duosi ota-onasiga yetadi. Shu sababli solih farzand tarbiyalash – ota-onaning eng buyuk vazifasidir. Chunki solih farzand ota-onasiga tirikligida ham, vafotidan keyin ham foyda keltiradi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qilganlar: “Insonning darajasi jannatda ko‘tariladi. U: ‘Bu qayerdan bo‘ldi?’ deydi. Aytiladi: ‘Bu sening farzandlaring duosi sababli.’”

Bugungi kunda ba’zi kofirlarning qarashlari musulmonlarga ham singib qolmoqda. Ular: “Ko‘p farzand ko‘rish muhim emas, muhim bo‘lsa, 1 ta bo‘lsa ham yaxshi farzand bo‘lsin”, – deydilar. Lekin savol tug‘iladi: o‘sha 1 ta farzandning solih bo‘lishiga kim kafolat bera oladi? Agar o‘sha bitta farzand noqobil chiqsa-chi? Aksincha, agar insonning 10 ta farzandi bo‘lsa, hech bo‘lmaganda ularning 1-2 tasi solih bo‘lish ehtimoli yuqoriroq.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ajr istash degani – musibat paytida Allohdan ajr talab qilishdir. Masalan, farzandi vafot etsa, inson Allohga shikoyat qilmay, sabr qilib, bu musibatdan ajr istashi lozim.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining homilasi tushib qolsa va u sabr qilib, Alloh huzurida ajr istasa, unga jannat nasib bo‘lar ekan.

Uchinchi foyda: Ayol kishini sabrga, musibatlar vaqtida ajr istashga tarbiyalash kerak. Ayolni kichikligidan shu narsalarga o‘rgatish lozim, toki hayotida bu kabi holatlarga duch kelganda noshariy ishlar qilib qo‘ymasligi uchun.

To‘rtinchi foyda: Agar tushib qolgan homlada shunchalik ajr bo‘lsa, balog‘atga yetmasdan vafot etgan bolaning savobi va ajri yanada ko‘proq bo‘ladi. Chunki odatda embrion holida bo‘lgan homilaga ota-ona mehr qo‘ymaydi, ba’zida er-xotin maslahatlashib uni oldirish haqida ham gaplashib qo‘yishadi. Ammo tug‘ilgan bolaga mehr tushgani bois, uning vafotidagi sabr ajri yanada ziyoda bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Allohning mo‘minlarga fazli buyukdir. Farzandni O‘zi bergan, keyin O‘zi olgan bo‘lsa ham, sabr qilgan bandasiga ulkan ajr beradi. Bu Allohning buyuk rahmati va fazlidan dalolat beradi.

86-hadis

Qiz farzandni ziynatga o'rgatish

Muallif shunday deydi: Qizingni yoshligidan chiroyli va ziynatli bo‘lishga tarbiyala. Lekin uni shariat qoidalari bilan cheklagin.
Islom tarbiyasida qiz bolani yoshlikdan pokiza, ozoda, chiroyli va ziynatli qilib tarbiyalashga undaladi. Ammo bu ziynatlanish faqat shariat qo‘ygan chegaralar ichida bo‘lishi shart.

Alloh taolo mushriklar haqida marhamat qiladi: “Ular Allohni o‘zlariga qiz farzand nisbatan berib qo‘yadilar. Holbuki, o‘zlari xohlaganda o‘g‘ilni xohlashadi. Qiz bola zebu-ziynatda o‘sadi.” (Zuxruf 16-18)

Bu oyatdan ayon bo‘ladiki, qiz bola fitratan ziynatni yaxshi ko‘radi va unga moyildir. Lekin uni shariat chegarasidan chiqarib yubormaslik kerak.

Allohning kitobida: “Qiz bola zebu-ziynatda o‘sadi”, deb aytilgan. Demak, unga yoshlikdan chiroyli kiyinish va bezanish odat bo‘lishi tabiiy.

Ba’zi kishilar 3-4 yoshli qizini ham qora niqobga solib qo‘yadilar. Shu yoshida qizaloq ozgina ziynatlansa g‘ashlari keladi. Bu – g‘uluvdir. Shariat ijozat bergan halol o‘rinlar to‘ldirilmasa, harom o‘rinlarga qiziqish ortib ketadi. Shuning uchun halol doiralarda ziynatlanishga ruxsat berish, lekin uni nazorat qilish tarbiyaning muhim qismidir.

عَنْ عَمْرِو بْنِ شُعَيْبٍ عَنْ أَبِيهِ عَنْ جَدِّهِ، أَنَّ امْرَأَةً أَتَتْ رَسُولَ اللهِ ﷺ وَمَعَهَا ابْنَةٌ لَهَا، فِي يَدِ ابْنَتِهَا مَسْكَتَانِ غَلِيظَتَانِ مِنْ ذَهَبٍ، فَقَالَ لَهَا: «أَتُعْطِينَ زَكَاةَ هَذَا؟» قَالَتْ: لَا، قَالَ: «أَيَسُرُّكِ أَنْ يُسَوِّرَكِ اللهُ بِهِمَا سِوَارَيْنِ مِنْ نَارٍ؟» قَالَتْ: فَخَلَعَتْهُمَا فَأَلْقَتْهُمَا إِلَى النَّبِيِّ ﷺ، وَقَالَتْ: هُمَا لِلَّهِ وَرَسُولِهِ.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam huzurlariga bir ayol qizi bilan keldi. Qizining qo‘lida ikki qalin tilla bilaguzuk bor edi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam undan so‘radilar: “Buning zakotini berasanmi?” Ayol: “Yo‘q”, – deb javob berdi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Alloh qiyomat kunida mana shu ikkita bilaguzuk sababli senga olovdan ikkita halqa taqishi seni quvontiradimi?” Shunda ayol bilaguzuklarini yechib, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning oldilariga tashladi va dedi: “Bular Alloh va Uning Rosuliga bag‘ish.”

Agar taqinchoq nisob miqdoriga – ya’ni 85 gramm oltin yoki uning qiymatiga yetsa, zakotini berish vojib bo‘ladi. Aks holda, ya’ni zakoti berilmasa, qiyomatda azob bilan ogohlantiriladi.

Hadisdagi qizning ham bilaguzugi shu darajada katta bo‘lganki, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam undan zakotini so‘rayaptilar. Chunki aslida ziynat uchun 5–10 gramm oltin ham kifoya qiladi. Bu darajada katta vazndagi tilla esa chegaradan oshgan bo‘ladi.

Shuning uchun Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam uning zakotini so‘radilar. Tabiiyki, u zot buni o‘zlari uchun emas, balki Allohning haqqi ado etilishi uchun so‘radilar.

Ziynat odat bo‘lib, isrof va kibrga ketmasa – joizdir. Ammo haddan tashqari qimmatbaho va ko‘p taqinchoq ishlatish isrof hisoblanadi.

Ayolga qizining qo‘lidagi bilaguzuk sababli jahannamdagi azob eslatilganda, u hech bir ikkilanishsiz bilaguzukni yechib Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning oldilariga tashladi. Sahobiylar amalda shunday edilar – ular buyruqni to‘liq ado etishni xohlashar edi. Biz esa ko‘pincha bunday holatda turli ta’villar izlaymiz. Sahobalar bilan bizning oramizdagi farq ham shundan ma’lum bo‘ladi.

Hadisning mavzuga tegishli jihati shuki: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam qizning qo‘lidagi ziynatni ko‘rib, uni butunlay qaytarmadilar. Balki ziynatning miqdori ko‘pligidan ogohlantirdilar. Shu dalil bo‘ladiki, qiz bola shariat chegarasida ziynatlanishi joizdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Kichkina qizlar kichkinaligidan ziynatlanar ekan, shunga odatlantiriladi. Chunki qizlar fitratan chiroy va ziynatga moyil bo‘ladilar. Ammo ota-ona ularni shariat chegarasida tarbiyalashi lozim.

Ikkinchi foyda: Tilla – ayollar uchun halol, erkaklar uchun esa haromdir.

Uchinchi foyda: Taqinchoq tillalar ham boshqa oltin-kumush kabi zakotga tortiladi. “Bu taqinchoq-ku” deb istisno qilinmaydi, ulardan ham zakot berish vojibdir.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi o‘zidagi taqinchoqlardan zakot bermasa, qiyomat kuni unga do‘zax bilan tahdid qilingan. Bu esa zakotni ado qilishning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

87-hadis

Farzandlarga nafaqa qilishda ajr borligi

Muallif shunday deydi: Farzandlaringga nafaqa qiladigan narsalaringni ham Alloh huzurida ajrini hisob qil, u ham senga sadaqadir.

Islom tarbiyasida ota-onaning farzandlariga qilgan har bir nafaqasi – ovqat, kiyim, tarbiya – Alloh huzurida ajr va sadaqa hisoblanadi. Odatda odamlar sadaqani faqat tashqaridagi kambag‘allarga yordam berish deb o‘ylaydilar. Lekin aslida insonning eng yaqin kishilariga qilgan har bir nafaqasi ham sadaqa sanaladi. Bu – shariatning go‘zalligi va adolatidir.

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: قُلْتُ: يَا رَسُولَ اللهِ، أَلِي أَجْرٌ فِي بَنِي أَبِي سَلَمَةَ؟ إِنَّمَا هُمْ بَنِيَّ. فَقَالَ: «أَنْفِقِي عَلَيْهِمْ، فَلَكِ أَجْرُ مَا أَنْفَقْتِ عَلَيْهِمْ»

Ummu Salama roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Men Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘radim: ‘Ey Rosulullоh! Agar men Abu Salamaning bolalariga nafaqa qilsam, menga ham ajr bormi? Axir ular mening ham farzandlarim-ku.’ Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Ha, ularga qilgan nafaqang uchun, albatta, ajr olasan.’”

Ummu Salama roziyallohu anho Abu Salama bilan turmush qurgan edilar. Abu Salama vafot etgach, bolalari yetim qolgan. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ularni otaliqqa olish uchun Ummu Salama onamizga uylanganlar. Hadisda mana shu yetim qolgan bolalar nazarda tutilgan.

Demak, hatto o‘zining farzandlari bo‘lsa ham, agar ular otasidan yetim qolgan bo‘lsa, onaning ularga qiladigan nafakasi oddiygina tarbiya va xarajat emas, balki yetimga qilingan sadaqa ajriga teng bo‘ladi. Bu – Alloh taoloning mo‘min bandalarga bo‘lgan katta fazli va rahmatidan dalolatdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi farzandlarini rioya qilishda buyuk ajrlar bor ekan. Tarbiya, ovqat, kiyim kabi ishlarda qilgan har bir mehnati Alloh huzurida katta savob va ajr bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi yetimga nafaqa qilsa ajrlanadi, hatto u yetim o‘zining farzandi bo‘lsa ham. Ya’ni otasidan yetim qolgan farzandlariga qilgan nafakasi ham sadaqa ajriga teng bo‘ladi.

88-hadis

Shayton er-xotin orasini ajratishga harisligi

Muallif shunday deydi: Shayton sen bilan ering o‘rtasini ayirishga harisdir. Sen uning izlariga ergashma.

Islomda shaytonning eng katta maqsadlaridan biri – oilani buzish, er-xotinni ajratishdir. Chunki nikoh Alloh taoloning buyuk ne’mati bo‘lib, jamiyatning barqarorligi va kelajak avlodning tarbiyasi shu nikoh ustida barpo bo‘ladi. Shayton odamni faqat aroq, zino, qotillik kabi ochiq gunohlarga emas, balki muboh ko‘rinadigan, ammo oqibati yomon bo‘ladigan ishlarga ham chorlaydi. Ana shunday ishlardan eng kattasi – taloqni qo‘zg‘ashdir.

Zaif hadislardan birida Rosululloh sollollohu alayhi va sallam aytganlar: “Alloh halol qilgan narsalarning eng yoqimsizi – taloqdir.”

Hadis zaif bo‘lsa ham, uning ma’nosi haqiqatdir. Shayton aynan shu yo‘l orqali oilalarga fitna soladi.

Alloh taolo Qur’onda ogohlantiradi: “Shaytonning izlariga ergashmanglar!” (Baqara 168)

Shayton er-xotinni bevosita taloqqa undamaydi. Avval kichik bahonalar, arzimas tortishuvlardan boshlaydi va asta-sekin janjalni kattalashtirib boradi. Shu tariqa oila buzilishiga olib keladi.

Shayton kofirlarni shirkga kiritishdan umidini uzgan, ammo dindor oilalarning ajralishiga harisdir. Shu bois mo‘minlar hushyor bo‘lib, shaytonning hiylasiga aldanmasliklari lozim.

Johil oilalarda ajrashish ba’zan kamroq uchrashi mumkin, chunki ular ko‘p narsani bilmagani uchun shariatni niqob qilib bahona qilmaydilar. Ammo ilmli musulmon oilalarda ko‘pincha “shariat niqobi” ostida janjal va ajralishlar ko‘proq uchraydi. Bu – shaytonning eng nozik hiylalaridan biridir.

Taloq aslida shar’iy yechimdir, lekin u faqat zarur hollarda qo‘llanishi kerak. Arzimas sabablar bilan tezda taloqqa murojaat qilish esa – shaytonning rejasi ro‘yobga chiqqanidan dalolatdir. Shu bois oilalarda sabr, kechirimlilik va murosaga intilish asosiy yo‘l bo‘lmog‘i lozim.

عَنْ جَابِرٍ رضي الله عنه قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللهِ ﷺ: «إِنَّ إِبْلِيسَ يَضَعُ عَرْشَهُ عَلَى الْمَاءِ، ثُمَّ يَبْعَثُ سَرَايَاهُ، فَأَدْنَاهُمْ مِنْهُ مَنْزِلَةً أَعْظَمُهُمْ فِتْنَةً، يَجِيءُ أَحَدُهُمْ فَيَقُولُ: فَعَلْتُ كَذَا وَكَذَا، فَيَقُولُ: مَا صَنَعْتَ شَيْئًا. قَالَ: ثُمَّ يَجِيءُ أَحَدُهُمْ فَيَقُولُ: مَا تَرَكْتُهُ حَتَّى فَرَّقْتُ بَيْنَهُ وَبَيْنَ امْرَأَتِهِ. قَالَ: فَيُدْنِيهِ مِنْهُ، وَيَقُولُ: نِعْمَ أَنْتَ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Iblis arshini suv ustiga o‘rnatadi. So‘ng lashkarlarini yuboradi. Ulardan Iblisga eng yaqin martabada bo‘lgani – eng katta fitna qilganidir. Ulardan biri kelib: ‘Men falon insonni falon-falon gunohga soldim’ deydi. Iblis unga: ‘Hech narsa qilmabsan’, – deydi. Boshqasi kelib: ‘Men uni o’z holiga qo’ymadim, hatto u bilan uning xotinini o’rtasini ajratdim’ deydi. Shunda Iblis uni yoniga chaqiradi va: ‘Sen qanday ham yaxshi ekansan!’ – deydi.”

Shaytonning arshini suv ustiga qo‘yishining hikmati shuki: Alloh taoloning Arshi suv ustida bo‘lganidek, u ham o‘zini go‘yo Allohga o‘xshatmoqchi bo‘ladi. Chunki shayton odamlarni o‘ziga sig‘indirishni, Allohga emas, o‘ziga bo‘ysundirishni istaydi. Bu – uning eng katta kibridan dalolatdir.

Hadisda aytilishicha, katta Iblis odamlarning oldiga borib shaxsan fitna qilmaydi. Balki u o‘zi bir joyda o‘tiradi va lashkarlarini odamlar oldiga jo‘natadi. Xuddi dunyoviy podshohlar kabi – ular ham odamlar orasida yurmaydi, balki askarlarini yuboradi.

Bugungi kundagi misol: askarlar o‘z rahbarlari oldida lavozimini ko‘tarish, “pogoni”ni olish uchun qanday qilib yaxshiroq xizmat qilishga intilsalar, Iblisning askarlari ham shunday qiladi. Ular ham o‘z rahbarlari – Iblisga yaqin bo‘lish uchun odamlarni ko‘proq gunohga, fitna va ajralishga solishga harakat qiladilar. Eng katta yutuq sifatida esa – er-xotinni ajratganlari uchun Iblisning maqtoviga sazovor bo‘ladilar.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Er-xotin o‘rtasini ajratish Iblisning eng ko‘p talab qiladigan va eng ko‘p xursand bo‘ladigan ishlardan biri ekan. Boshqa gunohlar unga bunchalik quvonch bermaydi. Demak, kim oilasini buzsa, aslida Iblisni xursand qilgan bo‘ladi. Axir, kim o‘z dushmanini xursand qilishni istaydi? Bu – faqatgina johil va ahmoq kishining ishi.

Ikkinchi foyda: Taloq – aslida Alloh taoloning ne’mati, insonlar uchun shariy yechimdir. Lekin bu faqat shariy qoidalar asosida, o‘z o‘rnida va chiroyli uslubda qo‘llanilsa, ne’mat hisoblanadi. Agar er-xotin birga yashash imkoniyatidan butunlay mahrum bo‘lsa, taloq orqali ajralish insoniyat uchun eng to‘g‘ri va hikmatli yo‘l bo‘ladi.

Taloqning besh xil hukmi bor:

- **Vojib** – agar zulm bo‘lsa yoki o‘lim xavfi bo‘lsa.
- **Sunnat** – er-xotin birga yashay olmay qolsa.
- **Muboh** – sababsiz, ikki tarafning roziligi bilan ajrashish.
- **Makruh** – arzimas sabablar bilan ajrashish.
- **Harom** – taloqni o‘yinchoq qilib olish yoki shariatga xilof yo‘lda qo‘llash.

Uchinchi foyda: Taloq qilishda shoshqaloqlik – er-xotin o‘rtasini ajratishda shaytonning aralashuvi borligidan dalolatdir. G‘azab paytida taloq so‘zini tilga olishdan qat’iy saqlanish kerak. Taloq faqat maslahatlashib, istihora qilib, sabr sinovlari o‘tib ham natija bermaganda qo‘llanadi. Agar shoshib taloq berilsa, bunda shaytonning qo‘li borligi ayon bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi eridan arzimas xusumat va kichik kelishmovchiliklar sababli taloq talab qilsa, u holda u bevosita shaytonning maqsadiga xizmat qilayotgan bo‘ladi.

Beshinchi foyda: Shaytonning katta maqsadlaridan biri – odamlar o‘rtasida zino ro‘y berishi. Agar odamlar o‘rtasida halol nikoh barqaror bo‘lsa, shaytonning bu maqsadi amalga oshmaydi. Shu sababli shayton nikohlarni buzishga haris bo‘ladi.

Oltinchi foyda: Shayton o‘z istagan g‘oyasiga yetganida, ya’ni er-xotin orasini ajratishga muvaffaq bo‘lsa, o‘sha ishni qilgan “oshna”larini maqtaydi va ularni o‘ziga eng yaqin deb biladi.

Yettinchi foyda: Kimki er-xotin o‘rtasini nohaqdan ajratishga urinsa – bu odam katta gunoh qilgan bo‘ladi. Chunki u shaytonning maqsadini ro‘yobga chiqarishga yordam bergan, Islomda barpo qilingan bir uyni buzgan, Alloh bog‘lashga buyurgan rishtani uzgan, jamiyatning buzilishiga sababchi bo‘lgan va ummatga zarar yetkazgan bo‘ladi. Dugona, do‘st yoki qarindoshlarning “ajralib ket” deb maslahat berishi yoki ayolni eridan doimiy ravishda yomonlashlari ham – shaytonning ishiga sherik bo‘lishdir.

89-hadis

Ijaraga olingan taka

Muallif shunday deydi: Sen o‘z nafsing uchun ijaraga olingan takaga o‘yinchoq bo‘lishga imkon berma.

Islom shariatida agar bir er xotiniga uch marta taloq bersa, ayol endi unga halol bo‘lmaydi. Toki u boshqa bir erkak bilan haqiqiy nikoh qurib, haqiqiy oilaviy hayot kechirib, keyin tabiiy yo‘l bilan ajrashmaguncha, avvalgi eriga qaytishi joiz emas.
Islomda nikoh muqaddasdir. Uning asl maqsadi – oila barpo qilish, muhabbat va rahmat asosida birga yashash. Taloq esa zarurat bo‘lganda qo‘llanadigan so‘nggi chora. Ammo ba’zi johil insonlar uch taloqdan keyin ayolni halollash masalasini o‘yinchoq qilib, ayolni boshqa erkakka vaqtincha “ijaraga berish”ga o‘xshash ishlarga qo‘l uradilar. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam bundaylarni qattiq la’natlaganlar.

Hadisda vaqtinchalik nikohdagi inson “taka” deb atalgan. Bu tashbih bejiz emas: ayol takani ko‘paytirish uchun tashqaridan erkak takani ijaraga olib kelinadi. Rosululloh sollollohu alayhi va sallam ana shunday “ijaraga olingan” erkakni shu holatga o‘xshatganlar. Bu tashbeh orqali ayolning sharafi va nikohning muqaddasligi bilan o‘ynash qanchalik jirkanch ish ekani ochiq-oydin ko‘rsatilgan.

عَنْ عَلِيٍّ رضي الله عنه أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ قَالَ: «لَعَنَ اللهُ الْمُحَلِّلَ وَالْمُحَلَّلَ لَهُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Alloh muhallilni (ayolni halollash uchun vaqtincha uylangan erkakni) ham, muhallal lahuni (sobiq erini) ham la’natlagan.”

To‘g‘ri, ya’ni vaqtinchalik “halollash” niyati bilan uylangan erkak – muhallil, hamda uni shunday niyat bilan uylantirgan sobiq er – muhallal lahu ikkalasi ham Allohning rahmatidan yiroqdir, ya’ni la’natlangan.
Sobiq er ham, ijaraga olingan er ham la’natlangan ekan, ularning orasidagi ayol ham bundan mustasno bo‘lmaydi. Chunki u ham bu jirkanch o‘yinda sherik bo‘ladi. Natijada nikohning muqaddasligini o‘yinchoq qilgan barchalar – Allohning la’natiga uchraydi. Bu hukm nikohni Allohning buyuk ibodatlaridan biri sifatida asrab-avaylash, uni masxara va o‘yin vositasiga aylantirmaslik uchun ogohlantirishdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Islomda nikohning maqsadlaridan biri – muhabbat va rahmat asosida oila qurishdir. Nikohning asl mohiyati – oila qurib, hayotni birgalikda barpo etishdir. Muhabbat va rahmat ustiga qurilgan nikohda o‘yin va masxara bo‘lmaydi.

Ikkinchi foyda: Halollab berish nikohi – Islomdagi nikohning maqsadlariga butunlay ziddir. Chunki bunda oila qurish emas, vaqtincha “halollash” niyati bo‘ladi.

Uchinchi foyda: Halollab berish nikohi kabira gunohdir. Chunki Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam bunday amal qilganlarni la’natlaganlar. La’nat esa eng katta gunohlar ustiga bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Halollab berish nikohiga faqat muruvvati past, nafsiga qul bo‘lgan tuban inson rozi bo‘ladi. Ayolni ijaraga berib, vaqtincha o‘yinchoq qilgan erkak – g‘ururssiz, nomussiz va nafsparast kishidir.

Beshinchi foyda: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam vaqtinchalik nikohga rozi bo‘lgan erkakni “ijaraga olingan taka” deb ataganlar. Chunki u erkak o‘z nafsini qondirish yo‘lida ayol bilan yotib berishga ijaraga olinayotganiga rozi bo‘lyapti. Bu esa aslida ijaraga olinadigan hayvonlarning fe’liga o‘xshatilgan.

Oltinchi foyda: Bu fe’lning la’nat bilan birga zikr qilinishi – uning haromligini taqozo qiladi. La’natlangan amal esa shariatda eng katta gunoh va harom ishlardan biridir.

Yettinchi foyda: Iffatli ayol o‘zini ijaraga olingan takaning qo‘lida o‘yinchoq bo‘lishdan asrashi, bunga rozi bo‘lmasligi kerak. Chunki bu nafaqat shaxsiy nomusni, balki nikohning muqaddasligini ham oyoq osti qilishdir.

90-hadis

Haromga hiyla qilish uni halol qilmaydi

Muallif shunday deydi: Haromga hiyla qilish hukmdan biror narsani o‘zgartirmaydi.

Islomda eng asosiy qoida – harom narsaga qilinadigan hiyla uni halol qilmaydi. Shariat hukmlari Alloh tomonidan belgilangan. Inson turli fatvolar yig‘ib, qalbini ovutib olsa ham, asl hukm o‘zgarmaydi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qiladilar: “Muftiylar senga fatvo bersa ham, qalbingdan so‘ra!”

Ya’ni, inson qalbida hukmning aslini his qiladi. Agar qalb “bu noto‘g‘ri” desa, uni turli fatvolar bilan bezash foyda bermaydi.

Misol uchun, kimdir “Hanafiy mazhabida valiy shart emas ekan” deb, zino qilishga yo‘l ochmoqchi bo‘lsa, bu – hiyla. Aslida esa, u haqiqiy nikohning qoidalarini buzmoqda.

Yoki ayollar qosh olish, burun o‘zgartirish, badanni haddan ziyod bezash, qinni toraytirish kabi amaliyotlar haqida fatvo izlab yurib, “bunga ruhsat bor” degan fatvoni topib oladi. Ammo agar bu ish avratni ochishga yoki xilqatni o‘zgartirishga olib borsa, asl hukm – harom.

Shariat cheklagan narsaga yuzta fatvo topilsa ham, u baribir harom bo‘lib qolaveradi.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها أَنَّ رَجُلًا طَلَّقَ امْرَأَتَهُ ثَلَاثًا، فَتَزَوَّجَتْ فَطُلِّقَتْ، فَسُئِلَ النَّبِيُّ ﷺ أَيَحِلُّ لِلْأَوَّلِ؟ قَالَ: «لَا، حَتَّى يَذُوقَ عُسَيْلَتَهَا كَمَا ذَاقَ الْأَوَّلُ»

Oisha roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Bir kishi xotinini uch taloq bilan taloq qildi. Keyin u ayol boshqa bir erga tegdi, so‘ngra o‘sha er ham ayolni taloq qildi. Shunda Nabiy sollollohu alayhi va sallamdan so‘raldi: ‘Bu ayol birinchi eriga halol bo‘ladimi?’ Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Yo‘q, hatto u er uning asalidan totgunigacha, xuddi birinchi eri totgani kabi.’”

Demak, ayolning faqat erga tegib chiqishi kifoya emas ekan. Birinchi eriga halol bo‘lishi uchun ikkinchi er u bilan to‘shakda yaqinlik qilib, lazzatlanishi shart ekan. Odatda uch taloqni o‘yin qilib halollashni istaganlar bu narsaga chidashmaydi. Chunki ularning maqsadi haqiqiy nikoh va oilaviy hayot emas, balki faqatgina “halollash” o‘yini bo‘ladi. Shuning uchun Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ikkinchi er bilan haqiqiy to‘shak munosabati bo‘lishini shart qilib qo‘yganlar. Bu esa nikohni o‘yinchoq qilmaslik uchun qo‘yilgan qat’iy chegaradir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Taloqning chegarasi 3 taloqdir. Erkak bundan osha olmaydi. “10 taloq, 100 taloq, 10 million taloq” degan gap shariatda yo‘q. Buni misol bilan tushuntirsak: bir odamning to‘pponchasida atigi 3 dona o‘q bo‘lsa, u bitta qilib otsa ham, donalab otsa ham, baribir shu 3 ta o‘qdan ortig‘ini ota olmaydi. Endi agar u “men senga 1000 ta o‘q otaman” desa, bu mantiqsizlik bo‘ladi. Huddi shunday, er ham xotiniga “1000 taloqsan” desa, aslida u faqat 3 taloq bilan chegaralanadi, undan ziyodasi amal qilmaydi. Shu tariqa shariat taloqni cheklab, uni o‘yinchoqqa aylanmasligi uchun chegarasini qo‘yib qo‘ygan.

Ikkinchi foyda: Xotin kishi uni 3 taloq qilgan eriga halol bo‘lmaydi, toki boshqa erga turmushga chiqmaguncha. Unga ham chin qalb va rag‘bat bilan nikoh qilinishi kerak. Bu hiyla-nikoh emas, haqiqiy oila bo‘lishi lozim.

Uchinchi foyda: Nikoh ahdi sahih bo‘lib tuzilgan taqdirda ham, 3 taloq qilingan ayol birinchi eriga halol bo‘lmaydi. Faqatgina ikkinchi eridan taloq bo‘lsa va u bilan to‘shakda rohatlanilgan bo‘lsa, shundagina birinchi eriga halol bo‘ladi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishiga jimo qilinishda lazzat bor. Bu lazzat asalga o‘xshatilgan. Chunki lazzat xilma-xil bo‘ladi, huddi asalning turlari xilma-xil bo‘lgani kabi. Shuning uchun hadisda “asal totish” tashbehi ishlatilgan.

Beshinchi foyda: Ayol kishining jimo lazzatini his qilishi er-xotinlik hayotining davom etishiga katta ta’sir qiladi. Aslida odamlar ochiq tan olmasalar ham, ajrimlarning asosiy sababi ko‘pincha to‘shakdagi lazzatsizlikdir.

Oltinchi foyda: Erkakning ayoldan jimo lazzatini tatishi va ayolning erdan jimo lazzatini tatishi xilma-xil bo‘ladi. Huddi odamlarning asalni tatib ko‘rishlari xilma-xil bo‘lgani kabi. Kimdadir shirinroq, kimdadir achchiqroq ta’sir qiladi.

Yettinchi foyda: Ikkinchi erdan taloq bo‘lishi ayolni birinchi eriga halollab qo‘ymaydi. Illo ikkinchi er bilan haqiqiy jimo sodir bo‘lib, lazzat tatilgan bo‘lsa, shunda halol bo‘ladi. Aks holda, shariat nazarida halollash hosil bo‘lmaydi.

To‘g‘ri, agar birinchi erkak ikkinchi erkakni go‘yo “ijaraga” olib kelib, nikohdan avval: “sobiq ayolim bilan nikohlanib, keyin talog‘ini berasan” deb kelishib olsa, keyin ikkinchi er ayol bilan haqiqiy nikoh qurib, bir xonaga kirib jimo qilgach, bir-biriga yoqib qolib, yashab ketaversalar – bu nikoh sahih bo‘ladi. Chunki nikohdan avvalgi noshariy kelishuv – botil hisoblanadi. Shariatda botil shartlar amal qilmaydi, amal qiladigani – nikohning o‘zi va uning shar’iy shartlaridir.

Bu yerda juda muhim jihat bor: idda masalasi. Har bir jarayonda, ya’ni taloqdan keyin ham, ikkinchi nikohdan keyin ham ayol idda saqlashi shart. Idasiz nikoh o‘tmaydi. Shuningdek, nikohda valiylarning roziligi, to‘y (e’lon qilish), guvohlarning bo‘lishi kabi shar’iy shartlar ham bajarilishi zarur.

Shunchaki “yopiq holda” jarayonlardan o‘tib olish mumkin emas. Shariatda nikoh va taloq masalalari eng nozik va muqaddas masalalardan bo‘lgani uchun ularning har bir bosqichi Alloh qo‘ygan qoidalarga muvofiq bo‘lishi kerak. Aks holda, oila masxaraga aylanishi va katta gunohlarga sabab bo‘lishi mumkin.

91-hadis

Ayolga ajralish huquqi

Muallif shunday deydi: Taloq erkakning qo‘lida ekanligi – “sening qarshingda eshiklar berk” degani emas.
Islom nikohni muqaddas qilib qo‘ydi. Uni saqlash – Allohning buyurgan sunnatlaridan biridir. Shu bilan birga, nikohda erkak va ayolning vazifalari turlicha qilib belgilangan.

Taloq erkakka berilgan. Chunki erkak odatda qarorlarda ko‘proq aql va sabr bilan qaraydi. Ayol esa ko‘pincha hissiyotga berilib, tez qaror chiqarishi mumkin. Agar taloq ayolga berib qo‘yilganida, har kuni janjal yoki hissiyot sabab ajrashish talab qilinishi ehtimoli katta bo‘lardi. Shu hikmat tufayli Alloh taolo taloqni erkakning qo‘liga berdi.

Ammo bu bilan ayol uchun eshiklar yopilib qolmaydi. Agar u eridan rozi bo‘lmasa, yashab bo‘lmaydigan darajada muammo bo‘lsa – shariat unga hulu yo‘lini ochib qo‘ygan. Bu ayol uchun halol va adolatli yechimdir.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رضي الله عنهما: «أَنَّ امْرَأَةَ ثَابِتِ بْنِ قَيْسٍ اخْتَلَعَتْ مِنْهُ، فَجَعَلَ النَّبِيُّ ﷺ عِدَّتَهَا حَيْضَةً»

Sobit ibn Qays roziyallohu anhuning xotini undan hulu yo‘li bilan ajralishni talab qildi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam uning iddasini bir hayz muddati qilib belgiladilar.

Ayol erida din va xulq nuqsonini topmagan bo‘lsa ham, agar u bilan yashay olmaydigan darajaga kelsa – hulu qilish huquqiga egadir. Hulu jarayonida ayol eriga bergan mahrini yoki unga teng qiymatdagi narsani qaytaradi. Shunda ular shariat asosida ajraladilar.

Hulu taloqdan farq qiladi:

- Taloqda erning qaytarib olish huquqi bor – idda davomida yangidan nikoh shart qilinmaydi.
- Huluda esa qaytish faqat yangidan nikoh orqali bo‘ladi.

Shuningdek, huluning iddasi – bir hayz, taloqning iddasi esa uch hayz qilib belgilangan. Bu – shariatning ikki ajralish yo‘lini farqlab qo‘ygan hikmatidir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol erkakdan hulu qilishi joiz ekan. Ammo huluda arzimas sabablar keltirilsa, bu katta gunohga sabab bo‘ladi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qilganlar: “Qaysi ayol eridan biron yomonliksiz taloq talab qilsa, jannatning hidini ham hidlamaydi.” Demak, hulu faqat jiddiy asos bo‘lganda – yashab bo‘lmaydigan darajada nafrat yoki zulm bo‘lganda joiz bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Hulu qilgan ayolning iddasi – bitta hayzdir.

Uchinchi foyda: Hulu – taloq emas, ajrimdir. Agar erkak ikki marta taloq qilgan bo‘lsa va uchinchisi hulu bo‘lsa, bu uchta to‘liq taloq hisoblanmaydi. Chunki hulu – nikohni buzish shaklidir, taloq emas. Qaytish uchun esa yangidan nikoh, yangi mahr va rozilik kifoya qiladi.

To‘rtinchi foyda: Hulu – er-xotinlik hayotidan chiqish uchun ayolga ochilgan shariy yo‘ldir. Agar ayol shu hayotda davom etishni istamayotgan bo‘lsa va bunga shariy sabab bo‘lsa, u huluga murojaat qilishi mumkin.

92-hadis

Jannatning hidini ham hidlamaydigan ayollar

Muallif shunday deydi: Jannatning hididan man qiladigan amallarga tushib qolishdan va seni do‘zaxga kiritadigan amallarga yo‘liqishdan ehtiyot bo‘lgin.

عَنْ ثَوْبَانَ رضي الله عنه قال: قَالَ رَسُولُ الله ﷺ: «أَيُّمَا امْرَأَةٍ سَأَلَتْ زَوْجَهَا طَلَاقًا فِي غَيْرِ مَا بَأْسٍ، فَحَرَامٌ عَلَيْهَا رَائِحَةُ الْجَنَّةِ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Qaysi ayol eridan yomonliksiz (hech qanday sabab bo‘lmagan holda) taloq talab qilsa, u ayolga jannatning hidi haromdir.”

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Qaysi ayol eridan (hech qanday sabab bo‘lmagan holda) taloq talab qilsa, u ayolga jannatning hidi haromdir.”

Hadis sharhida aytiladiki, jannatning hidi ming yillik masofadan ham keladi. Demak, bu ogohlantirish – juda ham og‘ir tahdiddir. Bu amalni qilgan ayol nafaqat jannatga kira olmaydi, balki yaqiniga ham yo‘lab bo‘lmaydi.

Oila buzilishi – shaytonning eng sevimli ishidir. Chunki shaytonni eng ko‘p xursand qiladigan narsa er-xotinni ajratishdir. Shuning uchun asossiz taloq talab qilish – shaytonning ishi hisoblanadi.

“Yomonliksiz” – ya’ni shariat nuqtai nazaridan taloq talab qilishga arziydigan sabab bo‘lmagan holat. Masalan:

- erning ikkinchi xotin olgani uchun ajrashishni talab qilish;
- arzimas narsalar, mayda tortishuvlar sababli ajrashishga urinish.

Bular “yomonliksiz” hisoblanadi va harom bo‘ladi. Ammo agar er zolim bo‘lsa, diniga yoki hayotiga zarar yetkazsa, haq-huquqini ado etmasa – bu holda shariat asosida taloq yoki hulu talab qilishga asos bo‘ladi.

Bu masalani har kim o‘zicha hal qilishi mumkin emas. Chunki odam ko‘pincha o‘z muammosini kattaroq ko‘radi. Shuning uchun bunday vaziyatlarda ahli ilm yoki qoziga murojaat qilish lozim. Qozining vazifasi – er-xotin muammosini tinglab, taloq talab qilishga asos bor-yo‘qligini aniqlash va shariat hukmini chiqarmoqdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Islom – oila boqiy qolishiga harisdir. Shariat oilaning barqarorligini, er-xotin munosabatining mustahkamligini asrashni buyuradi. Shu bois ayollarga asossiz taloq talab qilish qat’iyan man qilingan. Bu – oilani buzilishdan, jamiyatni zaiflashishdan saqlash uchun qo‘yilgan muhim qoidadir.

kkinchi foyda: Islom – oilani buzadigan har qanday fe’lni man qildi. Modomiki shariy sabab bo‘lmasa, unday qiluvchiga og‘ir uqubatlarni bog‘lab qo‘ydi. Bu oilaning muqaddasligini himoya qilish uchun qo‘yilgan qat’iy chora.

Uchinchi foyda: Ayol kishining shariy sababsiz taloq talab qilishi haromdir. Agar bu harom bo‘lmaganida, Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam tomonidan qattiq tahdid qilinmas edi.

To‘rtinchi foyda: Jannatning hidi bo‘lar ekan. Bu hid shunday ne’matki, jannatga kiradigan kishi unga hali kirmay turib ham erishadi.

Beshinchi foyda: Shariy sababsiz taloq talab qiladigan ayol jannatning hidini hidlashdan mahrum qilinadi. Bu uning naqadar og‘ir oqibatga olib borishini ko‘rsatadi.

Oltinchi foyda: Ayolning har qanday ko‘rinishda eriga zarar yetkazishi haromdir. Asossiz taloq talab qilish oqibatida erga zarar yetadi, chunki u birga qurilgan oilaning buzilishiga olib keladi. Ayol bunga sabab bo‘lmasligi lozim, agar shariy sabab bo‘lmasa.

Yettinchi foyda: Jiddiy hojatsiz taloq talab qilish – nikoh manfaatlarini buzishdir. Bir inson zo‘rg‘a mehnat qilib uy qursa, boshqa birov kelib uni buzib tashlasa, hamma buzgan kishini qoralaydi va quruvchiga achinadi. Toshdan qiynalib qurilgan bino uchun odamlar achinayotgan bo‘lsa, ma’naviy uy – nikohli xonadon uchun nechun achinmasin? Oilani qurib, keyin uni asossiz buzish – isrofdir. Ammo odamlar bu ishga ko‘pincha juda yengil qarab qo‘yadilar.

Sakkizinchi foyda: Agar shariy sababsiz taloq talab qilish harom bo‘lsa, unda erga hiyla qilib taloq qildirish ham xuddi shunday haromdir. Ba’zi ayollar bevosita “taloq qil” demaydi, ammo erini majbur bo‘ladigan ishlarni qiladi – doimiy janjal chiqaradi, itoatsizlik qiladi, hayotni chiday olmaydigan darajaga yetkazadi. Bu ham haromdir, chunki aslida u ham taloqni majburiy talab qilishdir.

To‘qqizinchi foyda: Ayol kishi taloq talab qilishga yoki o‘zini hulu qilishga haqlidir, ammo faqat shariy sabablar bo‘lsa. Ya’ni erining zulmi, diniga yoki hayotiga zarar yetkazishi, yoki yashab bo‘lmaydigan darajada nafrat hosil bo‘lsa – bunday hollarda ayolning taloq yoki hulu talab qilishi shar’iy jihatdan joizdir.

93-hadis

Nifoqdan ehtiyot bo‘lish

Muallif shunday deydi: Nifoqdan ehtiyot bo‘lish, munofiqlarning xulqidan uzoq turishni taqozo qiladi.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qiladilar: “Uchta sifat kimda bo‘lsa, u munofiqlardandir: gapirsa – yolg‘on gapiradi, va’da bersa – xiyonat qiladi, unga omonat topshirilsa – xiyonat qiladi.” Bu munofiqlik sifatlari umumiydir, ya’ni erkak va ayolga barobar taalluqlidir. Ammo tarixiy tajribada va hadis rivoyatlarida ayollarga xos bo‘lgan nifoq alomatlari ham zikr qilingan. Ya’ni, ayrim ayollar o‘zlarining oilaviy hayotida yoki er-xotinlik munosabatlarida nifoqni ifoda etuvchi xatti-harakatlar qiladilar.

عَنْ ثَوْبَانَ رضي الله عنه عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «الْمُخْتَلِعَاتُ هُنَّ الْمُنَافِقَاتُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qilganlar: “Hulu qiladigan xotinlar – ana o‘shalar munofiqalardir.”

Aslida bu hadis ixtilofli bo‘lsa-da, ma’nosi sahihdir. Chunki unda umumiy qilib aytilgan bo‘lsa ham, hamma hulu qiladigan ayollar emas, balki shariy sababsiz hulu talab qiladigan ayollar munofiqlikka o‘xshash sifatda ayblanadi.

Asossiz, behuda hulu – munofiqlikka o‘xshash amal sifatida ogohlantirilgan. Ya’ni, ayol jiddiy shariy sabab bo‘lmasdan “ajralaman” desa, bu – va’daga xiloflik, ahdga xiyonat va nikoh rishtasini buzish bo‘lib, nifoq fe’llaridan hisoblanadi.

Ammo eridan zulm ko‘rgan, diniga yoki hayotiga zarar yetgan ayolning huluga murojaat qilishi – joiz va shar’iy huquqdir.

Nega bu ish “nifoq” deb atalgan? Chunki nikoh – Qur’onda “og‘ir ahd” deb atalgan buyuk rishta. Er-xotin nikohda bir-biriga: “bir umr yashaymiz” deb va’da beradilar. Agar ayol sababsiz ajrashishni talab qilsa, bu – ahdga xiloflikdir.

Turmush qurishda aytilgan “birga yashaymiz” degan va’dadan qaytish – munofiqning belgisiga o‘xshaydi. Chunki munofiqning belgilaridan biri – va’dasiga xilof qilishdir.

Shu sababdan oila qadrsiz bo‘lib qoladi. Ayol arzimas sabablar bilan hulu’ talab qilsa, nikoh o‘yinchoqqa aylanadi. Bu esa jamiyatdagi nikohlarning barakasi ketishiga va oilaning muqaddasligi so‘nishiga sabab bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Shariy sababsiz hulu talab qilish – amaliy nifoq turidandir. E’tiqodiy nifoq – inson aslida kofir bo‘lsa-da, tashqi tomondan musulmonlikni da’vo qilishi. Bu dindan chiqaradi.

Amaliy nifoq esa – musulmon bo‘la turib, munofiqlarga xos fe’llarni qilish (yolg‘on gapirish, va’daga xiloflik, xiyonat va hokazo). Bu dindan chiqarmaydi, ammo og‘ir gunoh hisoblanadi. Sababsiz hulu talab qilgan ayol amaliy nifoq qilgan hisoblanadi. Uni hech kim “kofir” deb aytolmaydi, biroq “munofiqlik amali qildi” deb ogohlantiriladi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi shariy sababsiz hulu talab qilishdan qattiq tahdid qilingan. Bu ish Allohning qahriga sabab bo‘luvchi, jannat hididan ham mahrum qiladigan katta gunohlardan sanaladi.

Uchinchi foyda: Hulu qilgan ayol, agar shariy sababsiz qilgan bo‘lsa, nifoq bilan sifatlanishi – bu ayolning jinoyati naqadar og‘ir ekanligiga dalildir. Bunga yengil qarash mumkin emas.

Afsuski, odamlar orasida nikohni o‘yin deb o‘ylash keng tarqalgan: “Turmush qurib ko‘r, o‘xshasa yashaysan, o‘xshamasa hulu qilasan” deyishadi. Bu juda katta xato fikrlashdir. Nikoh – Allohning oldida olingan og‘ir ahd bo‘lib, uni bunday masxara qilish imon va iymonga xos emas.

94-hadis

Kasbidan yaxshilikka foydalanish

Muallif shunday deydi: Kasbingni yaxshilik qilishda samarasidan foydalan.

Ayolning kasb bilan shug‘ullanishi joizdir: tikuvchilik, pishiriq tayyorlash, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi ishlarda mehnat qilishi mumkin. Lekin oilani ta’minlash ayolning zimmasiga yuklanmagan, bu – erning zimmasidagi vazifadir. Ayol kasbidan orttirganini faqat dunyo manfaatlari uchun emas, balki ko‘proq yaxshilik va sadaqa yo‘lida ishlatishi targ‘ib qilingan. Shunda uning kasbi baraka topadi, o‘zi ham ajru savoblarga ega bo‘ladi.

عَنْ جَابِرِ بْنِ عَبْدِ اللهِ رضي الله عنه قَالَ: طُلِّقَتْ خَالَتِي، فَأَرَادَتْ أَنْ تَجِدَ نَخْلَهَا فَخَرَجَ رَجُلٌ أَنْ يَخْرُجَ، فَأَتَتِ النَّبِيَّ ﷺ فَقَالَ: «بَلَى، فَجُذِّي نَخْلَكِ، فَإِنَّكِ عَسَى أَنْ تَصَدَّقِي أَوْ تَفْعَلِي مَعْرُوفًا»

Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Mening xolam taloq qilindi. U o‘zining xurmolari (ya’ni pishgan xurmo bog‘ini)ni terishga chiqmoqchi edi. Bir kishi uni qaytardi, ya’ni: ‘uydan chiqma’ dedi. Shunda xolam Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib so‘radi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam unga dedilar: ‘Bor, xurmolaringni ter. Ehtimol, undan sadaqa qilarsan yoki yaxshilik qilarsan.”

Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhuning xolalari taloq qilib, idda davrida o‘tirgan edilar. Bu voqea shuni ko‘rsatadiki, ayol idda davrida bo‘lsa ham, zarurat bo‘lsa ish bilan shug‘ullanishi mumkin ekan. Erining vafotidagi idda bilan taloqdagi idda o‘rtasida farq bor: taloqdagi idda yengilroq. Shu sababdan Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam uning chiqib, xurmolarini terishiga ruxsat berdilar va hatto: “Ehtimol, undan sadaqa qilarsan yoki yaxshilik qilarsan” – dedilar.

Demak, ayollar kasb qilib topgan mollarini faqat yeb-ichish va nafsi uchun emas, balki sadaqa va yaxshilik ishlarga sarflashlari ham lozim. Shu bilan ayolning kasbi faqat dunyoviy foyda emas, oxirat uchun ham ne’mat bo‘lib qoladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Taloq qilingan ayol kunduzlari ko‘chaga chiqishi joizdir, hojatlarini bajarish uchun. Hatto uch taloq bilan ajralgan bo‘lsa ham, idda muddatida zaruratlari uchun (meva terish, tikuvchilik, oddiy hunar) chiqishi mumkin. Faqat kechalari emas, balki kunduzlari.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi sadaqa qilish va yaxshilik qilishga undalmoqda. Ayol o‘z hunaridan nafaqat o‘zi, balki boshqalar ham foyda ko‘rishi uchun foydalanishi kerak. Masalan, tikuvchi ayol muhtojlarga tekinga kiyim tikib berishi, pazanda ayol ochlarga ovqat ulashishi mumkin.

Uchinchi foyda: Ayol kishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmagan yo‘l bilan yaxshilikka yo‘naltirish lozim. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ayolga “sadaqa qil” deb buyruq qilmadilar, balki “ehtimol sadaqa qilarsan” deb yumshoq uslubda undadilar. Bu uslub – buyruq emas, balki targ‘ib va qalbni ochadigan muloyim da’vatdir.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi begona erkaklar bilan aralashmagan holda dehqonchilikda ishlashi joiz ekan. Shariat unga bu yo‘lni taqiqlamagan, ammo shart – g‘ayr-mahram erkaklar bilan aralashmaslik va iffatni saqlashdir.

Beshinchi foyda: Islom ayol kishini o‘zida mol bo‘lishiga targ‘ib qiladi va uni shu mol bilan solih amallar qilishga undaydi. Ayol kasb qilib topganidan o‘ziga foydalana oladi, undan sadaqa qilishi mumkin. Islom uni bu huquqdan mahrum qilmagan.

Oltinchi foyda: Ayol kishi o‘ziga kelgan masalalarda olimlardan fatvo so‘rashi mumkin. Jobir roziyallohu anhuning xolasi kelib Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamdan so‘raganidek, bugungi kunda ham ayollar olimlardan o‘z masalalari haqida so‘rashlari joizdir.

Yettinchi foyda: Sadaqa qilish faqat pul bilan bo‘lmaydi. Ayolning ishlari, mehnati, hatto meva terib ulashishi ham sadaqa va xayr hisoblanadi. Demak, sadaqa – faqat moliyaviy emas, balki amaliy yordam ko‘rinishida ham bo‘ladi.

Sakkizinchi foyda: Hadis uch taloq bo‘lgandan keyin idda o‘tirgan ayol haqida. Ammo qaytarma taloq (birinchi yoki ikkinchi taloq)da idda o‘tirgan ayol uydan umuman chiqmaydi. Na kunduzi, na kechasi. Illo zarurat bo‘lsa, taloq qiluvchining izni bilan chiqishi mumkin. Chunki birinchi va ikkinchi taloqda ayol hanuz erining qaramog‘ida bo‘ladi.

To‘qqizinchi foyda: Uch taloq bo‘lgan xotinga lozimki, idda muddatida uyida tunashligi. Ya’ni, kechani erining uyida o‘tkazishi shart. Lekin kunduzlari zarurat yuzasidan tashqariga chiqishi mumkin. Bu – gumonlardan saqlash uchun qo‘yilgan shariat qoidasi.

95-hadis

Qo‘shiqchi jamiyatni halok qiladi

Muallif shunday deydi: Qo‘shiqchi xotin bo‘lma. Chunki jamiyat seni sababingdan halok bo‘lishi mumkin.

Hozir odamlar yaxshi sharoitda yashayotganlarni ko‘rib, ularga havas qiladilar. Xonandalar ham boy va yengil hayotda yashashgani uchun odamlar farzandini ham ularga o‘xshashini istaydi. Sababi – qo‘shiq aytib katta pul topish oson ko‘rinadi.

Ammo qo‘shiqchilik va aktyorlik ko‘pincha odamlarni fahshga, oson hayotga va zinoga undaydi. Bu esa jamiyatning iymoniy va axloqiy poydevorini yemiradi.

Qadimda qo‘shiq aytish joriyalarning ishi edi. Erkin, or-nomusli ayollarga bunday mashg‘ulot munosib ko‘rilmagan. Shu sababli fiqh kitoblarida “qo‘shiqchi ayol” haqida ko‘plab ogohlantirishlar uchraydi. Demak, ayol o‘z qadrini saqlashi, jamiyatga axloqiy zarar keltiradigan ishlarni qilmasligi lozim.

عَنْ عِمْرَانَ بْنِ حُصَيْنٍ رضي الله عنه أَنَّ رَسُولَ اللهِ ﷺ قَالَ: «فِي هَذِهِ الْأُمَّةِ خَسْفٌ وَمَسْخٌ وَقَذْفٌ». فَقَالَ رَجُلٌ مِنَ الْمُسْلِمِينَ: يَا رَسُولَ اللهِ، وَمَتَى ذَاكَ؟ قَالَ: «إِذَا ظَهَرَتِ الْقَيْنَاتُ وَالْمَعَازِفُ وَشُرِبَتِ الْخُمُورُ»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam marhamat qildilar: “Mening ummatimda yer yutishi, qiyofa buzilishi (masx – odamlarning hayvonga aylanishi) va osmondan tosh yog‘ishi sodir bo‘ladi.” Sahobalar so‘radilar: “Bu qachon bo‘ladi, yo Rosulullоh?” U zot dedilar: “Agar qo‘shiqchi ayollar ko‘payib ketsa, musiqa asboblari tarqalib ketib zohir bo‘lsa va aroq ichilsa.”

Demak, qo‘shiqchilik, musiqaga mukkasidan ketish va aroq jamiyatga halokat sabablaridan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Qadimda qo‘shiqchilik bor edi, lekin ko‘proq yashirin shaklda bo‘lardi. Hadisda esa “zohir bo‘lishi” haqida ogohlantirilmoqda. Ya’ni, qo‘shiqchilar jamiyatda ochiq reklama qilinishi, ularga imtiyoz berilishi, “san’at” nomi bilan ulug‘lanishi haqida.

Shu hol yuz berganda jamiyatda balolar ko‘payadi: zilzila, qiyofa buzilishi (masx), kasalliklar, osmondan balo yog‘ishi. Bu – Allohning ogohlantirishi va bandalarga ibret bo‘lishi uchun yuborilgan azoblardandir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Kuy-qo‘shiq haromdir. Chunki u qalblarni fasod qiladi, g‘aflatga soladi va insonni ibodatdan uzoqlashtiradi.

Ikkinchi foyda: Jamiyat ichida qo‘shiqchi ayollarning tarqalishi Allohning azob tushishiga sabab bo‘ladi. Shariatda ogohlantirilganidek, bunday holat ko‘payganda Allohning balolari – zilzila, qiyofa buzilishi va boshqa ofatlar tushadi.

Uchinchi foyda: Ayol kishining buzilishi qo‘shiq, musiqa va aroqqa bog‘liq. Chunki qo‘shiq, musiqa va aroq ko‘pincha bir-biridan ajralmaydi. Jamiyat ularning birini qabul qilsa, asta-sekin boshqalarini ham qabul qiladi. Natijada jamiyatning iymoniy va axloqiy poydevori yemiriladi.

96-hadis

Gunohda kibr qilmasdan tavba qil

Muallif shunday deydi: Agar katta gunoh qilsang, kibr bilan unda davom etaverma. Uni tavba bilan o‘chir.

Aslida, faqat katta gunohni emas, kichik gunohni ham tavba bilan o‘chirishga harakat qilish kerak. Inson katta bir gunoh qilib qo‘ysa ham, unda davom etib ketmasligi, kibr bilan o‘zini oqlamasligi lozim. Chunki gunohda bardavomlik mo‘min sifatiga zid, balki munofiqlik va kufr sifatlariga yaqinlashtiradi.
Mo‘minning farqi shundaki, u gunoh qilib qo‘ysa ham tezda aqlini yig‘ib, tavba qiladi. Kofir va munofiq esa gunohda davom etaveradi.

Alloh taolo Qur’onda marhamat qiladi:
“Mo‘minlar gunoh qilib qo‘ysalar, o‘sha gunohlarida bardavombo‘lib qolmaydilar.” (Oli Imron 135)

عَنْ عِمْرَانَ بْنِ حُصَيْنٍ رضي الله عنه: أَنَّ امْرَأَةً مِنْ جُهَيْنَةَ أَتَتْ نَبِيَّ اللهِ ﷺ وَهِيَ حُبْلَى مِنَ الزِّنَا فَقَالَتْ: يَا نَبِيَّ اللهِ، أَصَبْتُ حَدًّا فَأَقِمْهُ عَلَيَّ. فَدَعَا نَبِيُّ اللهِ ﷺ وَلِيَّهَا فَقَالَ: «أَحْسِنْ إِلَيْهَا، فَإِذَا وَضَعَتْ فَائْتِنِي بِهَا». فَفَعَلَ، فَأَمَرَ بِهَا نَبِيُّ اللهِ ﷺ فَشُدَّتْ عَلَيْهَا ثِيَابُهَا، ثُمَّ أَمَرَ بِهَا فَرُجِمَتْ، ثُمَّ صَلَّى عَلَيْهَا. فَقَالَ لَهُ عُمَرُ: تُصَلِّي عَلَيْهَا يَا نَبِيَّ اللهِ وَقَدْ زَنَتْ؟ فَقَالَ: «لَقَدْ تَابَتْ تَوْبَةً لَوْ قُسِمَتْ بَيْنَ سَبْعِينَ مِنْ أَهْلِ الْمَدِينَةِ لَوَسِعَتْهُمْ، وَهَلْ وَجَدْتَ تَوْبَةً أَفْضَلَ مِنْ أَنْ جَادَتْ بِنَفْسِهَا لِلَّهِ تَعَالَى؟»

Juhayna qabilasidan homilador holda bir ayol Nabiy sollollohu alayhi va sallamga kelib dedi: “Ey Nabiyulloh, men katta gunoh qilib qo’ydim. Buni menga qoim qiling.” Shunda Nabiyulloh sollollohu alayhi va sallam uning valiysini chaqirdilar. Unga dedilar: “Unga yaxshi qara, agar tug’sa menga olib kelasan”. U shunday qildi. Shunda Nabiyulloh buyurdilar unga kiyimlari mahkamlandi. So’ngra buyurdilar toshbo’ron qilindi. So’ngra unga janoza o’qidilar. So’ngra Umar Nabiyullohga aytdi: “Ey Nabiyulloh unga janoza o’qiyapsizmi? Axir u zino qilganku.” Shunda Nabiyulloh dedilar: “U shunday tavba qildiki, agar ahli Madinadan 70 kishining orasiga taqsimlansa hammalarini qamrab olar edi. Alloh uchun jonini fido qilgandan ham afzalroq bir tavba topa olasanmi”

Katta gunoh qilinsa, albatta darhol tavba qilish kerak. Chunki kichik gunohlarga ham tavba qilinmasa, ular yig‘ilib yurakni qoraytiradi. Katta gunoh esa tavbasiz qolsa, odamni oxiratda halokatga olib boradi.

Ammo uni tavba bilan o‘chirsa, hatto avvalgidan ham afzalroq holatga qaytadi. Hadisdagi ayol bunga yorqin misol. U zino qildi, ammo qilmishida bardavom bo‘lmadi. U kibr bilan “bu odatiy narsa” deb qo‘ya qolmadi, balki chin dildan tavba qildi. Natijada uning tavbasi butun Madina ahliga yetarli darajada ulkan bo‘ldi.

Shuningdek, hadisdan ko‘rinadiki, gunohkorni sharmanda qilish, uni internetda tarqatish, uyaltirish shariatda man qilingan. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam hatto katta gunoh qilgan ayolni ham satr qildilar, kiyimini mahkamlatdilar, unga janoza o‘qidilar va uning tavbasini maqtab qo‘ydilar.

Demak, gunohkorga belgilangan jazodan oshirib zulm qilish mumkin emas. Shariatda belgilangan jazo ado etiladi, xolos. Undan tashqariga chiqib haqorat qilish, sharmanda qilish, inson sha’nini yerga urish – bu zulmdir va islomda qat’iyan man qilingan.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Zino haromdir. Ayol ham, erkak ham zino sababidan baloga uchraydi. Zino eng katta gunohlardandir – u oilalarni buzadi, kasalliklarni tarqatadi, farzandlarni nobud qiladi va jamiyatni fasodga olib boradi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi o‘ziga jazo qo‘llanishi uchun gunohini e’tirof etishi joiz. Lekin unga afzal yo‘l – satr bo‘lishi va tavba qilishi. Gunoh qilgandan keyin uni ommaga jar solishi shart emas. Chin dildan tavba qilib Allohdan so‘rasa, Alloh uni qiyomatga qoldirmasligi mumkin.

Uchinchi foyda: Homilador ayolga jazo qoim qilinmaydi, toki homilasini tug‘maguncha yoki bolani emizguncha. Chunki bolaning huquqi ham e’tiborga olinadi.

To‘rtinchi foyda: Nikoh ko‘rgan xotin zino qilsa, jazosi toshbo‘ron qilib o‘ldirishdir. Bu shariat hukmi bo‘lib, Qur’on va sunnatda qat’iy belgilangan.

Beshinchi foyda: Zino qilgan ayol toshbo‘ron qilinganda kiyimi bilan satr qilinadi. Chunki jon talvasasida qimirlash paytida avratlari ochilib qolmasligi uchun shariat uning satrini saqlashni ham qoida qilgan.

Oltinchi foyda: Islom odoblari gunohkorga Alloh taolo vojib qilganidan ortiq ozor berishni man qiladi. Belgilanganidan ortiq jazo berish zulmdir. Gunohkorga nafrat bilan emas, rahm va shafqat bilan yondashish kerak.

Yettinchi foyda: Zinokor ayolga ham janoza namozi o‘qish va unga rahmat tilash shariy amal. Faqatgina kofirga janoza o‘qilmaydi, musulmon bo‘lib gunoh qilgan odam esa tavba qilsa, unga duo qilish joizdir.

Sakkizinchi foyda: Kichik va katta gunohlarga tavba qilishning ahamiyati nihoyatda muhim. Hatto og‘ir gunoh qilgan inson ham tavba qilgan bo‘lsa, u maqtaladi va uning tavbasi qadrli bo‘ladi.

To‘qqizinchi foyda: Tavba – bir insondan boshqa insonga qarab farq qiladi. Kimning tavbasi qanchalik ixlos va chin dildan bo‘lsa, uning qadr-qimmati ham shuncha yuksak bo‘ladi. Shu bois tavbaning darajasi odamdan odamga qarab o‘zgaradi.

97-hadis

Zohir feling botinga dalil

Muallif shunday deydi: Zohiriy qilmishlaring va so‘zlaring – xulqing darajasiga va nafsing berkitgan narsaga dalildir.

Odam ichida qanchalik yashirishga urinmasin, baribir uning tashqi qilmishlari, gap-so‘zlari va yurish-turishi ichidagi narsalardan dalolat beradi. Bu xuddi isitmani yashirsang ham, issiqlik baribir tashqariga chiqib ketishiga o‘xshaydi.

Insonning gaplari, odatlari va qiliqlari uning qalbida nima yashirinayotganini ochib beradi. Shu sababli Alloh taolo Qur’onda munofiqlarni shunday ta’riflagan: “Ular so‘zlarni burib gapiradilar, siz ularni so‘zlaridan taniysiz.” (Muhammad surasi, 30-oyat)

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللهِ ﷺ: «لَوْ كَانَ رَاجِلًا أَحَدُكُمْ بِبَيْتِهِ لَرَجَمَتْ ثَلَاثَةً، فَقَدْ ظَهَرَ مِنْهَا الرَّحِمُ فِي مُضْطَجَعِهَا وَمُهْجَعِهَا، وَمَنْ يُدْخِلْ عَلَيْهَا»

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: “Agar men birovni dalilsiz toshbo‘ron qiladigan bo‘lganimda, falonchini qilgan bo‘lardim. Chunki uning gapida va yurish-turishida shubha zohir bo‘ldi. Oldiga kirib-chiqadigan kishilaridan ham shubha sezildi.”

Demak, insonning gaplari, odatlari va muomalalari uning asl xulqini ochib qo‘yadi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ham yuqoridagi hadisda bir ayol haqida shunday deganlar. U ayolga zino hukmini qo‘llash uchun shariatda zarur bo‘lgan qat’iy dalil topilmagan. Ammo Rosulullоh: “Agar dalilsiz qiladigan bo‘lsam, uni qilardim” dedilar. Chunki uning gaplarida, yurishida va oldiga kirib-chiqadigan kishilarida shubhali belgilar ko‘rinar edi. Bu insonning botinini yashirish qiyin bo‘lishiga yaqqol dalildir.

Lekin shariatda jazo faqat qat’iy isbot bilan qo‘llanadi. Odamni gap-so‘zi yoki yengil alomatlar asosida jazolab bo‘lmaydi. Shu bilan birga, bu uning xulqi yaxshi degani ham emas – jamiyat uni fasodga moyil, ishonchsiz, yomon xulqli inson sifatida tanib qoladi.

Shu bois Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam ham: “Agar dalil bo‘lsa qilardim” dedilar, ammo jazoni qo‘llamadilar. Chunki bu dunyoda dalilsiz jazo yo‘q. Lekin oxiratda – qiyomat kuni, bunday shubhali va yomon fe’llarning haqiqiy jazosi albatta bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Jazo dalilsiz qoim qilinmaydi. Shariatda jazoning sobit bo‘lishi uchun guvohlarning guvohligi, ayolning yoki erkakning o‘z iqrorlari yoki boshqa qat’iy dalil bo‘lishi shart. Gumon va shubha asosida hech kim jazolanmaydi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishining nutqi, hatti-harakati va oldiga kirib-chiqadigan kishilar alomatlardir. Insonning yurish-turishi, gap-so‘zi va munosabatlari uning asl xulqini oshkor qiladi. Shariatda bular jazo uchun yetarli bo‘lmasa-da, jamiyat oldida odamning asl yuzini ko‘rsatadigan belgilardir.

Uchinchi foyda: Ayol kishining ochiq-sochiq yurishi, begona erkaklarga aralashib yurishi, erkaklar bilan bemalol kirib-chiqishi — uning fosiqa ekanligiga ochiq dalildir. Bu uning fasodga moyilligini ko‘rsatadi, garchi zino hukman isbot qilinmagan bo‘lsa ham.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishining xunuk fe’llarga aralashib qolishi uning iffatsiz ekanligiga dalildir. Bu bizning ko‘zimiz oldida zino qilgani isbotlanmagan bo‘lsa ham, qilayotgan ishlari uning pok bo‘lmaganidan dalolat beradi.

Masalan, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritadigan ba’zi ayollar. Ularni hech kim aniq “zoniya” deb hukm qilmasa ham, erkaklar bilan ochiq aralashishi, o‘zini ko‘z-ko‘z qilishi, uyatsiz surat va videolarini tarqatishi sababidan uni “iffatsiz” deya ta’riflash mumkin.

98-hadis

Birovni kamsitmaslik

Muallif shunday deydi: Biror kishini haqorat qilma va o‘z nafsingni undan afzal deb bilma, xususan uning xilqatida.

Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam kibrni shunday ta’riflaganlar: “Kibr – bu haqni inkor qilish va odamlarni kamsitishdir.”

Shuning uchun birovni masxara qilish, uning kamchiligini boshqalarga ko‘rsatib kuldirish yoki uni taqlid qilib mazax qilish ham g‘iybatning bir turi hisoblanadi. Bu amallar insonning taqvosini yo‘q qiladi va oxiratda savoblarini barbod qiladi.

Shuningdek, birovlarni o‘zidan past deb bilish ham kibrdir. Bu xoh diniy jihatdan, xoh moddiy jihatdan bo‘lsa ham, insonning qalbidagi ulkan xatodir.

عَنْ عَائِشَةَ رضي الله عنها قَالَتْ: قُلْتُ لِلنَّبِيِّ ﷺ: حَسْبُكَ مِنْ صَفِيَّةَ كَذَا وَكَذَا - تَعْنِي قَصِيرَةً - فَقَالَ: «لَقَدْ قُلْتِ كَلِمَةً لَوْ مُزِجَتْ بِمَاءِ الْبَحْرِ لَمَزَجَتْهُ». قَالَتْ: وَحَكَيْتُ لَهُ إِنْسَانًا فَقَالَ: «مَا أُحِبُّ أَنِّي حَكَيْتُ إِنْسَانًا وَأَنَّ لِي كَذَا وَكَذَا»

Oisha roziyallohu anho aytadilar: “Men Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga: ‘Sofiyadan sizga pakana ekanligi kifoya-ku’, dedim. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam aytdilar: ‘Sen shunday bir gap gapirdingki, agar dengiz suviga aralashtirilsa, uni ham buzib yuborar edi.’

Men Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamga bir insonni hikoya qilib berdim. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam dedilar: ‘Menga falon-falon narsalar berilsa ham bir insonni hikoya qilishni istamayman.’”

Oisha onamiz Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamni rashk qilib, Sofiya onamizni pakana ekanliklarini aytib: “Nima qilasiz shu ayolni” deganlar. Bu — tabiiy insonga xos tuyg‘u: har bir erkak va ayolda rashk, g‘ayrat yoki nafsiy hissiyot bo‘ladi. Lekin shu hissiyot tildan chiqib ketsa, katta gunohga sabab bo‘lishi mumkin.

Oisha onamizda ham shunday holat yuz berdi: rashk sababli boshqa ayolni (Sofiya onamizni) pastroq so‘z bilan tilga oldilar. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam esa ularni qattiq ogohlantirib: “Agar dengizga aralashtirilsa, uni ham buzib yuborardi” dedilar.

Bu tashbehning ma’nosi juda chuqur: dengiz ulkan, toza, behisob suvga ega — odatda uni hech narsa iflos qilolmaydi. Lekin g‘iybat, masxara va kamsitish shu qadar og‘ir va sassiq gunohki, u hatto dengizni ham buzadigan kuchga ega.

Demak, inson birovni kamsitib gapirish, uning xilqati yoki qiyofasini masxara qilish orqali aslida kibrni ochib qo‘yadi. Kibr esa Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning ta’riflariga ko‘ra, odamni jannatdan mahrum qiladigan eng katta xatarli xulqlardan biridir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: G‘iybat qilish va mazax qilishning xatari. Hatto kundoshlar o‘rtasida rashk sababida yoki kulgi uchun bo‘lsa ham, g‘iybat hech qachon halol bo‘lmaydi.

Ikkinchi foyda: Odamlarning harakatlariga taqlid qilish ham g‘iybatning bir turi hisoblanadi. Insonning yurish-turishini, ovozini yoki odatini taqlid qilib, uni kulgi va masxara qilish g‘iybatga kiradi.

Uchinchi foyda: Odamlarning xilqatlarini kamsitish ham g‘iybat turlaridandir. Masalan, “pakanasan”, “semizsan”, “ko‘rimsizsan” kabi so‘zlar bilan odamni kamsitish — g‘iybat va kibr hisoblanadi. Faqat tanitish maqsadida (masalan: “u uzun bo‘yli odam”) aytilsa joiz, ammo kamsitish maqsadida aytilsa — haromdir.

To‘rtinchi foyda: G‘iybat sassiq narsa ekan. Agar u dengiz suviga aralashtirilsa, sassiqligidan dengizni buzib yuborar ekan. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam tashbehlarida aytganlaridek, u hatto dengizni ham buzadigan darajada sassiqdir. Bu uning naqadar og‘ir gunoh ekaniga dalildir.

Beshinchi foyda: Ayol kishining hayotini buzadigan, solih amallarini zoye qiladigan va oxiratda halok qiladigan eng katta illatlardan biri — ayollar o‘rtasida tarqalgan g‘iybatdir. Hadis va ulamolar ta’kidlaganidek, ko‘plab oilaviy muammolar, do‘stlikning buzilishi, hatto jamiyatdagi ijtimoiy muammolar ham g‘iybat sababidan kelib chiqadi.

Oltinchi foyda: Ayollar o‘rtasida rashk sababdan qilingan g‘iybat ham muboh bo‘lib qolmaydi. Kundoshlar yoki raqobat sababli aytiladigan gaplar ham shariatda harom bo‘lib qolaveradi, ularga ruxsat berilmagan.

Yettinchi foyda: Erkak kishi xotini g‘iybatga tushib qolganda uni nasihat bilan qaytarishi muhimdir. Agar ayol g‘iybat qilsa, er unga ogohlantirish berishi kerak. Baxtli ayol esa — nasihatni qabul qilib, g‘iybatni tashlagan ayoldir.

Sakkizinchi foyda: Ayol kishi nutqini muhofaza qilishga katta e’tibor berishi lozim, toki tili uni halok qilmasin. Inson butun umr solih amal qilib yursa ham, g‘iybat orqali o‘z savoblarini boshqalarga berib qo‘yishi mumkin. Oxiratda esa g‘iybat qilganlarning haqqini o‘z amallari bilan to‘lashga majbur bo‘ladi.

99-hadis

Ochlik va yolg‘onni jamlama

Muallif shunday deydi: Ochlik va yolg’onni jamlama.

Ya’ni inson bir narsaga ehtiyoj sezsa, lekin uni yashirish maqsadida yolg‘on gapirishi joiz emas. Masalan, bir odamga biror narsa zarur bo‘lsa, boshqasi unga: “Senga kerakmi, beraman” desa, u esa aslida ehtiyoji bor bo‘lsa-da, “Yo‘q, kerak emas” deb javob bersa — demak, u ham ehtiyojini yashirdi, ham yolg‘on gapirdi.

عَنْ أَسْمَاءَ بِنْتِ يَزِيدَ رضي الله عنها قَالَتْ: أُتِيَ النَّبِيُّ ﷺ بِطَعَامٍ فَعُرِضَ عَلَيْنَا، فَقُلْنَا: لَا نَشْتَهِيهِ، فَقَالَ: «لَا تَجْمَعْنَ جُوعًا وَكَذِبًا»

Asmo bintu Yazid roziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga bir taom keltirildi. U zot bizni ham dasturxonga taklif qildilar. Biz esa: ‘Bizning ishtahamiz yo‘q’ dedik. Shunda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: ‘Ochlik va yolg‘onni jamlamanglar.’”

Insonning ehtiyoji bo‘lsa, uni yolg‘on bilan bekitmasligi lozim. Masalan, ovqatda haqiqatda ishtaha bo‘lsa, ammo hijolat yoki odamlardan uyalib “kerakmas” desa — bu yolg‘on hisoblanadi. Er-xotin munosabatida ham shunday holat kuzatiladi: ayol erini yaxshi ko‘radi, aslida unga muhtoj, ammo janjal paytida “seni xohlamayman” deb turadi. Bu so‘z bilan u o‘zida bor ehtiyojni yolg‘on orqali inkor qiladi. Bu esa ehtiyoj bilan yolg‘onni jamlashdir. Nikoh masalasida ham ba’zi ayollar erga tegishni istaydi, ammo “menga er kerak emas” deydi. Aslida ehtiyoj bor, lekin kibr yoki sharaf saqlash uchun inkor qiladi. Bu ham yolg‘on hisoblanadi.

Shariatda esa yolg‘on — harom. Ehtiyojni yashirish mumkin, ammo uni yolg‘on bilan berkitish mumkin emas. To‘g‘ri yo‘li — sokinlik bilan sukut qilish yoki noziklik bilan ifoda etishdir.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Gapda rostgo‘ylikning ahamiyati. Oddiy muomalalarda ham hijolat yoki noz qilib yolg‘on gapirish joiz emas. Inson har doim rostini aytishi lozim.

Ikkinchi foyda: Yolg‘onning umumiy haromligi. Istisno qilingan vaziyatlardan tashqari (urushda hiyla, odamlar o‘rtasini yarashtirish, er-xotin orasida muhabbatni mustahkamlashda mubolag‘a) yolg‘on qattiq man qilingan.

Uchinchi foyda: Ayol kishiga istab turgan narsasi taklif qilinganda, agar u bosh tortsa, bu yolg‘on haromga olib keladi. Chunki ishtaha bor bo‘lsa-da, “kerak emas” deb rad etishi yolg‘on hisoblanadi.

To‘rtinchi foyda: Ayol kishi rag‘bat qilayotgan, o‘zi ham xohlab turgan halol narsasi taklif qilinsa, uni rad qilmasligi kerak. Rad etishi yolg‘onga olib boradi.

Beshinchi foyda: Ayol kishini ahli baytiga nafaqa qilishga targ‘ib qilinyapti. Chunki hadisda aytilishicha, Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam huzurlariga taom keltirilganida, ayollar ham o‘sha ne’matdan bahramand bo‘lishlari uchun taklif qilindilar.

Bu ahli baytlariga nafaqa qilayotganidan dalolatdir. Demak, inson o‘z mehnati evaziga topganidan atrofdagilarga ham ulashishi, ahli baytini unutmashi, saxovat va ehson qilishga undalmoqda. Chunki nafaqa — sadaqaning eng afzalidir. Avval oiladan boshlanadi, keyin qarindosh-urug‘, so‘ng qo‘ni-qo‘shni va muhtojlarga yoyiladi.

100-hadis

Yerda yurgan jannatiy bo'l

Muallif shunday deydi: Sen yerda yurgan holatingda jannat ahlidan bo‘lgin.

Inson shunday amallarni qiladiki, ular uni jannatga eltadi. Biz hech kim haqida qat’iy “falonchi jannatiy” deb guvohlik bera olmaymiz. Ammo Qur’on va hadislar ko‘rsatmalariga qarab, ba’zi amallarni qilgan insonlardan jannat umid qilamiz. Ana shu paytda u inson yer yuzida yurgan bo‘lsa-da, amali bilan jannat ahli qatoriga qo‘shilgan bo‘ladi.

Shunday amallardan biri — sabr. Har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr qilish. Qur’onda ko‘p joylarda Alloh taolo marhamat qiladi: “Sabr qilganlaringiz uchun jannatga kiringlar”. Demak, sabr — jannat kalitlaridan biridir. Sabr qilgan inson bu dunyodagi holida ham oxiratdagi maqomiga tayyorlanmoqda.

عَنْ عَطَاءٍ، عَنْ أَبِي رَبَاحٍ قَالَ: قَالَ لِي ابْنُ عَبَّاسٍ: أَلَا أُرِيكَ امْرَأَةً مِنْ أَهْلِ الْجَنَّةِ؟ قُلْتُ: بَلَى. قَالَ: هَذِهِ الْمَرْأَةُ السَّوْدَاءُ، أَتَتِ النَّبِيَّ ﷺ فَقَالَتْ: إِنِّي أُصْرَعُ، وَإِنِّي أَتَكَشَّفُ، فَادْعُ اللهَ لِي. قَالَ: «إِنْ شِئْتِ صَبَرْتِ وَلَكِ الْجَنَّةُ، وَإِنْ شِئْتِ دَعَوْتُ اللهَ أَنْ يُعَافِيَكِ». فَقَالَتْ: أَصْبِرُ. فَقَالَتْ: إِنِّي أَتَكَشَّفُ، فَادْعُ اللهَ لِي أَلَّا أَتَكَشَّفَ. فَدَعَا لَهَا.

Ato ibn Abu Robah dedi: “Menga ibn Abbos aytdi: “Jannat ahlidan bo‘lgan bir ayolni senga ko’rsataymi?. Men: “Ko’rsating, albatta” dedim. U: “Mana bu qora xotin” dedi. U ayol Nabiy sollollohu alayhi va sallamning oldiga kelib dedi: “Men tutqanoq kasaliga chalinganman. Tutqanog’im tutganda ustim ochilib ketadi. Allohga duo qiling, men tuzalib ketadi”

Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Agar xohlasang sabr qil, senga jannat bo‘ladi. Agar xohlasang, duo qilaman, Alloh shifo beradi.” U ayol dedi: “Men sabr qilaman, faqat ustim ochilib ketmasligi uchun duo qiling.” Shunda Rosulullоh sollallohu alayhi va sallam unga duo qildilar.”

Sabr jannatning kalitidir. Kasallikka, musibatlarga sabr qilgan banda Allohning fazlu marhamati ila jannatga kiradi. Hadisdagi qora tanli ayol ham og‘ir kasallikka chalingan edi, lekin uning uchun kasaldan ham og‘irroq tashvish — satrning ochilib qolishi edi. Shu sababli u sabrni tanladi, ammo ustining yopiq bo‘lishi uchun Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamdan duo so‘radi.

Shariatda davolanish joiz, balki ko‘p hollarda vojibdir. Ammo ba’zan davo imkonsiz bo‘lsa yoki foyda bermasa, sabr qilish afzal hisoblanadi. Chunki sabr — Allohga bo‘lgan tavakkul va rozilikning belgisi.

Bugungi kunda ham inson turli sinovlarga uchraydi: tuzalib bo‘lmaydigan dardlar, oilaviy mushkulliklar, farzand kasalligi, moliyaviy qiyinchiliklar. Bularning barchasida sabr qilsa, bu sabr uni jannatga eltuvchi yo‘llardan biri bo‘ladi.

Sabr esa qo‘l qovushtirib o‘tirish emas. Inson shariat buyurgan tarzda sabablarni qiladi — davo qidiradi, chora-tadbir ko‘radi. Lekin natijani Allohga topshiradi.

Afsuski, hozirgi davrda tibbiyot ko‘p hollarda tijoratga aylanib qolgan. Odam dori-darmonlarning quliga aylanib qolsa, bor mablag‘ini shunga sarflaydi. Shuning uchun hamma narsani davo qilish shart emas. Ba’zi narsalarda sabr qilish — eng ulug‘ davo. Chunki sabr evaziga Allohning roziligi va jannati nasib bo‘ladi.

Hadisga doir foydalar

Birinchi foyda: Ayol kishi solih kishidan duo so‘rashi joiz ekan. Bu uning ruhiy tayanchi va Allohga yaqinlashish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki solih kishining duosi barakali bo‘ladi.

Ikkinchi foyda: Ayol kishi kasal holida ham satrga haris bo‘lishi lozim. “Kasalman” deb shifokorga borib, hamma joyini ochib ko‘rsataverishi shart emas. Ayol har qanday holatda ham hayosini saqlashi, imkon qadar avratini yopishi kerak.

Uchinchi foyda: Baloga sabr qilish — agar insonning toqati yetsa, va uning oqibatida jon yoki a’zodan ayrilish xavfi bo‘lmasa, davolanishdan ham afzal bo‘ladi.

Baloga sabr qilish qachon afzal bo‘ladi? Qachonki inson o‘zining sabr-toqati bilan uni ko‘tara olsa. “Kasalman” deb hammaga shikoyat qilib, siqilib yotib olib, hech kimning haqqini ado qilmay yurganidan ko‘ra davolangani yaxshi.

Agar kasallik natijasida hayot uchun xavf tug‘ilsa, albatta davolanish lozim bo‘ladi. Chunki bu holat ba’zan insonning o‘zini o‘ldirishiga teng kelib qolishi mumkin. Yoki kasallik oqibatida biror a’zo halok bo‘lsa — masalan, odam shol bo‘lib qolsa, oyoqlari yurmay qolsa yoki ro‘za tutolmaydigan holga kelsa — bunday paytda ham davolanish farz bo‘ladi. Ammo yuqorida aytilgan holatlar bo‘lmasa, davolanishdan ko‘ra sabr qilish afzal sanaladi.

To‘rtinchi foyda: Kasallikka sabr qilishning mukofoti — jannatdir.
Bir hadisda muallif shunday deydi: Rosulullоh sollollohu alayhi va sallamning huzurlariga bir a’robiy keldi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam undan: “Seni boshing og‘riydimi?” — deb so‘radilar. A’robiy: “Nima u?” — dedi. Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Boshingda bir tomir lo‘qqillaydi, bosh og‘riydi”, — dedilar. Shunda a’robiy: “Yo‘q, hech boshim og‘rimagan”, — dedi. Keyin Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Senga isitma ham chiqadimi?” — dedilar. U esa: “Yo‘q, hech isitmam ham chiqmagan”, — deb javob berdi va ketdi. Shunda Rosulullоh sollollohu alayhi va sallam: “Kim do‘zax ahlidan bo‘lgan odamni ko‘rishni istasa, mana shu a’robijga qarasin”, — dedilar.

Ya’ni insonning hech qachon qiynalmasligi, kasal bo‘lmasligi do‘zaxiylik alomatidir. Alloh uning jannatini dunyoda berib qo‘ygan bo‘ladi. Aslida esa kasalliklar, og‘riqlar, isitmalar mo‘minning dunyodagi kafforati bo‘lib, ularni jannatga kirishga sabab bo‘ladi.

Jannat yoqimsiz narsalar bilan o‘ralgan, unga kirish oson emas. Albatta qiyinchiliklar bilan jannatga erishiladi. Kim qiyomatda, qabrda yoki jahannamda azob chekishni istamasa, u dunyoda azoblanib, sabr bilan sinovlardan o‘tib jannatga kirishi kerak. Bu sinovlar esa kasallik va turli imtihonlar orqali keladi.

Beshinchi foyda: Ayol kishiga alam yetganida uni sabrga tarbiyalash lozim. Chunki hayotda hamma narsani aylanib o‘tib bo‘lmaydi. Aksar vaziyatlarni sabr bilan yengib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

ٱلْحَمْدُ لِلّٰهِ ٱلَّذِي بِنِعْمَتِهِ تَتِمُّ ٱلصَّالِحَاتُ

سُبْحَانَكَ اللَّهُمَّ وَبِحَمْدِكَ، أَشْهَدُ أَنْ لَا إِلٰهَ إِلَّا أَنْتَ، أَسْتَغْفِرُكَ وَأَتُوبُ إِلَيْكَ

Barcha hamdlar Allohgaki, u zotning ne’mati bilan solih amallar mukammal bo‘ladi (yakun topadi). Allohning fazli bilan “Ayollarga oid 100 hadis” kitobini yakunladik.

Ey Allohim! Senga hamd aytib seni poklab yod etaman. Guvohlik beramanki, sendan o‘zga iloh yo‘q. Sendan mag‘firat so‘rayman va senga tavba qilaman.

Mundarija

Muqaddima.....3
Muallif va kitob haqida.....24
1-hadis: Ta'lim ayolning haqqi.....29
2-hadis: Shariatga taslim bo‘lish.....34
3-hadis: Sen eringni boshqarish uchun emas undan
er tug‘ish uchun yaratilgansan.....41
4-hadis: Erkakshoda bo'lishdan ehtiyot bo'lish.....46
5-hadis: Sen ahlingga ne'matsan, baloga aylanma.....49
6-hadis: Eng yaxshi ayol sifatlari.....52
7-hadis: Erkak saodati ayolda.....56
8-hadis: Erkaklarni do‘zaxga tiqma.....60
9-hadis: Ayol makonati.....64
10-hadis: Jamol va yoshlikni Allohni roziligida ishlat.....69
11-hadis: Nomahram bilan ko'rishma.....74
12-hadis: Erkak bilan xilvatda qolma.....81
13-hadis: Ziynat sabab Allohning g‘azabiga qolma.....86
14-hadis: Do‘zaxiy ayollar sifati.....91
15-hadis: Alloh bilan o'rtangdagi satrni saqla.....97
16-hadis: Ko‘ylagingni yerdan ko‘tarma.....101
17-hadis: Boldir va yuzni yopish.....104
18-hadis: Ko‘chaga atrlanib chiqish gunohi.....108
19-hadis: Uyning hushbo'yligi va ko‘chaning
hushbo'yligini ajratish.....112
20-hadis: Erkaklardan tortinmaslik satr zaifligiga dalil.....115
21-hadis: Shayton qo‘lida o‘yinchoq bo‘lma.....120
22-hadis: Cho‘milish joylari va umumiy
hammomlardan taqvo qilish.....124
23-hadis: Ko‘zni tiyish.....128

24-hadis: Hayo ilmdan to'smasin.....134
25-hadis: Poklikka e'tibor.....140
26-hadis: Hayz Allohning taqdiri va undan foydalanish.....143
27-hadis: Poklik va hayz ishonch ustiga quriladi.....150
28-hadis: Hayz va janobatdan g'usl.....155
29-hadis: Poklik va hayz alomatlarini ajratish.....160
30-hadis: G‘uslda ayolga shariat yengilligi.....163
31-hadis: Qiz va o'g'il bola ahkomlari farqli.....166
32-hadis: Uydagi namoz masjiddagidan afzal.....170
33-hadis: Erkaklar nafasidan uzoq tur.....173
34-hadis: Ovoz bilan fitna qilma.....178
35-hadis: Erni hurmat qilish alomati undan
ruxsat so‘rab ish qilish.....181
36-hadis: Hayid namoziga qatnashish.....184
37-hadis: Taqinchoqlar zakoti.....189
38-hadis: Nafs saxovati bilan sadaqa qilish.....191
39-hadis: Pishirgan ovqatdan sadaqa qilish.....194
40-hadis: Qo‘shnichilik aloqalari.....197
41-hadis: Ibodatlarda erni rioyasini qilish.....199
42-hadis: E'tikofdan nasiba olish.....203
43-hadis: Nafl ibodatlar bilan nuqsonni to'ldirish.....206
44-hadis: Eng afzal amallarga haris bo'lish.....210
45-hadis: Hatto ehromda (nomahramdan) yuzni yopish.....214
46-hadis: Ibodatdan oldin fiqhini o‘rganish.....218
47-hadis: Haj va umrada bozorlarni emas ka'bani aylanish....220
48-hadis: Tavofda erkaklarga qorishmaslik.....223
49-hadis: O‘rnida ruxsat o‘rnida qat'iy hukmni olish.....227
50-hadis: Mahramsiz safar qilmaslik.....230
51-hadis: Shariat qonunlari ayol ehtiyojiga munosibligi.....239

52-hadis: Erkak ayol tengligi da'vosiga aldanma.....242
53-hadis: Islom ahkomlari hamma holatni qamraydi.....247
54-hadis: Zohir jamolingni qancha tuzatsang
ham faqat botin jamoling foyda beradi.....251
55-hadis: Allohning hududlarida to‘xtash iymondan.....256
56-hadis: Musibatda o‘zini tuta bilish.....261
57-hadis: Jazo qattiqligi zarar qattiqligidan.....265
58-hadis: Ayollarga qaytariq ko‘pligi.....272
59-hadis: Qalb islohi bilan mashg‘ul bo'l,
qalbni mashg‘ul qiladigan bilan emas.....276
60-hadis: Qalb xotirjamligi qadarga iymonda.....280
61-hadis: Nikohda qiz roziligi kafolatlangan huquq.....286
62-hadis: Tilla kumushdan-da qimmat bo'l.....290
63-hadis: Eringda din va xulq bo'lsa yetarli.....295
64-hadis: Turmush qarori mas'uliyati valiylarda.....302
65-hadis: To‘ylarda haddan oshmaslik.....305
66-hadis: Er-xotinlik aloqalari najosat emas.....308
67-hadis: Erni tinchlantir, tinchini buzma.....311
68-hadis: Samo ahli qarg‘ishiga qolma.....316
69-hadis: Baxtli ayol erining makonatini bilgan ayol.....319
70-hadis: Erga dinda yordamchi bo'l.....323
71-hadis: Erga begona ayollarni gapirmaslik.....327
72-hadis: Shaytonga yordamchi bo‘lma.....332
73-hadis: Er muhabbatini qozonish.....335
74-hadis: Erni rozi qilish haromni muboh qilmaydi.....338
75-hadis: Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi.....341
76-hadis: Haqni talab qilishdan oldin haqni ber.....348
77-hadis: Barcha uylar muhabbat ustiga qoim bo‘lavermaydi.353
78-hadis: Erdan ayrilishdan emas iymondan
ayrilishdan qo‘rq.....357

79-hadis: Talabchanlikni to'g'ri yo'naltirish.....361
80-hadis: Uyning mas'uliyatini zoyi qilmaslik.....365
81-hadis: Zikrdan kuch olish.....369
82-hadis: Sunnatga kifoyalanib bid'atlardan chetlanish.....373
83-hadis: Islom huquqlarni saqlaydi.....376
84-hadis: Farzand so‘zing bilan emas feling
bilan tarbiyalanadi.....380
85-hadis: Zurriyoting dunyo va oxiratda rizq va ajr masdari....383
86-hadis: Qiz farzandni ziynatga o'rgatish.....386
87-hadis: Farzandlarga nafaqa qilishda ajr borligi.....389
88-hadis: Shayton er-xotin orasini ajratishga harisligi.....391
89-hadis: Ijaraga olingan taka.....395
90-hadis: Haromga hiyla qilish uni halol qilmaydi.....398
91-hadis: Ayolga ajralish huquqi.....402
92-hadis: Jannatning hidini ham hidlamaydigan ayollar.....405
93-hadis: Nifoqdan ehtiyot bo‘lish.....408
94-hadis: Kasbidan yaxshilikka foydalanish.....411
95-hadis: Qo‘shiqchi jamiyatni halok qiladi.....414
96-hadis: Gunohda kibr qilmasdan tavba qil.....417
97-hadis: Zohir feling botinga dalil.....421
98-hadis: Birovni kamsitmaslik.....424
99-hadis: Ochlik va yolg‘onni jamlama.....428
100-hadis: Yerda yurgan jannatiy bo'l.....431

“Zaytun nashriyoti”da chop etilgan kitoblar







Ayollarga oid 100 hadis

Kitob:	Ayollarga oid 100 hadis
Nashriyot:	Zaytun nashriyoti
Sahifa soni:	442 bet
Nashr:	Birinchi
Vaqt:	2025 (1447)-yil
Hadislarni to’plovchi:	Odil ibn Hasan Al-Hamd
Sharhlovchi:	Abu Yahyo
Dizayner:	Abu Yusuf
Muharrir:	Abu Yahyo, Abdurahmon Kaatib

YERDA YURGAN JANNATIY BO'L



Bu hadis to'plami ayollarga xos dinimiz ta'limotlarini o'z ichiga oladi. Unda ayol-qizlarning hayotida uchraydigan turli dolzarb masalalar tilga olinadi. Ibodatlar, oilaviy munosabatlar, axloq-odob mavzularidan tortib eng zaruriy ahkomlar haqida so'z boradi. E'tiboringizga havola qilinayotgan bu kitobda ayollarga doir qirq hadisning arabcha matni, matnning o'zbekcha tarjimasi va hadislarning qisqacha sharhi berilgan. Ushbu muborak to'plam har bir ayolning qo'lida bo'lishi, uni o'qib o'rganishlari, ajridan umidvor bo'lgan holda arabcha matnini yod olishlari, ma'nosini chuqur anglab, hayotlariga tatbiq qilishlari lozim.

Abu Yahyo

ZAYTUN NASHRIYOTI